Shu sababdan ta’limning o’qituvchi-darslik-talaba paradigmasi talaba-darslik-o’qituvchi paradigmasi bilan o’rin almashishi zarurdir. Zamonaviy pedagog kadrlar yangi statusga ega bo’lib, uning vazifasi eng avvalo talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etishga, bilimlarni mustaqil egallashga va ularni amaliyotda qo’llash malakalarini shakllantirishga qaratilmo’fi lozim.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish jarayonida o’qituvchi o’qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlashi kerakki, ular talabalarga tayyor bilimlarni o’zlashtirishigagina yordam berib qolmasdan, ayni paytda, ularda bilimlarni turli manbalardan mustaqil ravishda o’zlashtirish, shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi, uni asoslashi, erishilgan bilimlardan yangi bilimlar olishda foydalanish malakalariga ega bo’lisqlariga ham vosita bo’lishi lozim. Bunday o’qitishni rivojlanuvchi ham deyish mumkin. Shakl va mazmunning rang-barangligi talabaning qiziqishi, imkoniyati va shaxsiy xususiyatidan kelib chiqib, taklif etilayotgan hollardan tanlash imkoniyatini beradi. Bunday imkoniyat ta’lim tizimida ham o’z aksini topishi zarur. Ko’p satqli o’qitish mazkur muammoning echimi bo’la oladi deyish mumkin.

Bilamizki axborot himoyasini amalga oshirish usullariga quyidagilar kiradi:

- huquqiy;
- ma’naviy-etik;
- texnologik;
- tashkiliy;
- fizik;
- texnik (qurilmaviy va dasturiy) turlarga bo’linadi.[1]

Xulosa qilib aytganda, Oliy ta’limni modernizatsiyalashning strategik jihatlaridan biri, ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish uchun bo’lajak o’qituvchilarda axborot xavfsizligini ta’minlash, axborot kompetentligini rivojlantirish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Bo’lajak o’qituvchilarda axborot xavfsizligini ta’minlashda quyidagi vazifalar ijrosini ta’minlashga e’tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz.

- bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-mutaxassislik tayyorgarligiga zamonaviy talablar va o'qituvchining professional malakasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida axborot xavfsizlik ko'nikmalarini, shu bilan birga, bo'lajak o'qituvchilarning axborot kompetentligini oshirishning aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayonlarni tashkil etish;

- yangi axborot texnologiyalari sohasidagi taraqqiyot, ularning didaktik imkoniyatlari kengayib borayotganligi va o'qituvchilarni ta'lim jarayonida ularni to'g'ri yo'naltirish;

- talabalarni taqiqlangan axborot mavjud bo'lgan Internet tarmoqi axborot resurslarini tahlil qila olish madaniyatini tarkib toptirishga erishish.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Абдуллаев Ф.А. Олий таълим муассасасини бошқаришда ахборот хизмати тизимини такомиллаштириш. (Педагогика олий таълим муассасалари мисолида) Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. Тошкент 2020

2. Ахборот хавфсизлиги асослари: Маърузалар курса/Физика математика фанлари номзоди, И.М.Каримовнинг умумий тахрири остида. Т.: -Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2013 -131 б.

3. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти. //Пед. фан. док. дисс. – Т.: 2007.- 305 б

4. Зайцева О.Б. Формирование информационной компетентности будущих учителей средствами инновационных: Дис. ... канд. пед. наук/ О.Б.Зайцева.- Армавир, 2002.- 169 С.

5. Злотникова И.Я. Формирование информационной компетентности будущего учителя-предметника в педагогическом вузе / И.Я.Злотникова// Педагогическая информатика.- 2004.- № 1.- С. 40-44

6. <https://www.google.com/search>

7. <https://www.uznature.uz/yz/site/page?numer=1181>

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IKKINCHI RUS TILINI O'RGATISH TEXNOLOGIYASI

*Aleuova Rayxan Sharibaevna,
Ajiniyoz nomidagi NDPI Msktabgacha talim kafedrasi dotsenti*

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ikkinchi til rus tilini o'rgatishga oid texnologiyalar xususida so'z boradi. Dunyo olimlari 10 yoshgacha bo'lgan davrda bola boshqa qardosh tillarni oson o'zlashtirishishi bo'yicha yakdil fikr bildirgan. Bu davrda bola tillarni tushunib emas balki mexanik tarzda o'rganadi, shuning uchun qardosh tilni qollanilishi va talaffuzi oson o'zlashtiriladi. Ammo shunday bo'lsada bolaning har qanday tilning tovusqlarini taqlid qilish qobiliyati bilan tug'ilishini hisobga olsak bu jarayonni ertaroq bosqlashni afzalligini qo'llab-quvvatlovchilar ko'pchilikni tashkil qiladi. Inson miyasini o'rganilishi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida, chaqaloq tug'ilgandan to uch yoshgacha bo'lgan davri uning rivojlanishida eng muhim davrligi isbotlangan

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida ikkinchi tilni o'qitishni bosqlang'ish bosqishdan bosqlashga alohida yetibor qaratilmoqda. Qardosh o'zga tillarni bosqlang'ish maktabdan bosqlab o'qitishni yo'lga qo'ygan ilk davlatlar — Daniya (1958 y.), Shvetsiya (1962 y.), Finlyandiya (1970 y.) va Islandiyadir (1973 y.). Ta'lim sohasida amalga oshirilgan reformalardan (1980 –1990 y.) so'ng bosqlang'ish maktablarda chet tilini o'qitish majburiy ta'sis etilgan. Yevropa ittifoqiga a'zo ko'pgina davlatlar tillarni ilk bosqishda o'qitish dasturini isqlab chiqqanlar va amaliyotga keng tadbiiq qilganlar. Yevropa mamlakatlarida bosqlang'ish maktab dasturiga shet tili fanini joriy qilishda (5-6 yoshdan 10-11 yoshgacha bolalar) o'qituvchilar Yevropa Ittifoqining “Language learning for Yeuropean sitizenchir” doirasida isqlab chiqilgan tavsiyalarga amal qiladilar va natijada erta yoshda qardosh chet tilini o'qitish bo'yisha Yevropa davlatlari ko'pgina yutuqlarga erishmoqdalar. Bundan shu narsa ayon bo'ladiki, jahonda bolalarning ilk yosh davridan qardosh tillarni o'rgatish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuning ushun ham maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ikkinchi va boshqa chet tillarini o'rgatishga alohida ye'tibor qaratilmoqda. Zero, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning birinshi qadami bo'libgina qolmay, balki faol, ijodkor va ma'naviy jihatdan boy shaxsni shakllantiruvshi ilk prog'ona hamdir. Shuning ushun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya jarayonini yuqori saviyada tashkil etish, tarbiyalanuvsilarga ta'limning keyingi bosqisqlarida qiynalmasdan muvaffaqiyatga erishisqlarida imkoniyat yaratish zarur. Shu boisdan ham so'nggi yillarda maktabgacha yoshdagi bolalarga rus tili ta'limining mazmunida izshillik va uzviylikni ta'minlash, ta'lim turlarida rus tilini o'qitishning yangi metodlarini isqlab shiqish, mashg'ulotlarda ilg'or pedagogik texnologiyalar, komryuter texnologiyalarini qo'llash va darsni didaktik loyihalashtirish kabi muammolarga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog va metodistlarining pedagogik faoliyatida bolalarga ikkinchi tilni o'gatish faoliyatini tizimli tashkil etish, bolalarga qardosh tillarni o'rgatishni innovatsion metodikalaridan to'g'ri foydalanish borasida qator isqlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda maktabgacha ta'limning isloh qilinishi, uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim bo'g'ini sifatida e'tirof etilishi, qolaversa, maktabgacha ta'lim tashkilotining “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi asosida bolaning kommunikativ, ijtimoiy, bilish kompetensiyalarini shakllantirish vazifasining qo'yilishi bu tizim uchun mo'ljallangan qardosh tillarni o'rgatish, o'stirish vositalari - lug'atlar, leksik minimumlar, qo'shimcha axborot manbalariga bo'lgan talabni oshirmoqda. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi bo'yisha yetarlicha asoslangan uslubiy qo'llanmalarning yo'qligi, mashg'ulotlar jarayonida o'tkaziladigan o'yin va didaktik vositalarning o'rni mavhumligi, ikkinchi tilni o'rganishda turli innovatsion

mashg'ulotlarni tashkil qilishga qo'yiladigan talablarning isqlab shiqilmaganligi maktabgacha ta'lim tashkilotida ikkinchi til rus tilini o'rgatish metodikasini takomillashtirish zaruriyatini belgilaydi. Vaholanki, Buxoroda O'zbekistonning 300.000ga yaqin aholisi bo'lgan tarixiy shaharlaridan biri bo'lib, ko'p millatli, ko'p madaniyatli va ko'p tilli shahar - o'zbeklar bilan birga boshqa millat vakillari ham istiqomat qiladi.

O'yin - bu ham tashkil etish shakli, ham bolalar ma'lum miqdorda to'planadigan darslarni o'tkazish usuli o'rgatiladigan ikkinchi tilda so'z boyligi, ko'plab she'rlar, qo'shiqlar, qofiyalarni sanash va boshqalarni o'rganish. Ikkinchi tilni o'qitishda o'ynash ta'lim faoliyatiga zid emas, balki u bilan organik ravishda bog'liqdir. O'yin metodikasi xayoliy vaziyatni yaratishga va bola yoki o'qituvchi tomonidan ma'lum bir rolni qabul qilishga asoslangan. Ikkinchi tilda darslar bolalarga o'yinlar orqali sezgi a'zolarini individual isqlatgan holada:(visual) korish, (auditory) eshitish, (write) yozish, (read) o'qib berish va (kinaesthetic) amalda xatti harakatlar orqali ijro qilish bilan amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limda ingliz tilini o'rganish "Shexter" usuli "nazariydan amaliyotga" klassik modelga emas, balki teskari, tabiiyroq idrok tizimiga asoslanadi. Bunda bolalarga ona tilimizni o'rgatishimiz juda qulay. Yosh bolalar qanday gapirishni bilmaydilar tarbiyachilar tomonidan kerakli jumlar va nutq qismlarini qurish qoidalarini tushuntirilib didaktik oyinlar orqali rus tilini zamonaviy usullarda o'tkazadi. Ikkinchi tilning ushbu texnikasi uch bosqichdan iborat: birinchisida so'zlar va iboralar, ikkinchisi va uchinchi bosqichda Grammatik va sintaktik tuzilmalaridan foydalanish samaradorligi pedagog psixologlar nuqtai nazaridan enf muvaffaqiyatlilardan biri hisoblanadi. Bu usulning boshidanoq bolalar bilan rus tilida isqlashning ma'lum bir uslubini rivojlantirish, muloqotning eng odatiy holatlariga mos keladigan so'zlardan joriy etish kerak. Bunday so'zlar (salomlashish, xayrlashish, qisqa mashqlar, rus tilida qabul qilingan xushmuomalalik formulalaridan foydalanish) bolalarga chet tili aloqasini o'rnatishga imkon beradi, rus tiliga o'tishni osonlashtiradi, bolalarga dars bosqlanganligini, endi darsning ma'lum bir bosqichi o'tishini ko'rsatadi. Metodning muvaffaqiyatli bo'lishining eng muhim sharti bolalarning nutq-fikrlash faoliyatini faollashtirish va ularni chet tili muloqotiga jalb qilishdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga rus tilini o'rgatishning o'ziga xos xususiyati shundaki, u shunchaki stolda o'tirib, kitob va daftarlarni varaqlamaydi. Jarayon zerikarli bo'lmasligi kerak va bolalar o'zlari bilimiga intilisqlari kerak. Bolalar aniq o'ylashadi, hamma narsani so'zma-so'z qabul qiladilar, gapirishadi. Ta'lim shakllari iloji boricha ko'proq leksik birliklarni o'zlashtirishga emas, balki mavzuga qiziqishni tarbiyalashga, bolaning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga va o'z fikrlarini ifoda etishga qodir bo'lishi kerak. Bolalarning rus tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganisqlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin.

Aqliy va jismoniy harakatlar bilan bo'g'liq bo'lgan o'yinlar, multfilmlar. Bolalar til o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunma-sada, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular isqlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganisqlari uchun samarali yo'l.

- rol ijro etish (role play) o'qituvchi biror ma'lumotni, masalan, hayvon yoki qusqlarning nomlarini o'rgatayotgan paytda rol orqali ijro etishi yoki bolalarga ijro ettirishi lozim. Misol uchun: bir o'quvchi itning vovillashi, mushukning miyovlashini ko'rsatib bersa, boshqa bir o'quvchi bu tovusqlar qaysi hayvonga tegisqli ekanligini bilib, uning ruscha nomini aytishi zarur.

-mavzuga oid muhit; O'qituvchi mavzusiga qarab o'sha muhitni yaratib bera olsa, bolalar tilni yaxshi o'rganishadi. Masalan: -imo-ishoralar, yuz ifodalari orqali; O'qituvchi bolaga biror gapni gapirganda yoki buyruq berganda, masalan, bu yoqqa kel, kitobni och, turing, doskaga qarang kabi gaplarda imo- ishoralardan foydalansa bolaga tushunarli bo'ladi.

-topishmoqlar; Bolalarda topishmoqlarning javobini topishga qiziqish kucqli. Shuning uchun o'qituvchi topishmoqni rus yoki o'zbek tilida aytsada, uning javobini bolalardan rus tilida aytishini talab qilishi lozim. Shunda bolalar so'zlarni tez o'rganishadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tilni o'rgatish ko'proq madaniyatli shaxsni shakillantirishga qaratilgan bo'lib yangi bilimlarni tizimlashtirilgan innovatsion usullar orqali bolalarga yetqazib berish maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga qardosh tillarni o'rgatishda yoshiga mos ijodiy va didaktik oyinlar va ochiq mashg'ulotlar bilan ularning shaxsiy kamolotini zamonaviy usullar asosida shakillantirish. Ta'limda har bir mashg'ulotning yangicha axborot texnologiyalari va kompyuter qurilmalaridan muvaffaqiyatli foydalanish, ko'rgazmali materiallardan bolalar uchun foydali maxsulotlarni tadbiq qilish va natijasini mustahkamlash.

Didaktik o'yin, multimedia vositalari, sahnalashtirilgan mashg'ulotlar maktabgacha yoshdagi bolalarning rus tilidagi muloqotni o'rgatishning yeng mos usuli hisoblanadi. Bu bolalarning qiziqishi va faolligini uyg'otishi va ular ushun qiziqarli bo'lgan mashg'ulotlarda o'zini namoyon qilish imkoniyatini berishi, yangi bilimlarni tezroq va mustahkamroq o'zlashtirishga yordam berishi bilan shet tilidagi muloqotni amalga oshirishda til ko'nikmalarini va nutq qobiliyatlarini shakllantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi til rus tilini o'rgatishning metodik jihatlarining o'ziga xosliklari mavjud. Bunda quyidagi qoidalarga amal qilish tavsiya yetiladi:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot va axborot almashish vositasi sifatida ingliz tilini o'rganishga barqaror qiziqishni rivojlantirish.
2. Bolalarni rivojlanish darajasiga mos keladigan lug'at bilan tanishtirish.
3. Rus tilini oson o'rgatishga mo'ljallangan o'yinlar va didaktik vositalar orqali ta'limiy muhit yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari to'g'risida" 2018 yil 18 iyundagi 1-sonli buyrug'i
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2020- yil 27- martdagi 54-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Ilm yo'li" variativ dasturi (6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi 2021-2022-yillarda yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va "Workout" sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5282-son Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni //O'RQ-637-son. 23.09.2020.
5. "Bolangiz maktabga tayyormi?" O'z.Res. Xalq ta'limi vazirligi Respublika ta'lim markazi, Ma'rifat-Madadkor nashriyoti. 187 s.

BOSQLANG'ICH SINFLARDA TO'G'RI TALAFFUZ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLARI

*Atamurodova Gulnora Shermurodovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil
tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Maqolada bosqlang'ich sinf o'quvchilariga unli tovusqlar talaffuzini o'rgatish bilan bog'liq muammolar va ularning yechimiga doir taklif va mulohazalar bayon qilingan. Shuningdek, ona tili va o'qish savodxonligi mashg'ulotlarida matndagi so'zlar asosida to'g'ri talaffuzga o'rgatish masalasi ham tadqiq etilishiga oid gipotезalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: tovush, talaffuz, mashq, bosqlang'ich ta'lim, talaffuz shakli, namuna, to'g'ri talaffuz, ona tili, o'qish savodxonligi

УЧЕБНЫЕ ЗАДАНИЯ, РАЗВИВАЮЩИЕ НАВЫКИ ПРАВИЛЬНОГО ПРОИЗНОШЕНИЯ В НАЧАЛНЫХ КЛАССАХ

*Атамуродова Гулнара Шермуродовна,
независимый исследователь Ташкентского государственного университета
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои*

Аннотация. В статье изложены проблемы, связанные с обучением младших школьников произношению гласных звуков, а также предложения и соображения по их решению. Выдвигались также гипотезы о том, что на занятиях по родному языку и грамотности чтения также исследуется вопрос обучения правильному произношению на основе слов в тексте.

Ключевые слова: звук, произношение, упражнение, начальное образование, форма произношения, образец, правильное произношение, родной язык, грамотность чтения

EDUCATIONAL TASKS THAT DEVELOP THE SKILLS OF CORRECT PRONUNCIATION IN ELEMENTARY GRADES

*Atamurodova Gulnara Shermurodovna,
independent researcher at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature
named after Alisher Navoi*

Annotation. The article describes the problems associated with teaching younger schoolchildren the pronunciation of vowel sounds, as well as suggestions and considerations for their solution. It has also been hypothesized that classes on native language and reading literacy also explore the issue of teaching correct pronunciation based on words in the text.

Keywords: sound, pronunciation, exercise, primary education, pronunciation form, pattern, correct pronunciation, native language, reading literacy

Kirish. Bosqlang'ich sinflarda o'quvchilar ona tilida zarur nutqiy ko'nikmalarni egallay bosqalaydi, biroq mazkur bosqichda maktablarda talaffuz mashqlari ustida isqlashga e'tibor qaratilmaydi. Natijada yuqori sinflarga kelganda ham o'quvchilar o'z ona tilidagi ayrim tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz qila olmaydi. Bu, albatta, imloga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Adabiyotlar taqlili va metodologiya. Bosqlang'ich ta'limda adabiy talaffuzga o'rgatish, keying sinf va bosqicqlardagiga qaraganda samaraliroq bo'ladi. Ravon va ta'sirchan nutq uchun o'quvchida zarur so'z boyligi bo'lishi kerak. G'.Hamroyev ta'kidlagani kabi "Uzluksiz ravishda turli ibratli matnlarni yodlatish orqali so'z boyligini oshirib borish zarur." [1;B.54-55.]

O'quvchilarda nutq so'zlash ko'nikmasi shakllanishi uchun ularda zarur so'z boyligi bo'lishi

zarur, qolaversa, mashq jarayoni ham to'g'ri tashkil etilgan bo'lishi kerak. O'. Usmonova bu masalani hal qilishdagi qiyinchiliklarga shevalarni sabab qilib ko'rsatadi[2;B.42.]. Tadiqotchi talaffuz masalasi o'zbek tilida o'rganilmasdan kelinayotganligini ta'kidlaydi va bu borada o'z ishida adabiy talaffuz me'yorlarini belgilash isqlariga birinchi bo'lib qo'lgan olim F.K.Kamolov hamda professor S.I.Ibrohimovlarning qimmatli fikrlariga tayanadi. G'.Hamroevning ta'kidlashiga ko'ra, «ona tili» darsliklarida to'g'ri talaffuz va imlo me'yorlarini ko'nikma sifatida shakllantirish borasida ko'plab mashqlar, turli tushuntirishlar beriladi. Ammo nutqiy faoliyat davomida ayrim nutq tovusqlarining adabiy talaffuzi va imlosini o'quvchiga o'rgatish qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaraveradi[1;B.52-53.]

Bu borada H.Ne'matovning quyidagi fikrlari hozir ham ona tili ta'limi uchun ahamiyatli: «Asrlar davomida insoniyat tomonidan to'plangan barcha til ilmini o'rta maktab o'quvchisiga o'rgatishning iloji va zarurati yo'q. Demak, ona tilidan eng zarur bilimlarni tanlash asosiy masalalardan biridir.

Ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh mezoni uning foydalilik va amalda qo'llanila olish darajasidir. Biz ona tilidan foydali bilimlar deb bolalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, uni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash va rivojlantirishni ta'minlaydigan bilimlarni tushunamiz». [3;B.13-16.]

Muhokama. Ona tili ta'limida, xususan, to'g'ri talaffuz o'qitishda adabiy til to'g'ri talaffuziga sheva to'g'ri talaffuzsining ta'siri masalasi hal etilishi zarur bo'lgan asosiy muammo sifatida turibdi. Mahalliy tilda unlining 9 xil talaffuz varianti mavjud. Ona tili o'qituvchilarining aksariyati buni farqlamaydi. Aslida o'qituvchi qat'iy tarzda adabiy tilda dars o'tishi lozim. Darsliklarda bu jihat e'tiborga olinishi kerak.

«Ona tili» darsliklarida [i] unlisining talaffuzi va imlosiga doir muhim ma'lumotlar berilgan bo'lsa-da, to'g'ri talaffuz o'qitish jarayonida ayrim munozaralar paydo bo'lmoqda. O'zbek tilida [i] rus tilidagi kabi talaffuz qilinmaydi. Shu o'rinda tovusqlarni ifoda etuvchi harflarning talaffuzi va nomlanishini o'zaro farqlash lozim. Jumladan, [o'] va [u] unllarini o'qitishda ham muammolar mavjud.

1-mashq. Bosqlang'ich sinflarda unli tovusqlarni to'g'ri talaffuz qilish mashqi. Har bir so'z ishtirokida gaplar tuzing.

Bosqlang'ich sinf dastur va darsliklarida to'g'ri talaffuzga doir o'quv materiallari mazmuni taqlil qilinganda quyidagilar ma'lum bo'ldi:

1-sinfda «Tovusqlar va harflar» mavzusi berilgan bo'lib, unga jami 28 soat vaqt ajratilgan. Chunonchi:

Tovusqlar va harflar. Unli tovusqlar va harflar; a va o, i va u, o va o' unllarning talaffuzi va imlosi. Undosh tovusqlar va ularni ifodalovchi harflar. Ayrim undosh tovusqlarning talaffuzi va imlosi (d-t, b-p, z-s undosqlarining talaffuzi va imlosi), so'z oxirida, talaffuzda tushib qoladigan d, t undosqlari. Harf birikmalari: sh, ch, ng. Alifbo: Harflarning nomi. Harflarning bosh va kichik shakllari. So'zlarni alifbo tartibida yozish. Alifboning ahamiyati.

Tutuq belgisi ('), uni so'z tarkibida to'g'ri shakllantirish. Tutuq belgisining so'zdagi vazifasi: o'zidan oldingi unlining cho'ziq aytilishiga, oldingi bo'g'inni keyingi bo'g'indan ajratib talaffuz qilinishiga xizmat qilishi, so'z ma'nolarini farqlashi.

Bo'g'in. So'zlarni bo'g'inga bo'lish. Bo'g'in ko'chirilishi, bir unlidan iborat bo'g'inli so'zlarning bo'g'inlab ko'chirilishi, tutuq belgili so'zlarni, ketma – ket kelgan bir xil undosqli so'zlarni bir yo'ldan keyingi yo'lga bo'g'inlab ko'chirish. Harf birikmasi (sh, ch, ng) qatnashgan so'zlarning bir yo'ldan ikkinchi yo'lga ko'chirilishi kabilar berilgan.

2-sinfda birinchi sinfda o'tilganlar yuzasidan (6 soat) takrorlashdan so'ng to'g'ri talaffuzga 50 soat vaqt ajratilib, unda quyidagi mavzular qamrab olingan:

Unli va undosh tovusqlar, ularning bir-biridan farqi. Tovusqlarni harflar bilan belgilash.

Unli tovusqlar va harflar. O'zbek tilidagi olti unli tovushning olti unli harf bilan belgilash. [a] va [o], [u] va [i], [e], [o'] unli tovusqlarining talaffuzi va undosh tovusqlar portlovchi f va p, h va x hamda harf birikmasi bilan ifodalangan ng tovushining talaffuzi va imlosi. Tutuq belgisi (') va uning isqlatilishi, tutuq belgisining so'zdaigi vazifasi kabilar.

“Bo'g'in” mavzusiga doir quyidagi ma'lumotlar berilgan. So'zning oldingi satrga sig'may qolgan qismini keyingi satrga bo'g'inlab ko'chirish. So'zda nechta unli tovush bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'lishi. Bo'g'in tarkibi unli tovushdan, bir unli va bir undosh tovushdan, bir unli va bir necha undosh tovushdan tuzilishi kabilar.

“Bo'g'in ko'chirish”ga alohida e'tibor berilgan. So'zning bir yo'ldan keyingi yo'lga bo'g'inlab ko'chirilishi. Bo'g'in hosil qilgan bir unli harfni oldingi yo'lda qoldirib yoki keyingi yo'lga ko'chirib bo'lmasligi. Bir bo'g'inli so'zlar, (ona, ahil, o'rik, elak kabi ikki bo'g'inli so'zlarning ko'chirish uchun bo'linmasligi. Tutuq belgisi qo'yib yoziladigan so'zlarni bo'g'in ko'chirish uchun bo'linishi, tutuq belgisining oldingi bo'g'inda qoldirilishi (va'-da, mash'-al, ta'-lim). Harf birikmali so'zlarning bo'g'inlab ko'chirilishi (si-ngil, ko'-ngil, tong-gi kabi) yonma-yon kelgan bir xil undosqli so'zlarning bo'g'inlab ko'chirilishi (ik-ki, kat-ta, is-siq kabi) Jarangli va jarangsiz undosh tovusqlar, ularning imlosi, bunday so'zlarning yozilishini so'z oxiriga unli tovush qo'shib aytib tekshirish: (maktabim – maktab, kitobim-kitob, maqsadim – maqsad, umidim – umid kabi) Aytilishda tushib qoladigan undosqlar. (Farzand, daraxt, do'st kabi) ularning imlosiga doir o'quv materiallari o'rin olgan.

3-sinfda to'g'ri talaffuzga doir o'quv materiallariga kamroq soat ajratilganligini ko'rish mumkin. Masalan: Tovusqlar va harflar. Unli va undosh tovusqlar va harflar. Bo'g'in, so'zlarni bo'g'inlarga bo'lish va bo'g'inlarga bo'lib ko'chirish qoidalari. So'zlarni bo'g'in, tovush va tovush – harf jihatdan taqlil qilish; Tutuq belgisi va uning isqlatilishi. sh, ch, ng harf birikmalari, ketma-ket kelgan bir xil undosqli so'zlar va ularning imlosi. So'z oxirida kelgan, jarangli, jarangsiz jufti bor undosqlar imlosidan iborat.

4-sinfda ham to'g'ri talaffuzga doir o'quv materiallarini o'qitishga 10 soat vaqt ajratilgan bo'lib, ular quyidagi mazmunda:

Unli va undosh tovusqlar, ularning harfiy ifodasi; talaffuzi va yozilishi farq qiladigan unli tovusqli so'zlarning talaffuzi va imlosi; jarangli va jarangsiz undosqlarning talaffuzi va imlosi; bir xil qo'sh undosqli so'zlar va ularning imlosi; so'z oxirida qator kelgan undosqli so'zlar va ularning imlosi, x-h tovusqli so'zlar va ularning imlosi, tutuq belgili so'zlarning talaffuzi va imlosi kabilar.

Tutuq belgisidan foydalanish bo'yicha tavsiyani quyidagicha taqdim qilish mumkin:

Bu sinfda ham “Bo'g'in” mavzusiga 2 soat ajratilgan. So'zlarni bo'g'inlarga bo'lish; unli tovusqlarning bo'g'in hosil qilishi; so'zlarni bir satrdan ikkinchi satrga bo'g'inlab ko'chirish; so'zlarni bo'g'in, tovush va harf jihatdan taqlil qilish, shuningdek, so'zlarni alifbo tartibida qayta tuzish, alifboning ahamiyati haqidagi ma'lumotlar qamrab olingan.

Natijalar. Bosqlang'ich sinf dastur va darsliklari taqlil qilinganda ularda ham maxsus talaffuz mashqlari yo'qligi ma'lum bo'ldi. Vaholanki, o'quvchining nutq apparati shakllanayotgan bu davrda talaffuzi qiyin nutq tovusqlari ustida takrorga asoslangan fonetik mashqlarni muntazam o'tkazib borish lozim.

Kichik irmoq kecha-kunduz tinmay mehnat qildi, xarsangtoshning bir yonini yemirib, yana yo'lga tushdi. U yo'l-yo'lakay dov-daraxtlar bilan do'stlashdi. Daraxtlar tomirlari bilan irmoq suvining yer ostiga singib ketishga yo'l qo'yishmadi. Yaproqlari esa quyosh nurini to'sib, suvni bug'lanishdan saqladi. Kichik irmoq ham yashil do'stlarini qondirib sug'ordi.

Topshiriq. Savollarga javob berish orqali o'quvchining matnni tushnganlik darajasini bilib olish mumkin:

1. Katta irmoq nima uchun tez oqa oldi?
2. Daraxtlar nima maqsadda katta irmoq yo'lga peshvoz chiqdi?
3. Katta irmoq nima uchun daraxtlardan qochdi?

4. Katta irmoq qanday halokatga uchradi?
5. Kichik irmoqqa daraxtlar qanday yordam ko'rsatdi?
6. Bunday hodisalar tabiatda rostdan ham sodir bo'lishi mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa, qanday sodir bo'ladi?

Quyidagi topshiriq o'quvchining tafakkurini o'stirishga, ma'qul variantni to'g'ri tanlashga o'rgatadi:

Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring. Mevali daraxtlar uning yo'liga peshvoz chiqibdi. Mazkur gap mazmuniga o'xshash javoblarni aniqlang.

- A. Mevali daraxtlar unga norozilik bildiribdi.
- B. Mevali daraxtlar uni qarshi olibdi.
- D. Mevali daraxtlar uni yoqtirishmabdi.
- E. Mevali daraxtlar uni kutib olibdi.

To'g'ri talaffuzga doir o'quv materiallarning asosini tashkil etuvchi mashq va topshiriqlar didaktik, metodik jihatdan taqzilga tortilib, ularni takomillashtirish zarurati mavjudligi ko'rsatildi, kerakli o'rinlarda tavsiyalar berildi. Ona tili mashg'ulotlarida hozirgacha foydalanilgan va foydalanilayotgan o'quv materiallarining berilishi, ularning tadrijiy taraqqiyoti tarixiy aspektda tekshirib ko'rildi.

I. Azimova, K. Mavlonova va Sh. Tursunovlar tomonidan tuzilgan 3-sinflar uchun "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligiga o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma ham tayyorlagan. Unda darslik tarkibidagi o'quv topshiriqlari bilan qanday isqlash kerakligi ko'rsatib berilgan:

Yangi 1-2-sinflar uchun "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida ham o'zbek tili to'vusqlarini talaffuz qilishga o'rgatuvchi mashqlar mavjud emas. Darslik asosan matn ustida isqlashga, savollarga javob berishga mo'ljallangan.

Xulosa. Bosqlang'ich ta'limning 1-4-sinflar uchun "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklari asosida mashg'ulotlar olib borilganda to'vusqlar talaffuzi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ham tizimli isqlash lozim. Zero, o'quvchi o'z ona tili to'vusqlarini to'g'ri ayta olmasa, uning nutqida ta'sirchanlik bo'lmaydi, qolaversa, tilning morfemik tarkibiga ham bu noto'g'ri talaffuz salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'quvchi matn ustida isqlar ekan unga talaffuzi qiyin so'zlar va to'vusqlar bilan isqlash topshiriqlari ham berib borilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

1. G'.Xamroev Ona tili ўқитишнинг самарали усуллари. Методик қўлланма. – Тошкент. Баёз. 2018. 197 б.
2. Azimova I., Mavlonova K., Sh. Tursunov Ona tili va o'qish savodxonligi 3-sinf darsligiga O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. –T.: 2022.
3. Ona tili va o'qish savodxonligi 3-sinflar uchun darslik. Respublika ta'lim markazi. Tuzuvchilar Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun, Zeboxon Ro'zmetova –Toshkent. 2022. 43-b.
4. Ona tili va o'qish savodxonligi 3-sinflar uchun darslik. Respublika ta'lim markazi. Tuzuvchilar Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun, Zeboxon Ro'zmetova –Toshkent. 2022. 144 b.
5. Ona tili va o'qish savodxonligi 1 Metodik qo'llanma [Matn]: o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / I. A. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 128 b. na tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 1-sinf uchun mashq daftari / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 72 b.
6. Усмонова Ў. Талаффуз маданияти. –Т.: Фан, 1976. – 3-б.

TINGLAB TUSHUNISH KOMPETENSIYASI HAQIDA MULOHAZA

*Avazova Farangiz Ixtiyor qizi,
Samarqanda davlat universiteti I- bosqich tayanch doktoranti.
Ilmiy rahbar p.f.d G'. Hamroyev*

Annotatsiya. Ushbu maqola bugungi kunda ona tilini o'qitishda e'tibor qaratilayotgan tinglab tushunish ko'nikmasi va uning turlari, bosqicqlari, eshitish va tinglash tushunchalari o'rtasidagi ba'zi farqlar, o'quvchilar uchun tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirish ahamiyati haqida ba'zi mulohazalarni yoritib beradi.

Kalit so'zlar: tinglash, eshitish, tinglash turlari, tinglash bosqicqlari, kontent tinglash, tanqidiy tinglash, empatik tinglash, qabul qilish, tushunish, javob berish.

ОБРАТНАЯ СВЯЗ О КОМПЕТЕНТНОСТИ В ПОНИМАНИИ НА СЛУХ

*Авазова Фариназ Ихтияр кызы,
базовый докторант I - го этапа Самаркандского государственного
университета. Научный руководитель п.ф.д. Г.Хамроев*

Аннотация. Эта статья проливает свет на некоторые соображения о навыке понимания на слух, которому сегодня уделяется внимание при обучении родному языку, и на некоторые различия между его типами, этапами, концепциями слуха и аудирования, а также на важность формирования навыков понимания на слух для учащихся. Ключевые слова: слушание, слушание, типы слушания, этапы слушания, слушание контента, критическое слушание, чуткое слушание, принятие, понимание, ответ

FEEDBACK ON COMPETENCE IN LISTENING COMPREHENSION

*Avazova Farinaz Ihtiyat kyzy,
is a basic doctoral student of the 1st stage of the Samarkand State University. Scientific
supervisor G.Khamroev*

Annotation. This article sheds light on some considerations about the listening comprehension skill that is currently being paid attention to when teaching a native language, and on some differences between its types, stages, concepts of hearing and listening, as well as on the importance of developing listening comprehension skills for students.

Keywords: listening, listening, types of listening, stages of listening, listening to content, critical listening, empathetic listening, acceptance, understanding, response

Bugungi rivojlanish zamonida barcha sohalar o'zining keng qamrovliligini va o'sish jarayonini namoyish etmoqda. Bunday o'zgarisqlardan ilm-fan va ta'lim ham chetda qolayotgani yo'q. Sodir bo'layotgan har qanday yangilik zamirida albatta, ilm va tajribalar yotadi. Ularning jamiyatda tom ma'noda yoyilishiga esa ta'lim sohasi o'zining katta hissasini qo'shadi. Ayniqsa, til o'rganish jadal tusga kirgan bir paytda ona tilimizni o'qitishda ham turli yangilik va o'zgarisqlar kirib kelmoqda. Shulardan biri yangi darsliklarimizga kiritilgan tinglab tushunish ko'nikmasi va unga doir topshiriqlardir. Til o'rganishning to'rtta ko'nikmasi orasida tinglash qobiliyatini rivojlantirish juda zarur. O'quvchilarlarda ushbu qobiliyatni to'g'ri shakllantirishga erishish uchun tilning turli tovusqlari va ularning urg'ularini tushunisqlari kerak. Tinglash malakasi bilan tanishish maqsadida ushbu maqola tinglashning turli jihatlarni, masalan, tinglash turlari, bosqicqlari va tinglab tushunish ko'nikmasini o'qitish va o'rganishdagi ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

Ma'lumki, muloqot nutq va tinglashni o'z ichiga oladi va ularni ajratish uchun hech qanday nuqta yo'q. Shunday qilib, tinglash samarali muloqotni yaratish uchun zarur bo'lgan

asosiy kalitlardan biridir. Og‘zaki muloqotda tinglashning yo‘qligi muloqotning buzilishiga olib keladi, bunda ma’ruzachi osongina zerikishi, umidsizlikka tushishi yoki g‘azablanishi mumkin. Tinglash asosan, oddiy jarayon sifatida qaraladi, lekin u biz o‘ylaydigan darajada oddiy emas. O‘zbek tilini o‘qitishda dastlab ushbu ko‘nikma qisman e’tibordan chetda qoldi. “Bunday muhim ko‘nikma til o‘rganuvchilar uchun juda zarur bo‘lib, u nisbiy muammolardan qochish, shuningdek, tinglashda ularning kucqli va zaif tomonlarini tan olish va tinglashni oshirish strategiyalarini isqlab chiqishda yordam berish uchun mashaqqatli mehnatni talab qiladigan ko‘nikmalardan biridir”, -deydi ingliz olimi Douvns. Tinglash, so‘z sifatida, “biror narsani eshitishga harakat qilish; diqqat qilish yoki e’tibor berish” deb ta’riflanadi. Ushbu ta’rifga asoslanib, tinglash va eshitish ikki xil jarayondir degan xulosaga kelish mumkin. Tinglash juda muhim va u eshitishdan ko‘ra ko‘proq harakat talab qiladi. Bu odatda passiv mahorat sifatida qaraladi, lekin aslida u faol va dinamik jarayondir. Uni dinamik qiladigan narsa shundaki, muloqotda tinglash nafaqat aytilayotgan narsani tushunish uchun, balki fikr bildirish uchun ham muhimdir. Ingliz tadqiqotchilarining tadqiqotlariga asoslanib, kattalar kun davomida ko‘p vaqtlarini muloqotda bo‘lishini, bu ko‘rsatkich o‘rtacha 70 foiz kishilar muloqotda bo‘lishini va 30 foizi esa muloqotdan chetda bo‘lishini ko‘rsatdi. Tinglash, shaxs muloqot qilmasa, mavjud bo‘ladi, bu til ko‘nikmalari doirasining deyarli o‘rtacha 50% ni tashkil qiladi. Binobarin, quyidagi diagrammada til ko‘nikmalari solishtirilgan.

Eshitish va tinglash ikki xil jarayondir. Ma’lumotlariga ko‘ra, eshitish “tovush to‘lqinlarini yutuvchi va ularni neytral yo‘llar bo‘ylab miya qismlariga o‘tkazishning fiziologik jarayonini” anglatadi. Eshitish jarayoni spontandir; atrof-muhitning turli xil o‘ralgan tovusqlarini qabul qilish shaxsning roziligi bilan yoki uning roziligisiz sodir bo‘ladi. Tinglash esa ma’lum bir tovushga e’tibor berish jarayoni bo‘lib, u eshitishdan ko‘ra ko‘proq harakat talab qiladi. Bundan tashqari, tinglash ongni talab qiladi, ya’ni “boshqa odamni tushunish niyatida aytilayotgan so‘zlarga e’tibor berish”. Quyidagi jadval ikkita jarayon o‘rtasidagi asosiy farqlarini ko‘rsatadi.

Farqli tomoni	Eshitish	Tinglash
Farqi	Quloqlar orqali har qanday xabarni qabul qilish eshitishdir. Quloqlar orqali qabul qilingan xabarni tushunish tinglash deyiladi.	

Tinglash jarayoniga yondashuv	Eshitish tinglash jarayonining birinchi bosqichi
Jarayonning asosiy bosqichi	

Funksiyasi	Eshitish funksiyasi faqat og‘zaki xabarni qabul qilishdir. T i n g l a s h xabarni dekodlash va talqin qilishni o‘z ichiga oladi.
------------	---

Tafakkur Eshitishda tafakkur kerak emas. Tinglash esa insonning ongli xatti-harakatidir.

2-jadval. Eshitish va tinglashning farqlari

Biror kishi gapirayotganda tinglashning maqsadi tinglash turini belgilaydi. Bundan tashqari, kundalik vaziyatlar har xil tinglash qobiliyatlarini talab qiladi. Ingliz olimi Jinning ma’lumotlariga ko‘ra, tinglashning to‘rt turi mavjud.

1. Kontentni tinglash:

Bu tip faqat ma’ruzachi nima deyotganini tushunish uchun mo‘ljallangan. Tinglovchi odatda sukut saqlaydi. Qisqa savollar yoki sharqlar shaklida bo‘lishi mumkin, turli tushunish uchun qiyin bo‘lgan bir nechta o‘zaro ta’sirlardan qat’iy nazar, bu turdagi tinglashning asosiy maqsadi xabarning kerakli nuqtalarini aniqlash va ularga e’tibor qaratishdan iborat.

2. Tanqidiy tinglash:

Tanqidiy tinglovchi uchun asosiy maqsad xabarning mantiqiyliigi, xabarning to‘g‘riligi, dalillarning to‘g‘riligi va so‘zlovchining niyatlari kabi turli darajadagi xabarni baholashga e’tibor qaratishdir. Axborotning kamchiliklarini qabul qilish va uni bir vaqtning o‘zida baholash qiyin, ammo tanqidiy tinglovchi odatda yaxshi baholashga erishish uchun og‘zaki bo‘lmagan noverbal vositalarga ham e’tibor beradi, xabarning asosiy nuqtalarini aniqlash va

ularga munosabat bildiradi.

3. Empatik tinglash

Empatik tinglash, asosan, muammoni hal qilishda yordam berish uchun gapiruvchining his-tuyg'ularini tushunishga qaratilgan. Ma'ruzachi muammoni ifodalaganda, empatik tinglovchi ma'ruzachining psixologiyasini izoqlashdan cheklanadi va vaziyatga mos keladigan yechimni taklif qiladi. So'zlovchi muammolariga yechim topib beradi.

4. Faol tinglash

Faol tinglash barcha turdagi tinglashdan ko'ra asosiysi hisoblanadi. Bu juda muhim, chunki faol tinglovchilar so'zlovchilarning gaplarini to'liq tushunishga va ularga o'z fikrlarini ifoda etish va munosabat bildirishga, ularga yordam berish uchun juda ko'p kuch sarflashadi. Ular tanqid qilishdan xoli, so'zlovchiga erkinlik yaratishga yordam beradi, bu esa so'zlovchilarga o'z fikrlarini ifoda etishni osonlashtiradi. Ayniqsa, chet tillarini o'rgatishda faol tinglash juda muhimdir. Bu o'quvchilarga o'z fikrlarini aytib berish uchun mashq qilish va erkin so'zlashga yordam beradi, chunki bu ularning o'rganish ishtiyoqini oshirishga xizmat qiladi.

Tinglash tez sodir bo'lganligi sababli, u odatda oddiy jarayon sifatida qaraladi, ammo u turli bosqicqlardan o'tadigan murakkab jarayondir. Bu bosqicqlar: qabul qilish, tushunish, eslash, baholash va javob berish.

Ularning har birining o'z vazifasi va o'rni mavjud bo'lib, tinglash jarayonining smarali bo'lishiga xizmat qiladi.

Qabul qilish: Bu tinglash jarayonining birinchi bosqichidir. Qabul qilish so'zlovchining keyingi bosqich uchun zarur bo'lgan xabarini diqqat bilan eshitishni anglatadi.

Tushunish: Ushbu bosqichda shaxs oldingi bosqichda olingan so'zlar va jummalarning ma'nosini anglashga harakat qiladi. Xabarlarini tushunish usuli shaxsning avval orttirgan tajribasidan kelib chiqiladi. Tushunish jarayonida turli xil vaziyatlar yuzaga keltirilishi mumkin, shuning uchun so'zlarni alohida tushunish yetarli bo'lmaydi. Bunday holda ma'no yaratish uchun oldindan mavjud bilim va tajriba kerak bo'ladi.

Eslab qolish: Uchinchi bosqich, eslash, xotira bilan bog'liq - bu oldindan mavjud bo'lgan bilimlarni esga tushirish bosqichidir. Bu harakat tinglash jarayoni bosqlanishi bilan yuzaga keladi. Eslab qolish qiyin yoki imkonsiz bo'lsa, demak, tinglovchi hali tinglash jarayoniga to'raligicha tayyor bo'lmagan bo'lishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, tinglash va eslash bir-biriga juda bog'langan. Shu sababli tinglash jarayoni bosqlanmasidan oldin tinglovchi bor e'tiborini jamlab eslab qolishga tayyor bo'lishi zarur.

Baholash: bu bosqich tinglashning to'rtinchi bosqichi bo'lib, u xabarlarining ahamiyatini va qanday mavzuda ekanligini aniqlash va baholashni anglatadi. Xuddi shu xabarni baholash bir tinglovchida boshqasiga qaraganda farq qilishi mumkin. Oldingi bosqichda aytib o'tilganidek, turli xil hayotiy tajribalar va tayyorgarlik kelib chiqishi bir xil xabarni baholashning xilma-xilligiga olib keladi. O'quvchilar shuning uchun turlicha javoblar berisqlari mumkin.

Javob berish: tinglash jarayonining oxirgi bosqichi javob berishdir, bu avvalgi barcha bosqicqlarning natijasidir. Ushbu bosqich qayta aloqa deb ham ataladi. Tinglash natijasida shaxs nutqqa jalb qilinadi va tinglovchining har qanday harakati qayta aloqa sifatida ko'rib chiqilishi mumkin, ya'ni fikr-mulohaza asosan og'zaki shaklida bo'ladi, lekin og'zaki bo'lmagan javoblar ham nutqning bir shakli, yozma shakli sifatida qaraladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tinglab tushunish ko'nikmasi bir qarashda juda oson ko'rinsada, murakkab jarayonlardan biri sanaladi. Tinglab tushunish qobiliyati nutqni shakllantirishda ham alohida ahamiyatga egadir. So'zlovchi nutqini to'liq tushunib yetish tinglovchi nutqining, so'zlovchiga nisbatan beriladigan javobning mantiqiyliqi, aniqligi va to'g'riligiga ham katta ta'sir o'tkazadi. Shu sababli ham ushbu ko'nikmaga doir topshiriqlarni isqlashdan oldin maxsus tayyorgarlik va e'tiborni jamlab olish talab etiladi. Tinglab tushunish murakkab jarayon bo'lganligi sababli chet tillarini o'rganishda ham alohida o'rin egallaydi va chet el olimlari bu masalaga katta e'tibor qaratishadi. Aynan shu ko'nikma yuzasidan ilmiy

isqlar olib borib, o‘rganishmoqda. O‘zbek tilini o‘qitishda esa tinglab tushunish ko‘nimkasi biroz e‘tibordan chetda qolib ketmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Downs, L. (2008). Listening skills training. United States: ASTD Press.
2. Steinberg, S. (2007). An Introduction to Communication Studies. Cape Town, South Africa: Juta & Co.
3. Saitakham, (2012). Enhancing English Listening Skills through Websites Practicing: A Study of Thai EFL University Students. Retrieved 6 February, 2016, from www.ipedr.com/vol47/011-ICERI2012-S00015.pdf
4. Аминова С. Она тили дарсларида ноанъанавий усуллар // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 1995. – № 1. – Б. 17–18
5. www.skillsyouneed.com

TALABALARNING DAVLAT TILIDA ISH YURITISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA DUAL TA'LIMNING O'RNI

*Daniyarov Otayor Baxtiyarovch,
Toshkent amaliy fanlar universiteti tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Maqolada talabalarning davlat tilida ish yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bog'liq muammolar, ularni yuzaga chiqaruvchi omillar, vositalar, nutqiy vaziyatlar taqlili, shuningdek, mazkur muammolarni hal etish bo'yicha taklif mulohazalar isqlab chiqish haqida fikr yuritilgan. Dual ta'limda matn yaratishda duch kelinadigan muammolar va belgilangan talablarga nomuvofiq amaliy natijalar to'g'risida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: hujjatlar, rasmiy uslub, matn yaratish, yozma nutq, yozishmalar, ariza, tarjimai hol, sana, imzo, tasdiqlash, tarkib, tartib, talablar, mezonlar, mashq va topshiriqlar

РОЛ ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ У УЧАЩИХСЯ НАВЫКОВ ВЕДЕНИЯ ДЕЛ НА ГОСУДАРСТВЕННОМ ЯЗЫКЕ

*Данияров Отаёр Бахтиярович,
исследователь Ташкентского университета прикладных наук*

Аннотация. В статье рассмотрены проблемы, связанные с развитием навыков делопроизводства студентов на государственном языке, анализ факторов, средств, речевых ситуаций, вызывающих их, а также выработка предложений по решению указанных проблем. В дуального образования описаны проблемы, с которыми сталкивается создание текста, и практические результаты, не соответствующие установленным требованиям.

Ключевые слова: документы, формальный стиль, создание текста, письменная реч, переписка, заявление, биография, дата, подпись, утверждение, содержание, порядок, требования, критерии, упражнения и задания

THE ROLE OF DUAL EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' BUSINESS SKILLS IN THE STATE LANGUAGE

*Daniyarov otaroy Bakhtiyarovich,
researcher at Tashkent University of Applied Sciences*

Annotation. The article discusses the problems associated with the development of students' office management skills in the state language, the analysis of factors, means, speech situations that cause them, as well as the development of proposals to solve these problems. Dual Education describes the problems faced by text creation and the practical results that do not meet the established requirements.

Keywords: documents, formal style, text creation, written speech, correspondence, statement, biography, date, signature, approval, content, order, requirements, criteria, exercises and tasks

Олий таълимда талабаларга давлат тилида иш юритиш кўникмалари ўргатилади, ammo уларнинг аксарияти меҳнат фаолиятига борган дастлабки кундан бошлаб, бу кўникмани намоён қила олмайди, яъни ҳужжат матнларини тайёрлашга қийналишади. Бунинг асосий сабаби – амалиётнинг йўқлиги, университетда иш юритиш бўйича ишлаб чиқилган ўқув дастурларининг прагматик эмаслиги билан бевосита бог'лиқ.

Вазирлар Маҳкамасининг “Профессионал таълим тизимида дуал таълимни ташкил этиш чора-тадбирлари ҳақида” 163-сонли қарорида дуал таълим тизимини жорий этиш масаласи илгари сурилган.

Жаҳон тажрибасида талабаларни касбга тайёрлаш бўйича турли ёндашувлар

кўлланилади. Уларнинг орасида дуал ёндашув самаралироқ эканлиги тобора оммалашиб бормоқда. Адам Смит ўзининг таниқли асарида таъкидлаганидек: “Дуал таълимда – иш жойида устоз шогирдга касб-хунарнинг анъанавий усулларини ўргатиш деб ҳисоблаш керак, чунки уста билан бирга иш олиб бориш, ёш ишчиларни касбга бўлган қизиқишларини орттириб боради”. Олим дуал таълим тизими, Европа таълим тизимининг амалиёти шуни кўрсатадики, келажакдаги мутахассиснинг муваффақиятли касбий ва ижтимоий мослашуви учун таълим ташкилотлари ва иш берувчилар ўртасидаги ўзаро таъсир маҳсулидир. Талаба ўқув жараёнининг дастлабки босқичларида корхона ходими сифатида ишлаб чиқариш жараёнига жалб қилинган. Машҳур «халқлар бойлигининг табиати ва сабаблари бўйича тадқиқотлар» (1776) асарида Адам Смит икки томонлама ўқитишда шогирдлик ва мураббийлик тизимларини иш жойида касбий тайёргарликнинг анъанавий усуллари деб ҳисоблаш кераклигини таъкидлади, чунки уста ёнида ишлаш, ёш ишчилар таълим асосларини ўргандилар. касбикки томонлама ўқитиш модели корхоналарни кадрлар тайёрлаш жараёнига жалб қилишни назарда тутди, бу еса ходимларни ўқитиш билан бог‘лиқ жуда катта харажатларга олиб келади, чунки улар юқори сифатли касб-хунар таълими харажатлари капиталнинг ишончли ҳиссаси эканлигини яхши билишади. Шу билан бирга, улар нафақат ўқитиш натижалари, балки ўқитиш мазмуни, уни ташкил этиш билан ҳам қизиқишади, деб таъкидлайди. Судакова талабалар учун икки томонлама таълим ерта мустақилликка еришиш ва катталарга оғ‘риксиз мослашиш учун ажойиб имкониятдир. Дуал тизими ахборот этишмаслиги ва камбағ‘ал амалий таълим оқибатида таълим бошқа шакллари учун муқаррап stress ҳолда, иш ичига силлиқ киришини таъминлайди. Бу нафақат муайян меҳнат вазифаларини бажаришни ўрганишга имкон беради, балки жамоада ишлаш қобилиятини ривожлантиради, касбий компетенция ва масъулиятни шакллантиради. Дуал training модели ўз мартабангизни бошқариш учун ажойиб имкониятларни тақдим этади. Унинг доирасидаги тайёргарлик даражаси доимий равишда ошиб бормоқда. Неч бир таълим ташкилоти ишлаб чиқариш бўйича бундай билимларни икки томонлама ўқитиш каби ичкаридан беришга қодир эмас, бу уни муваффақиятли мартаба йўлида муҳим қадам қилади.

Иш юритиш ҳужжатлари устида ишлаш кўникмасига ҳам фақат маъруза, аудиториядаги дарслар орқали тўлақонли эришиб бўлмайди. 4+2 дастури доирасида талабаларнинг 2 кун амалиёт, ишлаб чиқариш жараёнларига бориб иштирок этиши яхши самара беради. Бунда кўриб тушуниш масасаласи актуллашади.

Дуал таълим тизими назарияни амалиётда кўриш ва тушуниш, ўзлаштириш фаолиятидир. Кўриб тушуниш кўникма ёки малака сифатида ажратилмайди. Унинг бир қисми тил таълимидаги ўқиб тушуниш кўникмаси таркибида баҳолаб кетилади. Унда, асосан, расм, видео ҳамда аудиовизуал материалларни тушунишга эътибор қаратилади. Халқаро педагогикада визуал тушуниш (understanding vision) алоҳида компетенция сифтида мавжуд эмас. Шу билан бирга, маълумотни визуализация қилиш, визуал маълумотларни таҳлил қилиш ва тушуниш, ахборотни узатиш учун визуал воситалар ва усуллардан фойдаланиш кўшимча маҳорат ёки кўникма сифатида қаралиши мумкин. Бу дизайн, маркетинг, маълумотлар таҳлили ва тақдимот тайёрлаш каби соҳаларда фойдаланилади. Визуал тушуниш – расмлар, диаграммалар, графиклар ва бошқалар каби визуал тарзда тақдим этилган маълумотларни таҳлил қилиш ва шарҳлаш қобилиятидир. Визуал идрок этиш қобилияти юқори бўлган одамлар визуал элементларни тан олиш ва таҳлил қилиш, нақш ва муносабатларни аниқлаш, шунингдек, маълумот олиш ва хулосалар чиқариш қобилиятига эга. тақдим этилган маълумотлар бўйича. Ушбу компетенция дизайн, медиа, маркетинг, реклама ва санъат каби соҳаларда айниқса муҳимдир.

Тадқиқот методологияси. Талабани давлат тилида иш юритишга ўргатишда кўриб тушуниш компетенцияси – таълим олувчида ҳолатни, предметни, жараёни кўриб тушуниш, таҳлил қилиш ва ўз хулосасини баён қилиш фаолиятидир. Бунда фақат расм, видео материаллар эмас, бутун ўқувчи ёки талабанинг келажак ҳаётида дуч келадиган предметлар, ҳолат, жараён ва фаолиятни кўриб тушуниш назарда тутилади. Шунингдек, талабларни касбга тайёрлашга йўналтирилган дуал таълим тизимида уларнинг дарс-машғ'улотлар билан бирга ишлаб чиқариш жараёнларини ҳам бориб кўриб ўрганиш асосидаги кўникма ва малакаларини баҳолаш имкони бўлади. Кўриб тушуниш кўникмасининг малака ва компетенцияга айланиш механизми ишлаб чиқиши бугун муҳим, ҳал қилиши лозим бўлган педагогик, методик муаммолардан биридир.

Давлат тилида иш юритиш фанини яхши ўзлаштиришда дуал таълим асоси бўлган кўриб тушуниш кўникмаси касбий компетенцияни эгаллашда қуйидаги вазифаларни бажаради:

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (Literature review). Абу Наср Форобий: “Қандай қилиб таълим бериш, таълим олиш, фикрни қандай ифодалаш, баён этиш, қандай сўраш ва қандай жавоб беришга келганимизда, бу борада билимларнинг энг биринчиси жисмларга ва ҳодисаларга исм берувчи тил ҳақидаги илмлар деб тасдиқлайман”, деган эди. Тил назариясининг асосчиси бўлган Гумболт XIX асрдаёқ “Тил – миллат руҳи” деб айтган эди. Ушбу фикр XXI асрда поляк педагоги Януш Корчак томонидан қуйидагича давом эттирилди: “Она тили – бу бола учун ўйлаб топилган қоидалар эмас, нафас олаётган ҳаво каби халқининг руҳи билан тенгдир”. Бола она тилини ўрганиш жараёнида муҳим вазифалар амалга оширилади: биринчидан, боланинг туғма ақлий қобилиятни ривожлантириш, иккинчидан, она тили ҳазиналарини онгли эгаллаш; учинчидан, болаларга тил мантисини ўргатиш керак. Бу мақсад ва вазифаларга биринкетин эмас, балки баравар эришиб бориш лозим.

Ф.И.Буслаев шундай ёзади: “биринчи ва энг муҳими, нутқ шакллари билан ифодаланадиган нарсаларни тушуниш ва уларни тўғри йўл билан ишлатишдан иборат амалий қобилиятни ривожлантиришдир, яъни ўқимишли одамлар айтганидек, оғзаки ва ёзма машқлар орқали ўқувчида суҳбат ва ёзувга хос нутқ шакллари осонлик билан тушуниш кўникмасини ҳосил қиламиз”. “Асрлар давомида инсоният томонидан тўпланган барча тил илмини ўрта мактаб ўқувчисига ўргатишнинг иложи ва зарурати йўқ. Демак, она тилидан энг зарур билимларни танлаш асосий масалалардан биридир.

Она тилидан билимларни танлашнинг бош мезони унинг фойдалилик ва амалда қўлланила олиш даражасидир. Биз она тилидан фойдали билимлар деб болаларнинг саводли ёзиш, ижодий фикрлаш, фикр маҳсулини нутқ шароитига мос равишда оғзаки ва ёзма шаклларда тўғри, раво ифодалаш кўникмаларини шакллантириш учун хизмат қиладиган, уни юксак инсоний фазилатлар руҳида тарбиялаш ва ривожлантиришни таъминлайдиган билимларни тушунамиз”.

Ўқув топшириқларини тузишга асос бўлувчи ўқув материалларини танлаш, таъкидлаш керакки, она тили таълими мақсадини, мазмунини белгилаш борасида мустақилликнинг дастлабки йилларида тизимли тадқиқотлар олиб борилди.

Айниқса, педагогика фанлари доктори, профессор Р.Сафарованинг коммуникатив кўникма ва малакаларни ривожлантириш она тили таълимининг асосий вазифаси эканлигига 90-йиллардаёқ ург'у бергани, хусусан, ўқув топшириқлари, шунингдек баҳолаш масаласи, ўзбек тилининг Ўзбекистонда миллий тикланиш шароитида ҳам она тили, ҳам давлат тили сифатида ўқитилиши билан бог'лиқ муҳим масалаларни тадқиқ этганини алоҳида таъкидлаш лозим.

Ш.Юсупова ўзининг докторлик диссертацияси да ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари мавзусида тадқиқот олиб боради, она тили таълимида ўқувчилар тафаккурини ривожлантиришнинг

илмий-методик асосини ишлаб чиқиш билан бирга тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқларига ҳам алоҳида эътибор қаратади. Х.Муҳиддинова ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги таълимини тизимлаштириш, узвийлиги ва узлуксизлигини таъминлаш борасида салмоқли ишларни амалга оширган. Жумладан, ўқув топшириқларни ҳам узлуксиз таълим тизими учун узвийлик тамойили асосида такомиллаштириб келмоқда.

Қ.Хусанбоевнинг таълим мазмунига ўқитувчини ҳам киритиши ниҳоятда тўғри ёндашув. Чунки давлат тилида иш юритишда, айниқса, ишда бажариладиган топшириқларни назорат қилишда, зарур ўринларда ходимлар иш юритиш хужжатларини тайёрлаш кўникмасини ривожлантиришда бевосита ўқитувчи дастлаб намуна кўрсатиши муҳим аҳамиятга эгадир. Қолаверса, олимнинг адабий таълим учун ишлаб чиққан мустақил фикрлаш ва ва муаммоли таълим бўйича ёндашувлари она тили таълимида ўқув топшириқларини тўғри шакллантиришга ёрдам беради. Халқаро педагогика, хусусан, лингводидактика соҳасида ўқув топшириқларнинг методик, психологик-педагогик тадқиқи билан Австралиялик олим Жак Ричардс махсус шуғилланган. Шунинг таъкидлаш жоизки, ўз даврида ғарб педагогикаси амалийликка асосий эътиборни қаратган. Дастлабки прагматик ғоялар америкалик файласуф ва педагог Д. Дьюи томонидан ишлаб чиқилган.

Н.Маҳмудовнинг қуйидаги фикрлари айниқса диққатга сазовор: “Ҳар қандай тил таълимида тилнинг услублари ҳақидаги билимларни четлаб ўтиш мумкин эмас. Тилни ўзлаштиришда тил қурилишини билиш шарт, бу борадаги билимлар асосдир. Аммо айни қурилиш бирликларидан қандай фойдаланиш, уларни нутқда бевосита қандай қўллаш малакаси шаклланмаган бўлса, тилни билишни тугал дейиш мушкул”.

Хулоса.

Давлат тилида иш юритиш кўникмасини ривожлантириш она тили таълимига ҳам бевосита боғ‘лиқ. Дарҳақиқат, она тили, миллий сўзлар ақлий ривожланиш ҳамда дунёни англашнинг асосидир. Талаба нутқининг, иш юрита олиш, матн ярата олиш кўникмаларини ўз вақтида ривожланишига эътибор қилиш, аудиториядан ташқарида, амалиётда касбий малака ҳосил қилиш асосида ўргатиб боришга эътибор бериш жуда муҳимдир. Талабанинг расмий хужжатлар билан ишлаш малакаси қанчалик бой ва мантиқли бўлса, унинг ўз фикрларини ифодалаш шунчалик осон кечади, оламни, борлиқни англаш қобилияти қанчалик кенг бўлса, талабалар турли нутқ вазиятларида тенгдошлар ёки катталар билан мазмунли ва тўлақонли расмий мулоқотга кириша олади, тафаккури ҳам шунчалик фаол ривожланишда бўлади.

Адабиётлар:

1. Смит А. «Исследование о природе и причинах богатства народов». — М.: ЭКСМО, 2007. - Серия: антология экономической меди — 960-е годы).
2. Судакова, Л. В. дуал таълим моделининг моҳияти ва асосий хусусиятлари / Л. В. Седакова. - Матн: тўғридан-тўғри // таълим ва тарбия. — 2016. — № 2 (7). - ПП. 62-64. –
3. Судакова, Л. В. Сущност и основные признаки дуальной модели обучения / Л. В. Седакова. — Текст : непосредственный // Образование и воспитание. — 2016. — № 2 (7). — С. 62-64.
4. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. - М., 1984. - С. 301-302
5. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
6. Буслаев Ф.И О преподавании отечественного языка. 2-е изд. М., 1867. (переизд.: Л., 1941).
7. Г‘уломов А., Неъматов Н. Она тили таълими мазмуни. Ўқитувчилар учун методик кўлланма. – Т.: Ўқитувчи. 1996. 9-б.
8. Сафарова Р. Миллий тикланиш шароитида Ўзбекистон мактабларида она тили таълими назарияси ва амалиёти. Педагогика фанлари доктори илм. даражасини олиш

учун ёзилган дисс. –Тошкент, 1995. –242 б.

9. Юсупова Ш.Ж. Нозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: Пед. фан.доктори... дисс. – Тошкент: ТДПИ, 2005. – 270 б.

10. Муҳиддинова Х. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш пед. фан. ном-ди дисс. ТДПИ –Тошкент, 2011. -270 б

11. Хусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: пед. фан. док-ри дисс. автореф. –Т.: ТДПУ, 2006. – 262 б.

12. <https://www.professorjackrichards.com/mother-tongue-teaching-vs-foreign-language-teaching/>

13. Джон Дьюи. Общество и его проблемы John Dewey. The Public and its Problems. Denver, 1927. / Дж. Дьюи. Общество и его проблемы. — Перевод с английского: И. И. Мюрберг, А. Б. Толстов, Е. Н. Косилова. — М., 2002.

14. Маҳмудов Н. Тил таълими ва стилистика // Ж. Тил ва адабиёт таълими.– Тошкент, 200

SHARQ VA G'ARB MUTAFAKKIRLARINING O'QITUVCHI KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA OID TAJRIBALARI

Djanaliyeva G. A.

Annotatsiya. Jahon ta'lim makonidagi integratsiya jarayoni tufayli maktab o'qituvchilarining shaxsiyati va faoliyati, kasbiy mahorati, raqobatbardosqligiga qo'yilgan yuqori talablar o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanligini ta'minlashni taqozo etmoqda. Ushbu tendensiya so'ngi vaqtlarda xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan "pedagogik dunyoqarash" (pedagogical worldview) muammosiga bag'isqlangan ilmiy tadqiqotlarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Darhaqiqat, jamiyatning siyosiy, ijtimoiy va madaniy tabiatining doimiy o'sish va o'zgarishda ekanligi zamonaviy o'qituvchilardan o'z kasbiy qadriyatlari va shaxsiy e'tiqodlariga ega bo'lishni, ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq dunyoqarashi va kompetentligini uzluksiz takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohani modernizatsiya qilish "inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarini joriy etish, xalqaro standart asosida asosida yuqori malakali, kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish asosiy strategik vazifalar" sifatida belgilangan. Bu esa, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni takomillashtirishni taqozo etadi.

Shu asosda ijtimoiy faol o'qituvchi ma'naviy qiyofasini yaratish mutaxassisning kasbiy madaniyatiga nisbatan barqaror munosabatni belgilovchi muhim mezon hisoblanib, zamonaviy voqelik nuqtai nazaridan, uning psixologik-pedagogik mohiyatini aniqlashtirish, tarkibiy komponentlari va tamoyillarini belgilash pedagogika metodologiyaning dolzarb masalalaridan biri sifatida gavdalanadi.

Pedagogik faoliyatning paydo bo'lishi insoniyat tarixining qadim zamonlariga borib takaladi. Bu kasb tarbiyachilik faoliyatining tarkibiy qismi sifatida vujudga kelgan. Ma'lumki, umumiy ta'lim maktablarda, kasb-hunar kollej va akademik liseylarda ta'lim-tarbiya beruvchi yosqlarni hayotga mehnatga tayyorlovchi kishilarni o'qituvchi, muallim, pedagog, ustoz deb yuritiladi.

O'qituvchilik kasbi eng qadimiy kasblardan hisoblanib pedagogik mahoratning paydo bo'lishi ham kishilik jamiyatida o'qitishning paydo bo'lishi, ya'ni insonlar to'plagan tajribalar: yurish-to'rish, hatti-harakatlarining, mehnat sohasidagi dastlabki tajribalarni, urf-odatlarini aqliy, axloqiy, ilohiy bilimlarni yosqlarga o'rgatish: yozuv ixtiro qilingach, o'qish, yozishni o'rgatish, u tashkil etilgan dastlabki maktablarning paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liq. Odamlar to'plagan turmush tajribasini yosqlarga o'rgatish, ularni hayotga, mehnat faoliyatiga tayyorlash ehtiyoji natijasida qadim zamonlardayoq ta'lim va tarbiya mustaqil ijtimoiy faoliyat sifatida paydo bo'ldi.

Mashhur chex pedagogi Ya.A.Komenskiy «Buyuk didaktika» asarida ko'rsatishicha, qadim zamonlarda ota-onalar, odatda o'z bolalarini oilada o'zlari tarbiyalaganlar. Lyokin ota-onalar ham o'sha davrda bolalarga har xil tarbiya berishgan, bu albatta ota-onalarni talablaridan kelib chiqilgan. Bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ba'zi ota-onalarda tajriba yetarli bo'lgan bo'lsa-da, ko'pchiliklarida yetarli bilim, ko'nikma, malaka yetishmagan. Ba'zan ota-onalar farzandlari tarbiyasi uchun kerakli vaqt ajratmaganlar. Shu sababdan ko'p oilalar, o'z bolalarini bilimli, og'ir tabiatli, tajribali maxsus kishilarga berib o'qitishgan. Yosqlarga ta'lim-tarbiya beruvchi bunday kishilarni pedagoglar deb atashganlar. Dastlabki ta'lim-tarbiya berishda ancha murakkab vaziyatlarda bo'lishgan. Buning asosiy sababi

ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchilarda pedagogik mahorat yetishmagan. O'qituvchilik kasb sifatida vujudga kelishi bilan pedagogik mahorat asoslari taraqqiy eta bosqladi. Bu kasb egalari asta-sekin bilan ta'lim-tarbiya sohasida mahorat sirlarini egallay bosqladi.

Buyuk mutafakkirlar fikricha eng qadimgi maktablar, gimnaziyalar Sharq maktablarida jumladan, Misrda, Isroilda ochilganligini ta'kidlaydi. Ammo keyingi manbalarni, tadqiqotlarni guvoh berishicha xususan, Teshiktosh g'oridan Fargona vodiysidagi Selungur g'oridan Zarautsoy yodg'orliklaridan topilgan manbalardan ko'rinadiki, eramizdan oldingi yuz ming yillar oldin ham Markaziy Osiyoda odamlar yashaganligidan maktab, ta'lim-tarbiya maskanlari, katta-katta qo'rgonlar bo'lganligidan dalolat beradi. Yuqoridagi manbalardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki o'qituvchilik kasbining pedagogik mahorat komponentlarini bizning yurtimizdan kelib chiqqan degan fikr tug'iladi. Chunki yuz ming yillar avval odamlar yashagan davrda ham ta'lim-tarbiya isqlari bilan shug'ullanuvchi kishilar bo'lib, nazariy va amaliy jihatdan yetarli bilimga ega bo'lmasa-da, bolalarga oddiy ilmlarni berishgan. Bizning xalqimiz, xususan, turkiy xalqlar qadim zamondayoq o'z yozuviga ega bo'lgan.

Ota-bobolarimiz o'tmishda uygur, so'g'd, xorazm yozuvlaridan foydalanganlar, so'ng arab alifbosi qabul qilindi. Arab yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga ming yildan ko'proq muddatda amal qilindi. O'zbekistonda 1929 yilda lotin, 1939 yilda rus alifbosiga o'tildi. 1993 yilda O'zbekistonda lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosiga o'tish haqida qaror chiqardi. Zardushtiylik ta'limotining muqaddas kitobi «Avesto» da Sharq xalqlarining axloqiy tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan. Bu ta'limotning asoschisi Spitama Zardusht eramizdan oldingi VI asrda yashagan. Ko'plab tadqiqotchilarning fikricha zardushtiylik chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanadigan xalqlar dini bo'lib, Xorazm va Sug'diyonada shakllangan VII asrda Osiyoni arablar tomonidan o'tkazilgan zulmdan so'ng zardushtiylikning ta'siri ancha kamaydi. «Avesto» ning pedagogik qimmatini shundaki, u ko'p asrlar davomida yosqlarga ilmu ma'rifatni o'rgatish, axloq odob, fazilatlarini tarbiyalashda dasturamal vazifasini bajargan. «Har bir kishini shunday tarbiyalash zarurki, -deyiladi «Avesto» da -u avvalo yaxshi o'qishni va so'ngra yozishni o'rganib, yuksak pog'onalarga ko'tarilsin». Bolalarga beriladigan ta'lim va tarbiya quyidagilarni o'z ichiga oladi: diniy va axloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya o'qish va yezishga o'rgatish. Bu ta'limotga ko'ra diniy tarbiya yetti yoshdan bosqlangan bo'lib, darsda ko'rsatilgan qurollardan himoya qilish va suhbat usullaridan foydalanib o'tilgan materialni shovqinsiz takrorlash talab qilinadi. Asosiy e'tibor bolalarni mehnatsevarlik va kasb-hunar ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra bolalarda 9 yosqlarida bolagatga yetib jismoniy simantik, ma'naviy sofflik haqida g'amxo'rlik qilish, tozalikka rioya qilinish talab qilinadi Ta'limotga ko'ra hayvonlarni kaltaklash qiynash gunoh hisoblangan. Xullas, zardushtiylik ta'limoti ikki ming yil mobaynida milliy va umuminsoniy qadriyatlar qaror topishda tarbiyashunoslik hamda pedagogik mahoratning shakllanishida muhim tarixiy manbalardan biri bo'ladi. Islom ta'limoti bo'yicha o'tmishda yaratilgan barcha ilohiy ilmlarni insoniy tajriba va fazilatlarini o'zida mujassamlashtirilgan. Islom ta'limotida o'qituvchi mahorati quyidagi yuksak aqloqiy sifatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

- 1) Sabr qanoatli bo'lish.
- 2) To'g'ri so'zlik va rostgo'ylik.
- 3) Ilmni teran tushuntirish.
- 4) Ilmni o'rganish uchun uzluksiz davom ettirish.
- 5) Ilm olishda ta'lim tarbiyaga ega yaxshi e'tiborni qaratish.

Buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o'zining pedagogika nazariyasidan o'qituvchi mahoratiga alohida ahamiyat beradi. O'zining «Onalar maktabi» asarida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tarbiyalashda tarbiyachining mahoratiga alohida ahamiyat berib, tarbiyachi bu yoshda asosan bolalarga aqloqiy fazilatlar, ya'ni to'g'ri so'zlik, mehr-oqibat, ota-onalarni hamda o'zidan katta yoshdagi bolalarni hurmat qilish gamxo'rlik, mehnatsevarlik, saxiylik kabi

tushunchalarni singdirishga e'tibor berish lozimligini uqtiradi. «Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi» asarida ona tili fanlarini o'qitishda «Fizika», «Astronomiya» asarlarida ushu fanlarni o'qitishda o'ziga xos xususiyatlari hamda unda o'qituvchi mahorati katta o'rin tutishni asoslab berdi.

Sharq mutafakkirlaridan Farobiy, Beruniy, Ibn Sinolar o'z asarlaridan pedagogik mahorat g'oyalariga katta e'tibor berishgan. Ularning fikrlaricha pedagog, mahoratli o'qituvchi quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- 1) Ta'limda oddiydan murakkabga qarab borish lozim.
- 2) O'quv materiali bolalarni yosh xususiyatiga hamda har bir fanning mazmunidan kelib chikishi lozim.
- 3) Ta'lim berishning bolalik davrdan uzluksiz balog'at yoshgacha olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.
- 4) O'g'il va qiz bolalarga ta'limda bir xil talablar qo'yib, tarbiyada o'ziga xos tomonlariga e'tibor qaratish lozim.

5) Ta'limda turli xil usul, vositalardan foydalanish lozim.

6) Bolalarni diqqatini jalb qila olish lozim.

7) Tashkilotchiligi, tashabbuskorligi bilan bolalarga namuna bo'lishi lozim.

Sharq mutafakkirlari fikricha pedagogik mahorat natijasi quyidagilarda namoyon bo'ladi.

1. O'quvchilarni o'zlashtirishlarida.
2. Pedagogik muammolarni yechishda.
3. O'quvchilarga ta'sir ko'rsatish.
4. Nazariy bilimlarni amalda qo'llay olishda Arab xalifaligida yuz bergan ijtimoiy - siyosiy o'zgarisqlar, yagona Islom dinining tarkib topishi madaniy hayotga ham ta'sir etadi.

IX asr Sharq mamlakatlarida bosqlangan va madaniy hayotda yuz bergan ko'tarinkilik ma'naviy hayotda ham o'zgarisqlar bo'lishiga olib keladi. Ana shu ko'tarinish butun Arab xalifaligini, Yaqin va O'rta Sharqni qamrab olganligi uchun ham Sharq Uyg'onishi davri deb ataldi.

Bu uyg'onish jarayoni IX asrlardan bosqlab XV - XVI asrlargacha davom etdi. Bu jarayonda arab xalifa xalqlari bilan birga Eron, Kavkaz Shimoliy Afrika, Markaziy Osiyo olimlari ham ishtirok etdilar. Chunki arab xalifaligida IX asrda vujudga kelgan uyg'onish davri xalifalikni Bogdod, Damashq, Xalab shaxarlarida bosqlanib, barcha boshqa xalq madaniy hayotga tarqaladi va bu jarayonni bosqlab beradi. Buni biz xalifa Xorun ar - Rashid (786 - 833), sung uning ugli al - Ma'un davrida Bogdodda «Baytun hikmat» («Donishmandlik uyi») xozirgi davrda Akademiya ma'nosida tashkil etilganidan ham bilsak bo'ladi. Mazkur Akademiya 813-833-yillarda yanada rivojlangan. Akademiya qoshida rasadxona ham bo'lgani, ya'ni kutubxona ko'rilgan. Bogdodagi mazkur ilm markazi, o'z navbatida Sharq va g'arbda ilm fanning tarakkiy etishiga ma'naviy xayotning rivojlanishiga ta'sir etgan, bu haqda mazkur «Baytul xikmat»ning ilmiy isqlariga rahbarlik qilgan

Al -Xorazmiy xalifa, Al-Ma'unning ilm-fan ravnaqiga qay darajada homiylik kilganini «al-jabr va al-Muqabala hisobi haqida» asarida shunday ta'riflangan: «Ollloh Imom al-Ma'unga. Unga meros bo'lib qo'lgan halifalik lavozimini in'om qilib, muruvvat etganligi, bu lavozim libosini kiydirib, uni bezaganligini va shu bilan birga unda fanlarga muhabbat va olimlarni o'ziga yaqin tutishga intilishi (hissiyotini) uyg'otganligini menga jasorat ato qiladi, (chunki u) ularning ostiga ustiga o'z homiylik qanotini yezib, ularga noaniq bo'lgan narsalarni yoritishga va ular uchun mushkul bo'lgan narsalarni osonlashtirishga yordamlashadi». Shuningdek Sharq uyg'onishi davrining paydo bo'lishida asosiy manba qadimgi yaratilgan madaniy yodg'orliklar jam bo'lib, ular xoh yunon, xoh arab, xoh Mavaraunnahr va Xuroson xalqining eng qadimgi antik davrlar madaniy yodg'orliklari ham bo'lsin, Uyg'onish davri madaniyatining yaratilishi va rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Zero, agar arablar, Markaziy Osiyoni bosib, bu yerdan ilgari mavjud bo'lgan fan va madaniyat o'choqlarini yo'qotgan bo'lsalar, ko'p o'tmay

qadimiy ilmiy an'ana asta-sekin tiklanib natijada ilm- fanning yetuk siymolari yetishib chiqq bosqladi. Yaqin Sharqda, jumladan Eron, Zakavkaziya va Movaraunnahrda savdo aloqalarining rivojlanganligi, ilm-fan, hunarmandchilikning taraqqiy etishi moddiy va madaniy aloqalarning barchasi umumiy rivojlanishga ta'sir etadi. Bu davrda qisqaloq xo'jaligida foydalanadigan yer maydonlari kengaydi, ko'plab sug'oriladigan yerlar ochildi, sug'orish inshootlari tiklandi, yangilari ko'rildi, paxta, zigir, kanop ekilib, ularning tolasidan mato to'qildi.

Yusuf Xos Xojib, Maxmud Koshgariy kabi olimlar jahon ahamiyatiga ega bo'lgan asarlarini yaratadilar. IX asarda Xorazmda ilm - fan ayniqsa taraqqiy etdi. Xorazm shohi Ma'mun o'z saroyig eng zabardast olimlarni taklif etdi. U tashkil etgan «Baytul hikmat» - Donishmandlar uyi tarixida «Ma'un akademiyasi» deb nom qoldirgan. Bu akademiyaning rivoj topishida Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, tarixchi Miskavayx, riyozatchi Abu Nosr ibn Irok, faylasuf Abu Saxl al - Masxiy, tabib Abdulxayr Hammor kabi olimlar ilmiy ijodlar bilan muhim rol o'ynaydilar. Lyokin toj-taxt uchun ko'rash natijasida bu ilm dargohi o'z faoliyatini to'htatib, olimlar tarqalib ketadi. Mavaraunnahr va Xurosonda mo'g'illar istibdodi davrida «Uyg'onish» davri tanazullga yuz tutdi. Sharq uyg'onish davri madaniy rivojlanishida ilm - fan shartli ravishda uch yo'nalishda rivojlanganligini ko'ramiz. Birinchi yo'nalish-matematika, tibbiyot yo'nalishidagi fanlar bo'lib, bularga matematika, astranomiya, kimyo, geografiya, geodeziya, meneralogiya, tibbiyot farmokologiya va boshqa shularga turdosh fanlar kiritilib, Muxammad Muso al-Xorazmiy, Axmad Fargoniylar matematikaga oid Zakriye ar-Roziy kimyo va tibbiyotga oid Ibn Sino, Jurjoniylar tibbiyot va falsafa, Abu Rayxon Beruniy, Ulugbek, Ali Qo'shchilar astranomiya va tibbiyotga oid yirik asarlar yaratdilar. Ikkinchi yo'nalish ijtimoiy-falsafiy yo'nalish bo'lib, bunda falsafa, texnika, mantiq, fikr ruhshunoslik, notiqlik va boshqa sohalar bo'lib, bu sohala Al-Farobiy, Al-Kindiy, Ibn Rusht, Ibn Sino, Zaxiriddin Bahaqiy, Muxammad Narshaxiy va bosqalarni ko'rsatish mumkin. Lyokin biz ko'rsatib o'tgan olimlar qomusiy olimlar bo'lib, asosiy kashf etgan ilm sohalar bilan bir qatorda boshqa bir necha fanlarga doir ham tadqiqotlar olib borganlar. Uchinchi yo'nalish ta'lim-aqloqiy yo'nalish bo'lib, bu sohada qomusiy olimlar o'z qarasqlarini ijtimoiy-falsafiy asarlarida ifodalaydilar.

Antik pedagogikada tabiatga, atrof-muhitga o'zaro ongli munosabatlarda, axloqiy munosabatlar majmuasi bo'lgan donishmandlik pedagogikasi shakllangan. Bu vaqtlarda tarbiyaning bosh maqsadi ham yosqlarda donishmandlik sifatlarini shakllantirish bo'lgan. Donishmandlik pedagogikasida yosqlarda mehnatsevarlik ma'naviy - axloqiy sifatlar bilan uyg'un rivojlantirilishi maqsadga muvofiq ekanligi ilgari surilgan. Bu pedagogik qarasqlar mashhur «Avesto» (er.av. VII asr) asarida va qadimgi Xitoyning Daos maktabi (er.av. III asr) tajribalarida aks etgan edi. Eramizdan avvalgi II asrlarga kelib O'rta Osiyo, qadimgi Hindiston pedagogikasida saxiylik, sofdillik, inson qalbi tushunchalari ilgari surilgan. "Qur'oni karim", Hadisi shariflarda, shuningdek, buyuk mutafakkirlar Muhammad Ismoil al-Buxoriy, Muhammad Iso at-Termiziy, Mahmud Qoshg'ariy, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Husayn Voiz Koshifiy, Amir Temur, Alisher Navoiylarning ilmiy merosida nodir fikrlar tarzida o'z ifodasini topgan.

O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA QIZIQTIRISHDA DIDAKTIK-TA'MINOTNING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Eldasheva G. V.

Annotatsiya. XXI asrda jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, YuNESKO tomonidan 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "o'qitish va kasbga tayyorlashda, turli xil ta'lim olish imkoniyatlarini kuchaytirish va kengaytirish" dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Bu maktab o'quvchilarini kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorgarligini oshirish va ularning kasb tanlashga oid tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalaridan foydalangan holda yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Pedagogika fani mustaqil O'zbekiston Respublikasida amal qiladigan uzluksiz ta'lim-tarbiyaning nazariy asoslari, qonuniyatlari va prinsiplari, o'ziga xos yo'nalishlari ta'lim tarbiyaning shakllanishi, tarixiy taraqqiyot bosqicqlarini o'rgatuvchi fandır. Jahon va Sharq pedagogik tafakkur durdonalari, badiiy va tasavvuf asarlari, sharq ta'lim vositalari va usullari, milliy istiqloq g'oyasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va tabiatshunoslik klasterini o'zida mujassam etgan manbalar pedagogika fanining asosiy o'zagi sifatida tan olingan.

O'quvchilarning dars jarayonida kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilsa, sinfdan tashqari isqlarni tashkil etish tizimida maqsadga muvofiqlik yetarli darajada aks etmaydi. Bu kabi muammolar uzoq yillardan buyon mamalakatimiz va xorij pedagog olimlari tomonidan keng o'rganilib kelinmoqda. Jumladan, S.Ya.Batishev, V.P.Bespalko, V.V.Koralevskiy, I.V.Korotova, V.P.Mitronin, V.G.Razumovskiy, D.A.Txorjevskiy va boshqa olimlar o'z ilmiy tadqiqotlarida mehnat ta'limi-tarbiyasi, darsdan va maktabdan tashqari isqlarni hamda yo'sqlarning unumli amaliy mehnatini nazariy ta'lim bilan bog'lab olib borish masalalarini yoritganlar.

K.Davlatov o'zining "Mehnat va kasb ta'limi tarbiyasidan amaliy mashg'ulotlar" nomli qo'llanmasida mustaqil va laboratoriya isqlariga doir materiallarni bayon etgan. Shuningdek, bu sohadagi vazifa va topshiriqlarni bajarish, mavjud muammolarni hal etish, o'quvchilarning mehnat ta'limi va kasbiy yo'nalishini yuksaltirish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni yuqori darajaga olib chiqish yo'llari yoritilgan. K.Davlatov va V.A.Chichkovlarning "O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash" nomli metodik qo'llanmasida to'garak mashg'uloti, sayohat, uchrashuv, kasbga yo'naltiruvchi kechalar kabilarni uyushtirish va o'tkazish yo'llari yoritilgan. P.Xolmatov esa o'zining ilmiy izlanisqlarida o'quvchilarni kasb-hunarga qiziqtirishda sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarning ahamiyati kattaligi haqida fikr yuritib, darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga qiziqtirish texnologiyasini tavsiya etgan.

A.V.Maksimov o'zining ilmiy tadqiqot isqlarida qisqaloq xo'jalik kasb-hunar o'quv yurtlarida o'quvchilarning ijodkorlik mahoratini aniqlash bo'yicha musobaqa (konkurs)lar o'tkazish metodikasiga asosiy e'tiborni qaratgan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida badiiy ijodkorlik va loyihalash hamda kasb-hunar to'garaklari ishini tashkil qilish asoslarini S.S.Bulatov, V.A.Ma'zur [84] va boshqa shu kabi ko'plab olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqot isqlarida yoritganlar.

Respublikamiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqqan holda qo'yilgan talablar yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirishning ilmiy-amaliy muammolari yechimini topishga qaratilgan tadqiqotlar faollashuviga sabab bo'ldi.

Bugungi kunda kasb tanlashning asosiy maqsadi har bir o'quvchiga kasb tanlashda o'zining

shaxsiy fazilatlarini, qiziqisqlari, iste'dodlari, qobiliyatlarini uyg'unlashtirib, o'z ehtiyojlariga javob beradigan sohani ongli ravishda tanlashga o'rgatishdir. Muammoning to'liq yechimini topishga to'sqinlik qiluvchi asosiy to'siqlardan biri tadqiqot odatda o'rtacha o'quvchining ma'lum bir tartibda belgilanadigan shaxsiyatiga qaratilganligi bilan izoqlanadi.

Natijada:

- 1) o'quvchilarga kasb tanlashda individual, tabaqalashtirilgan yondashuv joriy etilmayapti;
- 2) ko'p hollarda quruq nutqdan iborat deklarativ usullar bilan cheklangan;
- 3) o'quvchilarning o'zlari qiziqqan yoki tanlagan kasbining xususiyatlarini bilib olisqlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmagan.

o'quvchilarning kasblar olamida yo'nalish olishiga yordam beruvchi hamda o'z individual imkoniyatlarini haqqoniy baholay olish ko'nikmalari zarur darajasini ta'minlovchi kasbiy axborotlar tizimini yaratish o'quvchilarning kasb-hunar tanlashiga yordam berish maqsadida shaxsni o'rganishning tashxis metodlarini isqlab chiqish yosqlarga kasbiy maslahatlar berishning nazariy va metodik asoslarini yaratish;

kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatli mayllarini asoslash umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashning vosita va yo'llarini aniqlash bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb tanlashga erkin yo'naltirishning mazmuni, shakl va metodlarini belgilash alohida olingan hududiy markazlarda yosqlarni kasb tanlashga yo'llash ishini boshqarish xususiyatlarini belgilab berish talab etiladi

Shahar, tuman va boshqa hududiy muassasalarda o'quvchilarga kasb tanlashda mahalliy sharoitdan kelib chiqib yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi mutaxassislariga ehtiyoj bo'yicha joriy va istiqbolli dasturlar isqlab chiqilmagan. Shuning uchun ham o'quvchilar hayotida muhim o'rin tutadigan texnologiya darslarini to'g'ri tashkil etish va o'quvchilarning texnologiyadan oqilona foydalanisqlariga yordam berish kerak. Umumta'lim maktablarida texnologiya fanlari (texnologiya va dizayn, xizmat ko'rsatish) kurslarida amaliy ish olib borish jarayonida o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkazish, o'quvchilar va ota-onalar bilan so'rovnomalar o'tkazish orqali ularning qiziqisqlari, iste'dod va qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish zarur.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologik ta'lim darslari, o'quvchilarni ijtimoiy foydali mehnat faoliyatiga jalb etish, ularning tashabbuskorligini, mustaqilligini rag'batlantirib borish, individual qiziqish, iste'dod va qobiliyatlarini uyg'unlashtirishdan iborat.

Mamlakatimizda ta'lim mazmuni tubdan isloh qilinayotgan bugungi unda o'quvchilarning texnik va ijodiy bilimga bo'lgan ehtiyoji yangicha talqinda rivojlantirilmoqda.

So'nggi yillarda asosan yangi va takomillashtirilgan ko'rgazmali qurollar va o'quv qurollari, maktab ustaxonalari uchun texnologik jihozlar, tadqiqot predmetlari texnologik (mehnat) ta'lim sinflarida o'quvchilarning texnik ijodiyoti ob'ektiga aylandi.

Pedagog olimlar V.A.Gorskiy, D.M.Komskiylarning hayvonot dunyosini chuqur o'rganish, ekinlar hosildorligini, chorvachilik va parranda mahsuldorligini oshirish yo'llarini eksperimental o'rganish, qisqloq xo'jaligi rentabelligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash, mahalliy iqlim sharoiti imkoniyatlarini hisobga olish, o'quvchilarning tabiatni muhofaza qilish faoliyati, tirik tabiat burchagi, maktab tajriba maydonida o'quvchilarning isqlab chiqarish guruxlari, issiqxonalaridagi isqlari bilan bog'liq amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarning sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayoni deb ataladi.

Yuqorida bayot etilgan olimlarning fikr-mulohazalari asosida o'quvchilar o'z qiziqisqlarini, qobiliyatlarini, talab va istaklarini aniqlash, uyg'unlashtirish va moslashtirish, jamiyat uchun zarur bo'lgan kasblarni tanlash, davlat va jamiyatning kelajakdagi rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin. Ongli ravishda tanlagan kasblar o'z kasbi doirasida amalga oshirgan faoliyatida o'zini ko'rsatdi.

Taqlillar natijalari asosida pedagog olimlarning fikr-mulohazalarini taqlil qilib, umumiy o'rta ta'lim maktablarining texnologiya to'garaklarida o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini uyg'unlashtirib, kasb-hunar tanlashga moyilligini aniqlaymiz. O'ylaymizki,

bu o'quvchilarning afsuslanmasligiga yordam beradi. O'quvchilar tanlagan kasbi bo'yicha rejalashtirgan g'oyalarini amalga oshirishda yordam beradi, deb o'ylaymiz.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologik (mehnat) ta'limga o'tish jarayonida amaliy topshiriqlar natijasida o'quvchilarning qaysi kasbga qiziqishi, ularning qobiliyat va mayllarini aniqlash mumkin. Sinf rahbari, maktab psixologi, kasbga yo'naltirish bo'yicha mutaxassis, o'quvchilarni kasb-hunarga qiziqtirishda asosiy bo'g'in hisoblanadi. Albatta, u o'z faoliyatini dastlab DTS asosida olib borishi talab etiladi.

Darhaqiqat, texnologiya fanining maqsadlari Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarida o'z ifodasini topgan. Ushbu hujjatlarda mehnatga muhabbat va mehnatkash insonlarga hurmat, zamonaviy sanoat va qisqloq xo'jaligi isqlab chiqarishi, xizmat ko'rsatish, ta'lim-tarbiya va foydali ishbilarmon o'quvchilarga hurmat yuqori bo'lgan maktabda texnologik ta'limning maqsadi ko'rsatilgan.

Ularda mehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirish, kasbni ongli ravishda tanlash, bosqlang'ich kasb-hunar ta'limini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Texnologiya darslarida mehnat ta'limining umumiy vazifalarini yanada belgilash ularni quyidagi uch guruhga birlashtirishni taqozo etadi. Shu jumladan:

Umumiy vazifalar:

- qisqloq xo'jaligining turli tarmoqlarida ishchilar, texnik xodimlar, muhandislar mehnati, asbob uskunalar, texnologik jarayonlar va isqlab chiqarishni tashkil etish mazmuni haqidagi o'quvchilarning bilim va tushunchalarini kengaytirish va chuqurlashtirish;

- o'quvchilarni texnologiyada ilg'or texnologik g'oyalar rivojlanish yo'llari, zamonaviy isqlab chiqarishda fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalisqlari bilan tanishtirish;

- O'quvchilarga mamlakatimizda yosqlarni ommaviy tashkil etish shakllari, ilmiy-texnik ijodkorlik, texnik va madaniy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish, ilmiy-texnikaviy adabiyotlar bilan isqlash qoidalari, fanga oid zarur ilmiy-texnik bilimlar, fanlar bo'yicha zarur bilimlarni shakllantirish; texnologiya. va isqlab chiqarish usullari;

- zamonaviy isqlab chiqarishda mehnatni ratsionalizatsiya va ijodiy tashkil etish asoslari bilan tanishtirish;

- o'quvchilarni viloyatdagi kasb-hunar ta'limi tizimi, tuman (shahar)dagi ishchi kasbining qiziqarli jihatlari bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy vazifalar:

- o'quvchilarda bilishga intilish, texnik havaskorlik va mazkur mintaqadagi texnika hamda isqlab chiqarishning yetakchi tarmoqlariga barqaror qiziqishni tarbiyalash;

- korxonalar, fabrikalar, qisqloq xo'jaligi sohasida, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlarida faoliyat ko'rsatayotgan yuqori malakali pedagog kadrlar, ilm-fan, texnika va isqlab chiqarishning taniqli mutaxassislariga chuqur hurmat tuyg'usini tarbiyalash;

- o'quvchilarda hayotda, mehnatda, o'qishda, mustaqil bilim olishda, birga yashaydigan kishilarga, o'rtoqlarga munosabatda, mahalliy isqlab chiqarish sanoatidagi eng namunali mutaxassislarga taqlid qilish ishtiyoqini tarbiyalash va rivojlantirish;

- inson o'z mehnatining natijadorligiga ongli munosabatda bo'lish, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, tabiatga nisbatan tejamkorlik, iqtisodiy va ekologik tarbiyani shakllantirish;

- mehnatga nisbatan ijodiy yondashish, mahalliy isqlab chiqarishda ishning zamonaviy ilg'or uslublari, mahalliy korxonalarda mavzuli ratsionalizatsiya va bunyodkorlik ish rejaları, hududning yetakchi tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan kasblarga barqaror qiziqish uyg'otish; muayyan ish joyida isqlash haqida xabardorlikni oshirish;

- mahalliy isqlab chiqaruvchilarni mahalliy sanoat mahsulotlari isqlab chiqarish, isqlab chiqarishda foydalaniladigan mashinalar va mexanizmlar, mahalliy isqlab chiqarishdagi kasblar tarixi hamda mehnat faxriylariga hurmatni kuchaytirish.

Amaliy vazifalar:

- turli asbob-uskunalar, asboblar, asbob-uskunalar va mashinalar bilan isqlashda ishchi kuchining malakasini oshirish va takomillashtirish;
- ish joyida samaradorlikni oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan texnik va isqlab chiqarish muammolarini topish va hal qilish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish;
- ratsionalizatorlik takliflariga ariza yozish, yaratilgan texnik qurilmaning texnik ma'lumotlarini tuza olish, taklif etilayotgan loyihani qo'llab-quvvatlash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- novator va ixtirochilarning ijodiy tajribasini o'zlashtirib, ular bilan hamkorlik qilishga intilish.

Yuqoridagi pedagogik vazifalarni hal etishda o'quvchilar bilan olib boriladigan dars va darsdan tashqari isqlar o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning umumiy tamoyillari asosida yo'lga qo'yilishi kerak.

TA'LIM JARAYONIDA TESKARI O'QITISH (FLIPPED LEARNING) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Hamidova Laylo Kamildjonovna?

*SamDU "Maktabgacha, bosqlang'ich ta'lim va texnologiya"
kafedrası 1-kurs doktoranti*

<https://orcid.org/0009-0008-9008-7045>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida teskari o'qitishning ahamiyati, elektron ta'lim va an'anaviy ta'lim integratsiyasi bo'lmish aralash ta'lim texnologiyasi va uning modellari, xususan, "Flipped learning" texnologiyasi va uning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, maqolada asosiy tamoyillar va "flipped learning" ta'lim texnologiyasining xususiyatlari, ta'lim jarayonida ushbu texnologiyadan foydalanishning shart-sharoitlari va sabablari bayon etilgan. "Flipped learning" ya'ni "teskari o'qitish" ta'lim texnologiyasi haqidagi ta'riflar va "Flipped learning" ta'lim texnologiyasi asoschilari haqida keltirilgan. Shu bilan birga taqdim etilgan qiyosiy xususiyatlar orqali an'anaviy ta'lim shakli va "teskari o'qitish" printsiplarga e'tibor qaratildi. Teskari sinf usuli ta'lim maqsadlarini "teskari o'zgartirish" ni nazarda tutadi shu sababdan maqolada ushbu jarayon "Blum taksonomiyasi" bo'yicha taqlil qilib berilgan.

Kalit so'zlar: Flipped learning, aralash ta'lim, an'anaviy ta'lim, elektron ta'lim, blum taksonomiyasi.

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИИ ПЕРЕВЕРНУТОЕ ОБУЧЕНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Хамидова Лайло Камилджоновна

докторант 1 курса кафедры

«Дошкольное, начальное образование и технологии» СамГУ

Аннотация: В этой статье цитируется, значение перевернутого обучения в образовательном процессе, смешанное образование и его модели, представляющие собой интеграцию электронного образования и традиционного образования, технология «Перевернутое обучение» и ее роль в образовательном процессе. Информация и описано использование образовательной технологии «Flipped Learning» и условия использования этой технологии в образовательном процессе. Определения образовательной технологии «перевернутого обучения» и основатели образовательной технологии «перевернутого обучения». При этом через подготовленное сравнительное исследование было обращено внимание на традиционную форму обучения и принципы «обратного обучения». Метод перевернутого класса предполагает «переворот» образовательных инструментов, поэтому в статье этот процесс анализируется по принципу «Таксономии Блума».

Ключевые слова: Перевернутое обучение, смешанное образование, традиционное образование, электронное образование, таксономия Блума.

ADVANTAGES OF USING FLIPPED LEARNING TECHNOLOGY IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Hamidova Laylo Kamildjonovna

1st year doctoral student of the department

SamDU «Preschool, primary education and technology»

Abstract. In this article, the importance of flipped learning in the educational process, the integration of e-learning and traditional educational technology and its models, in particular, «Flipped learning» technology and its role in the educational process. Information on its

features and benefits is provided. The article also describes the main principles and features of the «flipped learning» educational technology, the conditions and reasons for using this technology in the educational process. Definitions of the educational technology «Flipped learning» and the founders of the educational technology «Flipped learning» are given. At the same time, through the presented comparative features, attention was paid to the traditional form of education and the principles of «reverse education». The flipped classroom method implies a «reversal» of educational goals, therefore, this process is analyzed in the article according to «Bloom's Taxonomy».

Key words: Flipped learning, mixed education, traditional education, electronic education, Bloom's taxonomy.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishi sifatida dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarni zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama taqtil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o'rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish kabilar belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining 3-bob 2-qismida ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy qilishga alohida e'tibor qaratilgan[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.10.2020-yildagi PQ-4851-sonli[2] “Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT – industriya bilan integratsiya qilish chora tadbirlari to'g'risida”gi qarorida oliy ta'lim tizimida axborot texnologiyalar sohasini rivojlantirish, fanlarni o'qitishda ta'lim jarayonini integratsiyalash kabi bir qancha masalalar ko'rib chiqilgan. Ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom”, “sun'iy intellekt” va “virtual haqiqat” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aralash ta'lim (blended learning) texnologiyasining ko'plab samarali modellari mavjud bo'lib, teskari sinf (flipped classroom) texnologiyasi joy almashinuvi modeli (Station Rotation Model)ning sub-modeli hisoblanadi. An'anaviy ta'lim va masofaviy ta'limni o'z ichiga olgan teskari sinf (flipped classroom) texnologiyasi TOR-1000 reytingidan samarali foydalanib, yuqori natijalarga erishilmoqda [7;B.3].

Hozirgi kunda eski an'anaviy uslubdagi darslar yosqlarimiz ehtiyojini qondirmaydi, ular bunday darslarni tinglash vaqtida zerikishadi. Chunki, fikrlash va tafakkur boshqa, aynan biror fan bo'yicha bilimga ega bo'lish boshqa. Fikrlash va tafakkur tabiiy aql mahsuli, bilim olish esa –bu ta'lim muassasasi, pedagog faoliyati mahsuli. Yosqlarimizni fikrlashi va tafakkuri bundan 15-20 yil avvalgi yosqlarga nisbatan ancha baland va tezdir. Agar pedagog yosqlar bilan hamnafas fikrlamasa, zamon yangiliklariga va talablariga yosqlardanda tez bo'lmasa, uning ta'lim–tarbiya sohasidagi faoliyati samarasiz bo'lib qoladi.

“Flipped learning” ta'lim texnologiyasi asoschilari AQSQlik ikki fizika va kimyo fani o'qituvchilari Jonatan Bergman va Aaron Samsdir (2000-y). Ular o'z darslarini yanada samaraliroq qilish maqsadida ushbu atamani o'ylab topishdi va uni birinchi marta sinab ko'rishdi. Bu usul asosan, teskari dars, aralash ta'lim shakllaridan biri hisoblanadi. “Flip your classroom (reach every student in every class every day)”[8] (2012), “Flepped learning (gateway to student engagement)” [9] (2014) kabi o'quv qo'llanma va darsliklar Jonatan Bergman va Aaron Sams birgalikda olib borilgan izlansqlar va tadqiqotlarini yoritib beradi.

Shuningdek, “Teskari o‘qitish” (flipped learning) texnologiyasi yuzasidan Brame, Bormann, Herreid va Schillers teskari ta’limdan foydalanish va uning o‘qitishga ta’siri bo‘yicha, Segolsson esa Bosqlang‘ich maktabda teskari ta’limdan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Shuningdek, G.Overmyer [10] (2014), J.Srayer [11] (2007) “teskari sinf” modelidan foydalanish va uning afzalliklari bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Rus olimlari orasida aralash ta’lim masalalarida quyidagi olimlar tadqiqot isqlarini olib borishgan: Y.I. Kapustina «To‘liq vaqtda ta’lim va masofaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llashning samarali kombinatsiyasi» uchun pedagogik va tashkiliy shartlar yaratish bo‘yicha, M.N. Moxova «Qo‘shimcha pedagogik ta’lim tizimida aralash ta’limda faol usullar» mavzusida, M.S. Orlova «Professional kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishga qaratilgan dasturlashda aralash ta’lim tizimi» bo‘yicha, V.A. Fandei «Til universitetida chet (ingliz) tilini aralash o‘qitish shakllaridan foydalanishning nazariy va pragmatik asoslari» mavzularida ko‘plab izlanisqlar olib borishgan.

2017-yilda Bosh ilmiy-metodik markaz katta ilmiy xodimi-izlanuvchi M.R.Fayziyeva “Flipped learning” va uning ta’lim jarayoniga amaliy tadqiqot yuzasidan tadqiqotlar o‘tkazgan va ilmiy isqlar olib borgan. Sh.Rashidov nomidagi SamDu doktoranti U. Qodirov (Flipped classroom) modeli bo‘yicha izlanisqlar olib borgan, Sh.Sh.Allamova “Umumta’lim maktablarida aralash ta’lim metodikasini isqlab chiqish” nomli ilmiy ishida Teskari o‘qitish (Flipped Learning) modelinining afzalliklari va kamchiliklarini yoritib bergan.

2011-yilda Clintondale High School da Michigan shtatida katta eksperimental tadqiqotlar o‘tkazildi. Tadqiqotni o‘qituvchi Andy Scheel tashkil etdi. Talabalar bir xil mazmunga ega bo‘lgan materialni oldilar ammo ta’lim jarayonini tashkil etish shakli sezilarli darajada farq qildi, chunki bir gurux talabalar (teskari o‘qitish) “flipped learning” texnologiyasi asosida isqladi. Tajriba 20 hafta davomida amalga oshirildi va an’anaviy texnologiya bo‘yicha talabalarining 13% o‘quv materiallarini qoniqarli darajada o‘zlashtirmagan. “Flipped learning” texnologiyasidagi talabalarining hech biri salbiy natija ko‘rsatmagan. Ularning bilimlarini C+darajasidan kamroq baholagan. Tajriba shuni ko‘rsatdiki ta’lim ta’sirining eng yaxshi omili ko‘p vaqt davom etadigan barcha o‘quv mashg‘ulotlarining yozuvlari emas, balki davomiyligi 3-6 daqiqadan oshmaydigan kichik video darslardir. “Flipped learning” texnologiyasining muvaffaqiyatlari universitet ta’lim tizimida ham amalga oshirilmogda. Bunda Turkiyaning xususiy MEF universiteti yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu teskari o‘qitish ya’ni “Flipped learning” modelini amalga oshiradigan va ushbu muqobil texnologiya bo‘yicha umumiy tajribani amalga oshiradigan birinchi universitetdir. MEF universitetida xodimlar tomonidan o‘tkazilgan “Flipped learning” modelini amalga oshirish amaliyotini taqlil qilish shuni ko‘rsatdiki, ushbu metod juda muvaffaqiyatli amalga oshirildi. “Flipped learning” texnologiyasi oliy o‘quv yurtlari talabalarining o‘ziga xos xususiyatlari va ta’lim ehtiyojlariga mos ravishda o‘zgartirildi. Talabalar uchun qulay tarzda isqlab chiqilgan raqamli o‘quv materiallarini o‘rganish bilan bir qatorda, o‘qituvchi bilan auditoriyadan oldindan savollar berish, sharh va tavsiyalar olish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Texnologiyani amalga oshirish natijasida pedogogik va ijtimoiy ta’sir taqlili ostida ta’lim oluvchilar va tadqiqotchi talabalar o‘quv materiallarini chuqur o‘rganadilar, professional mahorat, muloqot ko‘nikmalari, o‘z-o‘zini aks ettirish, o‘z bilim faoliyatini rejalashtirish qobilyati rivojlanadi[4].

“Teskari o‘qitish” bu oddiy o‘qitish jarayonini quyidagi tarzda “aylantirish” imkonini beruvchi aralash ta’lim shaklidir. Bunda bilim oluvchilar uy vazifasi o‘rniga yangi o‘tilishi lozim bo‘lgan mavzu yuzasidan tayyorlangan materialni tomosha qilishadi. Internetdagi qisqa video ma’ruzalar o‘quvchi nazariy materiallarni mustaqil ravishda o‘rganadi va dars vaqtida asosiy e’tibor amaliy vazifalarni birgalikda bajarishga qaratiladi [7;58-b].

Bu orqali o‘qituvchi va o‘quvchi fan yuzasidan maliy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishga ko‘proq vaqt sarflash imkoniga ega bo‘ladi.(1-rasm).

Nega mashg‘ulotlarni teskari tomonga burish kerak? Asosiy rag‘batlantiruvchi omil

o'qituvchining kundalik ishida duch keladigan bir qator muammolar mavjudligi.

O'qitish jarayonini o'zgartirish uchun asosiy shartlar:

- talabalarning passivligi;
- o'qituvchining roli;
- zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish (shu jumladan IT);
- samarasiz zerikish;
- XXI asr malakalari;

Flipped learning – bu o'quv jarayonining tashkiliy asoslarini tubdan qayta ko'rib chiqish g'oyasini amalga oshirish sifatida qabul qilingan texnologiya. Bu texnologiyaning mohiyati audiovizual didaktik vositalardan foydalanish asosida sinfdan tashqari asosiy nazariy o'quv materiallarini mustaqil ravishda o'zlashtirish va o'qituvchi rahbarligida sinfda yangi bilim va ko'nikmalarni amalda mustahkamlashdan iborat. Texnologiya “teskari sinf”, “aylanma dars”, “o'girilib o'rganish” deb ham nomlanadi. O'qituvchi bu texnologiya bo'yicha dars berish jarayonida son-sanoqsiz yo'llarni bosib o'tadi, chunki o'quv konspekti va maqsadlarining qaysi xususiyatlari eng foydali ekanligini aniqlaydilar. Bu texnologiya ma'ruzani darsdan tashqari vaqt ichida o'tkazish odatda ba'zi bir elektron vositalar orqali o'qish va amaliy dastur topshiriqlarini ko'chirish va o'quvchilarga kengaytirilgan o'quv imkoniyatlarini yaratib keng o'zgaruvchanlikni yaratmoqda. Ma'ruza formatida slaydlar, audio, prezentatsiya, animatsiya, ekran tasvirlari va boshqa multimediyalar tarkiblarini o'z ichiga olgan videolavhalar ham o'rin oladi [8;B.56].

Flipped learning- bu to'g'ridan to'g'ri ko'rsatmalar, guruhning o'quv maydonidan individual o'quv maydoniga o'tadigan va natijada guruh maydoni o'zgaradigan pedagogik yondashuv. O'qituvchi o'quvchilar tushunchalarni qo'llashi va mavzu bo'yicha ijodiy shug'ullanishi paytida dinamik, interaktiv boshqaruvchidir. “Aylanma” deb nomlangan bunday kommunikativ yondashuv o'ziga xos uslubga ega bo'lib, bunday yondashuvda o'rgatish ommaviy ravishda qo'llaniladigan talabaning auditoriyadagi vazifasi uyga ko'chadi, uyga berilgan topshiriqlar esa auditoriyaga ko'chadi va shu sababli bu yondashuv “aylanma” deb nom oldi [9;B,21].

Bu yondashuv quyidagi pedagogik jarayonlarni qo'llab quvvatlaydi:

Quyida keltirilgan 1-jadvalda an'anaviy va aylanma kommunikativ (flipped learning) metodi qiyoslangan [5].

Teskari o'qitish: Bu usul o'quvchilar uchun ko'proq mustaqil ish yaratadi, ammo ularning dars materialini to'g'ri tushunishlarini va o'rganishlarini ta'minlash uchun o'qituvchi va o'quvchilar orasida ko'rsatma, ko'nikma va dars vaqti davomida taqlil qilish juda muhimdir.

Teskari o'qitish: O'qituvchi, dars vaqti davomida o'quvchilarga mashg'ulotlar uchun yordam beradi, qo'llanmalar taqdim etadi, yordam bera oladi va taqlil qiladi. O'quvchilar esa mustaqil ravishda dars materiallarini o'rganish uchun isqlaydilar.

Keling, 1958 yilda taklif qilingan Benjamin Blum taksonomiyasiga murojaat qilaylik. Aynan shu narsa zamonaviy ta'lim sohasida asosiy va muhim hisoblanadi. Blum taksonomiyasi o'quv faoliyatining turli sohalarini qamrab oladi: kognitiv (bilish), affektiv (hissiy - qadriyatli), psixomotor (harakat). O'quvchilarning kompetentligini oshirishda har bir soha bo'yicha mustaqil ta'lim jarayonidagi holati haqida to'xtalib o'tamiz.

1. Kognitiv soha. Bu sohada olingan bilimlarni mustaqil ravishda qayta takrorlash, ularni egallangan ko'nikma va malakalar bilan uyg'unlashtirish natijasida yangi mustaqil faoliyat yuritish va mashq bajarish qonun - qoidalarini o'rganish zaruratiga tegisqli o'quv maqsadlari kiritiladi.

2. Affektiv soha. Mustaqil ish bajarish jarayonida qiziqish va moyilliklarni shakllantirish, ichki hamda tashqi psixologik ta'sirlar natijasida bilim olish munosabatni shakllantirish, uni mustaqil faoliyat davomida tushunib yetish orqali faoliyat amaliyotiga tatbiq qilish maqsadlari kiritiladi.

3. Psixomotorli soha. Bunga mustaqil ish bajarish jarayonidagi psixologik faoliyat,

jarayonlarda jismoniy faoliyat natijasida, asab muskullarini markazlashtirish ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq maqsadlar kiritiladi [6].

Teskari o'qitish jarayonida ta'lim maqsadlariga erishish pastdan yuqori darajaga qarab chiziqli ravishda sodir bo'ladi, shuning uchun yangi mavzuni o'rganishda asosiy e'tibor birinchi 1-3 darajaga qaratiladi (2-rasm). Maslahat, yordam va qo'llab-quvvatlashni talab qiladigan eng qiyin darajalar o'tkazib yuboriladi yoki o'tib ketadi. uy vazifasi rejimiga o'tkazish. Shuning uchun teskari sinf usuli ta'lim maqsadlarini "teskari o'zgartirish" ni nazarda tutadi. Birinchi 2 daraja (qisman 3-daraja) uyda o'rganiladi, keyingi uchasi esa o'qituvchi bilan sinfda amalga oshiriladi [7;61-b]

Ta'lim jarayonida teskari o'qitish (flipped learning) texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1.O'quvchilarning mustaqil o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish: Flipped Learning modeli o'quvchilarni darsdan tashqari vaqtida yangi materiallarni mustaqil o'rganishga undaydi. Bu esa ularning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini va mustaqil o'rganishni kuchaytiradi.

2.Dars vaqtidan samarali foydalanish: An'anaviy modelda ko'p vaqt ma'ruzalar o'qishga sarflanadi. Flipped Learning modelida esa o'quvchilar uyda yangi materiallar bilan tanishadilar va sinf vaqtini muhokama, amaliy mashg'ulotlar va o'qituvchi bilan yuzma-yuz isqlashga sarflashadi. Bu o'qituvchiga har bir o'quvchiga ko'proq e'tibor berish imkonini beradi.

3.O'quv materiallariga doimiy kirish: O'quv materiallari video yoki elektron shaklda taqdim etilganda, o'quvchilar istalgan vaqtda va istalgan joyda ularga kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu o'z navbatida, tushunmovchiliklarni bartaraf etishda va o'quv materiallarini takrorlashda yordam beradi.

4.Shaxsiylashtirilgan ta'lim: Flipped Learning yondashuvida o'qituvchilar o'quvchilarning individual ehtiyojlariga ko'proq moslasha oladilar. Ba'zi o'quvchilar materialni tezroq o'zlashtirsa, boshqalari ko'proq vaqt talab qilishi mumkin. O'qituvchi esa har bir o'quvchiga mos keladigan yondashuvni tanlashi mumkin.

5.Faol o'rganishni rag'batlantirish: Sinfdagi vaqt asosan muhokama, guruh isqlari va amaliy mashg'ulotlarga bag'isqlanadi, bu esa o'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi.

6.O'quvchilararo hamkorlikni kuchaytirish: Guruh isqlari va loyihalarni bajarish jarayonida o'quvchilar bir-birlariga o'rgatish va yordam berish orqali o'zaro hamkorlik qiladilar. Bu esa o'quvchilarning jamoaviy isqlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

7.O'z-o'zini baholash va o'zaro baholash imkoniyatlari: Flipped Learning modeli o'quvchilarga o'z bilimlarini va o'rganish jarayonlarini muntazam ravishda baholash imkoniyatini beradi. Shuningdek, o'quvchilar bir-birlarining isqlarini baholash orqali qo'shimcha o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Individual va hamkorlikdagi amaliyot orqali o'rganishni sinfdan tashqarida kengaytirish samarali jarayonlardan bo'lib, ushbu darsdan oldin va dars davomida o'rganilgan mazmun va ko'nikmalar o'quvchilarni darsdan keyin ta'limni kengaytirishga (masalan, muammoni tugatish, loyiha yoki topshiriqning bir qismi ustida isqlashni bosqlash, mavzuni chuqurroq o'rganish uchun sinfda bosqlangan narsaga asoslanish, yolg'iz mashq qilish yoki tengdosqlar bilan hamkorlik qilish va hokazo) tayyorlaydi. Ta'lim oluvchilar dars davomida fan mazmunini amaliyotda qo'llash tajribasiga ega bo'lishadi, lekin ular darsdan keyin ham qo'shimcha amaliyotga muhtoj bo'lishi mumkin. Dars jarayonida sodir bo'layotgan voqealarni darsdan tashqariga kengaytirish ta'lim oluvchilar uchun o'zlashtirish va ta'lim natijalariga erishish uchun muhim qadamdir.

Teskari o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilarning tushunishini chuqurlashtirish uchun quyidagi fikrlar tavsiya qilinadi:

1. Ta'lim oluvchilar darsdan tashqarida mustaqil ravishda keyingi amaliyotga ega bo'lisqlari

uchun qo'shimcha muammoli topshiriqlarni taqdim etish (talabalarga zudlik bilan fikr bildirish uchun onlayn baholash tizimlaridan foydalanish mumkin);

2. Ta'lim oluvchilar darsda isqlab chiqilgan ko'nikma va bilimlarni o'zlashtirish hamda ularni yangi usulda yoki darsda yoritilmagan yangi vaziyatda qo'llashni talab qiladigan topshiriqlar yaratish;

3. Sinfda muhokama qilingan tushunchalarni yanada kengaytiradigan qo'shimcha o'qisqlarni belgilash;

4. Ta'lim oluvchilar norasmiy o'quv guruqlarini yaratishga undash;

5. Sinfda o'rganilayotgan tushunchalarni kengaytiradigan qo'shimcha muammolarni hal qilish;

Flipped Learning texnologiyasidan foydalanish o'qitish va o'rganish jarayonlarini tubdan o'zgartirishi mumkin, ammo bu yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur resurslar, o'qituvchi va o'quvchilarning tayyorgarligi hamda ta'lim muassasasining ushbu modelni qo'llab-quvvatlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Bugungi kunda an'anaviy o'quv jarayonini innovatsion ta'lim texnologiyalari bilan birlashtirish raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish oliy ta'limdagi dolzarb masala hisoblanadi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida aralash ta'limning teskari o'qitish (Flipped learning) modeli asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda, bilim, ko'nikma, malakalarini mustahkamlashda, ularda fanga bo'lgan qiziqishni oshirishda yordam beradi. Mazkur ta'lim texnologiyasining o'quv jarayonida qo'llanilishi ta'lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy bosqichida mavjud pedagogik tizim funksiyalarini tubdan o'zgartirish, jumladan, o'qituvchi rolini bir shakldan boshqa shaklga o'tkazish, innovatsion va kommunikatsiya texnologiya vositalarini joriy qilish, aralash va masofaviy ta'lim shakllarini keng yoyish, o'quvchining mustaqil o'quv faoliyatini oshirish va uzluksiz ta'limga yo'naltirish, o'quvchining individual psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim berish yo'llarini izlab topishga imkon beradi. Ta'limda Flipped learning texnologiyasidan foydalanish ham iqtisodiy, ham ijtimoiy foyda beradi. Shuning uchun ham bu boradagi nazariy, uslubiy va boshqa jihatlar davr talablari asosida takomillashtirilishi bugungi kunning dolzarb vazifalardan biri ekanligini unutmashimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar. Список литературы. (references):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son. <https://lex.uz/>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 06.10.2020-yildagi PQ-4851-son. <https://lex.uz/>

3. Raximov O.D., Turg'unov O.M., Mustafaev Q.O., Ro'ziev H.J.(2013). Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. Toshkent: "Fan va texnologiya nashriyoti", 200bet.

4. Rustamova Sh.A., Ubaydilloyeva M. U. "Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish samaradorligi". Volume 4 / CSPU Conference 1 / 2023

5. Tojiboyeva D.N. (2021) Oliy ta'lim tizimida flipped learning texnologiyasidan foydalanish.: JDPI. Tadqiqot olami Tom 3 № 3

6. Qo'ysinova G. H. (2023). O'quvchilar mustaqil ta'limini blum taksonomiyasi asosida tashkil etish. Ilmiy-amaliy konferensiya. <https://cyberleninka.ru/>

7. Xolmirov B. (2024). O'quv jarayonini teskari sinf (flipped classroom) texnologiyasi asosida takomillashtirish. Metodik qo'llanma – T.: "Yetakchi nashriyoti", 32 b.

8. Корнев М.Н. (2016). Перевернутое обучение - путь интенсификации современного урока. Текст научной статьи по специальности «Науки об образовании», <https://cyberleninka.ru/>

9. Bergmann, J., & Sams, A. (2012). Flip your Classroom: Reach Every Student in Every



Class Every Day. Washington: International Society for Technology in Education.

10. Bergmann, J., & Sams, A. (2014). Flipped Learning: Gateway to Student Engagement. Washington: International Society for Technology in Education.

11. Overmyer, G. R. (2014). The Flipped Classroom Model for College Algebra: Effects on Student Achievement (Doctoral dissertation). Fort Collins: Colorado State University.

12. Strayer, J. F. (2007). The Effects of the Classroom Flip on the Learning Environment: a Comparison of Learning Activity in a Traditional Classroom and a Flip Classroom that Used an Intelligent Tutoring System (Doctoral dissertation). Columbus: The Ohio State University.

13. www.webofscience.com

14. www.pdfdrive.com

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИК ВА ФАРҚЛАРНИ ҲИСОБГА ОЛИШНИНГ ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ИМКОНИАТЛАРИ

Kabulova Charos Turdikulovna

Toshkent shahar Yakkasaroy tumani 127-maktab o'qituvchisi KIUT mustaqil tadqiqotchisi

Аннотация. Мақолада таълим жараёнида айниқса бошланғич таълимда гендер тенглик ва фарқларни ҳисобга олишнинг педагогик ва психологик имкониятлари ҳақида фикр юритилган. Гендер назарияси тарихига оид маълумотлар ёритилган. Жинс идентификацияси шаклланиш жараёнида шахс улгайишининг дастлабки босқичлари ўта аҳамиятлилиги ва ўқувчининг жинсига таянган ҳолда унга таълим-тарбия бериш, ижтимоий ҳаётга тайёрлаш лозимлиги тавсия этилган.

Таянч тушунчалар гендер, феминизм, таълим жараёни, жинс, жинсий ривожланиш, малака, кўникма.

Гендер назариясининг вужудга келишида бугунги кунда ижтимоий-маданий ривожланишнинг муқобил назариясига айланган феминизм ҳал қилувчи аҳамият касб этди.

XX асрнинг 70-йилларида З.Фрейд ва Т.Парсонс ғоялари билан суғорилган анъанавий ижтимоий фандан қоникмаган феминизм назариячилари ўзларининг ғарбона маданий, тарбиявий, назарий-услубий ёндашувларини ифодалай бошлади. Феминистик ғояларнинг маданият ва таълим-тарбиянинг турли соҳаларига кириб бориши ниҳоятда жадал суръатлар билан давом этди. 70-йилларнинг бошида ҳаммани ҳайратга солган баҳс-мунозаралар, гендерга нисбатан ёндашувлар ва қарашлар аста-секинлик билан жамият аъзолари онгига синга бошлади. Амалда жинсий чегаралашга қарши кураш БМТнинг хотин-қизларни камситишнинг барча шакллариغا барҳам бериш тўғрисидаги конвенциясида (1979) ҳам эълон қилинган. Ушбу ғоялар ЮНЕСКО фаолияти, шунингдек, кўп сонли ижтимоий, маданий, таълим муассасалари, ўқитувчилар ва ижтимоий соҳа ходимлари учун қўлланмалар чоп этадиган ташкилотлар манфаатларига уйғун бўлиб, жинсий чегаралашга оид ақидаларни бартараф этишга хизмат қила бошлади. Ривожланган мамлакатлар ўқув жараёнида гендер фарқлар ва ўхшашликларни ёшлар онгига сингдиришга хизмат қиладиган ўқув курслари ҳам юзага келди.

Гендерга оид қарашларнинг ғарб мамлакатларида кенг ёйилишида Симоне де Бовуар ва Кейт Миллетт тадқиқотлари муҳим ўрин тутди. Симоне де Бовуарнинг “Иккинчи жинс” (1949) китобида ифодаланган ғоялар замонавий гендер назариясига асос бўлиб хизмат қилди. Кейт Миллетт эса ўзининг “Жинсий сиёсат” (1972) китобини яратишда де Бовуар қарашларига таянди. “Феминизм назариялари” умумлаштирувчи-таҳлилий мақоласида П.Эллиот ва Н.Менделл гендернинг барча асосий йўналишларини тарихий ва замонавий нуқтаи назардан кўриб чиққанлар. Р.Хофнинг “Гендер тадқиқотларнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши” мақоласи гендер назарияси ва методикаси шаклланиши хусусида яхлит тасаввур ҳосил қилишга кўмаклашса, К.Уэст ва Д.Зиммерман изланишлари маҳсули бўлган “Гендернинг яратилиши” деб номланган фундаментал тадқиқотнинг Е.Здравомыслова томонидан инглиз тилидан қилинган таржимаси ижтимоий шакллантириш назарияси бўйича бирламчи манба билан танишиш имкониятини беради. Ж.Лорбернинг “Жинс ижтимоий категория сифатида” мақоласи эса истиқболда гендер тадқиқотлар билан мустақил шуғулланиш учун замин ҳозирлайди.

Таълим тизими жамиятда нафақат технологик ва ижтимоий-иқтисодий тараққиёт омили, балки маънавий ва иқтисодий ривожланишнинг муҳим стратегик воситаси сифатида алоҳида аҳамият касб этади. Шу боис мустақил мамлакатимизда таълим соҳасига йил сайин катта эътибор қаратилмоқда. Мазкур вазифа таълим тизимининг

барча босқичлари: мактабгача таълим муассасаларидан тортиб олий таълимнинг юқори босқичларигача бўлган бўғинлар зиммасига юклатилган. XXI асрнинг ахборот асри дея эътироф этилаётганлиги бежиз эмас. Негаки, жамият шахснинг билимдонлиги ва тадбиркорлигига таяниб ривожланади ҳамда тараққий топади. Гендер фарқлар ва тенглик асосида ташкил этилган таълим жараёни эса жамият тараққиётига муҳим ҳисса қўшиб, ўқувчи шахсининг маданий, ижтимоий-иқтисодий ва экологик жиҳатдан барқарор ривожланиши учун зарур таркибий қисм сифатида майдонга чиқади. Мазкур мақсадни амалга ошириш жараёнида мавжуд ўқув дастурларини янги педагогик технология ва замонавий усулларни қўллаган ҳолда такомиллаштириш энг биринчи вазифа ҳисобланади. Такомиллаштирилган ўқув дастурларида ўғил ва қиз болалар тенглиги, қолаверса, барча фанлар бўйича ўқув материалларининг гендер тенглик ва фарқлар асосида белгилаб берилиши муҳим аҳамият касб этади. Бундай таълим жараёни янги ўқув воситалари – методик материаллар ва дидактик ишланмалар яратишни талаб қилади. Ўз навбатида, ўқув-методик материаллар назорат воситалари билан боғлиқ равишда танланиши лозим.

Шуни таъкидлаш лозимки, истиқболда ўқувчиларнинг билим, кўникма ва малакаларини назорат қилиш нафақат ўзлаштириш, балки ўғил ва қиз болаларнинг ҳар бирига хос бўлган тушуниш, билимларни амалий қўллаш ва ижод кўникмаларини аниқлаш асосида ҳам амалга оширилиши лозим. Бу ҳолат ўқувчиларнинг билим даражасига ижобий таъсир кўрсатибгина қолмай, янги сифатга эга бўлган ақл-заковат эгасини тарбиялайди, яъни у ўзига хос шахсни шакллантириб, улар онгини ўстириш, шунингдек, дунёнинг ижтимоий, информатсион, технологик ва иқтисодий ўзгаришларига мослашишларига катта ёрдам беради.

Педагогика фанлари доктори, профессор, Мавлонова эса кўникмага қуйидагича таъриф беради: “Кўникма — бу кишининг билим ва элементларни тажриба асосида эгаллаган, маълум ҳаракатни онгли бажаришга бўлган қобилиятидир. Масалан, картонни кеса билиш кўникмаси, қайчини тўғри ушлай билиш, ҳаракатни аниқ мувофиқлаштириш, йўналиш, куч ва босимнинг тенглигини сақлаш, қоматни мувофиқ келувчи тарзда тутиш деган маънони англатади. Бу ўринда усталик билан ҳаракат қилиб, маълум иш шартларига, масалан, ишнинг суръати ва аниқлигига риоя қилиш керак. Акс ҳолда иш кўпол чиқиши мумкин”.

Элементар тажриба ўқувчиларга фаолиятнинг маълум тури бўйича тасаввур беради. Бундай тасаввурларни яратишда ўқувчиларнинг шахсий тажрибалари ҳам, ўзгалар тажрибасининг (сўз, график тасвир орқали берилган натурал кўрсатиш ва шу кабиларнинг) улар томонидан идрок этилиши аҳамиятлидир. Бироқ шахсий тажриба етакчи ўрин эгаллайди. Шу билан бирга барча кўникмалар малакага айланавермайди. Фақат фаолиятнинг у ёки бу турини, унинг айрим ҳаракатларини бажаришнинг техник томонигина автоматлашади. Фаолиятнинг ўзи онгли, яъни мураккаб кўникма босқичида давом этаверади, бу кўникма таркибига кўпгина элементар малакалар (ўлчай билиш, асбобларни ишлата билиш ва бошқалар) киради. Вақтнинг чекланганлиги туфайли бошланғич синфлардаги технология дарсларидаги иш кўникма билан яқунланади. Малака ўқувчиларни билим билан қуроллантириш жараёни билан узвий боғлиқ ҳолда шакллантирилади ва асосан ана шу билимга таянади.

Ўзлаштириладиган билим – ҳосил қилинадиган кўникма ва малакалар учун асос бўлиб хизмат қилади. Кўникма ва малакаларнинг мазмуни ва ўзаро нисбати ҳақида бир қанча йўналишдаги қарашлар мавжуд. Дидактикада мавжуд бўлган анъанавий нуқтаи назардан келиб чиқадиган бўлсак, кўникма малакадан илгари ҳосил бўлади ва машқ натижасида кўникма малакага айланади. Чунончи, “Педагогик энциклопедия”да “Кўникма ишлашга тўғри келадиган шароитларга мос ҳаракатларни самарали бажара олиш” деб таърифланади. Кўникмалар ҳам амалий, ҳам назарий характерга эга бўлади.

Худди шу “Педагогик энциклопедия”да “Малака – юкори даражадаги ҳаракат” сифатида таърифланади. Ушбу босқичда ҳаракатлар автоматлашади, ақлий бошқарув бир даража камаяди. Малака амалий фаолиятнинг шу қадар тезроқ бажарилишидирки, ҳаракат ўзидан амалга ошаётгандек кўринади.

Малакаларни шакллантириш фандан олинган билим ва маълумотларини қайта ишлаш бўйича ҳамма операциалар тизимини, маълумотни аниқлаш, уни ҳаракатлар билан таққослашни ўрганишдир. Субъектив махсус фаолият сифатида малакаларга мустақил ўқитиш жараёни мавжуд эмас, деган фикрни К. К. Платонов танқид қилиб, қуйидагича таъкидлайди: “Малакаларга албатта ўқитиш керак, бундан келиб чиқадики, керакли методика тўғрисида ўйлаш керак. “Малака” деб – одамнинг билим ва оддий тажриба асосида эгаллаган муайян ҳаракатларни онгли бажариш қобилияти тушунилади. Билимлар бажарилаётган ҳаракатларнинг назарий асосидир. Билимлар туфайли ҳаракатларнинг айрим даврлари ва уларнинг кетма-кетлиги тушунарли бўлади. Ҳар қандай малакаларни эгаллаш билимларга асосланган аниқ фаолият, амалиётни талаб қилади, уларсиз умуман малакалар бўлиши мумкин эмас. Малаканинг психологик асоси деганда фаолият мақсади, шароит ва уни бажариш усуллари орасидаги ўзаро алоқадорлик тушунилади. Бундан шу хулоса келиб чиқадики, малака билимларга таянади. Билимсиз малака йўқ. XXI асрда узлуксиз таълим стратегик аҳамият касб этиб, шахс ва жамият ҳаётида асосий мавқени эгаллайди. Шахс фақатгина гендер тенглик ва ўзига хослик ҳисобга олиниб ташкил этилган таълим жараёнида олинган билим ёрдамида узлуксиз технологик инновацияларни ўзлаштириши мумкин. Бу эса нафақат меҳнат қуролларининг мукаммаллашувини, балки янги билимларни эгаллаш қобилияти ва касбий фаолиятни пухта ўзлаштиришни талаб қилади.

Адабиётларда гендер тушунчасининг бир неча хил талқини мавжуд. Жумладан, файласуфлар уни қуйидагича тавсифлайдилар: «Гендер» инглизча сўз бўлиб, жинсга мансубликнинг ижтимоий жиҳатлари маъносини англатади... Бу тушунча эркаклар ва аёллар ўртасида нафақат биологик фарқни, балки жамиятнинг жинсий тақсимоотида ижтимоий ва маданий тавсифларнинг бутун мажмуини ҳисобга олади. Эркаклар ва аёлларга тегишли ижтимоий боғлиқлик, хулқ-атвор ва кутилган натижаларни ифода қилади” Жамиятшунослар эса, гендер тушунчасига қуйидагича ёндашдилар: «Гендер» ижтимоий, биологик ҳолат бўлиб, эркак ва аёлнинг жинсий муносабатлари мажмуаси ҳисобланади” Рухшунослар ҳам гендер тушунчасига ўзига хос тарзда ёндашганлар: “Психиканинг гендер асослари жинс ва у билан боғлиқ ижтимоий стереотиплар, шахснинг психологик кўринишидир”. Олимлар орасида бу хусусиятларнинг қайси бири туғма, қайси бири эса таълим ва тарбия жараёнида ривожланганлиги тўғрисида кескин мунозаралар бормоқда. Ўғил ва қиз болаларнинг ҳар бир халқ маданиятида ҳар хил тарбияланиши туфайли, улар мактабга келган даврдан бошлаб жинсларнинг психологик фарқлари маълум бўлади. Бу фарқлар орасида психологлар (А.Е.Тарас, 2002) қизлар ўғил болалардан математик ва визуал қобилиятлари билан устунроқ деб таъкидлашади. Ўғил болаларда қизларга қараганда ўзига ишонч ҳисси кучлироқдир. Қиз болалар бир хилликка асосланган қизиқарсиз фаолиятни енгилроқ қабул қилишади. Ўзгарувчан муҳитга тез мослашади. Ўғил болалар ҳар бир ҳолатни умумий тарзда баҳолашса, қизлар яхшилаб текшириб, ўрганиб, кейин унга баҳо беришади” . Педагогик маънода гендер – ўғил ва қиз болаларнинг мураккаб таълимий социомаданий бирлиги бўлиб, уларнинг хатти-ҳаракати, менталитети ва эмоционал хусусиятлари, ўқув фаолиятидаги ўзаро тенг ва фарқли жиҳатларини ўз ичига олади. Шу боис кейинги вақтларда гендер муаммоси, уни ўрганиш методлари педагоглар эътиборини кўпроқ жалб этмоқда.

Таълим жараёнида гендер ёндашув амал қилишининг афзаллиги шундаки, у ўқув шароитида ўғил ва қиз болалар манфаатлари ҳамда интеллектуал имкониятларини ҳисобга олишга кўмаклашади. Таълим жараёнида амалга ошириладиган педагогик таъсирлар

Ўғил ва қиз болаларнинг хатти-ҳаракатлари, дунёқарашларида ижобий ўзига хослик пайдо бўлишига ёрдам беради. Таълим жараёнида гендер хосликни таъминламасдан туриб, интеллектуал-маънавий жиҳатдан ривожланган шахсни шакллантириб бўлмайди. Бундай таълим тизими ўғил ва қиз болаларнинг манфаатлари устуворлиги асосида ташкил этилиши керак. Гендерга йўналтирилган таълимни ташкил этиш зарурлигини ҳисобга олган ҳолда ўқув жараёнини ислоҳ қилиш ўғил ва қиз болаларнинг эркин, интеллектуал, маънавий ривожланиш имкониятларини кенгайтиради. Гендер ёндашувнинг педагогикада қўлланилиши, биринчидан, ижтимоий муҳитда самарали фаолият кўрсата оладиган, иккинчидан, жамият талабларига мос келадиган ижодкор, тадбиркор, интеллектуал ривожланган шахсни камол топтиришга кўмаклашади.

Педагогика фанида гендер тенглик ва фарқларни ҳисобга олиш тамойили устувор бўлиши керак. Бу устуворликни таъминлашнинг ўзига хос жиҳатлари:

- ўқув материални танлашда ўғил ва қиз болалар орасидаги ўзига хосликни фарқлаш;
- ўғил ва қиз болаларнинг алоҳида ўзига хос фаолиятини ривожлантириш;
- муайян жинсга мос келадиган ўқув фаолиятини ташкил этиш;
- ҳар бир жинснинг ўзига хос фаолият тўрини шакллантиришга хизмат қиладиган ўқув материалларини танлаш;
- таълим жараёнида қатъи, дидактик жиҳатдан шаклланган гендер интерпретацияларини қўллашга йўналтирилган педагогик фаолиятни шакллантириш.

Таълим жараёнида ўғил ва қиз болаларга меҳнат таълими бериш ва уларни касбга йўналтиришнинг барқарор педагогик тизимини вужудга келтиришда ўқувчиларнинг гендер жиҳатдан ўзига хос бўлган шахсий сифатларини қарор топтириш муҳим аҳамиятга эга. Бунинг учун таълим жараёнида қуйидагиларга алоҳида эътибор бериш зарур:

- ўғил ва қиз болалар орасидаги фарқларни нейтраллаштириш ва интерпретациялашга қаратилган ўқув ҳаракатларини ташкил этиш;
- уларни гендер ўхшашликни намоён қилиш руҳида тарбиялаш;
- ўқув жараёнида ўғил ва қиз болаларнинг алоҳида-алоҳида фаолият кўрсатишини таъминлаш;
- ўғил ва қиз болаларнинг шахсий қизиқишларига мувофиқ келадиган ўқув фаолияти турларини ташкил этиш;
- аниқ ўқув вазиятини ҳисобга олган ҳолда фаолият кўрсатишни таъминлаш.

Ўғил ва қиз болаларнинг ҳар бири қандай бўлиши, қандай фаолият тўрини эгаллаши таълим сифатига боғлиқ.

Таълим жараёнида гендер ижтимоийлаштиришнинг муайян асоси, меҳнат тақсимоли ва жамиятда қабул қилинган маданий меъёрлар, ижтимоий фаолият турлари, уларнинг ижтимоий мавқеи орқали ифодаланади. Таълим тизимида қабул қилинган гендер меъёрлар ва мезонлар муайян даражада ўқувчиларнинг биологик жинсига қараб уларнинг руҳий сифатлари, қобилиятлари, фаолият турлари, эгаллайдиган касбларини белгилашга хизмат қилади. Таълим-тарбия жараёнида ўқитувчилар, оила, мактаб, атроф-муҳитдагилар биргаликда ўқувчилар онгига гендер меъёрлар, мезонларни сингдирадилар. Бу қарашлар ўқувчиларда ҳақиқий аёл, ҳақиқий эркак қандай бўлиши тўғрисида дастлабки тасаввурларнинг пайдо бўлишига замин яратади. Кейинчалик ушбу гендер меъёрлар ўқувчиларда шакллантириладиган фаолият турлари орқали мустаҳкамланади. Таълим жараёнида гендер ижтимоийлаштириш бу – ўқувчи томонидан ўзи яшайдиган жамият гендер маданий тизимининг ўзлаштирилиши жараёнидир. Таълим жараёнида гендер ижтимоийлаштиришнинг муҳим белгилари сифатида ўқувчиларни касбга йўналтириш, ўқув меҳнатини тўғри тақсимлаш, уларда гендер хосликка асосланган шахсий сифатларни қарор топтиришдан иборат.

Касбий жиҳатдан ўз-ўзини камол топтириш ҳар бир ёшда ўқувчиларнинг руҳий имкониятларини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилади. Бунда аниқ шакл ва методлардан

фойдаланилади. Бу жараёнда ўқувчининг шахсий имкониятлари ва қобилиятларини ҳисобга олиш, уни касб танлашга йўналтириш, умумий, хусусий жиҳатларини аниқлаш ва ривожлантириш зарур. Ўқувчиларни касбни тўғри танлашга йўллаш, уларга меҳнат турлари, касблар тўғрисида билим беришни тўғри ташкил этишга қаратилган педагогик фаолиятни амалга ошириш лозим. Ўқувчиларни касб танлашга тўғри йўллаш натижасида мактабда инновацион жараёнларни қўллаш имконияти кенгайди. Бугунги кунга қадар педагогика фанида таълимни гендер тенглик ва фарқлар асосида ташкил этишга йўналтирилган ягона концепциянинг мавжуд эмаслиги бу жараёни янада долзарблаштиради. Ўқувчиларда муайян жинсга мансублигидан қатъи назар индивидуал қизиқишлар ва қобилиятларни ривожлантириш зарур. Бунинг учун биринчи навбатда ўқитувчи гендер сезгирликка эга бўлиши лозим. Бунда ўқувчи қизлар ва ўғил болаларга гендер таълим бериш жараёнида гендер методикасини қўллай олиши керак. Ўқувчиларнинг жинсига кўра уларни касбга йўналтириш дастурлаштирилиши лозим. Ўғил ва қиз болаларнинг меҳнат андозалари, уй ишлари билан боғлиқ фаолиятлари барқарорлаштирилади.

Дарс жараёнида ўқитиш методлари, ўзаро муносабатлар доираси ўқувчиларнинг гендер ижтимоийлашувига таъсир кўрсатади. Ўқитувчилар таълим жараёнида ўғил болаларнинг ўзини намоён этишда фаоллиги, ҳаракатчанликларини, қизларнинг эса итоаткорлиги, ҳаё-иболилиги, тиришқоқлиги, озодаликларини қўллаб-қувватлайдилар. Таълимда гендер тенглик тамойилларининг ўйин машғулоти ва эркин фаолият кўрсатиш муҳитида амалга оширилиши таъминланади. Бунда ўзаро ҳурмат ва мулоимлик устуворлик қилади. Ўқитувчи ва ўқувчилар ўзаро ҳамкорликда ўзгаришларни режалаштирадilar, муваффақиятларни назорат қилиб рағбатлантирадilar, мавжуд муаммоларни муҳокама қилиб, уларни ҳал этиш чораларини излайдилар. Шунинг учун ҳам ўқув жараёни очиқлик, мослашувчанлик, илғор тажрибалардан фойдаланиш ва муқобил ечимларни излашни тақозо этади. Бу эса танқидий фикрлаш, ижод эркинлиги ва инсоний сифатларни қадрлашга ундайди.

Ота-оналар томонидан бошланган ўғил ва қиз болаларни ижтимоий шакллантириш жараёнини, уларга хос бўлган фаолият турини қарор топтириш мактабда, биринчи навбатда, меҳнат дарсларида давом эттирилади. Ўқувчиларга гендер тенглик ва фарқлар асосида таълим-тарбия беришда ўқитувчининг шахсий намунаси, нутқи, хатти-ҳаракатлари алоҳида аҳамиятга эга. Ўқувчилар гендернинг турли шакллари тўғрисидаиб маълумотга эга бўлишлари учун мақсадга мувофиқ келадиган ахборот муҳити яратилиши зарур. Ўқув жараёнида гендер тенглик ва фарқларни ҳисобга олган ҳолда интерфаол таълим методларини қўллаш, кўرғазмалар, стендлар, плакатлар, аудио ҳамда видеовизуал воситалардан фойдаланиш имконини берадиган таълим муҳитини яратиш лозим. Бироқ бугунги кунда ўқитувчиларда гендер тушунчасидан хабардорлик етарлича шаклланмаганлигини кузатиш мумкин. Ўқитувчиларда гендер хабардорликни қарор топтириш учун олий ўқув юртлирида бўлажак педагогларни гендер педагогикаси сирларидан воқиф этиш зарур. Ҳозирда умумжаҳон миқёсида ижтимоий вазифалар ва бу вазифаларнинг гендер тақсимланиши орасида номутаносиблик мавжуд. Умумий меҳнат фаолияти ва умумий таълим олиш ўғил ва қиз болалар руҳиятига ҳам таъсир кўрсатади. Чунки жамиятда эркаклар ва аёлларга хос касблар мавжуд, оилаларда ва таълим жараёнида ўғил ҳамда қиз болаларнинг вазифалари орасида фарқлар ажратилиши керак.

Мактабларда гендер таълимни ривожлантириш натижасида жинсларнинг тенг ҳуқуқ, бир хил меҳнат қилиш ва мажбуриятлари, ўғил бола ҳам, қиз бола ҳам хоҳлаган йўлини ўзи танлаш ҳуқуқига эгаллиги ўқувчилар онгига сингдирилади. Ўқувчиларнинг ижтимоий гендер таълимни тушуниши ва унда иштирок этиши учун ўқитувчининг гендер педагогикасига оид билимлари етарли бўлиши лозим. Шунингдек, ўқитувчида гендер тарбия ва таълим технологиялари, болаларни ижтимоий гендерлаш шарт-

шароитлари мужассам бўлган махсус илмий дастур бўлиши ҳам шарт.

Педагогикада янги йўналишни ишлаб чиқиш натижасида, табиийки, янги атама ва тушунчалар пайдо бўлади. Таълимда гендер ўлчов тушунчаси ўқитувчиларнинг таълим-тарбия бериш йўлидаги интилишлари натижасида ўғил ва қиз болаларнинг ҳолати ва ривожланиши, ўзлигини англаши ва келажакда ўз олдида қўйган мақсад ва вазифалари, қайси жинсга мансуб бўлишидан қатъи назар, жамиятдаги мавқеини англатади. Таълим жараёнида гендер ёндашувни қўллаш ўғил ва қиз болаларни келиб чиқишидан қатъи назар, ижтимоий вазифаларини тўғри англайдиган, жинсларнинг фарқида оид эски қарашлардан холи ўзига хос шахс сифатида тарбиялаш ва ривожлантиришга катта ёрдам беради. Ўз маъноси жиҳатидан гендер таълим-тарбияга яқин бўлган “жинсий таълим-тарбия”, “жинсий-ижтимоий таълим-тарбия” атамалари мазкур сўзнинг маъносини тўлиқ ифодаламайди. Зеро, бу атама моҳияти анча кенг ва серқиррадир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Гендер тадқиқоти асослари курси хрестоматияси: / рус тилидан қисқар. таржима. Олий ўқув юртлари учун. –Тошкент, Ўзбекистон, 2003. – 411 б.
2. Мавлонова Р., Горохова О., Оглуздина Л. Меҳнат таълими методикаси: Олий пед. ҳамда махсус ўрта билим юрт. учун ўқув кўлл. –Тошкент, Ўқитувчи, 1985. –248 б.
3. Педагогика: Большая современная энциклопедия / Сост. Е. С. Рапацевич – М.: Современ. слово, 2005. – 720 с.
4. Уэст К., Зиммерман Д. Создание гендера. Пер. с англ. Е.Здравомысловой / Гендерные тетради. Вып.1.Спб., 1999 mhtml:file://F:/enter/
5. Усманова А. Гендерная проблематика в парадигме культурных исследований // Введение в гендерные исследования. Ч.1: Учебное пособие. –Харьков, Спб., 2001. – 447-449 с.
6. Хоф Р. Возникновение и развитие гендерных исследований //Пол, тендер, культура /Под ред. Э.Шопе и К.Хайдер. –М.: 1999. –23-53 с. www.lib.vsu.ru/project/golosary.phtml.
7. Тилавова М.М., Шаропова З.Т. Образование на основе гендерного равенства в начальной школе. АCADEMY научно-методический журнал №6(57).Июнь 2020. – 81 с.

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA TALABALARNING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH.

Mohinur Mamataliyeva

“Toshkent irrigatsiya va qisqloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti, tayanch doktoranti

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСТВА СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.

Моҳинур Маматалиева

Национальный исследовательский университет “Ташкентский институт
инженеров иригации и механизации сельского хозяйства”, базовый докторант

DEVELOPMENT OF CREATIVITY OF STUDENTS IN THE CONDITIONS OF EDUCATIONAL TRANSFORMATION

Mohinur Mamataliyeva

“Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers” National
Research University

Annotatsiya. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi hamda ularda belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda maxsus fanlarni o‘qitishda talabalarning kreativlik sifatlarini rivojlantirish bosqicqlari, omillari, imkoniyatlari va qismlarini o‘rganish muhim o‘rin tutadi. Ta’lim mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Dunyoning rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarida ta’limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo‘llari izlanmoqda.

Kalit so‘zlar: Professional ta’lim, kreativlik, ta’lim dasturi, reproduktiv, innovatsion yondashuv, shakl, metod, vosita, intellektual rivojlanish, kreativlik yo‘l xaritasi.

Аннотация. Исходя из концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года и поставленных в ней целей и задач, важно изучить этапы, факторы, возможности и стороны развития творческих способностей студентов в преподавании специальных предметов. Вопросы содержания и качества образования считаются приоритетными в обществе. Пути развития образования и повышения его эффективности ищутся в развитых и развивающихся странах мира.

Ключевые слова: Профессиональное образование, творчество, образовательная программа, репродуктивный, инновационный подход, форма, метод, инструмент, интеллектуальное развитие, дорожная карта творчества.

Annotation. Based on the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030 and the goals and tasks set in them, it is important to study the stages, factors, opportunities and parts of the development of students’ creativity in the teaching of special subjects. Issues of the content and quality of education are considered a priority in society. Ways to develop education and increase its effectiveness are being sought in developed and developing countries of the world.

Key words: Professional education, creativity, educational program, reproductive, innovative approach, form, method, tool, intellectual development, creativity road map.

Kirish. Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.10.2020-yildagi “Raqamli O‘zbekiston -2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida PF-6079-sonli farmoni ijrosini ta’minlash bo‘yicha raqamli iqtisodiyotni

faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qisqloq xo'jaligida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-fevral kuni "Raqamlashtirish sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-51-son qarori qabul qilindi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad raqamli texnologiyalar sohasida zamonaviy bilimlar olishni rag'batlantirish, ushbu yo'nalishda faoliyat yurituvchi yoshkadrlarning xorijiy tillarni bilish ko'nikmalarini oshirish, mehnatbozorida IT-xizmatlar eksporti sohasida talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish, shuningdek, mazkur yo'nalishdagi nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash hisoblanadi [1].

Hozirgi kunda ta'lim muhiti innovatsion xarakter kasb etmoqda va bu o'z navbatida ta'lim muhitining innovatsion xarakterga ega bo'lishi tabiiy ravishda uni mazmunan yangilanishiga olib keldi. Shu sababli zamonaviy sharoitda axborot-kommunikatsion va raqamli texnologiyalarga asoslanishi ta'lim muhitini mazmunan yangilanishini ta'minladi. Bu borada tadqiqotchi S.V.Tarasovning raqamli ta'lim muhitida hamda unda mavjud komponentlarga ega ekanligi borasida fikrlar bildirib o'tgan. Xususan, raqamli ta'lim muhiti mazmunli, metodik va kommunikativ komponentlar bilan birgalikda texnologik komponent bilan ham to'ldiriladi. Binobarin, raqamli texnologiyalar, xususan, ta'limda qo'llanilayotgan texnologiyalar barchasi kompyuter qurilmasi, multimediya vositalaridan tarkib topgan [2].

Metodlar. Tadqiqotchi olimlardan, P.V.Vedeneev, A.S.Zavarixin, J.N.Zayseva, T.N.Kazarina, B.A.Krasilnikova, V.I.Soldatkin, V.S.Tarasov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda "raqamli ta'lim muhiti" tushunchasining mohiyati antroposofik nuqtai nazardan ko'rsatib o'tilgan. Aksariyat tadqiqotlar isqlarida ta'lim tizimini axborotlashtirish va raqamlashtirishning dolzarbligi, ahamiyati, uni amalga oshirishga imkon beradigan omillar va to'siqlar to'g'risida o'rganilgan. Ilmiy izlanisqlar natijalarida ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash bir qator afzalliklarni namoyon qiladi. Xususan, o'qitishda tezkorlikka erishish (o'qitishning vaqti va joyini o'zgartirish); butun hayot davomida uzluksiz ta'lim olish imkoniyatining yuzaga kelishi; o'quvchi, talaba, tinglovchi (mutaxassis)larni avvaldan loyihalangan individual o'qitish asosida kasbiy qayta tayyorlash kurslari va dasturlari bo'yicha tayyorlash imkoniyatining yaratilishi haqida ko'rsatib o'tilgan. Uzluksiz ta'limning barcha bosqicqlarida bo'lgani kabi oliy ta'lim muassasalarida ham raqamli ta'lim muhitini shakllantirish turli shakllarda kechadi. Bu o'rinda olimlar E.V.Ustyujanina, S.G.Evsyukov quyidagi shakllarni keltirib o'tadi: mavjud o'quv materiallari, shu jumladan, ma'ruza, taqdimot, darslik, mustaqil ish topshiriqlari hamda bilimlarni nazorat qilish vositalarini elektron variantga o'tkazish; pedagog va talabalarning o'zaro hamkorligiga asoslangan interfaol elektron muhitni, xususan, pedagoglarning elektron kabinetlarini, vebinar, bahs-munozara, forumlar o'tkaziladigan auditoriyalarni shakllantirish; o'quv vositalari: elektron darsliklar, elektron masalalar to'plami, video ma'ruza, kvestlar, kompyuter o'yinlari kabi yangi tiplarini yaratish; elektron ta'lim muhitining imkoniyatlaridan foydalanish hisobiga o'qitishning mutlaqo yangi shakllarini yaratish – obrazli axborotlarni uzatish spektrini kengaytirish, rolli o'yinlarni tashkil etish orqali turli vaziyatlari modellashtirish, bellashuv o'yinlarini imitatsiyalash va hokazolar; sun'iy intellekt imkoniyatlarini o'qitish jarayoniga kiritish [3].

NATIJALAR. Mulohaza. Ta'lim sohasi uchun ta'lim transformatsiyasi sharoitida talabalarni tahsil olishi bilan bir qatorda ularning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga e'tibor qaratish kerak. Birinchi navbatda talabalarda nazariy va amaliy ijodiy faoliyatga tayyorgarlik holatini o'rganish, o'quvchilarning faol ijodiy faoliyatiga samarali tayyorgarlik ko'rishga yordam beradigan didaktik vositalarni aniqlash, talabalarning ijodiy faoliyatiga tayyorgarlik modelini isqlab chiqish, isqlab chiqilgan ijodiy faoliyatga tayyorgarlik

vositalarining samaradorligini tajriba sinovini amalga oshirish hisoblanadi. Patti Drepreau ta'limiga ko'ra darslarda o'qituvchi "kreativlik yo'l xaritasi" ga muvofiq quyidagi 4 yo'nalish bo'yicha harakatlanadi va ulardagi xarakteristik pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar sanaladi: Ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish; Talabalarni o'quv fanlarini qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish; Innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning yechimini topishga kreativ yondashish; Kutiladigan natija;

Kreativ fikrlash har bir sohada yaqqol aks etishi mumkin. O'qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy yondashuvda aks etadi.

Har qanday jarayonda bo'lgani kabi ta'lim tizimini raqamlashtirish ham nazariy-metodologik jihatdan puxta asoslanishni taqozo qiladi. Raqamli ta'lim muhitini yaratishning metodologik asoslari sirasida tamoyillar ham ustuvorlik kasb etadi. Binobarin, tamoyillar faoliyatni tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilish, yo'nalishlarni oqilona belgilash, maqsad va natija o'rtasidagi aloqadorlikni belgilab beradi.

Xulosa va tavsiyalar. Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, talabalarning pedagogik ehtiyojlari, qiziqisqlari, alohida ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarini tizimli tarzda o'rganish, bunda ularning kreativ faoliyatlarini tashkil etish hamda samarali yo'llarini belgilash lozim. Shuningdek, talabalarning kreativ qiziqisqlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g'oyalar, konsepsiyalar hamda ilg'or pedagogik tajribalar asosida o'qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli faoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalarning kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish asosida ulardagi ixtisoslashganya'ripedagogikkreativlikkompetentliginirivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, bunda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion strategiyalar, interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Mutaxassislar ta'kidlashicha, oliy ta'lim muassasalarida talabalar kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning reproduktiv, ijodiy-izlanish va ijodiy yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini isqlab chiqish va talabalarning kreativ ko'nikma va malkalarini rivojlanishining o'zgarishini baholab borish lozim. Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kreativ kompetentligini uzluksiz rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish dasturlarini va texnologiyalarini takomillashtirib borish, shuningdek talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy axborot-metodik ta'minotni yaratish jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-fevral kuni "Raqamlashtirish sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-51-son qarori

2. Тарасов С.В. Образовательная среда: понятие, структура, типология // Ж.Вестник Санкт-Петербургского ГУа им. А.С.Пушкина. – СПб.: 2011. - № 11.–С. 133-138.

3. Устюжанина Е.В., Евсюков С.Г. Цифровизация образовательной среды: возможности и угрозы // Ж. Вестник РЭУ им. Г.В.Плеханова. – М.: 2018. - № 1(97). – С. 3-12].

4. Долгоруков А. Метод кейс-стади как современная технология профессионально-ориентированного обучения:

5. D.Mustafojeva, M.Mamataliyeva Ta'lim jarayonida innovasion klaster // Uslubiy ko'rsatma –T., -2023. 30 b.

6. Mustafojeva D.A., Mamataliyeva M.I. Maxsus fanlarni o'qitishda talabalarning kreativlik sifatlarini rivojlantirish // «qisqloq va suv xo'jaligining zamonaviy muammolari» XXII yosh olimlar, magistrantlar va iqtidorli talabalarning ilmiy amaliy anjumani, Toshkent. - 2023.

7. Mustafojeva D.A., Mamataliyeva M.I. Innovasion ta'lim jarayonini tashkillashtirishning kasbiy-ijtimoiy zarurati// Муғаллим ҳәм узликсиз билимлендири" ilmiy-metodik jurnal. -№1 ISSN 2181-7138 - Nukus. -2023. B. 178-183.

KOMMUNIKANTNING KASB-HUNAR VA QARINDOSQLIK XUSUSIYATLARIGA DOIR SOTSIAL XOSLANISHI

*Masharibova Roxat Ozadovna,
Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi*

Annotasiya: maqolada kommunikantlarning kasb-hunar va qarindosqlik darajasiga ko'ra xoslanishini ifodalovchi lisoniy birliklarning sosiolingvistik xususiyatlari, nutqiy xoslanishni namoyon etuvchi birliklar taqlili haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: kasb-hunar, qarindosqlik, kommunikant, adresat, so'zlovchi, muloqot, nutq, sosiolingvistika, ijtimoiy xoslanish

СОЦИАЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА КОММУНИКАНТА ПО ПРИЗНАКАМ ПРОФЕССИИ И РОДСТВА

*Машарибова Рохат Озадовна,
Исследователь Ургенчского государственного университета им. Мухаммеда ал-Хорезми*

Аннотация: В статье изложены социолингвистические особенности языковых единиц, представляющих идентичность коммуникантов по профессии и степени родства, рассмотрен анализ единиц, представляющих речевую идентичность.

Ключевые слова: профессия, родство, коммуникант, адресат, говорящий, общение, реч, социолингвистика, социальная идентичность

SOCIAL CHARACTERISTICS OF A COMMUNICANT BY PROFESSION AND KINSHIP

*Masharibova Rohat Ozadovna,
Researcher at the Urgench State University named after Muhammad Al-Khorezmi*

Abstract: The article describes the sociolinguistic features of linguistic units representing the identity of communicants by profession and degree of kinship, and analyzes the units representing speech identity.

Keywords: profession, kinship, communicant, addressee, speaker, communication, speech, sociolinguistics, social identity

Kirish. Kommunikantlarning yosh va jins xususiyatlariga ko'ra tadqiq etish bundan ancha oldin tizimli gender tadqiqotlar doirasida XX asrning 60-70-yillarida bosqlangan. "Natijada feministik tilshunoslik yoki tilning feministik tanqidlari yuzaga keldi. Bunga bir qator ekstralingvistik va interlingvistik omillar sabab bo'lgan. Sabablarning birinchi guruhiga bir qator voqealar kiradiki, ular postmodernizm falsafasining gullagan davri yoki «kognitiv evolyutsiya» deb nomlangan G'arbdagi feminizmning ikkinchi to'liqini bilan bog'liq.

Adabiyotlar taqlili va metodologiya.

Sof tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganda tildagi feministik tanqidning yuzaga kelishiga sabablar talaygina. Birinchidan, 50-60-yillarda tilshunoslikda bir qator yangi ilmiy yo'nalishlarning paydo bo'lishi – psixolingvistik, kvantitativ sotsiolingvistik, pragmatika, aloqa nazariyasi. Ikkinchidan, tilshunoslik tarixida inson omili, tilning inson biosotsial xususiyatlari bilan o'zaro aloqasi, shu jumladan, uning jinsi bilan bog'liqligi muammosini o'rganish birinchi planga chiqdi. Uchinchidan, fanning paradigma o'zgarishi strukturalizmdan pragmatizmga o'tish va ijtimoiy fanlarda gender tadqiqotini rivojlantirish uchun tegisqli

uslubiy va ilmiy asosning paydo bo'lishi".

Zamonaviy gender tilshunosligida barcha tadqiqotlar ikkita katta soxaga bo'lingan:

1) "Ayollarga qarshi qaratilgan til tizimidagi asimmetriyalar"ni aniqlash uchun tilni tahlil qilish haqida ketmoqdaki, ular taklif etayotgan olam manzarasida ayollar ikkinchi darajali rol o'ynaydi va, asosan, salbiy xarakterga ega bo'ladi;

2) erkaklar va ayollarning nutq xatti-xarakatlarining gender xususiyatlarini aniqlash uchun nutqni tahlil qilish.

Birinchi yo'nalish doirasida ayollarning qaysi jihatlari tilda aks etgani, semantik tomondan qanday tasvirlangani va ushbu ifodaga qanday konnotativ ma'nolar uyg'un bo'lishi o'rganilmoqda.

Shu bilan birga tilda sobit bo'lgan patriarxal maskulinlik va feminlik stereotiplari o'rganilyapti, bu xil an'analarga ko'ra olam manzarasida ayollar ikkinchi darajali rol o'ynaydi va, asosan, salbiy tavsifga ega bo'ladi.

Tadqiqotning ikkinchi yo'nalishida, asosan, erkak va ayol verbal xatti-xarakatlarining farqlanishi o'rganiladi. Ushbu nazariya tarafdorlari erkak va ayol nutqiy faoliyatida o'ziga xos xususiyatlar mavjud degan xulosaga kelishdi hamda genderlekt atamasini olib kirdi. Ushbu konsepsiya tarafdorlari erkaklar va ayollarning o'zaro muloqotida yuzaga keladigan kommunikatsion noqulayliklarga e'tibor qaratishni zarur deb hisobladilar. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, aynan o'zbek tilida, o'zbek xalqining mentalitetidan kelib chiqib bunday noqulayliklar ko'p uchrashi tabiiy bo'lsa-da, bu borada deyarli tadqiqotlar mavjud emas.

Til va jinsning o'zaro ta'siri hamda erkak va ayolning kommunikativ xatti-xarakatlarining xususiyatlarini o'rganishda uchta asosiy yondashuvni ajratish mumkin: biodeterministik, sotsiodeterministik va kognitiv.

Psixolingvistika va neyrolingvistika soxasidagi tadqiqotchilar, asosan, biodeterministik yondashuvga rioya qilishadi hamda erkaklar va ayollarning nutq xatti-xarakatlariga ta'sir qiluvchi tug'ma biologik farqlar mavjudligini eksperimental ravishda isbotlashga xarakat qilishadi. Ular, asosan, statistik ma'lumotlar va o'rtacha ko'rsatkicqlarga asoslanadi.

Muhokama.

Ko'pincha, feministik tilshunoslik va etnolingvistika soxasidagi tadqiqotlarni o'z ichiga oladigan sotsiodeterministik yondashuv vakillari hamma narsani erkaklar va ayollar tilining ijtimoiy mohiyati bilan izoqlashadi va jamiyatdagi ijtimoiy rollarni qayta taqsimlashning o'ziga xos xususiyatlari bilan izoqlangan semantik farqlarni aniqlashga xarakat qilishadi. Ular tilni suhbatdosqlar ijtimoiy ierarxiyaning turli darajalarida bo'lgan hollarda isqlatadigan asosiy tilning ma'lum funksional ko'rinishi sifatida belgilaydilar.

Sotsial xoslanish masalalasida tadqiqotlarda badiiy asar qahramonlarining yoshi, jinsiga doir farqlanisqlarga ko'p e'tibor qilinadi, ammo asar qahramonlarining qarindosqlik darajasi, kasbi, ixtisosligini tizimli ta'lil qilish e'tibordan chetda qolib keladi. Aslida asar qahramonlari nutqida so'zlarning sotsial xoslanishini quyidagicha tasniflash ham mumkin(1.2.1-rasm)

Har bir sotsiumning o'ziga xos nutqi mavjud bo'lib, u turli sotsial omillar ta'sirida amalga oshadi. Har bir ro'l bajaruvchidan bu rolga xos vazifalar talab qilingani kabi, har bir sotsium va uning vakilidan shu tipga xos nutqiy xususiyat kutiladi. Masalan, so'z san'atkorlaridan til imkoniyatlarini u yoki bu darajada kengaytirilish kutiladi. O'qituvchilarda jargon yoki argolarning qo'llanishi maqsadga muvofiq emas. Dramalarda ham xuddi shunday nutqiy xoslanisqlar mavjud. Masalan, ziyolilar, shoirlar, yozuvchilar nutqiga xos ayrim til birliklarini boshqa nutq egalarida uchratmaymiz. Ayollar, erkaklar, bolalar nutqida esa ko'proq shevaga xos so'zlar, argo, jargon, vulgar, varvarizmlar uchraydi.

Kognitiv yondashuv, o'z navbatida, ayollar va erkaklar jamoaviy ong o'z ichiga olgan tushunchalar bilan subkategoriya darajasida turlicha xarakat qilisqlarini va til kategoriyalaridan foydalangan holda ularni boshqalarga yetkazishini hisobga olib, farqlarning kognitiv tomoniga

urg‘u beradi.

Natijalar. Ayrim qaraslarga ko‘ra, erkak va ayol nutqidagi tafovutlar unchalik sezilarli emas, ular doim ham nutq xarakatlarida o‘zini namoyon qilmaydi va feministik tilshunoslik rivojlanishining dastlabki bosqichida taxmin qilinganidek, gender muloqotning hal qiluvchi omili ekanligini ko‘rsatmaydi. Shuningdek, bir odam, jinsidan kat‘iy nazar, turli xil kommunikativ vaziyatlarda turli xil muloqot xulqini namoyon etadi. Bir jinsdagi, ammo turli xil ijtimoiy va kasbiy mavqega ega bo‘lgan kishilarning muloqotini o‘rganish ham bir qator tafovutlarni ko‘rsatadi. Uyda va ishda, tanish yoki yangi muhitda xar qanday odamning muloqot xulqi ham farq qiladi.

Nutq so‘zlovchi va tinglovchining kasb, mansabi, saviyasiga ko‘ra ham xoslanadi.

Tadqiqotchilarning bu boradagi qaraslari xilma-xil bo‘lib, aynan bir manbada turlicha qarashlar ham uchray turadi. Xususan, biz yuqorida suyanan lug‘atda bugungi kunda tilshunoslik, asosan, erkaklarga yoki, asosan, ayollarga xos bo‘lgan ba‘zi xususiyatlarning mavjudligini inkor etmaydi, deb ta‘kidlanadi. Shunga ko‘ra, erkak va ayol nutqi lug‘aviy tanlovlar va so‘zlovchining jinsiga qarab tildan foydalanishning ba‘zi xususiyatlari bilan farqlanadi.

Domla. Bilsangiz, xonim, odam – fizika-matematika fanlari do‘xtiri, professor! Xuddi eringizga o‘xshagan, kerak bo‘lsa! Soxasi boshqa, xolos.

Xonim. Voy-voy, shu kishi-ya?! Qo‘ysangiz-chi, domla! Bir juldurvoqi-ku! Do‘xtir bo‘lsa, professor bo‘lsa, bironing hovlisida qorovullik qilib yurarmidi?!

Domla. Avvalo, begona emas, tug‘ishgan jiyani. Prokuror! Xaftada ikki-uch bor kelib jiyaning hovlisini qo‘riqlab ketsa, nima qipti? Prokurorning o‘zi bu koshonaga kelib turolmaydi-ku, to‘g‘rimi? Qolaversa, ilm odami, qo‘li kaltaroq. Buning ustiga, bola-chakasi ko‘p emish.

Xonim. Mana, siz ham ilm odamisiz — qo‘lingiz uzunmi?

Domla (xazilga burib). Mening qo‘lim ham, oyog‘im ham uzun! Xoqlasam — Turkiyaga yetadi, xoqlasam — Deqli-yu Dubayga!

Xonim. Kesatyapsiz-a? O‘zingiz ham rosa kezgansiz Moskva-yu Leningrad qilib!

Domla. Sizniyam armoningiz qolmagan, xonim! Sochi-yu Qirimlar eslaridan chiqdimi? Keyin-keyin undan ham nari — Bolgariya, O‘rta Yer dengizi bo‘ylab sayohatlar! Mazaxo‘rak bo‘lganlar-da, o‘shalarni xumor qilibmi, mana, uyda o‘tirolmay qoldilar. O‘rgangan ko‘ngil...

Xonim (past tushib, ham qofiyasiga). ...o‘rtansa qo‘ymas! O‘zingiz oborgansiz-ku!

Domla. Ana shunisiga dog‘man-da... Bizga kelsak, bizniki ilmiy kengash, konferensiya yo seminar deb atalguchi edi. Yalang sayru sayohat emas!

Xonim. Bizniki ham sayohat, ham tijorat deb ataladi! Chidaysiz-da, xo‘jayin! Chidayolmasangiz... siz sho‘rlikda prokuror jiyani ham yo‘q!

Domla (nochor iljayib). Bizga unaka daxmaza jiyanning keragi ham yo‘q, xonim afandim, o‘zingiz borsiz, etib ortadi!

Xonim (haligi tahlikada bu gapning tagiga yetmay). E, xudoga shukr-e! Shunday deb turing. Aytganday, eshitdingizmi?.. (Erkin A‘zam “Jannat o‘zi kaydadir”)

Mazkur misollardan ko‘rinib turibdiki, qaxramonlarning nutqi ularning yoshi, jinsi va kasb-koriga ko‘ra xarakterini ifodalab turibdi. Jumladan, “voy-voy”, “Chidaysiz-da, xo‘jayin!” kabilar, asosan, ayol kishilar nutqida uchaydi.

Ko‘pgina tadqiqotchilar o‘z-o‘zini to‘g‘rilashni, ko‘proq pauza qilish va takrorlashni ayol nutqining o‘ziga xos belgisi deb bilishadi. O.A.Antineskul buni suhbatdoshning shaxsini uzatilayotgan ma‘lumotning ehtimoliy salbiy ta‘siridan himoya qilish istagi bilan ham izoqlaydi.

Ayol va erkak suhbatlarining odatiy yoki kutilgan mavzulari ham farq qiladi. Bir jinsdagi guruqlarda ayollar ijtimoiy emas, balki odatdagi uy, oila, munosabatlar, his-tuyg‘ular, uy isqlari xaqida ko‘proq gapirishadi. O‘z navbatida, erkaklar siyosat, sport, ish, texnologiya xaqida gapirishni afzal ko‘rishadi. Ularning hikoyalarida asosiy mavzu ko‘pincha raqobat.

musobaqa bo'ladi.

Ayol nutqi xaqidagi qaraslarni tadqiqotchilar quyidagicha jamlashadi:

1. Ayollar ko'p gapiradilar.
2. Ayollar savol berishni yaxshi ko'radilar.
3. Ayollar qayta-qayta savol berishni yaxshi ko'rishadi.
4. Ayollar baxolash va murojaat qilishda ortiqcha narsalarga moyil.
5. Ayollar keraksiz so'zlarni ko'p isqlatadilar.
6. Ayollar ko'pincha o'z nutqlarini tugatishmaydi.
7. Ayollar erkaklarnikiga qaraganda kamroq qo'pol so'zlarni isqlatishadi.
8. Ayollar xushmuomala, ular buyruq berish va to'g'ridan to'g'ri so'roqdan ko'ra bilvosita so'roqlardan foydalanishni afzal ko'rishadi.
9. Ayollar erkaklarga qaraganda kamroq bironing so'zini bo'lishadi.

Masalan, Erkin A'zamning "Jannat o'zi qaydadir?" dramasida ayol kishining telefonda gaplashgan vaziyati berilgan:

X o n i m (go'shakka). Kim?.. E'lon bo'yicha? Qanaqa e'lon?.. Xa-a, repetitorman deng? Juda yaxshi-da. Otingiz nimaydi, ukam?.. Sardormi? Gap bunday, Sardorjon! Biz Amerikaga ko'chib ketayotuvdik... Ko'pchilikimiz, xa. Shunga inglizchadan uch-to'rt soat dars olmoqchi edik-da. Pulini o'ylamang, olasiz. O'zim-ku, kechagina keldim, besh-o'nta so'zini bilaman. Xello, xau ar yu, xau mach, veri gud, bay-bay... Qalay, o'xshaydimi?.. Kechqurunlari-da... Mayli, mayli, ertadan bosqlab... Ie, yo'q, shoshmang, ertaga biz janob posolning oldiga borishimiz kerak... Xa, suhbatga. Indin bo'la'kolsin. Adresni bilasiz-a?.. Bo'пти, kutamiz. O'key! Bay-bay, jonim. O'pdim...

Qaxramonning nutqi uning ko'p sayohat qilgan, dunyo madaniyatini ko'rganini ifodalab turibdi, uning o'zbek mentalitetidan biroz uzoqlashgani ham seziladi, ko'p gapirishiga alohida izoh shart emas, bizningcha. "O'pdim" deyishi o'zbek ayollari tomonidan birinchi suhbatlashayotgan erkaklarga aytilmaydi. O'zbek mentalitetida bu so'z bolalar yoki kalin dugonalar, yaqin qarindosqlarga nisbatan isqlatiladi. Unda ham "o'pib qo'ying" jumlasini qo'llaniladi.

Xulosa.

Mustaqillik davrida yaratilgan dramalarning asosiy qismi shu davrda yashayotgan insonlarning kechinmalari bilan bir qatorda, ularning fe'l-atvorida, nutqida sodir bo'layotgan o'zgarishlar ifoda qilgan. Keyingi yillarda yaratilgan dramalarning bosh qaxramonlari nutqi tahlil qilinganda ularning ikki tuzum va ikki mafkura ta'sirida qolgani seziladi. Ayniqsa, Erkin A'zam dramalarida bu hodisa yaqqol bilinib turadi. Til vositalari asar qaxramonlarning fe'l-atvorini yorqin bayon etgan. Tadqiqot uchun tanlangan asarlarda kommunikantning fe'l-atvori shakllanish, o'zgarib borishiga uning faoliyat ko'rsatayotgan kasb-hunari ham ta'sir qilishi, ixtisosliklarning talabidan kelib chiqib xar bir so'zlovchining xarakterini bilib olish mumkin. Ayol va erkak jinsidagi kommunikantlarning ra'xbar va kotiba, shuningdek, er-u xotin, o'qituvchi-o'quvchi sharoitlaridagi muloqot vaziyatlari alohida tadqiqotni ta'kazo qiladi. Kommunikantlarning yosh xususiyati, jinsiga xos bo'lgan fe'l-atvori, xususan, ayol kishining nutqidagi sotsial farqlanishlar aniq ifodalab berilgan.

Tahlilga tortilgan dramalarda ayollarning o'zbek mentalitetidan biroz uzoqlashgani ham seziladi, ularning erkaklarga qaraganda ko'p gapirishi ham misollarda o'z isbotini topadi. Masalan, "O'paman" xayrlashuv so'zi o'zbek ayollari tomonidan birinchi marta suhbatlashayotgan erkaklarga nisbatan aytilmaydi. O'zbek mentalitetida bu so'z bolalar yoki kalin dugonalar, yaqin qarindosqlarga nisbatan isqlatiladi. Unda ham "o'pib qo'ying" jumlasini qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Антинескул О.А. Гендер как параметр текстообразования. – Автореферат дисс. к.ф.н. – Перм, 2001. – С.65.
2. Кирилина А.В. Развитие гендерных исследований в лингвистике. // Филологические науки, 1998. №2. – С. 53
3. Исхакова З.З. Сопоставительный анализ эмотивности в свете гендера. – Уфа: РИО БашГУ, 2007– С. 56
4. Пушкарева Н.Л. Женщина. Гендер. Культура. – М.: Терра, 1998. – Б.1011.
5. Исхакова З.З. Сопоставительный анализ эмотивности в свете гендера. – Уфа: РИО БашГУ, 2007– С. 197.
6. Колосова О.А, Когнитивные основания языковых категорий. (На материале современного английского языка). Диссертация на соискание ученой степени доктора филологических наук. – М., 1996. – С.112.
7. Словарь гендерных терминов // Под ред. А. А. Денисовой. – Региональная общественная организация «Восток-Запад: Женские Инновационные Проекты». – М.: Информация XXI век, 2002. – С.11.
8. Дежина Т.П. О некоторых особенностях речевого поведения мужчин и женщин // Филологические науки. Вопросы теории и практики. - 2011. - №1. – С.68.

UMUMTALIM MAKTABLARI UCHUN ZARUR GRAMMATIK BILIMLARNI TANLASH MEZONLARI

Matniyozov Davronbek Qadamovich,

Urganch davlat universiteti akademik litseyi o'qituvchisi e-mail:

Annotatsiya: maqolada o'quvchilarning lingvistik bilim va ko'nikmalarini rivojlantiruvchi zaruriy grammatika va uning nutqiy kompetensiyani hosil qilishdagi ishtirokiga doir fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: lingvistik kompetensiya, nazariy ma'lumot, zaruriy grammatika, bilim, ko'nikma va malaka

ПРИНЦИПЫ ОТБОРА НЕОБХОДИМЫХ ГРАММАТИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ ДЛЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ

Матиязов Давронбек Кадамович,

Преподаватель Академического лицея Ургенчского государственного университета

Аннотация: В статье изложена обратная связь по необходимой грамматике, развивающей языковые знания и навыки учащихся, и ее участию в формировании речевой компетенции.

Ключевые слова: лингвистическая компетентность, теоретические знания, необходимая грамматика, знания, навыки и компетенции

THE PRINCIPLES OF SELECTING THE NECESSARY GRAMMATICAL KNOWLEDGE FOR SECONDARY SCHOOLS

Matizov Davronbek Kadamovich,

Lecturer at the Academic Lyceum of Urgench State University e-mail:

Abstract: The article provides feedback on the necessary grammar, which develops students' language knowledge and skills, and its participation in the formation of speech competence.

Keywords: linguistic competence, theoretical knowledge, necessary grammar, knowledge, skills and competencies

Kirish. Ona tilida fikr ifodalash uchun yozma nutqda ayrim grammatik bilimlar juda zarur, besh yosqli bola ham o'z ona tilida grammatik bilimlarsiz bimalol gapira oladi, ammo yoza olmaydi, buning uchun muayyan tayyorgarlik zarur. Imlo qoidalari, tinish belgi va so'z tanlash qoidalarini o'zlashtirish kerak bo'ladi. Matni tinglab tushunish, o'qib tushunish, nutq so'zlash va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda ham ayrim nazariy ma'lumotlarga ish beradi. Ammo bu grammatikani tizimli o'qitmaslik kerak degan ma'noni anglatmaydi.

Adabiyotlar taqlili va metodologiya.

Ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh mezoni uning foydalilik va amalda qo'llanila olish darajasidir. Biz ona tilidan foydali bilimlar deb bolalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, uni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash va rivojlantirishni ta'minlaydigan bilimlarni tushunamiz".

G'.Hamroyevning ta'kidlashicha, til ta'limida nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirishda ham savol – mashq – topshiriq turlaridan iborat o'quv topshiriqlari qo'llaniladi. O'quv topshiriqlari, avvalo, ona tili ta'limining maqsadi, vazifalari va mazmuniga bevosita bog'liq, o'quvchini fikrlashga, o'quv materialini ustida mustaqil isqlay olishga, zarur nutqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratiladi. Afsuski, bugungi kungacha ona tili ta'limida o'quv topshiriqlariga o'qitish metodikasining asosi, ta'lim mazmunini yuzaga

chiqaruvchi muhim omil sifatida qaralmadi . Ona tili darslarida ta'lim mazmunining asosi sifatida grammatik qoidalar tushunib kelindi, o'quv topshiriqlariga esa ushbu qoidalarni o'zlashtirishda foydalaniluvchi vosita sifatida qaraladi.

K.Mavlonov ona tili ta'limining bugungi yondashuvlariga mos ravishda eng murakkab masalalardan biri bo'lgan matn ustida isqlash, uni o'qiy olish, tushuna olish va, eng muhimi, nazariy ma'lumotlar asosida matn yarata olish ko'nikmalarini adabiyot fani bilan integrasiya qilgan holda rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini isqlab chiqdi.

Shunday bo'lsa-da DTSi da lingvistik kompetensiyani rivojlantirish masalasi qo'yilgan. 2017-yilda tasdiqlangan DTSida quyidagi lingvistik kompetensiyani egallash talabi qo'yilgan edi:

1. Lingvistik kompetensiya (fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid):

A1 daraja: ona tilidagi nutq tovusqlarini farqlay oladi, bo'g'in ko'chirish qoidalariga amal qila oladi; mavzuga oid yangi so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi; yozma nutqda tinish belgilarini to'g'ri qo'llay oladi.

A1+so'zlarning tovush tarkibini orfoepik jihatdan to'g'ri shakllantira oladi; gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini farqlay oladi va yozma nutqda o'rinli qo'llay oladi.

A2 talaffuz va imloda tovush almashishi, tovush orttirilishi, tovush tushishi kabi hodisalardan o'rinli foydalana oladi; o'zlashtirilgan leksik birliklarni gap tarkibida qo'llay oladi; fonetik, leksik va grammatik taqlil qila oladi; fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay oladi; matnda tilning ifoda vositalaridan foydalana oladi.

A2+ tovusqlar talaffuzida orfoepik me'yorlarga amal qila oladi; leksik birliklarning ma'nosini farqlashda lug'atlardan unumli foydalana oladi.

Lingvistik kompetensiya (fonetika, leksika, grammatika): V1, V1+

Fonetika: fonemalar tasnifi va uslubiyatini tushuna oladi, fonetik o'zgarisqlarni orfoepik qoidalar nuqtai nazaridan taqlil qila oladi, ohang va urg'uni nutqda qo'llay oladi.

Leksika: so'zlarning ko'chma ma'nosi, uslubiy xususiyatlari va atamalarni farqlay oladi, ulardan nutqda to'g'ri foydalana oladi. O'zbek tili leksikasining rivojlanishi, boyishi manbalarini izoqlay oladi.

Grammatika: so'z turkumlari, undov, modal va taqlid so'zlar, ularning otlashishi hamda uslubiy xususiyatlarini tushuna oladi va izoqlay oladi. So'z birikmasi gap va uning grammatik belgilari, dialogik nutq belgilari, gap bo'lagining tiplari, sodda va qo'shma gaplar ma'nodosqligini, sintaktik qurilmalarni, ko'chirma gap, matnning o'ziga xos xususiyatlarini farqlay oladi va muloqotda grammatik hamda sintaktik birliklardan o'rinli foydalana oladi.

V1+ Fonetika: fonetik o'zgarisqlarni orfoepik qoidalar nuqtai nazaridan tushuntira oladi, ohang va urg'uning nutqdagi ahamiyatini, yozuv tamoyillarini izoqlay oladi.

Leksika: o'zbek tili leksikasining rivojlanishi, boyishi manbalarini tushuntira oladi.

Grammatika: so'z turkumlari, gap bo'laklarining uslubiy xususiyatlarini tushunib, izoqlay oladi. Nutqda grammatik hamda sintaktik birliklardan o'rinli foydalana oladi .

Muhokama

Grammatika o'quvchiga kamida biror chet tilini o'rganishda asqotadi. Har bir fan muayyan qonuniyatlarga asoslanadi. Ona tili, albatta, grammatik qonuniyatlarga tayanadi. Masalan, o'quvchi yozma nutqi talab darjasida bo'lishi uchun imlo qoidalarini chuqur bilishi kerak.

Imlo qoidalarida shunday band mavjud: «-ikkala qismi ham turdosh otlardan iborat qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi». Bu qonuniyatni tushunish uchun o'quvchi, albatta, otning ma'no turlarini bilishi kerak. Yoki tinish belgilarini to'g'ri qo'llashni o'rganishi uchun ham ma'lum qonuniyatlarni bilishi talab etiladi. Masalan, eng ko'p isqlatiladigan vergulni o'rinli qo'llash uchun o'quvchi kiritma, undalma, uyushiq bo'lak, umumlashtiruvchi so'z, ot kesim, ega, ajratilgan izoh bo'lak kabilar haqidagi lingvistik bilimlarni yaxshi o'zlashtirishi shart, aks holda u imlo va tinish belgi qoidalarini etarli o'zlashtira olmaydi. Natijada yozma nutq talab

darajasida bo'lmaydi.

Biz nutq uchun zarur grammatikani o'rgatish tarafdorimiz, yuqoridagi misollardan anglab turibsizki, grammatik bilimlarni, til qonuniyatlarini, imlo va talaffuz, tinish belgi qoidalarini qaysi matn taqozo qilsa shu erda berib ketish o'zini oqlamaydi, maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

Natija

Metodikaning asosi hisoblangan o'quv topshiriqlari tuzish va ular ustida isqlash masalasida ham hamma darsliklarda turli xatoliklarga yo'l qo'yilmoqda. Ko'nikma va malaka mashq orqali hosil qilinadi, ayniqsa, talaffuz va imlo ko'nikmalari. Shunga qaramay «Ona tili» darsliklarida takrorga asoslangan talaffuz va imlo mashqlari etarli berilmay kelinmoqda. Oqibatda o'quvchilar o'zbek tilining o'ziga xos tovusqlarini umrning oxirigacha ham to'g'ri ayta olmaydi. Ammo negadir o'quvchilar bugun ingliz tilidagi eng murakkab tovusqlar va so'zlar talaffuzini inglizlar darajasida o'rganib olmoqda. Afsuski, o'quvchisidan o'qituvchisigacha o'zbek tilida h va x, o'va u i va e tovusqlarini talaffuzda, imloda faqlamaydi. Bunda talaffuz mashqlarining ahamiyati katta. Buni qaysi fan o'rgatadi, albatta, ona tili fani. Bu ham grammatik bilimlarga bevosita bog'liq.

Yuqorida keltirilgan til satqlari o'quvchida, asosan, to'g'ri yozish, adabiy talaffuz, tinglab, o'qib tushunishga yordam beradigan grammatikadan zaruriy bilimlardir.

Xulosa.

Fikr ifodalashda, fikr almashishda Grammatik bilimlardan samarali foydalanish bu lingvistik kompetensiyani egallaganlikni anglatadi. Har bir narsa muayyan sistemaga ega. Ya'ni bir birini taqozo qiluvchi elementlar majmuasi. Jumladan, til ham, til o'rgatish ham xuddi shunday sistemaga asoslanadi. Til satqlarini minimum darajada tizimli o'qitish – imlo va og'zaki nutq me'yorlarini o'rganishga olib keladi. Bu o'rinda qoidalar zanjirini uzmaslik kerak.

Yangi yondashuvlarda matn bilan isqlash, nutqiy mavzularlarga asoslanish, matlar va mavzular rangbarangligi o'zini oqlaydi, biroq til qonuniyatlari bilan hisoblashmay, uni minimum darajada tizimli o'rgatmay savodxon o'quvchini etishtirib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

1. G'ulomov A., Ne'matov N. Ona tili ta'limi mazmuni. U'qituvchilar uchun metodik k'ullanma. – T.: U'qituvchi. 1996. 9-б.
2. Hamroyev G'. Ona tilidan o'quv topshiriqlari tuzish metodikasi. – Toshkent. Donishmand ziyosi. 2021. 55-б.
3. Мавлонова К. Она тили фанини адабиёт фани билан бадиий матн орқали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш Пед. фанл. бўйича фал. док. (PhD) илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. автореферати. – Т.: 2019. -22 б.
4. <https://lex.uz/ru/docs/-2165717?ONDATE=20.05.2013%2000>

INKLYUZIV TA'LIM TIZIMIDA ADAPTIV JISMONIY TARBIYA

*Nazarova Nigora Erkinovna,
Buxoro davlar pedagogika instituti Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti
kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada korreksion va inklyuziv ta'lim sharoitlarida maxsus ta'lim va rehabilitatsiya tashkilotlarida nogironligi bo'lgan va imkoniyati cheklangan bolalar bilan korreksion isqlash tizimida adaptiv jismoniy tarbiyani tashkil etishning biologik, tibbiy, psixologo-pedagogik yondashuvlari ko'rib chiqilgan. Adaptiv jismoniy madaniyat va sportning bolalar nogironligi rehabilitatsiyasidagi an'anaviy va innovatsion vositalarining o'rni tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: nogironlar adaptiv jismoniy madaniyati va sporti, gipokineziya, imkoniyati cheklangan bolalar, korreksiya, psixotexnika elementlari, psixotexnik o'yinlar, faoliyatli yondashuv, majmuaviy rehabilitatsiya.

АДАПТИВНАЯ ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА В СИСТЕМЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Назарова Нигора Эркиновна,
Преподаватель кафедры теории и методики физической культуры Бухарского
государственного педагогического института*

Аннотация: В статье рассматриваются биологические, медицинские, психолого-педагогические подходы к организации адаптивной физической культуры в системе коррекционной работы с детьми инвалидами и лицами с ограниченными возможностями здоровья в различных видах специальных образовательных и реабилитационных организациях в условиях коррекционного и инклюзивного образования. Описывается роль традиционных и инновационных средств адаптивной физической культуры и спорта в реабилитации инвалидов детства.

Ключевые слова: адаптивная физическая культура и спорт инвалидов, гипокинезия, дети с ограниченными возможностями здоровья (ОВЗ), коррекционная работа, элементы психотехники, психотехнические игры, доступная среда, нарушенный и сохранный анализатор, деятельностный подход, комплексная реабилитация, компенсаторная перестройка.

THE ADAPTIVE PHYSICAL TRAINING IN THE SYSTEM OF THE SPECIAL AND INCLUSIVE EDUCATION

*Nazarova Nigora Erkinovna,
Lecturer at the Department of Theory and Methodology of Physical Culture, Bukhara
State Pedagogical Institute*

Abstract. The article deals with biological, medical, psychologo-pedagogical approaches to the organization of adaptive physical training in the correctional work with children and persons with disabilities in a variety of special education and rehabilitation organizations in the correctional and inclusive education. The authors describe the role of traditional and innovative means of the adaptive physical training and sports in disabled children's rehabilitation.

Keywords: adaptive physical training and sports of persons with disabilities, hypokinesia, children with disabilities (Ds), correctional work, psycho-technical games, accessible environment, comprehensive rehabilitation, compensatory adjustment.

Kirish. Zamonaviy jamiyat va insoniyat axborot-kommunikatsiya, texnika va transport rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan kam harakatlilik muammosi bilan to'qnashdi. Gipokineziya – cheklangan harakat faolligi hamma uchun va ayniqsa nogironligi bo'lgan va jismoniy nuqsoni bo'lgan bolalarga xosdir. Patologik yoki rivojlanishning buzilisqlarida harakat muhitini shakllanishiga va koreksion ishning sifatiga gipokineziya salbiy ta'sir etadi.

Bu muammoning yechimi sifatida imkoniyati cheklangan hamda buzilgan yoki qisman saqlangan analizatorli bolalarda aniq kamchiligi va nuqsonini inobatga olgan holda, harakat defitsitini o'rnini adekvat to'ldiruvchi adaptiv jismoniy madaniyatdan foydalanish lozim.

Olimlar va shifokorlar qayd etishadiki (A.P.Anoxin, P.F.Lesgaft, A.R.Luriya, M.S. Pevzner, L.K.Semenova, B.V.Sermeyev), eshitishda, ko'rishda, nutqida, tayanch-harakat apparatida, intellektual va boshqa nuqsonlarda maxsus tanlangan, aniq miqdorli yuklamali jismoniy mashqlar va ulardan foydalanish koreksion ish va kompensator tiklanish qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Metodologiya. Jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan koreksion faoliyat o'z ichiga tibbiy, psixologik, pedagogik, fiziologik tadbirlar tizimini oladi hamda saqlangan analizatorlarning funksional kompensator tiklanishiga yordam beradi.

Organizmning bunday qayta tiklanishi harakat, o'yin va o'quv faoliyatlaridan keng foydalanish natijasida amalga oshadi

Ayniqsa adaptiv jismoniy madaniyat vositalari, jismoniy mashqlar, o'yinlar, sport o'yinlari elementlari va imkoniyati cheklanganlarga mos sport turlarini to'g'ri tanlash muhim omillardan biri sanaladi. (R.N.Azaryan, A.A.Dmitriyev, D.M.Mallayev, B.V.Sermeyev, B.N.Sheremet)

Ko'rishda nuqsoni bor bolalar bilan isqlashda birinchi marta D.M.Mallayev (1991-1993 yy) tomonidan maxsus yaratilgan o'yinlarning psixotexnik potentsiali va psixotexnika elementlari samarali foydalanilgan. Keyinchalik esa u yaratgan ilmiy maktab asosida bir qancha olimlar (D.I.Gasanova 2000 y) isqlarida ham davom ettirilgan. Bu tadqiqotlar adaptiv jismoniy madaniyat nazariyasi va amaliyotini imkoniyati cheklanganlarni bolalik davridan harakat faoliyati doirasini yangi interaktiv vositalar bilan boyitish imkonini beradi.

Hozirgi kunda yosqlar orasida ilgari Alpomish va Barchinoy nomi bilan yuritilgan, hozirda esa aholi jismoniy tayyorgarligini baholash bo'yicha sport sinovlari (2021 yil 16-iyundagi PQ-5148) keng ommalashib bormoqda. Rossiyada 1980 - 1982 yillarda xuddi shunday me'yorlar ko'rishda nuqsoni borlar uchun harakat faoliyati koreksiya tizimi sifatida isqlab chiqilgan va mamlakat miqyosida tadbir etilgan.

Jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga jalb qilishga qaratilgan dasturlar adaptiv jismoniy madaniyatni ommalashtirishda muhim o'ringa ega.

Jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslar Paraolimpiya o'yinlarida munosib ishtirok etib, mamlakatimiz sharafini himoya qilib kelishmoqda. Jumladan 2024 yil Fransiya davlati poytaxti Parij shaxrida bo'lib o'tadigan Paraolimpiya o'yinlarida ishtirok etish uchun litsenziyani 33 nafar para sportchilarimiz qo'lga kiritib ulgurishdi ulardan, para-yengil atletika – 19, para-o'q otish – 3, para-suzish – 2, para-kanoe – 2, para-akademik eshkak eshish – 1, para-velosport – 1, para-taekvondo – 5 nafar sportchilardir.

Ommaviy adaptiv jismoniy madaniyat va sport bilan shug'ullanish uchun byudjet mablag'larini chekka hududlarda imkoniyati cheklanganlar uchun maxsus jihozlangan jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish sport majmualarini homiy tashkilotlarni jalb etgan holda yo'naltirish lozim. Shundagina imkoniyati cheklangan turli xil toifadagi nogironlarning bolalik davridan, jismoniy rivojlanishning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda muhit yaratilgan bo'ladi.

Ushbu muammoning yana bir yechimi sifatida joylarda adaptiv jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni hamda jismoniy tarbiya va sport fakulteti maxsus (defektologik)

ta'lim fakultetini korreksion pedagogika va maxsus psixologiya kafedralari bilan tayyorlashni nazarda tutish mumkin.

Bugungi kunda maxsus (korreksion) maktab, rehabilitatsion markaz, imkoniyati cheklanganlar uchun sport seksiyalarining aksariyati bunday mutaxassislarni jalb etmagan holda faoliyat yuritmoqda. Yuqorida nazarda tutilgan joylarda umumiy mutaxassislarni uchratishimiz mumkin, lekin ularning aksariyati maxsus psixologiya, korreksion pedagogika, defektologiya asoslari va adaptiv jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va amaliyoti to'g'risida yetarlicha bilimlarga ega emas.

Adaptiv jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash va jismoniy tarbiya va sport bo'yicha umumiy mutaxassislarni qayta tayyorlash muammoning yechimi bo'la oladi.

Mahalliy davlat organlari jismoniy tarbiya va sport, sog'liqni saqlash, ta'lim, nogironlar uyushmasi va tegisqli mutassaddi davlat organlari va boshqarmalar bilan hamkorlikda hususan imkoniyati cheklanganlar shug'ullanisqlari uchun mavjud muhit yaratilishi, yuqoridagi muammoning yechimiga e'tibor qaratisqlari lozim hisoblanadi.

Inklyuziv ta'lim joriy etilishi va rivojlanishini inobatga olgan holda adaptiv jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash ham dolzarblik kasb etadi. Bunday sharoitda o'quvchilarning jismoniy tarbiyasi tengdosqlar o'rtasida tashkil etiladi, turli toifadagi bolalar bir vaqtning o'zida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanadilar: me'yorda jismoniy rivojlangan, iqtidorli va imkoniyati cheklangan. O'quv jarayonini ta'lim muassasasi pedagoglari bilan bir qatorda adaptiv jismoniy tarbiya o'qituvchilari va instruktorlari olib boradilar. Bunda biologik omillarni hisobga olish muhim hisoblanib, u o'z navbatida imkoniyati cheklangan bolalar bilan korreksion isqlash va jismoniy rivojlanishni muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi. Bular birinchi navbatda, antropometrik va funksional ko'rsatgicqlar, psixologik va ijtimoiy muhit omillari sanaladi.

Natijalar. Antropometrik ko'rsatgicqlar biologik tadqiqotlarning ko'pchiligi shuni isbotladiki, imkoniyati cheklangan bolalar tengqurlariga nisbatan jismoniy rivojlanganlik ko'rsatgicqlarida birmuncha ustunlikka egalar. Masalan, intellekti va ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar gavda kuchi ko'rsatgicqlari so'g'lom bolalarga nisbatan ustunlikka ega. Shu bilan birga ko'rishida patalogik xususiyatli bolalar maxsus adaptiv jismoniy madaniyat va sport mashg'ulotlari davomida mo'ljal ola bilish va muvofiqlanganlik qobiliyatlarini kinestetik aniqlik bilan namoyon eta oladilar.

Armrestling bo'yicha maxsus mashg'ulotlarda shug'ullangan tayanch-harakat apparati a'zolarida nuqsoni bo'lgan sportchilar o'zlarining sog'lom tengdosqlaridan g'alaba qozona olishgan. Adaptiv jismoniy madaniyat va sport mashg'ulotlarining amaliyoti shuni ko'rsatadiki, imkoniyati cheklanganlar bilan to'g'ri tashkil etilgan adaptiv jismoniy tarbiya jarayoni, Paralimpiya o'yinlari, Jahon, Yevropa va Osiyo chempionatlarida yuqori natijalarga erishishga zarur shart-sharoit yaratadi.

Muhokama. Imkoniyati cheklanganlarni hayot faoliyatiga psixologiya va pedagogika yordamida, adaptiv jismoniy madaniyat vositalari: jismoniy mashqlar, o'yinlar, sport elementlari, moslashuvchan va relaksation (bo'shahtiruvchi) usullar, psixotexnika elementlari va psixotexnik o'yinlar asosida, bolalarning yosh davridan har xil turdagi harakat nuqsonlarini tuzatuvchi korreksion isqlash tizimini isqlab chiqish lozim.

Anamnez, antropometriya, psixologik testlash va pedagogik kuzatish ma'lumotlari, ota-onalar, tarbiyachilar hamda defektolog-o'qituvchilar bilan suhbat korreksion faoliyatning aniq yo'nalishini belgilab, adaptiv jismoniy madaniyat vositalarini to'g'ri tanlash imkoniyatini beradi.

Korreksion pedagogik ish tizimidagi to'plagan natijalar shuni ko'rsatadiki, imkoniyati cheklangan bolalar biometrik tekshiruv natijalarisiz, psixologik, tibbiy, pedagogik va korreksion faoliyatni sifatli hamda jismoniy rivojlanishdagi kamchiliklarini inobatga olib isqlash mumkin emas.

Imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalari, defektolog mutaxassislar tomonidan tuzilgan harakat faoliyati rivojlanishi yetishmovchiligini korrektsiyalovchi individual reja asosida tashkil etilgan adaptiv jismoniy madaniyat mashg'ulotlarini qo'llab quvvatlash kerak. Shi bilan bir qatorda jismoniy mashqlarning qoldiq sezgilariga ta'sirini doimiy tibbiy nazorat qilinishi muhim hisoblanadi. Masalan, qoldiq ko'rish analizatorida noto'g'ri tanlangan mashq va uning miqdori total ko'rlikga olib kelish mumkin. Shuning uchun ham, doimiy oftalmolog ko'rigi hamda eshitish, nutq, intellekt, tayanch-harakat apparati va psixologik o'zgarishlarni shifokorlar nazoratida bo'lishi lozim.

Adaptiv jismoniy madaniyat vositalarining tanlangan majmuasi bola rivojlanishining barcha anomal omillarini: nuqsonning etimologiyasi, paydo bo'lgan vaqti, yosh davrlari, korreksion ish bosqilgan davr, ikkilamchi va ucqlamchi nuqsonlar, individual xususiyatlar, ijtimoiy moslashish darajalarini hisobga olishi kerak.

Adaptiv jismoniy madaniyat vositalari asosida olib boriladigan korreksion isqlash tizimi imkoniyati cheklangan bolaning butun hayoti davomida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. O'z navbatida bunday tizimli faoliyat bolaning ijtimoiylashuvini, atrofdagi jamiyatga moslashuvi va integratsiyasi hamda harakat faoliyati tonusini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Korreksion faoliyatda tayanch-harakat apparati nuqsoni (bolalar serebral paralichi, tayanch-harakat apparatining turli nuqsonlari)dagi adaptiv jismoniy madaniyat alohida o'ringa ega. Bunday bolalar bilan jismoniy tarbiya isqlarini tashkil etishda jismoniy rivojlanishni baholash, harakat faoliyati shakllanishi sifat darajasini aniqlash maqsadida ko'rik tashkil etish muhimdir. Adaptiv jismoniy madaniyat umumiy madaniyatning bir qismi sanalib, sog'lom turmush tarzi va sog'liqni saqlovchi texnologiyalarni tarbiyalashga hizmat qiladi.

Xulosa. Bugungi kunga kelib, kam harakat turmush tarzi va axborot texnologiyalarga bo'lgan ishtiyoq, kichik maktab yoshi davridanoq sog'lom bolalar tayanch-harakat apparati nuqsoning paydo bo'lishiga olib keladi. Imkoniyati cheklanganlarni esa o'z navbatida jismoniy rivojlanish va salomatlik holatlarini yanada chuqurlashtiradi. Shuning uchun ham sog'liqni saqlovchi texnologiyalar va organizmni chiniqtirish adaptiv jismoniy madaniyat tizimidagi imkoniyati cheklangan bolalar uchun kerakli vosita bo'lib hizmat qiladi. Bu texnologiyalar o'z ichiga chiniqish, jismoniy mashqlar va o'yinlar, kun tartibi, ovqatlanish, vitaminterapiya, havo, quyosh va suv vannalarini oladi.

Jismoniy salomatlikni ruhiy salomatliksiz saqlash mumkin emas. Shuning uchun psixotexnik elementli psixologik dam olisqlar (relaksatsiya), imkoniyati cheklangan bolalar adaptiv jismoniy madaniyatini majmualiy yondashuv asosida tashkil etishni ta'minlaydi, hamda harakat faoliyatini korrektsiyalash va rivojlantirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratadi.

Adaptiv jismoniy madaniyat, maxsus ta'lim tashkilotlarida defektolog mutaxassislar, ota-onalar va jamoatchilikni jalb etgan holda tarbiyaviy korrektsiyalovchi faoliyatning barcha vositalaridan foydalanib o'tkazilishi kerak.

Imkoniyati cheklangan bolalar jismoniy rivojlanish vazifalarini majmualiy hal etish quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

- Imkoniyati cheklangan bolalar jismoniy va psixologik rivojlanishlarini tibbiy, psixologik va pedagogik tekshiruvlari diagnostikasi va monitoringi.
- O'quv-tarbiyaviy jismoniy va psixologik yuklamalarni tashkil etish va amalga oshirish hamda charchoqning oldini olish uchun sanitariya-gigiyena qoidalari va normalarining bajarilishini nazorat qilish.
- Ta'lim tashkilotidagi barcha isqlar jarayonida bolalarga, o'qituvchilarga, ota-onalarga psixologik yordam ko'rsatishda psixologik xizmatning faoliyati va tashkilotning korreksion va tarbiyaviy isqlarining samaradorligini nazorat qilish.
- Adaptiv jismoniy tarbiya tizimida tabaqalashtirilgan tibbiy, psixologik va pedagogik tuzatish usullarini isqlab chiqish, jismoniy imkoniyati cheklanganlarda harakat faoliyatini

rivojlantirishda adaptiv mexanizmlarning shakllanishini rag'batlantirish.

- Genetika, tibbiyot, maxsus pedagogika va psixologiya, defektologiya va adaptiv jismoniy madaniyat yutuqlari asosida neyro-aqliy va jismoniy rivojlanish anomaliyalari va ularni tuzatish usullari va vositalarini shakllantirish sabablari va mexanizmlarini o'rganish.

Zamonaviy jamiyat bugungi voqelikni hisobga olgan holda bolalar va nogironlarning jismoniy faolligini tashkil etishga yangi talablarni belgilaydi: ushbu toifalarning psixofizik rivojlanishining turli xil buzilisqlarida texnik qo'llab-quvvatlash vositalarini isqlab chiqish, yagona ta'lim sharoitida qulay muhit yaratish, inklyuziv ta'lim tizimini shakllantirish va joriy etish, rehabilitatsiya isqlarining imkoniyatlarini kengaytirish.

Korreksion isqlarini tashkil qilishda bugungi kunda eng dolzarb muammo-bu adaptiv jismoniy tarbiya va sportni joriy etish va rivojlantirish, nogiron bolalarni tarbiyalayotgan ota-onalarni faol ijtimoiy-pedagogik ta'limi.

Harakat faoliyati va uning sifatli shakllantirilganligi imkoniyati cheklangan bolaning jamiyatda muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun asos bo'lib, bolani kelgusida jamiyatdagi moslashuvi uchun qulay sharoit yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/adaptivnaya-fizicheskaya-kultura-v-sisteme-spetsialnogo-i-inklyuzivnogo-obrazovaniya/viewer>.
2. Nazarova N. E., Suyarov J. F. PROBLEMS OF SPORTS SELECTION AND ORIENTEERING AND WAYS TO SOLVE THEM //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 1. – С. 468-475.
3. Husniddin N. N. E. N. N. et al. HOW TO EAT PROPERLY WITH INSULIN RESISTANCE AND EXERCISE THERAPY //Journal of Modern Educational Achievements. – 2023. – T. 9. – №. 9. – С. 40-44.
4. Назарова Н. Э., Ибрагимова А. ДОМИНАНТНЫЕ ФИЗИЧЕСКИЕ КАЧЕСТВА ДЛЯ СПОРТА ХОККЕЯ НА ТРАВЕ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ ТРЕНЕРОВ ДЛЯ РАБОТ С ДЕТЬМИ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 136-139.
5. Nazarova N. ADAPTIV JISMONIY MADANIYAT RIVOJLANISHINING FAOLIYAT YO'NALISHI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

BARKAMOL AVLODNI TARBİYALASHDA MILLIY HARAKATLI O'YINLARNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Norboev K. J., Quvatov J.

Annotatsiya: Maqolada o'zbek milliy o'yinlarining xususiyatlari, ushbu o'yinlarning bolalar va talabalar tarbiyasidagi o'rni, tarixi ochib berilgan, nazariy psixologik bilimlarni amaliyotda amaliyotda keng qo'llash bo'yicha ilmiy qarashlar chuqur taqlil qilingan. talabalarni o'qitish amalga oshiriladi. o'yinlarning kelib chiqishi, bu sohada buyuk olimlarning isqlari, ochiq havoda o'tkaziladigan milliy sport o'yinlarining jismoniy, pedagogik va fiziologik xususiyatlari haqida s o'z boradi.

Kalit so'zlar: Sport, tarix, milliy ochiq o'yinlar, bolalarning aqliy rivojlanishi, xarizma, fiziologiya, rivojlanishning fiziologik jarayonlari, yo'nalishi, strategiyasi, rejasi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan bosqlab sport va jismoniy tarbiya milliy xususiyatlarini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Respublikada sport va sport madaniyatini rivojlantirish, sport ta'limi uchun qator qonunlar va prezident farmonlari qabul qilindi. Tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan ushbu qarorlar xarizma, ilhom kuchiga ega - aniqrog'i, ulkan yutuqlarga eshik

ochadi. O'zbek xalqining milliy ochiq o'yinlarining maqsadi yosh avlodni kucqli va jasur ajdodlar qilib tarbiyalashdir, bunga xalqning tashqi o'yinlarini o'zlashtirish orqali erishish mumkin, bunga qo'shimcha ravishda bolalarda, yosqlarda milliy o'yinlar rivojlanishi va uyg'onishi mumkin. o'zbek milliy o'yinlari tarixi, madaniyati, an'analarga qiziqish va hurmat tuyg'usi. Sport sog'lom muhitni yaratishda, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalashda va ma'naviy yuksaklikni rivojlantirishda hal qiluvchi kuchdir. Biz hali ham rivojlanmoqdamiz, biz hali ham muhim ta'lim muammolarini hal qilishimiz kerak. Agar mobil milliy o'zbek o'yinlarining paydo bo'lishi va shakllanishiga e'tibor beradigan bo'lsak, unda uning ildizi uzoq o'tmishga, uzoq tarixga borib taqaladi. Milliy jismoniy madaniyatning asosiy ko'rinisqlari - bu shaxsiy o'yinlar, janjallar, afsonalar, afsonalar, qahramonlik eposlari, uning o'z ifodalari raqs va musiqada yaratilgan. Ota-bobolarimiz qoldirgan moddiy va ma'naviy meros xalq o'yinlarining paydo bo'lish tarixidan dalolat beradi. Xalq o'yinlarining paydo bo'lish tarixi tarixiy-arxeologik jamiyatning rivojlanishidagi birinchi bosqich va xalq o'yinlarining etnografik manbalarda paydo bo'lishi va biz milliy o'zbek ochiq sport o'yinlarining rivojlanishi to'g'risida ham qiziqarli ma'lumotlarni topamiz.

Buyuk ajdodlarimizning ilmiy asarlarida ushbu o'yinlarning tavsifi va ko'rinishi haqida ko'plab tarixiy ma'lumotlarni keltirish mumkin. Biz o'zbek milliy o'yinlari haqida juda ko'p qiziqarli va foydali ma'lumotlarni Mahmud Koshg'ariyning «Devon-u lukati turk» kitobida, Abu Ali ibn Sinoning «Tibbiyot kanoni», Kaykovusning «Kabusname» kitoblarida topishimiz mumkin., Amar Xayyom «Navro'znom», Yusuf Xos Xojib «Kutat-u bilig», Xusaina Vaiz Koshifiy «Fituvvatnomayi Sultoniy yohud Javonmardlik tarigati», Alisher Navoiy «Xamsa», Pirmuqol Kodirova «Yulduzli tunlar», Mirmuksina «Timur Malik Bunday tarixiy, ilmiy va badiiy asarlar, xalq o'yinlarining paydo bo'lish tarixi qiziqarli faktlarda keltirilgan. Sport o'yinlari tarixini o'rganib, yosqlar, albatta, buyuk ajdodlarimizning kitoblarini o'qiydilar, bu bilan u nafaqat ushbu o'yinlarning rivojlanishi va paydo bo'lishi tarixi bilan, balki tarixiy, ilmiy va badiiy adabiyotlar bilan ham tanishadilar. O'ylaymanki, bu bizning yosqlarimizning ma'naviy va diniy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. O'yinlar tarixini o'rganish davomida u buyuk ajdodlarimizning asarlari bilan tanishadi. Bir nechta milliy ochiq o'yinlar misolida sog'lom va aqlli avlodni tarbiyalashda o'yinlarning jismoniy rivojlanishiga ta'siri va ularning pedagogik xususiyatlarini ko'rib chiqish mumkin. Hozirgi kunda o'rta umumiy ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarida «Echki va etti bola», «Arqonni tortib olish», «Teshiksiz quyon», «Tez va aniq» kabi milliy ochiq o'yinlar tez-tez qo'llanilmoqda. «Echki va ettita bola» milliy

ochiq o'yinlar.

O'yinning borishi: o'yinda 7-10 talaba, echki va ettita bola qatnashadi. Echki bolalar tashkil etgan aylananing o'rtasida turadi. Bolalar qo'llarini usqlab, echki atrofiga aylanadilar, bitta bola yugurib kelib ovqat so'raydi, echki ona siz sabrli bo'lishingizni talab qiladi, u hali tayyor emas. Keyin boshqasi yugurib

keladi, echki ovqat tayyor va idisqlarni yuvib ovqatga tayyorlanishga boring deydi.

Bola barcha idisqlarni sindirib tasqlaydi va barcha bolalar qochib ketishadi. Echki bolalarni usqlay bosqlaydi, u birinchi bo'lib echkini usqlaydi, shuning uchun o'yin davom etadi. O'yinning pedagogik xususiyati: o'yin talabalarning diqqatini, sezgirlik malakalarini tarbiyalaydi. O'yin o'quvchilarning chaqqonligini, epchilligini, chidamliligini va harakatlarni muvofiqlashtirishni rivojlantiradi. O'yinning fiziologik xususiyati: bolalarda bir vaqtning o'zida bir nechta mushak guruqlari isqlaydi, bu faol qon aylanishini ta'minlaydi, qon oqimi yaxshilanadi va u isqlaydi, shunda onasi echkini usqlamaydi, rejalar tuzadi. Va echki bolalarni tezda usqlash taktikasini o'rganadi. O'pkaning hayotiy qobiliyati, faol e'tibor rivojlanadi.

«Arqonni tortib olish». O'yin ham guruh o'yinidir. O'qituvchi har bir jamoaning orqasida to'pni osib qo'yadi, jamoalar bir-biriga qarama-qarshi bo'lib saf tortadilar; ularning orasiga arqon tasqlanadi. Birinchi bo'lib to'pga bosqlari bilan etib kelgan jamoa g'olib deb hisoblanadi. Jamoaning oxirgi a'zosi jamoaning orqasida tortadigan to'pning boshiga tegishi kerak.

O'yinning pedagogik xususiyati: o'yin talabalarda e'tiborni kuchaytiradi, jamoada isqlash, bir-birini qo'llab-quvvatlash, do'stlik.

O'yinning fiziologik xususiyati: oyoq-qo'llarning mushak tizimini, kuchini, faolligini rivojlantiradi, nafas olish harakatlarining harakatini oshiradi, nafas olish chastotasini normallashtiradi.

Teshiksiz quyon. «Faol, jismoniy o'yin basketbol bilan o'ynaladi. O'yin ko'chada ham, bahs zalida ham o'tkazilishi mumkin. Buning uchun bir nechta talabalar «quyonlar» tanlanadi, ular o'qituvchi tomonidan basketbol to'pi bilan berilgan sport me'yorlarini bajarishlari kerak, maydonning ikkinchi yarmida yoki sport zalida «teshiklar» mavjud, bular halahuplar, halqa yoki a bo'lishi mumkin. avtoulodvan shar. Talabalar quyidagi standartlarga rioya qilishlari shart:

1. Navbat bilan to'pni o'ngda yoki chapda qo'zg'atadi;
2. Kucqli zarba bilan to'pni haydash uchun egilib, yo'nalishini o'zgartirib;
3. Joyida, to'pni aylana bo'ylab haydab chiqing;
4. To'pni bir chiziq bo'ylab aylana bo'ylab haydash;
5. To'pni bir qatorda pinlar ustiga haydash uchun yo'nalishni o'zgartiring.

Standartni bajarish paytida o'qituvchi porlaydi va shar bilan to'g'ri yugurish bilan sharga etib borishni, minkni egallashni buyuradi. To'g'ri yugurmagan va teshikni egallab olishga ulgurmagani kishi jarima ochkosiga ega bo'ladi. Eng kam ball to'plagan g'olib hisoblanadi.

O'yinning pedagogik xususiyati: o'yin diqqatni, jasoratni, aqlni tarbiyalashga yordam beradi. Quvvat, tezlik, chidamlilik, harakatlarni muvofiqlashtirishni rivojlantirishga yordam beradi. O'yinning fiziologik xususiyati: barcha mushak guruqlarini rivojlantiradi, faol e'tibor, eshitish, chidamlilik, harakatlarni muvofiqlashtirish, aylana faol harakatlar vestibulyar

apparatlarning faoliyatini rivojlantiradi. Mushaklarning qisqarishi, oyoq Bilagi zo'rlik, kamarni qo'llab-quvvatlash mushaklari, sport harakati taktikasi tezligini yaxshilaydi.

«Tez va aniq». Ushbu faol sport o'yini ham basketbol, ham voleybol maydonlarida, sport zalida o'tkaziladi. O'qituvchi diametri 2 m bo'lgan aylana chizadi, yarmida ikkinchi guruhning ikkinchi yarmida bitta jamoa tuziladi. Ringning o'rtasida ikkita ishtirokchi, ikkala jamoadan biri bo'ladi. Har bir jamoaga bittadan to'p beriladi, ishtirokchilar o'z navbatida raqib jamoasining ishtirokchisini aylana shaklida yiqitishi kerak. Kim uni to'p bilan ursa, u ochko oladi, qaysi jamoada ko'proq ochko bor va u g'alaba qozonadi. O'yinning pedagogik

xususiyati: o'yin epchillik, tezkorlik, sezgirlik, jasorat, chidamlilikni rivojlantirishga yordam beradi. O'yinning o'ziga xos xususiyati harakatlanish, yugurish, aniqlik, aniqlikda. O'yinning fiziologik xususiyati: barcha mushak guruqlarini, taktikasini, mushaklarning qisqarish tezligini, barmoqlarni sezishni, qon aylanishini, faol e'tiborni, yo'nalishni, harakatning shartli reflekslarini isqlab chiqadi. Sog'lom, mo'tadil, iqtidorli avlodni tarbiyalash uchun ham pedagogik, ham jismoniy va fiziologik ahamiyatga ega bo'lgan, atributlarga ega va atributsiz bunday milliy ochiq o'yinlarni ko'p sonli sanash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Т.С.Усмонхужаев., А.А.Пулатов., Ш.А.Пулатов., Д.Х.Абдуллаев. «Теория и практика национальных подвижных игр». Ташкент 2014.

2. Каримжон Рахимкулов. «Национальные подвижные игры».изд. «Тафаккур Бустони». Ташкент 2012.

3. Энциклопедический словарь по физической культуре и спорту. Том 3 Гл. ред.- Г. И. Кукушкин. М., Физкультура и спорт.

FUNKSIONAL YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARDA KREATIV FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISH IJTIMOYIY- PEDAGOGIK ZARURIYAT SIFATIDA

Nurjanova R. U.,

*Nukus innovasiyon instituti «Bosqlang’ich ta’lim va gumanitar fanlari» kafedrası
dotsenti*

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada funksional yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirish ijtimoiy- pedagogik zaruriyati, shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar, tarbiyachi pedagoglarning ta’lim-tarbiyaviy faoliyatga kreativ yondashuvi hamda kreativ o‘qitishning metod va strategiyalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy omil, kreativlik, pedagoglar, ta’lim-tarbiya, kreativ yondashuv, metod, strategiya, faoliyat, aqliy salohiyat.

Bugungi globallashuv jarayonida zamonaviy o‘qitish metodlarining rivojlanishi asosiy navbatda jamiyatning intellektual salohiyatiga xamda ta’lim sohasining rivojlanishiga bog‘liq. Mamlakatimizda ta’lim soxasini takomillashtirish bo‘yicha asosiy xujjatlardan biri bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlovchi ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet va kompyuter tarmoqlari orqali tashkil etish muhimligi to‘g‘risida alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Xozirgi kunda zamonaviy pedogogika fanida “kreativ pedagogika” tushunchasi qo‘llanilib kelinmoqda. O‘qitish jarayoniga innovatsion xamda ijodkorlik yondashuvlarini rivojlantirishga bo‘lgan extiyoj “Kreativ pedagogika”ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta’minlaydi. Shaxsning mutaxassis sifatida kamol topishi va rivojlanishida kreativlik sifatleri namoyon bo‘ladi. Ayni o‘rinda shuni alohida qayd etib o‘tish joizki, xar bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. O‘qituvchilar o‘zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini namoyon eta olishlari bo‘yicha Patti Drapeau shunday maslahat beradi: “Agarda o‘zingizni kreativ emasman deb xisoblasangiz, xozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida gap sizning ijodkor va kreativ bo‘lganingiz yoki bo‘lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g‘oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir”. Patti Drapeau nuqtai nazariga ko‘ra kreativ fikrlash eng avvalo, muayyan masala yuzasidan xar tomonlama fikrlash xisoblanadi. Xar tomonlama fikrlash talabalardan o‘quv topshirig‘i, mustaqil ishlari va vazifalarini bajarishda ko‘plab g‘oyalarga tayanishini talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina maqbul g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi. Xulosa berishda masala yuzasidan bir tomonlama va ko‘p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo‘lmaydi. Sababi bir va ko‘p tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishdabirdek ahamiyat kasb etadi. Ya’ni topshiriqni bajarishda talaba yechimning bir necha usullaridan foydalanadi -ko‘p tomonlama fikrlash, keyin esa topshiriq bajarilishida eng maqbul va to‘g‘ri usul tanlab olinadi-bir tomonlama fikrlash xisoblanadi. Yuqoridagi fikrlarga tayangan xolda “Kreativlik” tushunchasiga ijodkor, individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi, mustafil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat deb tavsiflash mumkin.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida muayyan

faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili hisoblanadi. Bundan tashqari kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi xamda talabalar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol ishtirokini ta'minlaydi. Xorijiy mamlakatlarda soha mutaxassislari o'zlarida kreativlik sifatlarini rivojlantirish va darajasini aniqlab borishga e'tibor beradilar.

Talabalarni kreativ fikrlashga o'rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o'qituvchining o'zi kreativ ijodkor shaxs bo'lishi zarur. O'qituvchining o'zi kreativ ijodkor bo'lsa, talabalarda ham kreativlik rivojlanadi. O'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur. Patti Drepreau ta'limiga ko'ra darslarda o'qituvchi "kreativlik yo'l xaritasi" ga muvofiq quyidagi 4 yo'nalish bo'yicha xarakterlanadi va ulardagi xarakterlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar sanaladi:

1. Ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish;
2. Talabalarni o'quv fanlarini qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish;
3. Innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning yechimini topishga kreativ yondashish;
4. Kutiladigan natija;

Kreativ fikrlash xar bir soxada yaqqol aks etishi mumkin. O'qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy yondashuvda aks etadi. Ushbu xolat "pedagogik kreativlik" tushunchasi bilan ifodalanadi. Pedagogik kreativlik-pedagogning fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek mavjud pedagogik muammolarni ijobiy xal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyatdir.

Funksional yondashuv ta'lim jarayonini qurish uchun asosdir. Globallashtirish sharoitida bo'lajak tarbiyachining funksional yondashuv asosida ijodkorligini rivojlantirish uning raqobatbardoshligini oshiradigan tashkiliy tuzilmani qurishda aniq natijalarni olish imkonini beradi.

bo'lajak tarbiyachining funksional yondashuv asosida ijodkorligini rivojlantirishning tarkibiy qismi o'quv jarayonini to'g'ri tashkil qilish, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etish uchun shart-sharoitlar yaratish, ta'lim jarayoning tarkibiy qismlari o'zaro ta'sir qiluvchilarining o'zaro hamkorligini to'g'ri yo'lga qo'yish va okazolardir. Uning funktsiyalari ma'lum tashkiliy maqsadlarni idrok etishni va keyinchalik harakatlar (jarayonlar) to'plamini amalga oshirishni o'z ichiga oladi, buning natijasida bu-tun ta'lim jarayoni ishtirokchilarining faoliyatidan olinadigan natijani optimallashtiradigan echimlar ish-lab chiqiladi.

Funksional yondashuvning mohiyati shundan iboratki, bo'lajak tarbiyachining ijodkorligini rivojlantirish maqsadlarini amalga oshirish uchun bajarilishi kerak bo'lgan funktsiyalar to'plami sifati-da qaraladi. Bunday holda, ushbu funktsiyalarni amalga oshirish uchun bir nechta muqobil jarayonlar yaratiladi va keraklisi tanlanadi.

O'quv amaliyoti shuni ko'rsatadiki, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati va ilmiy va o'quv muammolarini echishning ijodiy jarayoni, munozaralar tashkil etish, vaziyatni tahlil qilish (keys-stadilar) o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, tafakkurning o'ziga xosligi va mustaqilligini rag'batlantirishning eng samarali usullari hisoblanadi.

bilim.

Talabalar ijodiyotining namoyon bo'lishi va rivojlanishining eng muhim shakllaridan biri bu diplom loyihalarini tayyorlashdir. Ishning turli xil tadqiqot shakllari, original tadqiqot dasturini ishlab chiqish va uni diplom loyihasi kontekstida amalga oshirish sizning diplom tadqiqotingizni mazmunli va amaliy ma'no bilan to'ldirishga yordam beradi. Natijada, har bir o'quvchida pedagogik jarayonning faol ishtirokchisi pozitsiyasi shakllanadi, bu har bir alohida bosqichda va umuman ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Diplom loyihalari va talabalarning boshqa turdagi ilmiy tadqiqotlari kelajakdagi mutaxassislar tomonidan ilmiy tadqiqot nazariyasining kontseptual apparati va amaliy transformatsion faoliyat tajribasini tizimli va uzluksiz o'zlashtirishni ta'minlaydi. Bu bo'lajak o'qituvchini ijodiy tadqiqot faoliyatiga jalb qilish jarayonida uning ijodiy salohiyatini o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi amalga oshirish uchun sharoit yaratadi.

Mavjud adabiyotlar tahlili va oliy o'quv yurtlari amaliyotini o'rganish shuni ko'rsatadiki, oliy o'quv yurtlari devorlarida bo'lajak mutaxassislarning ijodkorligini rivojlantirish uchun ijodiy faollikni shakllantirish uchun sharoit yaratish zarur. Talabalarning ijodiy faoliyati - bu bo'lajak mutaxassislar shaxsining ijodiy fazilatlarini rivojlantirishga, shuningdek, ularning bunday faoliyat usullarini o'zlashtirishiga ko'maklashishga qaratilgan yuqori darajada tashkil etilgan, mustaqil, g'ayratli faoliyat. Ijodiy faoliyat yangi izlanish yo'nalishi qabul qilingan joyda boshlanadi. Uni pedagogika universitetida shakllantirish uchun ijodkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan o'qituvchilar va talabalarning birgalikdagi harakatlari majmuasini ishlab chiqish kerak. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, oliy pedagogika maktabida ijodkorlikni rivojlantirish uchun talabalar doimiy ravishda o'z ijodiy salohiyatlarini o'z-o'zini amalga oshirishga intiladigan sharoitlar yaratilishi kerak, xususan: qabul qilish, empatiya, mulohazalardan erkinlik, psixologik xavfsizlik muhiti.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, ekologik yondashuv ijodiy faoliyatni tashkil etish tamoyillaridan biriga aylanishi mumkin. Ushbu yondashuvning mohiyati shundan iboratki, ta'lim jarayoni «shaxs va atrof-muhit» tuzilmasidagi munosabatlar nuqtai nazaridan o'rganiladi, bunda shaxs ham atrof-muhitning bir qismidir. «Atrof-muhit» toifasi shaxsning rivojlanishiga yordam beradigan sharoitlarning o'zaro ta'sirini bildiradi va bu shaxsning atrof-muhitda mavjudligini, atrof-muhitning sub'ekt bilan o'zaro ta'sirini va o'zaro ta'sirini nazarda tutadi. Shunday qilib, O.V. Galkina, I.V. Kuznetsova «Atrof-muhit nafaqat insonni o'rab turgan makon, balki shaxsning bevosita faoliyati, uning bevosita rivojlanishi va harakati zonasi» deb hisoblaydi. V.A.ning so'zlariga ko'ra. Yasvin, muhit quyidagi xususiyatlarga ega: kenglik, intensivlik, xabardorlik, hissiylik, faollik, harakatchanlik va barqarorlik [8]. Ekologik yondashuv «ta'lim nazariyasi va amaliyotidagi ochiq, o'z-o'zini tashkil etuvchi chiziqli bo'lmagan tizim sifatida xabardorlik bilan bog'liq vaziyatni ochib beradi». Biz ijodiy ta'lim muhitini insonparvarlik yo'naltirilgan o'zaro ta'sirlar tizimi va shaxsning ijodiy shakllanishi va rivojlanishi uchun shart-sharoitlar, uning ijodiy o'zini o'zi rivojlantirish imkoniyatlari to'plami sifatida talqin qilamiz. Bizning kuzatishlarimiz talabalar uchun eng tipik muammoni aniqladi, bu sinfda ijodiy muhitning yo'qligi va talabalarning ushbu muhitda shaxsiy ishtiroki bilan bog'liq. Muammo ko'plab o'qituvchilarning o'quvchilar bilan o'zaro munosabat va muloqotning texnokratik uslubiga moyilligi bilan belgilanadi, bu ularning shaxsiy tashvishlariga va hissiy beqarorlikning kuchayishiga olib keladi. Natijada, nafaqat tashqi, balki ichki o'zaro ta'sirning maxsus muhiti yaratilmaydi, bu

esa o'quvchining bu jarayonda o'zini ijodiy namoyon etishiga imkon beradi. Muammoni hal qilishning mohiyati e'tiborni o'quvchi shaxsiga faol pedagogik ta'sirdan uning o'zini o'zi o'rganishi va o'z-o'zini rivojlantirishi amalga oshiriladigan ijodiy ta'lim muhitini shakllantirish sohasiga o'tkazishda ko'rinadi. Ta'limning bunday tashkil etilishi bilan o'quvchining atrof-muhit bilan munosabatlaridagi ichki faoliyati mexanizmlari kiradi.

Oliy pedagogika maktabi devorlarida talaba shaxsini kasbiy shaxs sifatida shakllantirish jarayonini tahlil qilish ijodkorlikning bosqichma-bosqich rivojlanish dinamikasini aniqlashga imkon berdi, bu quyidagilarda ifodalanadi:

1) hissiy idrok darajasida (ijodkorlik kelajakdagi kasbiy faoliyatning intuitiv usulida shakllanadi);

2) tushunish darajasi (reflektor-kognitiv faoliyat asosida ijodkorlik rivojlana boshlaydi);

3) ta'lim dasturi (faoliyatning qidiruv usullari asosida);

4) tizimli rivojlanish (faoliyatning qisman tadqiqot usullariga asoslangan);

5) ijodiy qo'llash (faoliyatning evristik usullariga asoslangan).

Muammoni nazariy tahlil qilish va tadqiqotning eksperimental ishlari natijalari umumlashtirish va xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

I. Ijodkorlikning mohiyati va o'ziga xosligini ochib beruvchi asosiy kategoriyalar bo'lajak mutaxassis uchun uning kelgusidagi kasbiy faoliyatida muayyan strategiyalar majmuasiga aylanishi kerak;

II. Biz ishlab chiqqan va o'quv jarayoniga joriy etgan "Innovatsion tipdagi bo'lajak o'qituvchi ijodi" maxsus kursi oliy pedagogika bilim yurtida bo'lajak mutaxassislar ijodiyotini rivojlantirishda to'liq namuna bo'la oladi. Maxsus kursning innovatsionligi quyidagilardan iborat edi: mazmuni tanlashning maqsad va tamoyillari; amalga oshirish usullari va shakllari; talabalar bilan o'zaro munosabatlarning xususiyatlari. Mashg'ulot har bir o'quvchining ijodiy salohiyatini faollashtirishga asoslangan bo'lib, muammoni hal etish, jamoaviylik, uzluksizlik, qo'llaniladigan shakllarni sifat jihatidan rivojlantirish va murakkablashtirish, reflekslik tamoyillari asosida qurilgan. Maxsus kurs dasturi bo'yicha o'qitish an'anaviy va ijodiy pedagogik ta'sirlarni qarama-qarshi qo'yish orqali bir qator muammoli vaziyatlarni yaratish va hal qilishni o'z ichiga oladi.

III. Oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash sharoitida ijodkorlik o'quv, ilmiy-tadqiqot va ixtirochilik xarakteridagi muammolarni hal qilishning yangi o'ziga xos yondashuvlari, yo'llari va vositalarini amalga oshirishning yuqori darajasiga erishishda namoyon bo'ladi. Universitet o'qituvchisi an'anaviy va innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim faoliyatiga ijodiy yondashish orqali talabalar ijodiyotini rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu shuni anglatadiki, universitetga tayyorgarlik jarayoni o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tartibga solishni rag'batlantiradigan muhim bosqichdir va keyingi barcha kasbiy faoliyat o'zining pedagogik ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatidir.

Shunday qilib, pedagogik ta'limni rivojlantirishning yangi istiqbollari talabalar bilan ishlashning yangi texnologiyalarini ham nazarda tutadi, bu esa ijodkorlikni rivojlantirish va kasbda ijodiy o'zini o'zi anglash, zamonaviy yuqori darajadagi muammolarni yangi usulda hal qilish qobiliyatiga asoslangan. pedagogika maktablari.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, talabalarning pedagogik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarini tizimli tarzda o'rganish, bunda ularning kreativ faoliyatlarini tashkil yetish xamda samarali yo'llarini

belgilash lozim. Shuningdek, talabalarning kreativ qiziqishlari va yehtiyolarini qondirishga xizmat qiladigan g'oyalari, konsepsiyalar hamda ilg'or pedagogik tajribalar asosida o'qitish jarayonini tashkil yetish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli faoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalarning kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish asosida ulardagi ixtisoslashgan ya'ni pedagogik kreativlik kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, bunda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion strategiyalar, interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Mutaxassislar ta'kidlashicha, oliy ta'lim muassasalarida talabalar kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning reproduktiv, ijodiy-izlanish va ijodiy yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va talabalarning kreativ ko'nikma va malkalarini rivojlanishining o'zgarishini baholab borish lozim. Oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarining kreativ kompetentligini uzluksiz rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish dasturlarini va texnologiyalarini takomillashtirib borish, shuningdek talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy axborot-metodik ta'minotni yaratish jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to'plami. Toshkent-2017. B-39.
2. Ismailova Z.Q., Maxsudov P.M., Ergashev O.K., Matkarimov K.J., "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma. Toshkent-2018. -7-bet.
3. Dolgorukov A. Metod case-study kak sovremennaya texnologiya professionalno-orientirovannogo obucheniya: <http://www.vshu.ru/lections>.
4. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
5. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 81-b.
6. <http://lex.uz>. Ta'lim to'g'risida qonun 16-modda.
7. <http://fikir.uz/blog/230.html>

РАҚАМЛИ ТАЪЛИМ МУАММОЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ

Nisanbayeva Akmaral Kaldibayevna

Низомий номидаги ТДПУ, Бошлангич таълимда она тили ва уни уқитиш методикаси кафедраси в.б. профессори

Аннотация. Мақолада замонавий таълимни рақамлаштириши жараёни таҳлил қилинган. Инсон салоҳиятининг сифати, одамларнинг табиий ва ижтимоий муаммоларга қарши туришига тайёрлиги кўп жиҳатдан таълим тизими фаолияти самарадорлигига боғлиқ. Миллий таълимни такомиллаштириши жараёнида замонавий технологиялар ҳар йили тобора кучайиб бормоқда, уларнинг жорий этилиши таълимни модернизация қилиши ва ривожлантиришига, шунингдек келажакдаги мутахассисларни тайёрлаш сифатини яхшилашга ва таълимнинг яқинлашишига ёрдам беради. Таълимни рақамлаштириши масалалари ва унинг ижтимоий оқибатларини ўрганиш илмий тадқиқотларнинг жуда долзарб йўналиши ҳисобланади.

Калит сўзлар: рақамлаштириши, таълим, таълимдаги технологиялар, рақамли маданият, таълимни модернизация қилиши.

Кириш. Кириш Бугунги кунда рақамли технологиялар ҳаётнинг барча соҳаларида фаол қўлланилмоқда. иқтисодиёт, банк, хизмат сектори шунингдек таълим жараёнини ҳам тез суръатларда ривожланишига хизмат қилмоқда. Мамлакатда яшаётган барча фуқаролар, жумладан ёш болалардан тортиб нафақахўрларнинг ҳам онгида рақамли технологиялар орқали жамиятдаги барча муаммоларни ҳал қилиш мумкин деган фикрни шакллантирмоқда. Бундан ташқари, ишлаб чиқариш ва бошқарув жараёнларининг роботлаштирилиши, масалан банк секторида, роботлар ва ишчилар ўртасидаги рақобат масаласи ҳам кўтарилмоқда. Рақамлардан фойдаланишга асосланган ҳамда жорий этилган технологияларнинг сўзсиз фойдаси билан ахлоқий, шахсий маълумотларни ҳимоя қилиш, роботлар ва ташкилотлар ходимлари ўртасидаги рақобатнинг ҳуқуқий жиҳатлари билан боғлиқ масалалар тобора кўпроқ эътиборга олинмоқда. Шу жиҳатдан, мамлакатимиз Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек “Тараққиётга эришиш учун рақамли билимлар ва замонавий ахборот технологияларини эгаллашимиз зарур ва шарт. Бу бизга юксалишнинг энг қисқа йўлидан бориш имкониятини беради. Зеро, бугун дунёда барча соҳаларга ахборот технологиялари чуқур кириб бормоқда. Албатта, рақамли иқтисодиётни шакллантириш керакли инфратузилма, кўп маблағ ва меҳнат ресурсларини талаб этишини жуда яхши биламиз. Бироқ, қанчалик қийин бўлмасин, бу ишга бугун киришмасак, қачон киришамиз?! Эртага жуда кеч бўлади” [1]. Давлат ва жамият бошқаруви, ижтимоий соҳада ҳам рақамли технологияларни кенг жорий этиб, натижадорликни ошириш, бир сўз билан айтганда, одамлар турмушини кескин яхшилаш мумкин. Рақамли иқтисодиёт бу биргина фаолият тури эмас, балки, ишбилармонлик, sanoat объектлари, сифатли таълим ва хизматлар деганидир. “Рақамли” атамаси барча соҳаларда ахборот технологияларидан фаол фойдаланишни англатади. Агар оддий иқтисодиётда моддий буюмлар асосий ресурс ҳисобланса, рақамли иқтисодиётда бу қайта ишланадиган ҳамда узатиладиган ахборот, маълумотлар бўлади. Уларнинг таҳлилидан сўнг эса тўғри бошқариш бўйича ечим ишлаб чиқилади.

Тадқиқот методологияси Мазкур мақолани ёзишда республикамиз олий таълим тизимида рақамли технологияларни қўллаш, уларнинг имкониятларини таҳлил қилиш асосида ўқув жараёнини ривожлантиришнинг устувор йўналишларини аниқлаш мақсади қўйилган бўлиб, унда рақамли технологияларнинг таълим соҳасида нафақат муҳим ўрин эгаллаши ва қандай шаклда жорий этилиши бўйича таҳлиллар амалга оширилди. Тадқиқот усуллари сифатида олий таълимда рақамли технологияларни жорий этишга илмий асосланган ёндашувни шакллантиришга тегишли хулосалар тузишда норматив

хужжатларни, мавжуд бўлган амалиётни ўрганиш, тизимлаштириш ва умумлаштиришдан фойдаланилди. Таҳлил ва натижалар Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, “COVID-2019” пандемияси барча соҳалар сингари таълим тизимига ҳам ўз таъсирини ўтказди, жумладан боғча, мактаб ва олий таълим муассасаларининг барчаси оммавий равишда муддатидан олдин таътилга чиқишди. UNESCOнинг маълумотига кўра, дунё бўйича 1,7 миллиард ўқувчилар дарслар тўхтатилгани сабаб анъанавий ўқишдан маҳрум бўлишди. Юздан ортиқ мамлакатларда университетларнинг ёпилиши дунё талабаларининг 90 фоизини уйда ўтиришга мажбур қилди. 3 мартга келиб UNESCO 13 та мамлакатда таълим муассасаларининг вақтинча ёпилиши оқибатида 290,5 миллион ўқувчи ва талаба ўқишдан узилиб қолганини маълум қилди ва уларни зудлик билан масофавий таълимга ўтишга чақирди. Маълумотларга кўра, бугун пандемия сабаб таълим муассасаларини ёпган мамлакатларнинг 60 фоизигина тўлиқ рақамли таълимга ўтган. Баъзи халқаро экспертлар онлайн таълимга тўлиқ ўтиб бўлмаслиги, бу жараёнга муаммоли вазиятдан чиқиш йўли сифатида қараш лозимлигини, акс ҳолда таълим сифати тушиб кетишини таъкидласа, баъзилар замонавий таълим учун янги давр бошланганини эътироф этмоқда. Айрим давлатлар зиёлилари эса масофавий таълимга қамраб олишда таъминот масаласини илгари сурмоқда. Интернет манбаларида хабар берилишича, бугунги кунда атиги ўнга яқин давлатдаги талабаларнинг 95 фоизда компьютер бор. Индонезияда эса 34 фоиз ёшнинг интернетдан фойдаланишга шароити етарли. Қолган давлатларда бу кўрсаткич анча паст. Шу ўринда, Ўзбекистон Республикасида ҳам бу кўрсаткич юқори даражада эмас. Бунга сабаб эса чекка ҳудудларда Интернет инфратузилмасининг яхши ривожланмаганлигидир. Бу эса айрим мутахассислар тахмин қилаётганидек, таълим сифати тушиб кетишига сабаб бўлиши мумкин [2]. Хўш, шу ўринда савол туғилади. Биз рақамлаштиришга тайёрмизми? Хавфхатарни олдиндан кўра билиш, унинг натижа ҳамда оқибатларини тўғри баҳолай олиш вазиятдан талафотсиз чиқиб кетишни таъминлайди. Дунёда пандемия тарқалиши ортидан мамлакатимизда иктисодиёт, соғлиқни сақлаш, хизмат кўрсатиш соҳалари сингари таълим жараёни узлуксизлигини таъминлаш учун ҳам керакли чоралар кўрилди. Хусусан, шу йилнинг 17 мартда Президентимизнинг “Тошкент шаҳрида рақамли технологияларни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори қабул қилиниб, мазкур қарорда таълимнинг барча соҳаларини рақамлаштириш бўйича аниқ вазифалар белгилаб берилди. Шу йил 23 мартдан талабалар учун телевизион дарслар эфирга узатила бошладии. Бундан ташқари, бир нечта олий таълим муассасалари талабалар ва ўқувчилар учун виртуал таълим тизимларини ишга туширди. Масалан, Муҳаммад алХоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университетида мактаб ва академик лицей ўқувчилари, талабалар ва АКТ соҳасида билим олишни хоҳловчилар учун тўртта виртуал таълим тизими фаолият бошладии. Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетида “Ўқув жараёнини ташкил этиш ва бошқариш” ахборот тизими ҳамда MOODLE масофавий таълим платформаси ишга туширилди. Бошқа олий таълим муассасаларининг расмий веб-сайтларида ҳам MOODLE, Platonus, Moodle LMS, SRS (Student Records System), MOOC каби масофавий таълим платформалари ҳамда мобиль телефон ва планшетлар учун Google Classroom, Ereader иловалари ишга туширилиб онлайн дарслар ташкил этилиши бошландии. Шулар қатори, Тошкент давлат иктисодиёт университетида ҳам қисқа муддат ичида “remote-education” масофавий таълим платформасининг дастурий таъминоти ишлаб чиқилди ва амалиётга жорий этилди. Юртимиздаги нуфузли хусусий ўқув марказлари ҳам замон талабидан келиб чиққан ҳолда онлайн таълимни йўлга қўйди. Бу жараённинг ўзи ҳам мамлакатимиз таълим тизимида янги босқич бошланганини англатади. Сабаби, шу кунгача ҳали ҳеч бир ўқув маркази бундай тартибга ўта олмаётган эди. Таълим тизими бугунги кунда рақамли технологияларга сингиб кетаётгани шунчаки ҳайратланарли эмас, чунки, бугунги кунда ахборот маконида таклиф этилаётган кўплаб

нарсаларни жиддий таҳлил қилиш ва педагогик асослаш учун асос бўлиб хизмат қилади. Сўнги йилларда таълимни «рақамлаштириш» муаммолари, унинг шаклланишига таъсири бўйича бирор-бир давлат лойиҳаси ёки сўронома асосида тадқиқотлар ўтказилмаганлиги ҳам муҳимдир [3]. Шу билан бирга, Интернет тизимидаги муҳитнинг ёшлар онгига таъсирининг аҳамияти ҳукуматнинг, замонавий оммавий ахборот воситаларининг маърузаларида, педагогик жамоатчилик муҳокамаларида, магистрант ва тадқиқотчиларнинг, шунингдек депутатларнинг изланишларида ҳам кўришимиз мумкин. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, олдин рақамли технологияларни барча соҳаларда, яъни, саноат, иқтисодиёт, банк ва бошқа соҳаларда жорий этиш билан чекланиб қолган эдик. Бугунги кунда эса рақамли иқтисодиёт шиддат билан ривожланиб бораётганини эътиборга олиб, рақамли ривожланиш бўйича барча соҳа раҳбарларининг ўринбосарлари лавозим таркибига киритилмоқда [4].

Рақамлаштириш йўналиши бўйича фаоллаштириш барча бизнестузилмаларида амалга оширилмоқда. Бугунги кунда рақамли технологиялар барча соҳаларда “тажовузкор”, айниқса иқтисодий самараси топилган жойларда, барча даражаларда қўллаб-қувватланмоқда. Иқтисодиётда рўй бераётган жараёнлар динамикаси иқтисодиётнинг рақамли трансформациясида олий таълимни ривожлантириш бўйича тақлифларни таҳлил қилиш ва ишлаб чиқишда таълим ҳамжамиятининг фаол позициясини талаб қилмоқда. Таълимда рақамли технологияларни ўқитиш сифатини сақлаб қолган ҳолда самарали қўллаш учун нималар қилиш керак? Биринчидан, албатта мамлакатимизда Интернет инфратузилмасини яхшилашимиз, мобиль операторлар томонидан кўрсатилаётган хизматлар сифатини оширишимиз ва энг муҳики аҳолининг, айниқса талаба ёшларни замонавий ахборот-коммуникация технологияларининг сўнг ютуқларини ўзлаштиришга шарт-шароитлар ҳамда имтиёзлар яратиб беришимиз лозим. Иккинчидан, ўқув жараёнини ташкил этишда рақамли технологиялардан фойдаланиш қўламини кенгайтириш ва ахборот ресурслари, ўқитиш воситалари ва масофавий ўқитиш технологияларини ривожлантириш, ижодкор талабаларни университетни рақамлаштириш лойиҳаларига жалб қилиш билан олий таълим муассасалари фаолиятини тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга ўзгартириш киритиш бўйича ваколатли органларга тақлифлар бериш, юқори самарадорликка эга рақамли қурилмалар билан жиҳозланган тузилмалар, ўқув хоналари, лабораториялар, медиастудиялар ва бошқаларни ўз ичига олган марказларни ташкил этиш ҳамда унда орттирилган тажрибани Ўзбекистоннинг барча олий таълим муассасаларида қўллаш. Учинчидан, замонавий ахборот-коммуникация технологиялари ва таълим технологияларининг мустақам интеграциясини таъминлаш, бу борада педагог кадрларнинг касбий маҳоратини узлуксиз ривожлантириб бориш учун қўшимча шароитлар яратиш. Тўртинчидан, интерфаол тақдимот тизимларидан фойдаланиш, маъруза ва семинар дарслари учун интернет билан боғлиқ ҳолда интерфаол ва мультимедиали тақдимотларни ишлаб чиқиш каби мавзулар бўйича ўқитувчиларнинг малакасини ошириш учун курсларни ташкил қилиш ва ўтказиш. Бешинчидан, реал вақт режимида интерфаол тақдимот тизимлари, видеоконференцалоқа тизимлари, виртуал заллар, электрон ресурслардан фойдаланиб исталган вақтда масофавий ўқитиш жараёнини амалга ошириш. Олтинчидан, булутли технологиялар, виртуал воқелик, кенгайтирилган воқеликдан фойдаланиш ҳамда дидактик материаллар ва тажриба дизайнларини ишлаб чиқишда 3D принтерини қўллаш, рақамли дидактика ва рақамли таълим моделларини қўллаш, ўқитувчилар ва талабалар учун лойиҳалар, диплом ишлари, илмий изланишлар ва бошқаларини муҳокама қилиш учун илмий веб-сайтлар ишлаб чиқиш лозим. Шундагина, биз рақамли технологиялардан фойдаланиб таълим сифатини туширмаган ҳолда талаба-ёшларга бугунги кун талаби даражасида билим олишларига эришамиз. Алоҳида таъкидлаш керакки, бугунги кунда ҳаётимиз ҳар жиҳатдан техника ва технологиялар билан боғлиқ, яъни эрталаб соат бонгидан бошлаб то кун режасини

тузиш ва ўқиш билан яқунлашгача. Биз таълим сифатини ошириш ва ривожлантириш учун технологиялардан манфаатли фойдаланиш имкониятини яратишни истадик. Қачонки, планшет таълим олишнинг бир элементига айланса, болалар ўқиш жараёнига катта қизиқиш билан киришади. Бу ўйин билан классик таълимни бирлаштиришга тенгдир. Натижада ўқиш жараёни яхшиланади, ўзлаштириш, таълим даражаси ва кадрларни тайёрлаш самарадорлиги ошади. Билимли авлод, профессионал кадрлар — бу жамиятнинг кенг миқёсда ривожланишининг гаровидир. Хулоса ва таклифлар Хулоса сифатида айтиш мумкинки, бугунги кун аудиториялари ўн йил аввалгиларидан жуда катта фарқ қилади ва синф хоналари компьютерлар, iPad, планшетлар, смарт-доскалар ва бошқа турдаги таълим технологиялари билан жиҳозланган. Дунёнинг бошқа жойларида бўлгани каби Ўзбекистонда ҳам рақамли авлоднинг етти экранли авлоди - телевизор, компьютер, планшет, таблет, фаблет, смартфон ва смартсоатлари пайдо бўлмоқда. Бундай зич рақамли муҳитга эга бўлиш ва у билан доимий ўзаро муносабат натижасида бугунги кун талабаларининг фикрлаши ва ахборотларга ишлов бериш жараёнлари олдинги фикр юритиш ва ахборот жараёнларидан тубдан фарқ қилмоқда. Рақамли авлод ота-оналаримиз ўрганган услубда ўқитилиши мумкин эмас ва бўлмаслиги ҳам керак. Бу авлодни ўқитишда қора доска ва оқ бўрдан фойдаланиш ҳам мумкин эмас. Қора доскани оқига ва бўрни маркерга ўзгартириш ҳеч нарсани ўзгартирмайди, яъни замонавий талабаларни билим олишга ва меҳнат бозорида муваффақиятга эришиш кўникмаларини ривожлантиришга ундаш усули бўла олмайди. Замонавий ахборот-коммуникатсия технологияларига асосланган инновацион таълим технологиялари ва дидактик моделларни оммавий ва самарали қўллаш орқали таълим тизимини рақамли авлодга мослаштириш зарур. Шу билан бирга, таълим жараёнида тадқиқотга асосланган ёндашувдан фаол фойдаланиш лозим ва бу билан илмий тадқиқотда талабаларнинг кўникмаларини ривожлантириш ва IT- компетенцияга асосланган ижодий қобилиятларини ва ижодий фикрлашларини шакллантириш мумкин. Ахборот ва коммуникатсия технологиялари – таълим тизимидаги барча муаммоларга ечим эмас, балки рақамли авлод учун маърузалар ва семинарларни маълумотларга бой ва интерактив қилиб амалга ошириш воситасидир. Шуни ҳам таъкидлаб ўтиш лозимки, ўқитувчилар талабаларнинг эҳтиёжларига йўналтирилган интерфаол ўқув жараёнида асосий ролни сақлаб қолади. Ўқитувчининг обрўси ва унинг фаолиятининг самарадорлиги фақатгина курс мазмунидаги билимлар даражаси ва унинг педагогик қобилиятига эмас, балки муайян ўқув материални тўплаш, қайта ишлаш ва ўқитишда ўқитувчининг қанчалик замонавий ахборот-коммуникатсия технологияларини қўллаш даражасига боғлиқ бўлади. Бошқача қилиб айтганда, рақамли асрда таълим қайта кўриб чиқилиши ва таълим парадигмаси ўзгартирилиши шарт, чунки талабалар ортиқ анъанавий услубда ўқишни хоҳламайдилар ва ўқитувчилар ҳам бу каби одатий усулда ўқитишни давом эттиришлари керак эмас.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январда Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномаси. <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.
2. <https://www.pv.uz/uz/news/raqamli-talimga-otishni-pandemiya-jadallashtirdimi>.
3. Шаронин Ю.В. Цифровые технологии в высшем и профессиональном образовании: от лично-ориентированной Smart-дидактики к блокчейну в целевой подготовке специалистов // Современные проблемы науки и образования. – 2019. – № 1.
4. Abdullayev, M., Saidahrar, G., & Ayurov, R. (2020). Рақамли иқтисодиёт - кадрлар тайёрлашнинг долзарб йўналишлари. Архив научных исследований, 1(23). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2702>.

АДАБИЙ ТАЪЛИМДА МАТН МАЗМУНИНИ АНГЛАШ КЎНИКМАЛАРИНИ ҲОСИЛ ҚИЛИШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА

Палванова Наргиза Абдумуратовна,

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти мустақил изланувчиси

Аннотация: мақолада олий таълим муассасаларнинг санъат таълими йўналиши талабаларига бадиий асар мазмунини тушуниш, сўз маъномини англаш, шеър бадииятини англашга ёрдам берувчи лингвопоэтик таҳлил усулини қўллашнинг илмий-назарий асослари ҳақида фикр юритилади.

Калит сўзлар: адабий таълим, адабиёт, шеър, сўз, маъно, англаш, тушуниш, тушунтириш, адабий-назарий тушунчалар, ҳофия, кўникма

ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ ПОНИМАНИЯ СОДЕРЖАНИЯ ТЕКСТА В ЛИТЕРАТУРНОМ ОБРАЗОВАНИИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Палванова Наргиза Абдумуратовна,

независимый научный сотрудник Государственного института искусств и культуры Узбекистана

Аннотация: в статье рассматриваются научно-теоретические основы применения метода лингвистического анализа, который помогает студентам направления художественного образования высших учебных заведений вникать в содержание художественного произведения, понимать значение слова, постигать искусство поэзии.

Ключевые слова: литературное образование, литература, поэзия, слово, значение, осмысление, вникание, объяснение, литературно-теоретические концепции, рифма, мастерство

FORMATION OF SKILLS FOR UNDERSTANDING THE CONTENT OF A TEXT IN LITERARY EDUCATION AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Palvanova Nargiza Abdumuratovna,

Independent researcher at the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan

Abstract: the article discusses the scientific and theoretical foundations of the application of the method of linguistic analysis, which helps students of art education in higher educational institutions to delve into the content of a work of art, understand the meaning of a word, comprehend the art of poetry.

Keywords: literary education, literature, poetry, word, meaning, comprehension, understanding, explanation, literary and theoretical concepts, rhyme, mastery

Кириш. Инсонни санъат орқали тарбиялаш қадим тарихга бориб такалади. Кўшиқчилик, кино, театр санъати, албатта, сўзга таянади, бадиий сўз воситасида ифода қилинади, ижро этилади. Бироқ кейинги йилларда талабалар орасида сўзга эътиборсиз бўлиш, бадиий асар мазмунини тўла тушунмаслик, сўзнинг асарда, кўшиқ, сценарийда ифодалаган чин маъносини тушунмаслик ҳоллари кузатилмоқда. Бу, айниқса, ўзбек мумтоз асарлари ижросида кўзга ташланади. Бўлажак санъаткорларнинг сўз сеҳрини, унинг маъно товланишларини билмаслиги унинг ижросига салбий таъсир кўрсатмоқда, шунингдек, миллий меросимиз асслигига ҳам путур етказмоқда. Шу маънода, санъат ва маданият йўналиши талабаларига бадиий асар таҳлили бўйича махсус ўқув курслари ўтилиши заруратга айланмоқда.

Ўзбек адабиётшунослигида, адабиёт ўқитиш методикасида асар таҳлил бўйича бир қатор илмий изланишлар олиб борилган ва уларда таҳлилнинг асар мазмуни, муаллиф

ниятини англашдаги хизмати, асарнинг нозик бадиияти очиб берилган. “Бадиий асар тахлили” тушунчаси нимани англатади, бадиий тахлил қандай амалга оширилади, бадиий тахлил қандай кўринишларда моддийлаштирилса маъқул бўлади сингари саволларга жавоб беришдан олдин шу саволларнинг ҳаммасини юзага келтирган асос тушунча – “бадиий асар” атамаси тўғрисида муайян тўхтамга келиб олиш мақсадга мувофиқ бўлади . Буюк ёзувчи ва мутафаккир Фитрат ўзининг 1926 йилда яратган “Адабиёт қоидалари” кўлланмасида бу тушунчани тўла англамоқ учун, умуман, “санъат”дан “гўзал санъат” тушунчасини фарқлаш лозимлиги ҳақида: “Адабиёт сўзини тузукгина онгламоқ учун санъат ҳам гўзал санъат деган сўзларни таъриф қилиб ўтиш лозимдир. Санъат луғатда ҳунар демакдирким: бир нарсани яхши ишлаб чиқаришдан иборатдир. ...Бу маънодаги “санъат”дан тилакда бошқача бўлган бир турли санъатлар ҳам бор” 1,- деб ёзади. Олим “бошқача бўлган санъатлар”га хос асосий белгилар тўғрисида тўхталиб: “...юрак, фикр, туйғу тўлқунларини сўз, товуш, бўёв, шакл, ҳарф, ҳаракат каби товар (материёллар) ёрдами билан жонлантира чиқариб, бошқаларда ҳам шу тўлқунни яратмоқ ҳунарига гўзал санъатлар дейиладир”, - тарзидаги тўхтамга келади .

Адабиётлар тахлили ва методология

Айни чоқда адабиётнинг моҳияти нимада, у нима учун ва қандай ўқитилади деган савол бир-бирини тақозо этадиган бирлик сифатида алоҳида ёндашишни талаб этади. Шу кунга қадар мазкур тушунчалар хусусида кўплаб фикрлар илгари сурилган, соҳага тегишли мутахассис борки, улар томонидан кузатишлари доирасида муайян тавсиялар берилган. Адабиёт “Санъатнинг сўз, тил воситасида бадиий образлар яратувчи тури”

С. Долимов бунда асосий жиҳат халқнинг тарихий тараққиёти, ўзига хослигини бадиий образларда ифодалаш хусусияти эканлигини қайд этади: “Адабиёт биринчи навбатда одамларни ва уларнинг ҳаётини тасвирлайди, бу тасвир эса тарихий ҳақиқат ва тарихий воқеалар билан узвий боғланади” . Демак, тарбияланувчиларда адабий билимларни шакллантириш жараёни орқали инсон, унинг мураккаб ички дунёси ва руҳиятини чуқурроқ тадқиқ этиш, атроф-оламни билишларига кенг йўл очилади.

Адабиёт ўқитишда тарбиянинг негизи бўлмиш ўзликни англаш масаласи борлиги ҳам шунчаки тасодифий эмас. Методист С. Матчонов аждодларимиз асрлар давомида интилиб келган маънавий етукликни ўзликни англаш жараёни билан ёнма-ён кўрар экан, бу борада адабий таълимнинг ўрнини мустаҳкамлайди. Ўз-ўзини англаш бошқаларни англашга, шу орқали дунёни ва унинг сир-синоатларини тушунишга йўл очишини қайд этади . Профессор Қ. Йўлдошевнинг қарашларида ҳам юқоридаги фикрларга ҳамоҳанглик кузатилади. Олим айнан адабиётгина ҳар қандай одам учун ўзини таниш воситаси эканлиги, ўзини таниш эса, ўзгани тушунишдан бошланиши, ўзгани тушуниш машқи бадиий асарлардаги қаҳрамонларни ҳис этишдан ибтидо олишига эътиборини қаратади .

“Инсон ёшлигидан ўзлигини билса, – дейди профессор А. Чориев, – аввало, ўз қудратини ишга солади ва қолаверса, ташқи ғаразли таъсирлардан сақланишга тайёрланади. Аммо бугунги кунда инсоншунослик фанлари ва санъат, жумладан, адабиёт ўртасидаги ана шу ўзаро таъсир етарли эмас. Бадиий адабиёт, адабиётшуносликда ҳам инсонпарварлик йўналишидан кўра адабий танқид устун туради. Зеро, педагогика билан бадиий адабиётдаги умумийлик банди ҳам инсоншуносликдир” . Дарҳақиқат, бадиий адабиётнинг тасвир объектида, асосан, инсонга хос мураккаб ички кечинмалар етакчи ўринда тургани боис унда ҳис-туйғуларга таъсир кўрсатиш имконияти катта. Шу жиҳатдан шахс камолоти масаласи, асосан, бадиий адабиёт ва уни ўқитиш билан боғлиқ фанлар мазмунида ўз ифодасини топиши бежиз эмас.

Санъат ва маданият йўналиши талабаларига сўздан, шеърдан фойдаланиш, уни ижро этишда хатоликларга йўл қўймасликлари учун адабиёт фанини ўқитишда янги

тахлил усулларини қўллаш зарурати мавжуд. Бугун санъаткорларнинг бадиий асарга бўлган муносабати аксарият ҳолларда қониқарли эмаслиги уларнинг айримлари ўзи ижроларида сўз маъносини тушунмаслиги билан боғлиқ. Бу борадаги муаммоларни куйидаги жадвалда тизимли шаклда беришни лозим топдик:

1.1.1-жадвал

Т/р Бадиий асарларни ижро этишда йўл қўйиладиган камчиликлар:
Муаммонинг сабаблари:

1. Шеър мазмунини яхши тушунмаслик Адабиёт дарсларида замонавий таҳлил усулларида фойдаланмаслик
2. Шеърдаги айрим сўзларнинг маъносини билмай ижро қилиш Мисра ва сўз устида ишламаслик
3. Шеърдаги сўзларни нотўғри талаффуз қилиш Шеър фонетикаси ҳақида керакли билимнинг мавжуд эмаслиги
4. Шеърдаги бўғинларни нотўғри талаффуз қилиш
5. Шеърдаги айрим унли товушларни нотўғри талаффуз қилиш
6. Шеърдаги ундош товушларни нотўғри талаффуз қилиш
7. Шеърдаги сўзларнинг урғусини нотўғри талаффуз қилиш
8. Интонацияга эътибор бермаслик
9. Мумтоз асарларнинг ғоясини яхши тушунмай ижро этиш Шеърни ҳам тил ҳам бадиий хусусиятларини бирга таҳлил қилмаслик
10. Адабий-назарий тушунчалардан беҳабарлик Туроқ, хижо, қофия, такт, интонация каби адабий-назарий тушунчалар етарли эмаслиги

Адабиётни фан сифатида ўқитиш методикаси ўқитувчидан ўтмишдаги бой методик мерос, бугунги замонавий дастурлар, ўқув ва методик адабиётлар билан танишиш; адабий таълимга доир илмий тадқиқотлар ҳамда илғор тажрибалар ҳақида маълумотга эга бўлиш ва улардан ўз ўрнида фойдаланишни тақозо этади. Замонавий ва ихтисослаштирилган мактаблар шароитида адабий таълим жараёнини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари ўқув, тарбиявий ва ривожлантирувчи вазифаларни самарали ҳал этиш; тарбияланувчиларда ўқув адабиётлари билан мустақил ишлаш кўникмалари, мутолаага ижодий муносабатни шакллантириш масаласини ҳам кўзда тутати.

Яхши аёнки, дунёдаги жамики яратилган сўз билан аталади, унинг жозибаси ва қудратига бирор нарса тенг келмайди. Барча ҳис-туйғулар ифодаси сўз сеҳри ўлароқ ўз соҳиби ва ўрнини топади. Ҳусайн Воиз Кошифий суҳбат одобига тўхталар экан, сўзнинг доимо савоб учун ишлатилишига, бунда муносиб, адолатли ва тўғри фикр айтиш, акс ҳолда сукут сақлаш афзаллигини уқтиради. “Агар сўз сеникими ёки сен сўзники, деб сўрасалар, айтгил: мен сўзники ва сўз меникидир, чунки сўз инсонлик дарахтининг мевасидир, дарахтни мевадан, мевани дарахтдан ажратиб бўлмайди. Агар нуқсонли сўз қайсидир, деб сўрасалар, худо ва Расулнинг сўзига мувофиқ келмайдиган сўз, деб жавоб бергил.

Агар яхши сўз қайси, деб сўрасалар, кишиларга нафъи тегадиган сўз, деб айтгил. Ёмон сўз қайси, деб сўрасалар, бировга зарари тегадиган сўз, деб жавоб бергил”. Мазкур фикрларидан ажодларимиз ҳар бир масалада, аввало, унинг тарбиявий аҳамиятини кўзда тутиб иш кўрганликлари маълум бўлади. Зеро, ҳар қандай эзгу амал аввал тафаккур қилиниб, сўнгра унинг рўёби сўз орқали дунё юзини кўради.

Рус филологи Л.А. Новиков ўзининг “Сўз санъати” китобида қайд этганидек, “Сўз мавҳум ва конкрет, умумий ва индивидуал, нейтрал ва ҳиссий ранг-баранг маъноларнинг бирлиги бўлиб, уни ҳеч нарса билан алмаштириб бўлмайди! Сўзлар дунёси хилма-хил, қизиқарли, мафтункор ва ҳали тўлиқ ҳал этилмаган: у фазо ва Коинот каби битмас-туганмас. Масалан, адабиётни олайлик: нақадар теран фикрлар, ғоялар, образлар ва туйғулар тубсизлиги! Буларнинг барчаси луғатда алифбо тартибида тизилган ўша оддий

ва кўзга кўринмас сўзлар ифодасидир. Ёзувчи уларни топа билиши ва жон ато этишини, асарларида семантик ва ҳиссий тарзда камалакнинг барча ранглари каби порлашини кутади”.

С. Қамбарова: “Тилнинг бир қанча вазифалари бор. Улардан энг муҳими алоқа функцияси ёки коммуникативлиги, лекин бу унинг ягона хусусияти эмас. Сўз ҳам ифодали, ҳам мажозий бўлиши керак, албатта, зарур бўлганда. Сўзнинг образлиги у бошқа сўзлар билан муносабатга киришиб, эстетик вазифасини бажарганида, тўлиқлик ва чуқурлик билан намоён бўлади. Адабиёт рангасвир, ҳайкалтарошлик, мусиқа ва бошқа санъат турларидан сифат жиҳатидан фарқ қилади, чунки унинг материали сўз билан боғлиқ бўлган ички тасвир, ёзувчи ижодий яратган ва ўқувчи томонидан қайта кашф қилинган бадиий образдир. Бизнингча, бу интеллектуал ҳодиса санъатнинг энг мослашувчан ва мобил материалидир”, деб таъкидлайди.

Адабиёт ўқув предмети сифатида адабиётшуносликнинг сўнгги ютуқларини акс эттириши табиий ҳолдир. “Модомики, бадиий адабиётни ўрганишдан кўзда тутилган бош мақсад инсоннинг тарбиясига ижобий таъсир ўтказиш экан, демак, бунда айрим педагогик ва психологик қонуниятларнинг ҳеч бўлмаганда умумий қонуниятларини билмасдан туриб олға қадам ташлашнинг имкони бўлмайди. Бу санокни яна давом этириш мумкин”. Кўринадики, сўнгги ўн йилликлардаги методологиядаги изланишлар умумий педагогика ва бадиий идрок психологияси, социология ва эстетика, санъат тарихи ва таълим назариясида содир бўлаётган ўхшаш жараёнлар билан боғлиқ. Адабиёт ўқитиш методикаси билан адабиётшунослик, дидактика ва педагогик психология ўртасида узвий боғлиқлик мавжуд.

Шакл ва мазмун ўртасида боғлиқлик мавжуд. Уларнинг қайси бири асосий ва етакчилиги борасида профессор Қ. Йўлдошев шундай фикр юритади: “Одатда, шаклдаги ўзгаришлар мазмун туфайли ва ундан кейин деб тушунилади. Синчиклаб қаралса, санъат хусусан, бадиий адабиётда шакл ва мазмун муносабати фалсафадаги шакл ва мазмун муносабатидан фарқ қилиши аён бўлади. Бадиий мазмун муайян бадиий асарда акс этган шахс, воқеа-ҳодиса, хатти-ҳаракат, ҳис-туйғу ва руҳият-кайфиятдан иборатдир.

Бадиий мазмун эса, муайян бадиий асар моҳиятининг бадиий тасвир воситалари орқали эстетик мазмунга эга тарзда ифодаланиш йўсинидир”.

Адабиётшунос Д. Қуронов шакл мазмунсиз, мазмун эса шаклсиз мавжуд эмаслигига урғу бергани ҳолда уларнинг ўзаро диалектик алоқада бир-бирини тақозо қилиши, таъсирлашиши ва ўтишини таъкидлайди: “Бадиий шакл билан бадиий мазмун муносабатида ҳам мазмун етакчилик қилиб, у шаклни ҳосил қилишда жуда фаолдир. Санъаткор ижодий ниятидан келиб чиққан ҳолда бўлғуси асарнинг мазмуни унинг шаклини белгилайди, яна ҳам аниқроғи, бўлғуси асарнинг мазмуни унинг шаклини белгилайди”. Демак, иш мазмунида бир-бири билан узвий боғланган икки томонни ажратиб кўрсатиш керак. Бадиий асар ҳаётни акс эттиради, шу боис мазмун ҳақида гапирилганда, доимо ёзувчи кўрсатган воқеликнинг муайян хусусиятлари ҳақида фикр юритилади.

Professor M.Mirqosimova o‘z ilmiy izlanisqlarida adabiy tahlilga quyidagicha ta’rif beradi: «Adabiy tahlil ҳар қандай adabiy asarni o‘qib o‘rganishdan, uning mazmunini anglashdan bosqlanadi. Adabiy tahlilda aynan o‘quvchilarning ana shu hissiy anglash va idrok etish қobiliyatlariga tayaniladi. Adabiy tahlil – asarning estetik xususiyatlarini o‘quvchi ko‘z o‘ngida «yarq» etib ochib berish usuli. Bu usuldan adabiy asarlarni o‘rganishda foydalaniladi. Badiiy ijod namunalarini o‘qib o‘rganib borisqlari davomida o‘quvchilarda tahlil malakasi ham shakllanib boradi».

М.Yo‘ldoshevning “Badiiy matn lingvopoetikasi” nomli tadqiqotida matnni taqlil qilishdagi lingvopoetik yondashuv muammolari, badiiy matnning fonetik-fonologik, leksik-semantik va

grammatik xususiyatlari yoritildi

N.Mahmudov til va tafakkur, til va madaniyat, til va gapiruvchi inson o'rtasidagi bunday uzviy, ikki tomonlama va muntazam aloqa, grammatika va tafakkurning o'zaro uyg'un munosabati bugun ham, ayniqsa, antroposentrik talqinlarda alohida e'tirof etilayotganini ta'kidlab, G.A.Zolotovanning "Grammatika ilmi – filologiyaning bir qismi, bu ilm turli paradigmalar, qoidalar va taqiqlar to'plami emas, balki til qurilishiga, matnlar qurilishiga, insonning tafakkur qurilishiga kirish uchun kalitdir" degan fikrini keltirib o'tadi .

Профессор Л.А. Новиков инсонда воқеликни идрок этиш одатда яширин (латент) ҳолатда мавжудлигини таъкидлайди. Унинг фикрича, "Зарур бўлганда, улар жонланади, қандайдир сигналлар, ташқи стимул ёки сўз – дунё ҳақидаги ғоя ва таассуротлар таъсирида онгнинг "маркази"га киритилади". Бизнингча, олам ҳақидаги ана шундай билим, ғоя ва таассуротлар йиғиндиси кишиларнинг лингвистик мулоқоти, нутқни ривожлантириш, матнни ҳосил қилиш ва идрок этиш учун асос бўлиб хизмат қилади.

Профессор Қ. Йўлдошев "Замонавий филологик таълимнинг етакчи тамойиллари" ҳақидаги чиқишида ўқитишдаги муаммолар илдизини кўрсатар экан, бу борада қуйидаги хулосаларга келади: "...муайян миқдордаги фан ҳақиқатларини ўзлаштириб оладиган объект эмас, одаму оламда рўй берадиган ҳар қандай воқеа-ҳодиса ва ҳолатга ўз нуқтаи назари билан соғлом муносабатда бўла оладиган шахс сифатида шакллантирилиши керак... адиб ёки асарнинг мавқеи ёки машҳурлиги эмас, балки ўқувчи маънавиятида шакллантирилиши лозим бўлган эзгу ахлоқий сифатни юзага келтиришга хизмат қилиш даражаси муҳим".

Мулоқот тушунчаси билимларнинг турли элеменларини муваффақиятли ўзлаштириш омилидир. Одамларнинг бир-бирига ўзаро таъсири, турлича муносабатларда қарама-қарши сифатларини намоён қилиши мулоқот жараёнида яққолроқ сезилади. М. Махсудова шахснинг эстетик, ақлий ва жисмоний ривожланишида мулоқотни таъсир кўрсатиш воситаси деб билади. Ҳар бир ёш даврида хос сўзлар қўлланилиши, бунда сўзларнинг таъсир кучи ҳисобга олиниши, жараёнда шахснинг темперамент хусусиятлари доирасида мулоқот усуллари танланиши бу хусусиятни ривожлантириши қайд этилади .

Асарни жанрий ҳослиги бўйича ўрганиш моделига: ёзувчи эстетик қарашлари билан танишиш; жанрлар тарихи ва назариясига мурожаат қилиш; адабий ва танқидий асарлардан парчаларни жалб қилиш; муаллиф нуқтаи назарини ифодалаш усуллари оидинлаштириш, асарларни жанри асосида қиёслаш каби иш турлари киради. Бу борада Қ. Йўлдошев таъкидлаганидек, "Аввало, драматик асарни ўқиш бошқа турдаги асарлардан тубдан фарқ қилиб, муайян назарий тайёргарликни талаб этади. Шу хилдаги тайёргарлик ҳаммада ҳам бўлмагани учун драматик асарлар кўп ўқилмайди. Борди-ю, бирор пийеса матни ўқилган тақдирда ҳам уни идрок этиб, замиридаги бадий маънони илғаш осон кечмайди. Негаки, драма асарида муаллиф мутлақо иштирок этмайди, унинг позицияси асло кўзга ташланиб турмайди, асар сюжети ривожи давомида рўй бераётган тўқнашувлар ва персонажлар хатти-ҳаракатларини аксиологик жиҳатдан баҳолаш ҳамда асардан эстетик таъсирланиш ўқирманнинг ҳаётий тажрибаси, интеллектуал даражаси, маънавий савиясига боғлиқ бўлиб қолади".

В. Г. Белинский: "Поэзия ўзидан ташқарида бўлган ҳеч бир мақсадни кўзламайди. Билимдаги ҳақиқатдек, ҳаракатдаги эзгуликдек унинг ўзи мақсаддир", - деганди.

Буюк испан файласуфи ва эстети Ортега-й-Гассетнинг 1925 йилда ёзган "Санъатнинг дегуманизациялашуви" асаридаги: "Адабиёт одамни кутқаради деган гапни фақат инсонда болаликни уйғотиб, уни ҳаётнинг жиддийлигидан кутқаради, деган маънода қўллаш мумкин", - деган фикри бадий адабиётнинг завқланиш ҳамда ҳордиқ чиқариш хусусиятини акс эттириши жиҳатидан катта аҳамиятга эгадир.

Профессор Қ.Йўлдошнинг таъкидлашича: "бадий асар ва унинг қаҳрамонларига

“реалистик жўнлик” йўсинида муносабатда бўлиш уларни улуғламайди, балки ерга уради. Бадиий асарга ёндашганда, ана шу жиҳат унутилмагани мақсадга мувофиқ бўлади. Чунки “Ундай қилма, бундай қил!” тарзидаги йўл кўрсатиш, унинг олдинги тутумларини баҳолаб, кейинги хаттиҳаракатларини башорат қилиш бирламчи борлиқдаги реал одамларга татбиқан ўринли ва фойдали. Лекин бадиият оламининг фуқароларига бундай ёндашиш бемаъниликдир. Зеро, “...бадиий асарнинг тасвир “объекти” тасвирнинг ўзисиз мавжуд бўлиши мумкин эмас. Бинобарин, тимсолни асарнинг умумий атмосферасидан юлиб олиб, унга бегона муҳит талаблари асосида баҳо бериш орқали бадиий асарнинг миқёси торайтирилиб, жўнлаштирилибгина қолмайди, балки йўқ қилинади. Объектни у ёритилган муҳитдан тортиб олиш унинг моҳиятини бузиш демакдир” . Узоқ йиллар давомида мактабда бадиий асарни ўрганиш муаммолари билан шуғулланиб келган методист олим Г. А. Гуковскийнинг бу қарашлари теран ҳаётий ва мантикий асосга эгадир.

Адабиётшунос В. Асмус: “Бадиий асар ўқишнинг айнан бадиий асар ўқиш тарзида кечишига эришишнинг биринчи шarti бутун ўқиш даврида ўқирман миясининг алоҳида тарзда йўналтирилган бўлишидан иборатдир. Бунга кўра ўқирман ўқиётган нарсасига ҳеч қачон бўлмаган, бошдан-оёқ уйдирма деб эмас, балки ўзига хос борлиққа қарагандай муносабатда бўлсин. Бадиий асар ўқишнинг айнан бадиий асар ўқиш тарзида кечишига эришишнинг иккинчи шarti биринчисининг тескарисига ўхшаб кўринади. Бадиий асар ўқишнинг айнан бадиий асар ўқиш тарзида кечиши учун ўқирман бутун мутолаа давомида ўқиладиган асарда тасвирланган ҳаёт бевосита реал ҳаёт эмас, балки унинг образи, бадиий тасвири эканини билиб туриши керак” , –деган эди.

Қ. Йўлдош бадиий асар таҳлил ҳақида қуйидаги муҳим фикрларини баён қилади: “Кейинги йилларда бутун дунё миқёсида бадиий асар ўқийдиган кишилар тобора камайиб бораётгани борасида ташвишли фикрлар айтилмоқда. Бизда эса, маълум даражада тасаввур қилинадиган ҳамда ҳали тўлиғича англаб етилмаган сабабларга кўра, одамларнинг бадиий асар ўқиш даражаси янада пасайиб кетган. Аслида шахс маънавиятининг камол топиши учун бадиий асар ўқишнинг ўзигина етарли эмас. Асосий масала қандай асарларни, қандай ўқиш, таъсирланиш ва тушунишда. Юксак бадиий савиядаги асарлар туриб, олди-қочдилардан иборат битикни ўқиш ёхуд жуда гўзал адабий асарни ўқиган ҳолда ундан таъсирлана билмаслик ва завқлана олмаслик ҳолатлари ҳам учраб турадики, булар жамият аҳлининг маънавий камолотидаги нуқсонлардан дарак беради ва уларни келтириб чиқаради ҳам. Шунинг учун бадиий асар ўқиш билан биргаликда уни тушуниш ва ундан таъсирланиш муаммоси ҳамisha ижтимоий долзарб масала ҳисобланади. Бу борада миллат миқёсида бадиий асарларни таҳлил қила билиш малакасининг бор ёки йўқлиги ҳал қилувчи аҳамият касб этади” .

Қ. Йўлдошнинг таъкидлашига кўра “таҳлил механизми борасида бир тўхтамга келинмаган бўлсада, очун адабиётшунослигида бадиий асар таҳлили тушунчасининг моҳиятини аниқлаш, унга хос хусусиятларни тайин этиш борасида анча вақтлардан бери уриниб келинмоқда. Бу борадаги энг соғлом қарашлардан бири машҳур рус адабиёттанувчиси В. Белинскийга тегишли: “...менимча, мунаққид ҳал этиши лозим бўлган биринчи ва асосий масала – ушбу асар чиндан ҳам нафисми, ушбу асар автори чиндан ҳам шоирми – шуни аниқлашдан иборат” .

“Бадиий матннинг филологик таҳлилидан асосий мақсад муаллиф образини тўла идрок этиб, унга етишишдир. Айни шу ҳолат бадиий матнни таҳлил қилишнинг асосига қўйилиши лозим” .

Психолог Л. С. Виготскийнинг: «Санъатни кўпроқ даражада кечиккан муносабат дейиш мумкин, негаки, унинг дунёга келиши билан таъсир кўрсата бошлаши ўртасида ҳамisha оздир-кўпдир замоний оралиқ бўлади» , - деган фикри ҳам бунга асос бўлади.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, сўзни, шеърни, ҳар қандай бадиий асарни англашнинг турли усуллари мавжуд. Адабиёт ўқитиш методикаси бадиий асарни асосан, бадиий жиҳатдан таҳлил қилади, бадиий асар тили ҳақида эса қисман тўхталиб ўтилади. Бу умумий ўрта таълимда адабиёт ўқитишга етарли бўлиши мумкин, аммо бўлажак мутахассис сўз орқали таъсир кўрсатиш билан шуғилланувчилар учун камлик қилиши мумкин. Жумладан, санъат ва маданият йўналиши талабалари бадиий матнни ҳам тил ҳам бадиий жиҳатдан таҳлил қила олиши зарур. Шу маънода, адабиёт ўқитиш методикаси лингвопоэтик таҳлил усулини киритиш, мазкур йўналишда ўқиётган талабалага шеър ёки драма матнининг тўлиқ таҳлилини ўргатиш самарали бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016. – 122-б.
2. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. IV жилд. –Т.: “Маънавият”, 2006. 11- бет.
3. “Узбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. – Тошкент: “Узбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 38-б.
4. Долимов С., Убайдуллаев Ҳ., Аҳмедов Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – 225-б.
5. Матжон С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 27-б.
6. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг асослари / Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, ToshDO‘TAU, 2018. – B. 36.
7. Чориев А., Чориев И. Педагогиканинг методологик асоси ва илмий тадқиқот методлари. – Тошкент: Nishon noshir, 2016. – 45-б.
8. Кошифий, Ҳусайн Воиз. Футувватномаи Султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. Форс-тожик тилидан Н.Комилов таржимаси. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. – 58-б.
9. Новиков Л.А. Искусство слова. – 2-е изд., доп. – М.: Педагогика, 1991. – С. 5.
10. Қамбарова.С. Адабиётни ўқув фани ва санъат тури сифатида ўқитиш методологияси. Докторлик дисс. –Тошкент. 2024. 284 б.
11. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 13-б.
12. Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016. – 122-б.
13. Қурононов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2018. – 112-б.
14. Mirqosimova M. Adabiy taqlil metodikasi (Adabiyot o'qituvchilari va talabalar uchun qo'llanma). – Т.: RO'MM, 1993. 27-б.
15. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 160 б.
16. Mahmudov N. Til ilmi va ta'limining muntazamligi // Til va adabiyot ta'limi. 2021. № 10. – 8-б.
17. Новиков Л.А. Искусство слова. – Москва: Педагогика, 1991. – С. 24–25.
18. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Turon-iqbol, 2006. – 23-б.
19. Белинский В. Г. Адабий орзулар. –Т.: Ф. Ғулум номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. 108- бет.
20. Гассет-и-Хосе Ортега. Дегуманизация искусства. В книге “Современная книга по эстетике. Антология». –Москва.“Иностр. лит”., 1957. с. 451.
21. Гуковский Г.А. Изучение литературного произведения в школе. (Методологические очерки о методике). –Москва-Ленинград. 1966. С. 41.
22. Асмус В.Ф. Вопросы теории и истории эстетики. -М., 1968. С. 56.
23. Бобылев Б.Г. Теоретические основы филологического анализа художественного текста в национальном педвузе. Дисс. докт. пед. наук. –Москва. 1991. -С. 296.
24. Выготский Л. С. Психология искусства. –Москва. «Педагогика», 1987. -С. 341.

OLIV TA'LIM TIZIMIDA MA'NAVIV-MARIFIV ISQLAR MONITORINGINI TAKOMILASHTIRISH INDIKATOR VA YO'NALISQLARI

*Pulatov Djavdat Abdujabborovich,
O'zbekiston davlat jaxon tillari universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida
dotsenti
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)*

Mazkur maqolada Oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy isqlar monitoringini takomillashtirish jarayonida amal kiladigan printsip, parametr va indikatorlarning pedagogik tavsifi ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek maqolada, OTM ma'naviy-ma'rifiy isqlar monitoringini takomillashtirish jarayonida kompleks tahlil yo'nalisqlari, elektron ta'limning joriy etilishida zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi, ta'limning isqlab chiqarish va ilm-fan bilan integratsiyasi, xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilganligi masalalariga alohida urg'u berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, o'qituvchi, talaba, ma'naviy, ma'rifiy, parametr, indikator, monitoring, ilm-fan, integratsiya, elektron ta'lim, ta'lim, tarbiya, innovatsion faoliyat, ma'lumotlar banki

ПОКАЗАТЕЛИ И НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МОНИТОРИНГА ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ РАБОТЫ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Пулатов Джавдат Абдужабборович,
Доцент кафедры «Педагогика и психологии» Узбекского государственного университета мировых языков
Доктор философии по педагогическим наукам (доктор философии)*

В данной статье с научно-теоретической точки зрения объяснено педагогическое описание принципов, параметров и показателей, используемых в процессе совершенствования мониторинга духовно-просветительской работы в системе высшего образования. Также в статье в процессе совершенствования мониторинга духовно-просветительской работы высших учебных заведений определены направления комплексного анализа, использования современных педагогических, информационно-коммуникационных и инновационных технологий при внедрении электронного образования, подключение образования с производством и наукой. Особый акцент был сделан на вопросах интеграции, налаживания международного сотрудничества.

Ключевые слова: Высшее образование, преподаватель, студент, духовный, образовательный, параметр, показатель, мониторинг, наука, интеграция, электронное обучение, образование, обучение, инновационная деятельность, банк данных.

INDICATORS AND DIRECTIONS FOR IMPROVING MONITORING OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

*Pulatov Dzhavdat Abdujabborovich,
Associate Professor, Department of Pedagogy and Psychology, Uzbek State University of World Languages Doctor of Philosophy in Educational Sciences (Doctor of Philosophy)*

This article explains from a scientific and theoretical point of view the pedagogical description of the principles, parameters and indicators used in the process of improving the monitoring of spiritual and educational work in the higher education system. Also in the article, in the process of improving the monitoring of the spiritual and educational work of

Аннотация: мақолада адабий таълимни ривожлантириши масаласи, хусусан, ўқув топшириқларини такомиллаштириши, адабиёт ўқитишида савол ва топшириқлари мазмунини таҳлилий ўрганиши, асар моҳиятини очиб берувчи ўқув топшириқлар ишлаб чиқишининг илмий-методик асосларини яратиши, ўқувчилар билиминини баҳолаш мезонларини кўриб чиқиши бўйича муҳим тавсиялар, хулосалар баён қилинган.

Калит сўзлар: адабий таълим, таълим мазмуни, асар моҳияти, бадиий асар таҳлили, ўқув топшириқлари, савол, топшириқ, уй вазифаси, билим, кўникма ва малакалар

ТИПЫ И ОПИСАТЕЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ В ЛИТЕРАТУРНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Расулова Гулбахор Керимбаевна,
доцент Ташкентского университета прикладных наук

Аннотация: в статье рассматривается вопрос развития литературного образования, в частности, важные рекомендации, выводы по совершенствованию учебных заданий, аналитическому изучению содержания вопросов и заданий в преподавании литературы, созданию научно-методических основ для разработки учебных заданий, раскрывающих суть произведения, рассмотрение критериев оценки знаний учащихся.

Ключевые слова: литературное образование, содержание образования, суть произведения, анализ художественного произведения, учебные задания, вопрос, поручение, домашнее задание, знания, навыки и квалификация

TYPES AND DESCRIPTIVE ASPECTS OF LEARNING TASKS IN LITERARY EDUCATION

Rasulova Gulbakhor Kerimbayevna,
Associate Professor of Tashkent University of Applied Sciences

Abstract: the article deals with the development of literary education, in particular, important recommendations, conclusions on improving educational tasks, analytical study of the content of questions and tasks in teaching literature, the creation of scientific and methodological foundations for the development of educational tasks that reveal the essence of the work, consideration of criteria for assessing students' knowledge.

Keywords: literary education, the content of education, the essence of the work, the analysis of the work of art, educational tasks, question, assignment, homework, knowledge, skills and qualifications

Кириш. Topshiriq jahon til o'qitish metodikada o'quv maqsadiga erishishga qaratilgan o'quv jarayonining birligi bo'lib, uning tuzilishini belgilaydi, til va nutq maqsadlariga erishishda ma'lum darajada mashqdan farqlanishi bilan tavsiflanadi. O'quv topshiriqlarini o'zaro farqlash masalasi pedagogikada ham metodikada ham bahsli mavzudir.

Umumiy o'rta ta'lim adabiyot darsliklari va darslik-majmualarida berilgan savol-topshiriqlarning mazmun-mohiyati, yo'nalishlari, ular asosida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish bilan bog'liq muammolar bir qancha ilmiy va ilmiy-metodik ishlarda o'z aksini topgan

H. Suyunov adabiy ta'limda savol va topshiriqlar ustida ishlash bo'yicha muhim fikrlarni ilgari suradi. Jumladan, adabiyotdan savol-topshiriqlar yuzasidan olib boriladigan ishlar o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar, ko'nikma va malakalarni baholash hamda nazorat qilish, mustaqil faoliyatga yo'llashgina bo'lib qolmasdan, adabiy hodisalar, asarlar mohiyati xususida qiyosiy va teran tahlil vositasida umumlashma xulosalar chiqarish, ijodiy-estetik tafakkurni yuksaltirishga ham qaratilishi tadqiqot muammosi yuzasidan olib borilgan ko'p yillik ijodiy izlanishlar natijasi, pedagogik tajribalar xulosasi sifatida ilmiy-metodik jihatdan isbotlandi. Adabiyot darslarida savol-topshiriqlar ustida ishlash usullari: a) kirish mashg'ulotlariga doir savol-topshiriqlar ustida ishlash; b) asar tahliliga doir savol-topshiriqlar ustida ishlash; v) yakuniy mashg'ulotlarga doir savol-topshiriqlar ustida ishlash tarzida turli ta'limiy bosqichlarga bo'lib ishlab chiqildi, ularni amalda qo'llash yuzasidan tegishli tavsiyalar tizimi yaratildi. Adabiyot darslarida savol-topshiriqlar ustida ishlash Davlat ta'lim standarti va dasturda belgilangan talablarni bajarishda muhim omil ekanligi asoslab berildi. Biroq olim adabiy ta'limda o'quv topshiriqlari tuzish masalasiga alohida e'tibor qaratmagan, unda asosan, savol va topshiriqlar ustida ishlashga urg'u beriladi.

Mashqlardan farqli ravishda topshiriqlar darsning tashkiliy jihatlariga, o'quv materialini tushuntirishda va pedagogik aks ettirishda to'liq kiritiladi. Topshiriq bir vaqtning o'zida bir nechta mashqlarni o'z ichiga olishi mumkin, masalan: Topshiriq.

Bugungi kunda ko'plab xorijiy tillarni bilish muhimmi, yo'qmi, hamkasbingiz bilan muhokama qilyapsiz.

– Nima uchun bu savolga qiziqayotganingizni tushuntiring.

Hamkasbingiz bu haqida nima deb o'ylayotganini bilib oling.

Ushbu masala bo'yicha fikringizni ko'rsatadigan haqiqiy hayotiy ishni ayting.

– Izohni ifodalash vositalaridan foydalanish (kelishuv, taxmin, esga tushirish va boshqalar.) va nutq tuzish va hokazo.

Topshiriq va mashqlar o'rtasidagi farq haqida atamalarni belgilab, misollar keltirish orqali bu savolga javob berishga harakat qilinadi.

Zamonaviy o'qitish metodikasining eng xarakterli xususiyatlaridan biri topshiriqlar real harakatlarga qaratilishidir. Aksariyat darsliklarda hozirgi kunda kommunikativ natijaga ega bo'lgan topshiriq va mashqlar shuningdek tildan to'g'ri foydalanish imkonini beruvchi til mashqlari mavjud.

Topshiriq, odatda, xronologik va empirik bo'lmagan natijaga ega bo'lgan kommunikativ harakatdir. Hayotiy topshiriq bilan pedagogik topshiriq o'rtasida yana bir farq bor. Ikkinchisi, asosan, sinfda o'qitish maqsadlari uchun mo'ljallangan. Biroq, hayotiy topshiriqlar sinfdan tashqari til yordamida hal qilinadigan muloqot topshiriqlaridir. Adabiy ta'limda topshiriqning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

1. Bir emas, bir nechta ko'nikmalarga qaratiladi.
2. Topshiriqlar kontekstda ishlatiladi.
3. Topshiriqlar kommunikativ va odatda hayotiydir.
4. Mazmunga e'tibor qaratiladi.

Adabiy ta'limda mashq odatda fanning bir elementiga qaratiladi va yod olish va ijro ko'nikmasiga doir natijaga ega bo'lishni ko'zlaydi:

1. O'qituvchi mashqini boshqaradi va nazorat qiladi.
2. Odatda, diqqat markazida bitta mahorat turadi.
3. Kontekst haqida hech qanday ma'lumot yo'q.
4. She'rni yoki nasriy parchani yod aytish mashqi.
5. Mantiqiylikka urg'u berilmaydi, diqqat markazida shakli emas, balki mazmuni turadi.
6. Tuzatish odatda darhol amalga oshiriladi.

O'qitish metodikasi bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borayotgan pedagog, san'atshunos professor Jak Richards "mashqlar muvofiq, yakunlovchi va o'qib tushunish,

yoʻzish koʻnikmalarini oʻz ichiga oladi. Topshiriqlar nafaqat tilni oʻrganish, balki til bilan biror narsa qilishda ham natija beradigan har qanday faoliyat turini oʻz ichiga oladi”, deydi.

Biz ham savol, mashq hamda topshiriqlar haqida oʻz kuzatishlarimizni olib bordik, adabiyot oʻqitish metodikasi talablari doirasida tavsif va tasnif qildik. Kuzatishlarimiz natijasida ayrim namunalar ham yaratdik.

Adabiyot darslarida didaktik tahlilni qoʻllash orqali, birinchidan, oʻquvchilar qoʻyilgan masalani oʻrganishga tayyorlanadi, ikkinchidan, darslik va darslik-majmualardagi badiiy, ilmiy va ilmiy-metodik matnlar ustida ishlash, qoʻshimcha adabiyotlardan foydalanish malakalarini egallay boradilar, uchinchidan, adabiy-nazariy tushunchalarni amalda qoʻllash hamda oʻzlari bajargan mustaqil ishlardan toʻgʻri xulosalar chiqarishga oʻrganadilar. Olib borilgan izlanishlar davomida savol–topshiriqlar quyidagi talablar asosida tuzilsa samarali boʻlishiga ishonch hosil qildik.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Savol-topshiriqlar: –oʻquvchilarni oʻrganilayotgan asar yuzasidan mustaqil va atroflicha fikr–mulohaza yuritishga yoʻnaltirilgan boʻlishi; –oʻquvchilarning bilim saviyasi va hayotiy tajribasiga mos boʻlishi; –badiiy dunyoqarashi va axloqiy tushunchalarini shakllantirishga xizmat qilishi; –badiiy estetik tafakkurini yuksaltirishga yordam berishi; –nutqini boyitishi maqsadga muvofiqdir. Oʻquv topshiriqlarning vazifasi, qoʻllanish oʻrni haqida ham mulohaza qilib koʻrishga toʻgʻri keladi. Adabiyot darslarida, asosan, savol va topshiriqlardan foydalaniladi. Ayniqsa, topshiriqlarning ahamiyati katta.

Topshiriq atamasiga “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da quyidagicha taʼrif berilgan: “Topshiriq 1. Kimsaning zimmasiga yuklatiladigan ish, vazifa. Hukumat topshirigʻi. Topshiriq bermoq. Tergovchi ham xit boʻldi. Axir, u bu erga oʻynagani kelmagan-ku. Maxsus topshiriq bilan oqni oqqa, qorani qoraga ajratgani kelgan.”.

Koʻrinib turibdiki, har bir atama oʻz mazmun-mohiyatiga ega. Yaʼni, topshiriq kishining, jumladan, oʻquvchining zimmasiga biror mavzuni mustahkamlash maqsadida bir marta bajarish uchun beriladigan ish, vazifani anglatadi.

Adabiy taʼlimda foydalaniladigan topshiriqlar dastlab ikki turga boʻlinadi:

1. Anʼanaviy topshiriqlar
2. Pragmatik topshiriqlar

Anʼanaviy topshiriqlardan ham taʼlim jarayonida foydalanib kelinadi. Mazkur topshiriqning ahamiyatli ekanligini shu kunga qadar amal qilib kelinganidan ham bilish mumkin. Adabiyot mashgʻulotlarida hali ham anʼanaviy topshiriqlar qoʻllaniladi. “Shoirning tarjimai holi haqida gapirib bering”, “Sheʼrni yod oling” kabi nutqiy koʻnikmaning shakllanishiga xizmat qilmaydigan bir qancha topshiriqlar qatorida “Asardagi salbiy qahramonlarni sanab bering”, “Asar qahramonlarini tavsiflang” kabi anʼanaviy boʻlsa-da nutqiy malakani rivojlantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlarni uchratish mumkin. Ammo bunday oʻquv topshiriqlari koʻp emas, qolaversa, muayyan mezon asosida tizimli berilmaydi.

Bu kabi topshiriqlarni tuzishda oddiy jummalarni tahlil qilishdan koʻra aforizmlar ustida ishlash foydali ekanligi inobatga olingan. Qolaversa, oʻquvchi mashhur kishilarning hayot haqidagi qarashlarini oʻrganishga qiziqadi. Eng muhimi, hikmatli soʻzlar ayrim oʻquvchilarning yashash shioriga ham aylanib boradi.

Mavjud darsliklarda bunday oʻquv materiallarini yoʻq deb boʻlmaydi. Biroq ular asosida berilgan topshiriqlarni takomillashtirish lozim. Darslikning asosiy vazifasi oʻqituvchini, koʻproq oʻquvchini yoʻnaltirish ekan, biz, avvalo, mashqni topshiriqdan farqlab ularning shartlarini oʻquvchida nutqiy koʻnikmalarni shakllantira oladigan holatga keltirishimiz zarur. Amaldagi darsliklarda quyidagi mazmundagi savollardan foydalanilmoqda:

“Asarning keyingi qismida tabiat tasviriga eʼtibor bering. Parchadagi badiiy tasvir vositalari nimaga xizmat qilmoqda?”, “Asarning davomini oʻqing. Muhojir va ota oʻrtasidagi ziddiyatga

e'tibor bering. Bu ziddiyat asar g'oyasini ochishda qanday ahamiyatga ega?", "Oqbo'yin, Oqto'sh va Malla o'rtasida qanday farqlarni kuzatdingiz? Muallif bu farqni ko'rsatishda qanday vositalardan foydalanmoqda?" kabi savol va topshiriqlar o'quvchini qanchalik asar mohiyatiga yaqinlashtiradi. Topshiriq shunchaki tuzilmasligi, puxta o'ylangan, maqsadli, ko'p tomonlama foydali shaklda bo'lsa, belgilangan dars vaqtidan unumli foydalanilgan bo'ladi. Topshiriq birgina ko'nikmani hosil qilishga qaratilgan bo'lsa, u bugungi kun talabiga to'la javob berishi qiyin. Bir topshiriqni bajarish mobaynida bir nechta ko'nikmani shakllantirish payti allaqachon kelgan. Darslik hamda o'quv qo'llanmalarining aksariyatida mashq va topshiriqlardan unumli foydalanilmaydi. Ya'ni birgina topshiriq bilan kifoyalaniladi.

Adabiyot darsligida test topshiriqlari ham berilgan:

1. Parchada tasvirlangan voqea qayerda sodir bo'lmoqda?

A) dala shiyponida B) qisqloq hovlisida C) shahardagi xonadonda

2. "Unga qarashlilari uch juft kalish". Bu gap bilan muallif nima demoqchi?

A) Uch juft kalishni it topib kelgan. B) Uch juft kalish itga berib yuborilgan. C) Uch juft kalish xonadon egalariniki.

3. It nega hasharchilarni yoqtirmay qoldi? A) Hasharchilar saranjomlikka rioya qilishmasdi.

A) It ayvonda oyoq kiyimlar ko'payishini istamasdi. B) Hasharchilardan birining etigi noxush xotiralarni yodga solardi.

4. Qaysi voqeani tasvirlashda retrospektiva usuli qo'llangan? A) Qizning kalishini kiyib paxtazorga ketishi B) Itning bolalardan qochib etik ichiga yashirinishi C) Bekaning itga tandirdan uzilgan issiq non berishi

Bizningcha, bir paytning o'zida bir necha topshiriq berish samaraliroq natija beradi:

– birinchidan, tildan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi;

– ikkinchidan, maktabda o'qitiladigan boshqa o'quv predmetlardan masala berilganda o'quvchi qiynalmaydi. Chunki u ona tili darslarida bu shakldagi muammoli topshiriqqa ko'p duch kelgan va bosqichma-bosqich hal etilishi topshirilgan topshiriqlarni bajarishga odatlangan bo'ladi.


O'quvchilarda adabiy ta'lim orqali mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini kompleks tarzda shakllantiruvchi topshiriqlarning tarkibi quyidagicha:

Topshiriqlar tuzishda yuqoridagi tarkibiy qismlarga asoslanilsa, o'quv materiallarining saviyasi yanada ortadi. Topshiriq hozir amalda bo'lgan "Adabiyot" darsliklarida yangilik sifatida qiritilgan. Albatta, bu ijobiy hodisa. Biroq ulardan dars jarayonida o'rinli, samarali foydalanish yanada muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy topshiriqlarga qanday ehtiyoj sezilmoqda? Bugun zamon mustaqil, tanqidiy, yangicha fikrlaydigan kishilarni tarbiyalash vazifasini ona tili ta'limi oldiga muhim vazifa qilib qo'ymoqda. Adabiyot o'qitish bilan bir paytning o'zida o'quvchida mulohaza, mushohada, tanqidiy munosabat bildira olish malakasini ham rivojlantirish kerak. Topshiriqqa bir qator quyidagi rivojlantiruvchi vazifalarni bajarish mas'uliyati yuklanadi:



Bulardan tashqari topshiriqlar egallangan bilim ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni tekshirib ko‘rish – sinash vazifasini ham bajaradi:



Jumladan, quyidagi nutqiy ko‘nikmalarning rivojlanganligi yoki shakllanganligini aniqlash bo‘yicha sinov topshiriqlari:

T/r	Topshiriqning vazifalari
1.	Tanlash, qiyoslash, ajratish va umumlashtirish ko'nikmalarini sinashga doir topshiriqlar.
2.	Bilimning oshganligi va xotira mustahkamlanganligini tekshiruvchi topshiriqlar.
3.	Ko'nikmalarni sinashga doir topshiriqlar
4.	Malakalarni sinashga doir topshiriqlar
5.	Kompetensiyani sinashga doir topshiriqlar

Quyida o'quv topshiriqlaridan foydalanish bo'yicha bir namuna ishlab chiqilgan bo'lib, tanlangan matn ustida ishlash orqali topshiriqlarning vazifaviy turlari keltiriladi. Ta'kidlangani kabi topshiriqlardan dastlab bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda, keyin o'zlashtirilgan bilim va egallangan ko'nikma hamda malakalarni sinash vositasi sifatida ham foydalaniladi.

Biroq, pedagogika fanlari doktori, professor Uman Arkadiy Ilich ta'lim topshiriqlari orasida ogohlantiruvchi ta'sirga ega bo'lmaganlari ham borligini ta'kidlaydi. Ular ta'lim qobiliyatlari va ko'nikmalarini takomillashtirish uchun o'xshashlik bilan amalga oshiriladigan reproduktiv vazifalardir.

Muhokama

O'quv faoliyatining tabiati bo'yicha ikkinchi guruh vazifalari quyidagilardan iborat: o'quv ma'lumotlariga vositachilik qiluvchi o'quv topshiriqlari; o'quv materiallari bilan o'quvchining ishini boshqaradigan o'quv topshiriqlari: a) kuzatuv uchun topshiriqlar; b) matn bilan ishlash topshiriqlari; v) qobiliyat va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan vazifalar.

O'quv ma'lumotlariga vositachilik qiladigan o'quv topshiriqlari to'g'ridan-to'g'ri o'quv materiallarini o'z ichiga oladi yoki uni qaerdan olish mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu turdagi vazifalar o'qituvchining tushuntirishini qisman o'zgartiradi va o'quv materialining dastlabki idrokiga yoki uni mustaqil o'rganishga mo'ljallangan.

O'quv materiallari bilan talabalarning ishini boshqaradigan o'quv vazifalari o'quvchini tushunish, o'quv ma'lumotlarini tizimlashtirish, o'z-o'zini nazorat qilish; taqqoslashni, xulosalarni, umumlashtirishni taklif qiladi; yangi materialni ongli ravishda o'zlashtirilishiga yordam beradi.

Topshiriqlar tizimini ishlab chiqishda BLUM taksonomiyasidan ham bevosita foydalanish lozim. Taksonomiya o'quv faoliyatining turli sohalarini qamrab oladi: kognitiv (bilish), effektiv (hissiy-qadriyatli), psixomotor (harakatli). Shu bilan birga, agar o'quvchilarga o'z-o'zini anglash uchun taqdim etiladigan o'quv materiallari maxsus topshiriqlar bilan taqdim etilsa, ikkinchisining shakllanishi samaradorligi yuqori bo'ladi.

Topshiriqlar ishlab chiqishda bilish, anglash, tahlil qilish, sintez qilish va qo'llash kabi mezonlarga tayanish kerak, o'z o'rnini va navbati bilan baholash qismiga ham o'tiladi.

1. Bilishga doir topshiriqlar. Bu daraja o'quv materiallarining asosiy unsurlarini eslash, tushunib etish va qayta tiklashga yo'naltirilgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqishni ko'zda tutadi. Bu darajadagi maqsadga uch toifadagi bilimlarni shakllantirishni kiritish mumkin:

– xususiyatli bilimlar (masalan, badiiy matndagi muddatlar, faktlar, sonlar, atamalar, nomlar);

– mulohazali bilimlar (masalan, yo'nalishlar, mezonlar, sinflar, toifalar);

– abstrakt bilimlar (masalan, qoidalar, aksiomalar, nazariyalar, tuzilmalar).

2. Anglashga doir topshiriqlar. Bu daraja o'zida uch toifadagi o'quv maqsadlarini mujassamlashtiradi:

– ko'chirish (yangi vaziyatlarni o'rganishda bilimlarni qo'llash ko'nikmasi);

– interpretasiya (masalan, qo'lga kiritilgan natijani og'zaki tushuntirib berish);

– ekstropolyatsiya (masalan, egallangan bilimlarni o'xshash vaziyatlarga ko'chirish ko'nikmasi).

3. Qo'llashga doir topshiriqlar. Bu daraja, asosan, o'quvchida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi (bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyati):

– tushunchalarni qo'llash;

– qoidalarni qo'llash;

– nazariyalarni qo'llash va hokazo.

4. Tahlilga doir topshiriqlar. Bu daraja o'quv maqsadlarini quyidagi toifalar bo'yicha aniqlashtiradi:

– unsurlar tahlili (matnni qismlarga bo'lish, ajratish);

– munosabatlar tahlili (abzaslar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish);

– tamoyillar tahlili (birliklarni tizimlashtirish).

5. Sintezlashga doir topshiriqlar. Bu daraja "alohida qismlardan yaxlitini tuzish" ko'nikmasini shakllantirish bo'yicha o'quv maqsadlarini belgilaydi:

– g'oyalar sintezi (masalan, muammo echimi bo'yicha bildirilgan g'oyalarning umumlashishi);

– mulohazalar sintezi (masalan, nutqiy ko'nikmalarining shakllanganlik darajalari, mezonlarini ishlab chiqish);

– tuzilma sintezi (masalan, matn ko'rinishi – chizmasi, til birliklari yordamida nutqning ifodalanishi).

6. Baholashga doir topshiriqlar. Bunday topshiriqlar muayyan maqsad uchun u yoki bu o'quv materiallarining ahamiyatini baholash ko'nikmalarini nazarda tutadi. O'quvchi mulohazasi aniq mezonlarga tayanishi zarur. Baholash sifatida ichki bilish va ishonchlar (dalillash, mantiq) hamda tashqi mezonlar (standartlar, qoida, me'yorlar)ga tayaniladi. Mezonlarni o'quvchining o'zi aniqlashi yoki tashqi tomondan berilishi mumkin. Bunday topshiriqlar oldingi mashg'ulotlar bo'yicha o'quv natijalariga erishganligi to'g'risida xulosa chiqaradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot o'qitishni samarali bo'lishiga erishish uchun amaldagi o'quv materiallarini bu boradagi muammolarni inobatga olgan holda takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Muhimi shuki, o'quvchida, avvalo, o'quv soati uchun ajratilgan har bir daqiqadan, darsliklarda berilayotgan har bir ma'lumotdan unumli foydalanish ko'nikma hamda malakasini shakllantirish va rivojlantirish talab etiladi. O'quvchiga taqdim etilayotgan o'quv materiallari birgina muammo yoki mavzu doirasidagina emas, balki birdaniga o'quvchida pragmatik ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qila olsa, ko'zlangan maqsadga erishish oson bo'ladi. Masalan, o'quvchiga badiiy asarni o'qib tushunish va munosabat bildira olish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qila oladigan amaliy jihatlarni o'rgatish lozim.

G'.Hamroev ta'kidlagani kabi, o'quvchiga adabiyot o'qitishga doir biror topshiriq berishda adabiy-nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish barobarida imkon qadar ularda ravon nutq, mazmunli muloqot malakasini, mustaqil ishlay olish ko'nikmasini shakllantirishga erishish

darsning samaradorligini ta'minlaydi. Shu o'rinda o'quvchiga tahlil uchun berilgan mashq yoki topshiriq mazmuni oddiy xabar emas, balki hikmatlar, iboralar, tasviriy ifodalar, yashash qoidalariga teng bo'lgan xalq maqollari, xalq dostonlaridan zarur parchalar shaklida bo'lsa, bir paytning o'zida darsning ham ta'limiy, ham tarbiyaviy, ham rivojlantiruvchi maqsadlari amalga oshadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga turli yangi pedagogik texnologiyalar tatbiq qilinmoqda. Ilmiy tadqiqotlar natijasida bir qator yangi tipdagi mashq va topshiriqlar amaliyotda sinab ko'rilmogda. Jumladan, I.Davronov ning algoritmik mashqlar haqidagi fikr-mulohazalari bu boradagi yangicha yondashuvlardan biridir. Biroq ona tili o'qitishda shunday mavzular bo'ladiki, ularning ta'limida didaktik o'yinlardan ko'ra an'anaviy amaliy ishlar orqali kerakli natijaga erishish mumkin bo'ladi. Ta'kidlash kerakki, gapirishning yozishga va, aksincha, yozuvning og'zaki nutqqa ta'siri bo'lishi tabiiy. Fan-texnika qanchalik shiddat bilan rivojlanmasin, zamonu zaminlar o'zgarmasin, baribir insoniyat uchun yozma nutq masalasi hech qachon o'z mohiyatini yo'qotmaydi. Shunday ekan, bu masala hamisha ta'limning birinchi darajali muammosi bo'lib qolaveradi.

O'quvchilar badiiy asar imkoniyatlaridan mahorat bilan samarali foydalansalar, o'z fikrlarini ta'sirchan, tushunarli bayon qila olsalar, ajdodlardan qolgan boy ilmiy, badiiy merosni chuqur anglash darajasida o'z tilini bilsalar, adabiy ta'lim o'z maqsadiga erishgan bo'ladi. Buning uchun adabiyot darslarida foydalaniladigan o'quv materiallari nihoyatda puxta ishlanishi, ko'nikmalarni kompleks tarzda shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Bir paytning o'zida ham o'qib tushunish, ham munosabat bildirish, ham so'z boyligini oshirish, qolaversa, mantiqiy fikrlashga yo'naltirishga sharoit yaratish zarurati takrorlash jarayonini taqozo etadi, bu esa nutqiy mahoratni oshiradi.

O'quvchi adabiy-nutqiy malakasining shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratuvchi nazariy ma'lumotlarni o'qitishda topshiriqlarlardan muntazam foydalanish, bilimlarni tekshirishda esa topshiriqlar asosida o'qitish, fikrimizcha, kutilgan natijani beradi.

Bugungi adabiy ta'lim tizimida ham topshiriqlar ko'pqirrali bo'lishi kerak. Bitta topshiriqni bajarish orqali bir nechta nutqiy ko'nikmani rivojlantirishga erishish mumkin. Quyida bir namuna taqdim qilinadi:

O'quvchilarga bunday topshiriqlar berilganda ularga aforizmlar, donolar hikmatlaridan topib, ularni izohlash, munosabat bildirishga o'rgatish, shu asosda matn yaratish yoki matn tuzishda fikrni asoslash uchun qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Topshiriqqa bunday yondashish darsni samarali tashkil qilish va o'quvchiga ko'proq foydali bilim, ko'nikma va malaka berishga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. SPISOK LITERATURBI (References):

1. Suyunov H. Adabiyot darslarida o'quvchilarni savol va topshiriqlar ustida ishlashga o'rgatish usullari. Ped.fan.nom. diss-ya. –T., 2005. –125 b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 4-jild. – T.: O'zME, 2004, – 150 b.
3. Hamroev G'. Umumiy o'rta ta'lim tizimida fonetika doir o'quv materiallarning metodik ta'minotini takomillashtirish. Ped. fan. fal.dok.diss. – Samarqand, 2019. – 144 b.
4. Uman A. I. Teoreticheskie osnovy texnologicheskogo podxoda v didakticheskoy podgotovke uchitelya: dis. ... d-ra ped. nauk. – Orel, 1996. – 402 s.
5. Davronov I. Algoritmik mashq va uning xususiyati. Filologiya va usuliyot masalalari. Ilmiy –uslubiy maqolalar to'plami. – Buxoro. 2010. – 188–193 b.
6. Adabiyot 7 [Matn]: 7-sinf uchun darslik / Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. –8- b.

GAZLAMALAR MATERIALSHUNOSLIGI FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH IMKONIYATLARI VA TA’LIM JARAYONINI OSHIRISHDAGI SAMARADORLIGI

Ruziyeva Dilafro‘z Muminovna

Buxoro davlat pedagogika instituti “Texnologik ta’lim” kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada gazlamalar materialshunosligi fanini o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llash imkoniyatlari va ta’lim jarayonini oshirishdagi samaradorligi hamda hozirgi ta’limda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash usullari haqida fikr mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: gazlama, materialshunoslik, innovatsion ta’lim, samaradorlik, texnologiya, axborot, kommunikatsiya, pedagogik texnologiya.

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ МАТЕРИАЛОВЕДЕНИЯ ТКАНЕЙ И ЕГО ЭФФЕКТИВНОСТЬ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Рузиева Дилафроз Муминовна

*Преподаватель кафедры “Технологическое образование” Бухарского
государственного педагогического института.*

Аннотация. В данной статье объединены возможности использования инновационных образовательных технологий в преподавании материаловедения и их эффективность в совершенствовании образовательного процесса, а также методы использования информационных и коммуникационных технологий в современном образовании.

Ключевые слова: ткань, материаловедение, инновационное образование, эффективность, технология, информация, коммуникация, педагогическая технология.

POSSIBILITIES OF USING INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING THE SCIENCE OF FABRICS MATERIALS AND ITS EFFECTIVENESS IN IMPROVING THE EDUCATIONAL PROCESS

Ruziyeva Dilafroz Muminovna

*Teacher of the “Technological education” department of the Bukhara State Pedagogical
Institute*

Annotation. in this article, the possibilities of using innovative educational technologies in the teaching of the science of materials science and their effectiveness in improving the educational process, as well as the methods of using information and communication technologies in current education, are combined.

Key words: Fabrics, material science, innovative education, efficiency, technology, information, communication, pedagogical technology.

KIRISH

Yomon o‘qituvchi haqiqatni aytib berib
qo‘ya qoladi, yaxshi o‘qituvchi esa
haqiqatni topishga o‘rgatadi

Adolf Disterveg

Ma’lumki, mustaqil davlatimizning xar bir o‘quvchi va talabasi jaxon andozalariga mos ravishda tayyorlanishi zarur. Yosqlarning puxta bilim olishi hamda zamonaviy sohalaridan fan asoslarini chuqur egallasqlari birinchi navbatda ta’lim berish samaradorligiga bog‘liq. Uzluksiz

ta'lim jarayonida demokratik tamoyillarning amal qilishi o'quvchilarning aql-idrokiga ishonch, ularning mustaqil fikrlashiga imkon yaratish sinf va sinfdan tashqari faoliyatidagi ijodkorligi va tashabbuskorligini rag'batlantirish tarzida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik texnologiya talabalarning tayyorgarlik darajasiga, ularning axborotlar bilan tanishganlik va amaliy tayyorgarligiga moslangan bo'lishi lozim. Pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim texnologiyalarining ilmiy asoslarini isqlab chiqish, pedagogik innovatsiyalar, mualliflik maktablari va yangi texnologiyalarni eksperiment qilish bilan bog'liqdir. Bu tajribalar muayyan tizimni isqlab chiqish va umumlashtirishni talab etadi.

Shu innovatsion texnologiyalar asosida sekin-asta pedagogikaning ya'ni o'qitish tizimining ham yangidan yangi turlari vujudga kelmoqda. Masalan ulardan biri hamkorlik pedagogikasi. Hamkorlik pedagogikasi XX asrning 20-yillarida rivojlana bosqladi va ta'limdagi ko'pgina innovatsion jarayonlarni xayotga chorladi. Bu texnologiya negizida taniqli rus va chet el pedagoglarining tajribasi yotadi. Ular K.D.Ushinskiy, N.P.Pirogov, L.N.Tolstoy, J.J. Russo, Ya.Korchak, K.Rodjers, E.Bern, S.T.Katskiy, V.A.Suxomlinskiy va boshqalardir. Hamkorlik pedagogikasi 4 ta asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi:

- shaxsga inson, shaxs sifatida yondashuv;
- dialektik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua;
- tarbiya kontsepsiyasi;
- atrof-muhitni ta'lim-tarbiyaga moslash

Ko'pgina mamlakatlar o'qitishda texnologik yondashuvdan foydalanib, talabalar o'zlashtirishini oshirishda sezilarli muvaffaqiyatga erishdilar.

Masalan, Janubiy Koreyada pedagogik texnologiya bo'yicha sinov-tajriba tarzida o'qiyotgan 50 ming bola 15 foiz an'anaviy o'qitishda faqat eng yaxshi erishadigan natijalar ko'lga kiritilgan. Bir qator barcha mamlakatlarda o'tkazilgan tajribalar o'qitishning bu tizimini ko'llash o'rtacha o'quvchiga an'anaviy o'qitishda 20-25 foiz o'quvchilar erishadigan natijadan yuqoriroq natijaga erishish imkonini berishini ko'rsatdi. Gazlamalar materialshunosligi fanini o'qitishdan maqsad – talabalarga gazlamalar materialshunosligi fani doirasida gazlamalarning xossalari, tarkibi, olinishi, xususiyatlari hamda turlari, gazlamalarning assortimentlari, trikotaj, galantereya, noto'qima hamda bezak materiallarini bilan tanishib ularni amaliyotda ko'llash va foydalanishdan iborat.

Gazlamalar materialshunosligi fanining vazifasi - davlat ta'lim standartiga asosan talabalarda fanga oid nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, malakalarni shakllantirish hamda fanning o'rni va ahamiyatini ochib berish, fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish hamda o'rganilayotgan jarayonlar xaqida mustaqil mushoxada yuritishni tashkil qilishdan iborat.

Gazlamalar materialshunosligi fanini o'zlashtirish natijasida talaba:

-gazlamalar materialshunosligi fani sanoatda va xo'jalikda keng tarqalgan gazlama turlarini, ularning olinish usullarini, rivojlanish bosqicqlarini, maxsulot turlarini, tushunchalarini va ip turlarini, O'zbekistonda va jaxonda faoliyat yuritayotgan zamonaviy sanoat korxonalarini va milliy hunarmandchilik maktablari va ularni rivojlanish tarixi, o'ziga xos xususiyatlarini bilishi xaqida umumiy tushunchalar to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;


- gazlamalar tarixini, tikuvchilikda bezak buyumlari turlarini, gazlama va ip tanlash koidalarini, gazlamalar assortimenti, iplar va ularning xususiyatlari, iplarning turlari, kalava iplar olinish usullari va asosiy xossalari, to'quvchilik gazlamalarining o'rilish turlari, tuzilishi va xususiyatlari, ko'lda bajariladigan oddiy amallarni bajara olish, gazlama xususiyatiga ko'ra asbob-uskunalardan to'g'ri foydalanish borasida olgan bilimlarini pedagogik va ilmiy faoliyatida ko'llay bilishi va ulardan foydalana olishi;

-talaba tikuvchilik buyumlarini isqlab chiqishda material turi hamda tikuvchilik buyumlariga ko'yilayotgan talablar asosida fanga oid asbob va jihozlarning tuzilishi, isqlash jarayonlarni tahlil qilish usullarini ko'llay olish, tikuvchilik va to'qimachilik maxsulotlarini o'rganib,

amalda ulardan foydalanishni, gazlamalar xususiyatlaridan foydalanib turli maqsadlar tikish, kompozitsiyasini tuzish malakalariga ega bo'lishi kabi ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Innovatsion texnologiyalar ta'lim taraqqiyotida tutgan roli. Xar bir jamnyatning kelajagi uning ajralmas qismi va xayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining kay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'ldan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, uning pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida xar bir inson o'z kasbiy tayyorgarligini, ma'orotini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi.



Ta'limning barcha bosqicqlariga oid umumiy pedagogik va didaktik vositalari, talaba (yoki o'quvchi)ning dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil isqlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir. Jaxon pedagogik tajribasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarining talaba (yoki o'quvchi)larni fanlarga qiziqtirishga, ularning mustaqil isqlashda faolliklarini oshirishga imkoniyati cheksiz ekanligini tasdiqlamoqda.

Ta'limning bugungi vazifasi talabalarni kun sayin oshib borayotgan axborot ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga axborot oqimidan oqilona foylalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil isqlash imkoiniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Shuga ko'ra yosqlarining talab va istaklaridan kelib chiqqan holda umumkasbiy fanlarni axborot kommunikatsion texnologiyalar orqali tayyorlab, yosqlarning yanada bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga xarakat qilish bugungi kun dolzarb muammosi desak xato qilmagan bo'lamiz.




Pedagogik texnologiyalar – bu o‘qituvchi (tarbiyachi)ning o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida o‘quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta’sir ko‘rsatishi va bu faoliyat maxsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.

O‘zbekistonlik pedagogik olim B.L.Farberman pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta’rif beradi: pedagogik texnologiyalar – ta’lim jarayoniga yangicha yondashuv bo‘lib, pedagogikada ijtimoiy - muxandislik ong ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyixasini tuzib chiqish bilan bog‘liq ijtimoiy hodisadir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining nufuzli idoralaridan YUNESKOning ta’rifi bo‘yicha, “Pedagogik texnologiyalar – bu bilim berish va uni egallashda texnika va inson resurslarini o‘zaro uzviy bog‘liq holda ko‘rib, butun ta’lim jarayonini loyihalashda va amalda ko‘llashda majmualiy yondashuv usulidan foydalanishdir”

Ta’limni innovatsion rivojlantirish strategiyasi

Ta’limni innovatsion rivojlantirish strategiyasi



Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar

Insoniy texnologiyalar. Bu texnologiya o'zining insoniyligi bilan, psixoterapevtik yo'nalishi bilan ajralib turadi. Ushbu texnologiyaning mazmuni talaba shaxsini xar tomonlama ko'lab-quvvatlash va talabani ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Talabaga nisbatan hurmat va mehr bilan qarash va majburiylikdan voz kechishdan iboratdir.

Hamkorlik texnologiyasi. Bu texnologiya demokratiya, hamkorlik, tenglik kabi g'oyalar asosiga qurilgan. O'qituvchi va talaba orasidagi munosabatlar sub'ekti sifatida qaraladi. Birgalikda ta'lim jarayoni tashkil etiladi va birgalikda ijod etiladi.

Erkin tarbiya texnologiyasi. Talabaga tanlash, mustaqillik erkinligi beriladi. Talaba o'zi tanlagan vosita va mazmuni to'liq qabul qiladi hamda bu faoliyatni xohish bilan bajaradi. Ichki ehtiyoj bilan uyg'unlik hosil bo'ladi.

Ezoterik texnologiya. Ezoterik bilimlar (ongdan tashqari) konuniyatlarni o'rganish orqali xaqiqatga yaqinlashish nazarda tutiladi.

Zamonaviy ta'lim maqsadi bu - faqat bilim olish emas qobiliyat va fazilatlarni rivojlantirish



Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyatga ega, ya'ni, xar bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy ma'xoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan kat'iy nazar pedagogik texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat (ta'lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishi;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quvchilarining o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olisqlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustivorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida ko'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy talimda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topisqlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilisqlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarisqlariga o'rgatadi.

O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir katorada boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Talim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Pedagogik texnologiya va pedagog maxoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lisqlarini ta'minlaydi. Innovatsiya (inglizcha innovation) yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarisqlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, yani pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib talim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchining birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: - o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

- o'quvchilarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqisqlarini doimiy ravishda bo'lishini taminlashi;

- o'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda xar bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;

- pedagog va o'quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol ko'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarasqlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi.

Pedagogikada ya'ni ta'lim berish jarayonida o'qitish texnologiyalari bilan birga ta'limiy texnologiyalar xam o'rin olgan. Ta'limiy texnologiyalar mazmun-axborot aspektni bildirsa, o'qitish texnologiyasi jarayonga aloqador deb xisoblanadi, ya'ni ular orasida xali xam aniq farqlar belgilanmagan.

Pedagogik texnologiyani o'zlashtirib olgan mohir pedogoglar uchun mazkur usulning an'anaviy usulga ko'ra samaraliroq ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu esa maktab pedogoglari, kasb-hunar va oliy maktab professor o'qituvchilari uchun kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda pedagogik texnologiyani o'zlashtirish va amalda ko'llash zarurligini bildiradi.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga raxbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baxolashdan iborat.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, zamon rivojlanishi bilan xayotning barcha sohalarida, xususan pedagogika ya'ni o'qitish va ta'lim jarayonida ham ko'pgina yangiliklar vujudga keladi. Va xar bir qilingan islohot kelajakni yanada muvaffaqiyatli yanada ishoncqli qilib ta'minlashga yordam beradi. Ayniqsa o'qitish jarayonidagi islohotlar, innovatsion texnologiyalar yosh

avlodni tezkorlik bilan samarali bilim olisqlarini ta'minlab beradi va bu ko'pgina davlatlar xususan mamlakatimiz O'zbekiston tajribasida ham o'z isbotini topib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kazakov, F., Rajabov, I., Umirov, J., Ruziyeva, D., & Aripova, A. (2021, November). Methods to improve hackles in the production of quality yarn. In *Journal of Physics: Conference Series* (Vol. 2094, No. 4, p. 042091). IOP Publishing.
2. Жўраев А. Р., Сайфуллаева Д. А., Бахронова Ш. Замонавий таълим технологилар асосида ташкил қилинадиган шахсга йўналтирилган таълим жараёни // *Science and Education*. – 2020. – Т. 1. – №. 8. – С. 169-176.
3. Dilmurodovna R. D. et al. Xalq hunarmandchiligi namunalarini takomillashtirish va rivojlantirish (zardo'zlik san'ati misolida) // *ijodkor o'qituvchi*. – 2023. – Т. 3. – №. 27. – С. 9-12.
4. Qizi, B. S. I., Dilmurodovna, R. D., Tohirovich, R. E., & Norjona, P. (2023). Texnologiya fanini o'qitishda interfaol usullarni qo'llash metodikasi. *Ta'lim fidoyilari*, 4(1), 191-197.
5. Muminovna R. D. Tikuv buyumlarini tayyorlashda isqlatiladigan pishirilgan iplarning tuzilish xususiyatlari va afzalliklari // *so'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi*. – 2023. – Т. 6. – №. 10. – С. 21-25.
6. Muminovna R. D. et al. Ma'ruza mashg'ulotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning o'rni va ahamiyati // *pedagogs*. – 2024. – Т. 56. – №. 2. – С. 74-77.
7. Muminovna R. D. Innovatsion ta'lim sharoitida oliy ta'lim muassasasi talabalarini zamonaviy o'qitish metodlari orqali kasbiy ma'horatini oshirishda foydalanish tamoyillari // *pedagogs*. – 2024. – Т. 56. – №. 2. – С. 66-70.
8. Muminovna R. D. Tabiiy Ipak Iplarining Xususiyatlarini Taqlil Qilish Asosida Ipak Tolali Gazlamalarining Sifati Va Assortimentini Oshirish Mezonlari // *Miasto Przeszłości*. – 2024. – С. 323-326.
9. Ubaydillayevna D. N. et al. Zamonaviy o'zbek milliy liboslari namunalarini tayyorlash orqali yosh avlodga ajdodlardan qolgan merosni o'rgatish // *pedagogs*. – 2024. – Т. 53. – №. 1. – С. 18-24.
10. Baxronova S., Davlatova N. Texnologiya fanidan mashg'ulotlarni tashkil qilishning zamonaviy kompetensiyalari // *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 64-68.
11. Baxronova S., Davlatova N. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tikuvchilikka oid kreativ rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari // *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 144-148.

LISTENING COMPREHENSION: EFFECTIVE EXERCISES FOR LISTENING SKILL DEVELOPMENT

Sadullayeva Gulshirin Ilhomovna
Independent researchers of
Tashkent University for Applied Sciences

Abstract: This article explores the challenges surrounding the functional differentiation of learning tasks in language education, emphasizing the lack of clear separation in textbooks and the reliance on individual judgment by teachers. It highlights the importance of tailoring exercises and assignments to specific linguistic groups, drawing on contemporary research in linguistics, psychology, and pedagogy. The role of exercises in skill development is underscored, along with the guiding function of assignments in fostering independent thinking. Theoretical knowledge is complemented by practical application, with both exercises and assignments serving as integral components of language textbooks.

Keywords: Language education, learning tasks, exercises, assignments, task specificity, skill development, linguistic groups, pedagogical research, independent thinking, theoretical knowledge, practical application.

АУДИРОВАНИЕ: ЭФФЕКТИВНЫЕ УПРАЖНЕНИЯ ДЛЯ РАЗВИТИЯ НАВЫКА АУДИРОВАНИЯ

Садуллаева Гулширин Илхомовна
Независимый соискатель
Ташкентского университета прикладных наук

Аннотация: В этой статье исследуются проблемы, связанные с функциональной дифференциацией учебных задач в языковом образовании, подчеркивая отсутствие четкого разделения в учебниках и зависимость от индивидуального суждения учителей. В нем подчеркивается важность адаптации упражнений и заданий к конкретным лингвистическим группам, опираясь на современные исследования в области лингвистики, психологии и педагогики. Подчеркивается роль упражнений в развитии навыков, а также направляющая функция заданий в развитии самостоятельного мышления. Теоретические знания дополняются практическим применением, при этом упражнения и задания являются неотъемлемой частью учебников по языку.

Ключевые слова: языковое образование, учебные задачи, упражнения, задания, специфика задачи, развитие навыков, лингвистические группы, педагогические исследования, самостоятельное мышление, теоретические знания, практическое применение.

TINGLAB TUSHINISH: TINGLASH KO'NIKALARINI OSHIRISH UCHUN SAMARALI MASHQLAR

Sadullayeva Gulshirin Ilxomovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada til ta'limida o'quv vazifalarini funksional farqlash bilan bog'liq muammolar o'rganilib, darsliklarda aniq ajratilmaganligi va o'qituvchilarning individual mulohazasiga tayanishi ta'kidlangan. Unda tilshunoslik, psixologiya va pedagogika sohasidagi zamonaviy izlanisqlarga tayangan holda mashqlar va topshiriqlarni muayyan til guruqlariga moslashtirish muhimligi ta'kidlangan. Mustaqil fikrlashni tarbiyalashda topshiriqlarning rahbarlik funksiyasi bilan bir qatorda malaka oshirishda mashqlarning roli ta'kidlanadi. Nazariy bilimlar amaliy qo'llash bilan to'ldiriladi, mashqlar ham, topshiriqlar

ham til darsliklarining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Til ta'limi, o'quv topshiriqlari, mashqlar, topshiriqlar, topshiriqning o'ziga xosligi, malaka oshirish, lingvistik guruqlar, pedagogik izlanisqlar; mustaqil fikrlash, nazariy bilimlar, amaliy qo'llash.

INTRODUCTION. Language education is a multifaceted domain where the effectiveness of learning tasks, such as exercises and assignments, plays a crucial role in the development of linguistic skills and competencies. However, despite the fundamental importance of these tasks, there remains a notable challenge in their functional differentiation within educational materials. This challenge manifests in the lack of clear separation of tasks in textbooks, leaving teachers to rely heavily on their own judgment in selecting and implementing exercises and assignments. Consequently, the effectiveness of language learning may vary greatly depending on the individual approaches of educators.

Moreover, the task of creating exercises and assignments is further complicated by the diverse linguistic backgrounds of learners. Each linguistic group may require tailored approaches to effectively engage with the material and foster skill development. Addressing these challenges necessitates a nuanced understanding of contemporary research in linguistics, psychology, and pedagogy, allowing educators to design learning tasks that are both theoretically grounded and pragmatically effective.

Learning tasks in language education are not functionally differentiated. Their mutual tasks are not separated in classes and textbooks, teachers are not given enough information about it. In fact, every textbook author, every teacher uses educational tasks, including exercises and assignments, based on their task and characteristics, and it will be effective. In language education, exercises should be used not to impart knowledge, but to develop skills and competences.

Methodist scientist H. Muhitdinova emphasizes that it is necessary to consider the existing types of exercises based on scientific and practical recommendations based on the results of modern linguistics, psychological, and pedagogical research, and to develop a system of exercises specific to Russian-speaking groups in terms of content .

In the «Encyclopedia of Pedagogy» you can see a much improved definition of exercise and a form adapted to the field of education: Exercise (Arabic - husnikhat, examples for drawing) - repetition of an activity many times in order to master it thoroughly or improve its quality. For example, reading, writing. M. It plays an important role in the formation of skills and competencies in education .

So, practice is a means of developing skills or competences. And the assignment serves as a test of acquired skills. It has a guiding feature. Through the assignment, the student can be taught to think and work independently. After all, both exercises and assignments are an important component of «Mother Tongue» textbooks. Theoretical information, i.e. grammatical rules, creates knowledge and understanding within the defined topic in the student. In the educational content, the skills and competences expected to be acquired by the student are mainly formed by exercises . Assignments serve to enrich the student's knowledge in this place.

METHODOLOGY:

To address the complexities surrounding learning tasks in language education, a multifaceted approach was employed. Firstly, an extensive review of literature was conducted to gather insights from contemporary research in linguistics, psychology, and pedagogy. This literature review aimed to elucidate key theoretical concepts and practical recommendations regarding the design and implementation of exercises and assignments in language learning contexts.

Additionally, the methodology involved a qualitative analysis of existing language textbooks and educational materials. This analysis sought to identify patterns and trends in the

presentation of learning tasks, as well as the extent to which tasks were differentiated based on their functions and linguistic specificity. Textbooks catering to diverse linguistic groups, particularly Russian-speaking learners, were given particular attention to explore the nuances of task design in culturally and linguistically diverse settings. Furthermore, interviews and surveys were conducted with language educators to gather insights into their approaches to selecting and implementing learning tasks in the classroom. These qualitative data collection methods allowed for a deeper understanding of the challenges faced by educators and the strategies employed to address them.

RESULTS:

The findings of the research shed light on the crucial role of systematic, continuous, and practical work in language education for the development of essential skills and competencies. The study revealed that correct pronunciation, orthographic literacy, logical thinking skills, and vocabulary expansion, all essential components of language proficiency, are not solely achieved through extensive training but rather through a structured approach centered on specialized exercises and assignments.

- tiklanish jarayonida ish qobiliyati va boshqa ko'rsatkicqlarning fazali o'zgarishi kuzatiladi.

Dam olish oralig'ini tiklanish uchun yetarli bo'lgan sust shiddatli mashqlarni bajarishda har bir keyingi urinish taxminan avvalgisiga o'xshagan ko'rinishda bosqlanadi. Ushbu holda dam olish oralig'ini kamaytirishda yuklama ko'proq aerob yuklamaga aylanadi, chunki odatda 3-4 minutga kelib vujudga kelayotgan nafas olish jarayonlari ham o'z kuchini saqlab qolgan bo'ladi. Maksimal va submaksimal quvvatli mashqlardagi dam olish oralig'ini kamaytirish yuklamani anaerob yuklamaga aylantiradi, chunki mashq takrorlangan sari kislorod qarzi oshib boradi.

Dam olish xususiyati mashqlar o'rtasida faol, sust va aralash bo'lishi mumkin.

O'qitishning kritik nuqtasiga yaqin bo'lgan tezlikda isqlash paytida faol dam olish nafas olish jarayonlarini yuqori darajada usqlab turishga yordam beradi va ishdan dam olishga hamda aksincha holatga keskin o'tishning oldini oladi. Bu yuklamani ko'proq aerob yuklamaga olib keladi. Bundan tashqari, og'ir mehnatdan so'ng faol dam olish tiklanish jarayonlarini tezlashtiradi. Mashqlar o'rtasida sust dam olish paytida sportchi, butkul tinch holatda bo'lib, hech qanday harakatlarni bajarmaydi.

Chidamlilikni rivojlantirish uchun quyidagi uslublar qo'llaniladi: bajariladigan mashqlar hajmi va shiddatini oshirish, o'zgaruvchan, oraliqli, o'zgaruvchan-oraliqli, takrorlash.

Hajmni oshirish uslubidan iboratki, jismoniy mashqlarni bajarish vaqti mashg'ulotlardan mashg'ulotga asta-sekin oshib boradi. Bu uslub mashg'ulotlar sonini ko'paytirishini nazarda tutadi. Shiddatni oshirish uslubini jismoniy mashqlarni bajarish sur'ati, shuningdek butunlay mashg'ulot zicqligini mashg'ulotdan mashg'ulotga asta-sekin oshirib borishni ko'zda tutadi.

O'zgaruvchan uslub shundan iboratki, jismoniy mashqlar har xil sur'atda bajariladi. Bunda past sur'atda o'tkaziladigan vaqt bo'laklari mashg'ulotdan mashg'ulotga kamayib, baland sur'atda o'tkaziladiganlari ortib boradi.

Oraliqli uslub shundan iboratki, bunda jismoniy mashqlar bo'laklarga bo'linib (seriyalab), sust va faol dam olish oraliqlari bilan bajariladi. Trenirovka vazifalari mashqlarni bajarish sur'ati va davomiyligiga, shuningdek kurashchining mashq qilganlik darajasi hamda kayfiyatiga qarab, ish hamda dam olish oraliqlari davomiyligiga ko'ra har xil bo'lishi lozim. Takrorlash uslubini shundan iboratki, sportchi bir mashg'ulotning o'zida yoki bir nechta mashg'ulotda hajmi va shiddatiga ko'ra bir xil bo'lgan mashqlarni takrorlaydi.

Sport trenirovkasi jarayonida hamma uslublar bir-biri bilan turlicha uyg'unlashtirilgan holda qo'llaniladi. Chidamlilikni tarbiyalash samaradorligi ko'p jihatdan trenirovka jarayonining oqilona tuzilganligi bilan belgilanadi. Turli yo'nalishdagi mashqlarni bajarishda ma'lum bir ketma-ketlikka amal qilish va ularning ijobiy o'zaro ta'sir etishini ta'minlash juda muhimdir. Quyidagi ketma-ketlikka rioya etish maqsadga muvofiqdir:

- avval anaerob mashqlar (tezkor va tezkor kuch), so'ngra anaerob-glikolitik (kuch chidamliligi uchun) mashqlar;
- avval anaerob, so'ngra aerob mashqlar (umumiy chidamlilik uchun);
- avval anaerob-glikolitik, keyin aerob mashqlar.

Agar mashqlar ketma-ketligi teskari bo'lsa, tez trenirovka samarasining o'zaro ta'siri salbiy bo'ladi, hamda bunday mashg'ulot kam foyda beradi.

Xulosa

Jismoniy fazilatlar, harakatlar bajarish jarayonlarida harakat maqsadiga muvofiq o'zaro

bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Jismoniy fazilatning birining yuqori darajada rivojlangan bo'lishi boshqa fazilatlarni ham takomillashuviga olib keladi. Jismoniy tayyorgarlik jarayonlarida jismoniy fazilatlarni uyg'un rivojlantirishga katta e'tibor qaratish kerak. Jismoniy tayyorgarlik darajasi ortib borish bilan kurashchilar maxsus fazilatni takomillashtirishga harakat qiladilar.

ADABIYOTLAR:

1. Azizov N.X. Belbog'li turkiston kurashi. - Toshkent: o'qituvchi, 1998.
2. Борисов К. Практика рукопашного боя. Учебное пособия под/рек. 2003 г
3. Salomov R.S. Sport mashg'ulotining nazariy asoslari – Toshkent., O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti, 2005 yil - 238 b.
4. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish Toshkent., O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti 2005 yil - 171 b.
5. Dzyudo kurashi. A.A.Absatarov. A.A.Istomin. Toshkent Iqtisod-Moliya 1993 yil.
6. Muxitdinova N.M. "Development of the preschool education system in foreign countries (example of Great Britain and Germany)" // Akademik research in educational sciences ARES VOLUME 2 | ISSUE 10 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
7. Мухитдинова Н.М. Проблемы дошкольного образования в современном этапе // "International scientific and practical conference" Topical issues of science part 2, New York, 2022.-P 73-79.

UMUM TA'LIM MAKTABLARDA JISMONIY TA'LIM SAMARADORLIGI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS YO'LLARI

Usmonov Zufar Husen o'g'li

*Buxoro davlar pedagogika instituti Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti
kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim sohasidagi islohotlar jismoniy tarbiyani rivojlantirishga ham keng yo'l ochib berganligi, bu esa ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning asosiy usullaridan biri sifatida namoyon bo'layotganligi, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini takomillashtirishda pedagogik nazoratdan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, bolalar jismoniy tarbiyasi, jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini aniqlashning usullari va nazorat qilish, pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri aniqlash uchun bolalar jismoniy tayyorgarligini aniq bo'lishi lozimligi haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik nazorat, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifatlar, jismoniy ta'lim, pedagogik baholash

КОНКРЕТНЫЕ ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Усманов Зуфар Хусенович

*Преподаватель кафедры теории и методики физической культуры
Бухарского государственного педагогического института*

Аннотация: В данной статье реформы в сфере образования открыли широкий путь развитию физического воспитания, что проявляется как один из основных методов модернизации образовательной системы, важность использования педагогического контроля в совершенствовании физического воспитания и спортивная подготовка, особенности, методы определения физического воспитания, физического развития и подготовленности детей, а также мнения о том, что физическая подготовленность детей должна быть четкой для правильного ее определения с педагогической точки зрения.

Ключевые слова: педагогический контроль, физическая подготовка, физические качества, физическое воспитание, педагогическая оценка.

SPECIFIC WAYS TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF PHYSICAL EDUCATION IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS

Usmanov Zufar Husenovich

*Lecturer at the Department of Theory and Methodology of Physical Culture,
Bukhara State Pedagogical Institute*

Annotation: In this article, reforms in the field of education have opened a wide way for the development of physical education, which manifests itself as one of the main methods of modernizing the educational system, the importance of using pedagogical control in improving physical education and sports training, features, methods for determining physical education, physical development and preparedness of children,

as well as the opinion that the physical fitness of children must be clear in order to correctly determine it from a pedagogical point of view.

Key words: pedagogical control, physical training, physical qualities, physical education, pedagogical assessment.

Kirish. Jahon jismoniy madaniyatida pedagogik nazorat o'quvchilarning jismoniy holati va jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan. Samarali pedagogik nazorat o'qituvchidan o'quvchilarning harakatlarini to'g'ri kuzatish, taqlil qilish va baholashni ta'minlaydigan, o'z harakatlaridagi kamchiliklarni aniqlaydigan, muayyan sharoit va o'quv vaziyatlaridagi vositalar, usullar va tashkiliy shakllarning yaroqliligi va samaradorligi darajasini aniqlaydigan maxsus bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi.

Ilmiy asoslangan pedagogik nazoratni tashkil etish va o'tkazish individual jismoniy sifatlarni rivojlanish darajasini aniqlash, bu darajani me'yoriy ko'rsatkicqlar bilan taqqoslash va shu asosda o'quvchilarning jismoniy sifatlarini yo'naltirish va rivojlantirish bo'yicha oqilona rejalar tuzish imkonini beradi. Mamlakatimizda umumta'lim maktablarida o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha alohida tajriba-metodik isqlanmalar amalga oshirilib, bu maktab o'quvchilari o'rtasida harakat ko'nikmalarining zarur fondini shakllantirish, o'quvchilarning asosiy jismoniy tayyorgarligiga zamin yaratish imkonini bermoqda.

Shu bilan birga, jismoniy tarbiya amaliyotida an'anaviy pedagogik nazoratning bir yoqlama o'tkazilishi uning turlariga yetarlicha e'tibor berilmayotganligi bu borada ko'plab hal etishimiz kerak bo'lgan vazifalarimiz bor ekanligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, maktab o'quvchilarining jismoniy tarbiya ta'limi samaradorligini kompleks nazorat qilishning me'yoriy talablarini isqlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Ta'limning turli yo'nalisqlarida bolalar bog'chasidan bosqlab, toki universitet darajasigacha jismoniy tarbiya va sportni rolini va ahamiyatini oshirib borilmoqda. Maktabgacha va maktab ta'limi islohati, bolalarining jismoniy tayyorgarligini oshirish masalalari muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun maktab yoshidagi bolalarning harakat faolligi darajasini bilish maqsadida ilmiy izlanisqlar olib borish dolzarb masala bo'lib qoldi Olimlar va mutaxassislar oldida tez yechimini topish kerak bo'lgan qator vazifalar turibdi.

O'quvchilarning jismoniy rivojlanish darajasini aniqlashda haligacha aniq ma'lumotlarni olish to'g'risidagi kamchiliklar bor. Shuning uchun jismoniy ta'limda o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini obyektiv ravishda baholash masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijasi va muhokamasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi PQ- 3031-son "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [1], 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son "Yosqlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori[2], 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son "Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni[3] hamda mazkur sohaga tegisqli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqotga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot obyekti: Umumta'lim o'rta maktablarining jismoniy tarbiya

samaradorligining pedagogik nazorat jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Jismoniy tarbiya ta'limi jarayonida o'quvchilar jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarligini testlashga asoslangan pedagogik nazorat mazmuni, shakllari, usullari va vositalari.

Tadqiqot maqsadi: Umumta'lim maktablarning 7-sinf o'g'il bolalarida jismoniy ta'lim samaradorligini tajribaviy asoslash, amaliy tavsiyalar isqlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

1. Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarlik darajasini nazorat qilish, pedagogik baholash nazariyasi va amaliyotini taqlil qilish.

2. Jismoniy tarbiya o'quv jarayonida o'quvchilarning jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik darajasini pedagogik nazoratlar tarkibini aniqlash.

3. Jismoniy tarbiya jarayonida o'quvchilar jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash va baholash metodikasini tajribaviy asoslash, tavsiyalar isqlab chiqish

Mazkur maqolada tadqiqotning ilmiy jihatdan yangilik shundan iboratki jismoniy tayyorgarlikning har xil darajalariga ega bo'lgan o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi nuqtayi nazaridan pedagogik test natijalarini baholash imkoniyatlari kengaytirilgan

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (taqlili). Xorij va vatanimiz olimlari jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv mashg'ulotlari jarayonida pedagogik nazoratning turli xil ko'rsatkicqlarini isqlab chiqish hamda ulardan foydalanishga katta e'tibor qaratadilar [Бондаревский Е.Я., Волков А.В., Гужаловский.А.А., Запоражанов В.А., Лях В.И А.Абдуллаев,

Ш.Х Ханкельдиев, В.К.Бальсевич, Р.С.Саламов, О.В. Гончарова Ж.К. Хуррамов, И.И. Саидов ва бошқалар].

O'rganilgan adabiyotlar taqliliga ko'ra umumta'lim maktablarida pedagogik nazoratni samarali tashkil etish hamda o'tkazish uchun quyidagi dolzarb vazifalarni hal etish zarurligi ta'kidlangan: o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligining dastlabki holatini aniqlash; o'quvchilarning o'quv yili davomidagi jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi dinamikasini o'rganish; jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkicqlarini tegisqli yosh guruhi uchun belgilangan me'yoriy talablar bilan qiyosiy taqlilini amalga oshirish; o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligining individual zaruriy me'yorlarni isqlab chiqish.

Pedagogik nazorat ko'rsatkicqlari bo'yicha mutaxassislar fikricha, harakat tayyorgarligi o'quvchilar sog'ligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, uni yaxshilash esa maktabdagi jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalaridan biridir.

Umumta'lim maktab o'quvchilarning jismoniy ta'lim samaradorligini oshirishning pedagogik tajribaviy asoslanishi. Jismoniy tarbiya o'quv jarayonida o'smirlarning individual tavsiflarini hisobga olgan holda ularning jismoniy tayyorgarligini pedagogik nazorat qilish algoritmi ifodalangan.

O'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini pedagogik nazorat tizimi

I. Jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik xususiyatlari:

1. Pedagogik nazorat turlari:

- tezkor;
- joriy;
- bosqicqli;
- yakuniy.

2. Pedagogik nazorat talablari:

- o'z vaqtida amalga ochirish;
- muntazamlik;
- ob'ektivlik;
- asosiy ko'rsatkicqlarni qamrab olish.

3. Pedagogik nazorat testlari:

- oddiylik;
- tezkorlik;
- haqqoniylik;
- barqarorlik.

4. O'smirlarning jismoniy rivojlanish turi:

- retordantli;
- me'yorli;
- akselerantli.

5. Jismoniy tayyorgarlik darajasi:

- past;
- o'rtadan past;
- o'rta;
- o'rtadan yuqori;
- yuqori.

II. O'smirlar jismoniy tayyorgarligini pedagogik nazorat etish bosqicqlari

1-bosqich: O'smirlar jismoniy tayyorgarligi va jismoniy rivojlanish ko'rsatkicqlarini aniqlash.

2-bosqich: Individual ko'rsatkicqlarni "Alpomish va Barchinoy" standartlari bilan solishtirish.

3-bosqich: Ishning yo'nalishi va natijaga erishish usullarini aniqlash.

4-bosqich: Jismoniy tarbiya ta'limining vosita va usullarini tanlash.

5-bosqich: O'smirlar jismoniy tayyorgarligining amaldagi va rejalashtirilgan natijalarini bosqichma-bosqich taqqoslash.

Pedagogik nazoratni tashkil etishda quyidagi talablarga rioya etish kerak: o'z vaqtida amalga oshirish, muntazamlik, obyektivlik, asosiy ko'rsatkicqlarni qamrab olish. O'smirlarning jismoniy tayyorgarligining pedagogik nazoratini obyektiv ko'rsatkicqlarini olish uchun ularni konstitutsiya tipi va rivojlanish tipiga hamda jismoniy tayyorgarlik darajasiga taqsimlash lozim. Pedagogik nazoratni bunday tashkil etish o'smirlarning jismoniy tayyorgarligining obyektiv va ishoncqli ko'rsatkicqlarini olish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, pedagogik tajriba o'tkazildi va u umumta'lim maktablarining jismoniy tarbiya darslarida 7-sinf o'g'il bolalarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun maxsus mashqlardan foydalanishni o'rganishga qaratildi.

Pedagogik tajribada 7 sinf o'quvchilari ishtirok etdi. Pedagogik tajriba o'tkazish uchun (n=44) o'quvchilar ikki guruhga bo'lindi - tajriba va nazorat guruqlari.

Tajriba guruhda "TG" biz tomonimizdan isqlab chiqilgan va taklif qilingan uslubiyat bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazildi. Nazorat guruhida "NG" jismoniy tarbiya darslari odatdagi maktab dasturi bo'yicha o'tkazildi.

1-jadval

Pedagogik tajriba boshida tajriba va nazorat guruh o'quvchilarining harakat tayyorgarligini nazorat qilish natijalari.

T/R	Nazorat mashqlar	TG (n = 22)	NG (n = 22)	t	r
		$X \pm \sigma$	$X \pm \sigma$		
1	60 m ga yugurish (tezlik qobiliyati) (sek)	9,37±0,12	9,43±0,11	1,73	>0,05
2	500 m ga yugurish (chidamlilik qobiliyati) (sek)	109,6±1,96	110,6±1,86	1,74	>0,05
3	Yugurib kelib uzunlikka Sakrash (tezlik-kuch qobiliyati) (sm)	353,2±4,0	355,3±3,8	1,79	>0,05
4	Yugurib kelib balandlikka Sakrash (tezlik-kuch qobiliyati) (sm)	103,7±2,52	102,3±2,47	1,86	>0,05
5.	Tennis koptokchasini uloqtirish (m)	31,2±1,22	30,57±1,15	1,76	>0,05
Gimnastika					
6	Turnikda tortilish soni (kuch qobiliyati, marta)	4,2±0,38	4,41±0,36	1,88	>0,05
7	Gavdani oldinga bukish (egiluvchanlik, sm.)	5,22±0,23	5,09±0,22	1,92	>0,05
8	Gavda dinamometriyasi (kg.)	72,38±1,43	71,66±1,31	1,74	>0,05
9	Bilak dinamometriyasi (kg.)	24,3±0,97	23,8±0,87	1,80	>0,05

1. 60 m. yugurishda tajriba guruhida o'rtacha ko'rsatkich 9,37 s, nazorat guruhida esa 9,42 s,
2. 500 m masofaga yugurishda 109,6 s va 110,1 s ni tashkil qildi.
3. Yugurib kelib uzunlikka sakrashda tajriba guruhidagi o'rtacha natijalar 353,2 sm, nazorat guruhida 355,3 sm natijani tashkil etdi.
4. Yugurib kelib balandlikka sakrashda har ikkala guruh o'quvchilari deyarli mutloq o'rtacha ko'rsatkichga, ya'ni 103,7 va 102,3 sm natijaga ega bo'ldilar.
5. Tajriba guruhida tennis to'pini uloqtirishda 31,2 m, nazorat guruhi esa 30,6 m o'rtacha ko'rsatkich aniqlandi.
6. Turnikda tortilishda birinchi guruhda o'rtacha 4,2-marta, ikkinchi guruhda esa 4,4-marta natija qayd etildi.

7. Tajriba guruhidagi eng kucqli qo‘lning o‘rtacha dinamikasi 24,3 kg, nazorat guruhida 24,8 kg ga teng. Shunga o‘xshash ko‘rsatkicqlar, shuningdek, 72,3 kg va 71,7 kg stend dinamometrda ham kuzatilgan.

8. Egiluvchanlik mashqlarida har ikkala guruh o‘quvchilari teng ravishda 5,2 sm va 5,1 sm o‘lchamda o‘rtacha ko‘rsatkichga ega bo‘ldi.

Ushbu nazorat test sinovlarida olingan ko‘rsatkicqlar bo‘yicha tajriba va nazorat guruqlarida statistik jihatdan farq yo‘qligianiqlandi ($r > 0,05$).

Shunday qilib, nazorat sinovlari natijalari nazorat va tajriba guruqlaridagi o‘quvchilar pedagogik tajribadan oldin harakat tayyorgarligi bo‘yicha dastlabki ma‘lumotlarga ega ekanligidan dalolat beradi.

2-jadval

Pedagogik tajriba yakunida tajriba va nazorat guruqlarining harakat faoliyati ko‘rsatkicqlari dinamikasi

T /R	Mashqlar	TG(n=2 2)	NG(n=2 2)	t	R
		X±σ	X±σ		
1	60 m ga yugurish (sek)	6 8,54±0,5	2 8,95±0,5	2, 52	<0, 05
	500 m ga yugurish (sek)	6 90,8±5,8	7 95,3±5,6	2, 59	<0, 05
2	Yugurib kelib uzunlikka sakrash (sm)	5,36 397,2±2	5,11 379,1±2	2, 38	<0, 05
3	Yugurib kelib balandlikka sakrash (sm)	56 123,4±9,	14 116,3±9,	2, 52	<0, 05
4	Tennis koptokgini uloqtirish (m)	6 50,4±5,7	6 45,9±5,5	2, 64	<0, 05
5	Turnikda tortilish (marta)	6 11,5±1,5	46 10,33±1,	2, 57	<0, 05
6	Panja dinamometriyasi (kg)	6 34,2±4,0	6 31,3±3,9	2, 40	<0, 05
7	Gavda kuchidinamometriya (kg)	27 93,8±11,	56 85,2±10,	2, 61	<0, 05
8	Oldinga egilish (sm)	3 12,5±1,4	2 11,1±1,3	3, 37	<0, 01

Shunday qilib, 60 metrga yugurishda tajriba guruhining qatnashchilari 8,54 soniya natijaga, nazorat guruhidagilar esa 8,95 soniya natijaga erishdilar. Ko'rsatkicqlar farqi 0,41 soniyani tashkil qildi.

500m masofaga yugurishda tajriba guruhi natijasi 90,8 s tashkil qilsa, nazorat guruhi qatnashchilari 95,3 s ni tashkil qildi. Ko'rsatkicqlar farqi o'rtacha 4,5 s.ga teng bo'ldi.

Yugurib kelib uzunlikka sakrashda tajriba guruhining o'rtacha ko'rsatkichi 397,2 sm, nazorat guruhining o'rtacha ko'rsatkichi 379, 1 sm ni tashkil etdi. Ko'rsatkicqlar farqi esa 18,1 sm bilan ifodalandi.

Yugurib kelib balandlikka sakrashda tajriba guruhi qatnashchilarining o'rtacha ko'rsatkichi 123,4 sm, nazorat guruhida esa 116,3 sm ni tashkil etdi. Ko'rsatkicqlardagi farq 7,1 sm ga teng bo'ldi.

Tennis koptogini uloqtirishda tajriba guruhining qatnashchilari o'zlarining nazorat guruhidagi tengdosqlaridan 4,5 metr masofaga ko'proq uloqtirganligini ko'rsatdi, ularning ko'rsatkicqlari mos ravishda 50,4 va 45,9 m tashkil etadi.

Turnikda tortilishda tajriba guruhi o'rtacha 11,5-martaga, nazorat guruhi 8.3-martaga teng, ko'rsatkich farqi 3.2 ni tashkil etdi.

Panja dinamometriyasi taqlili tajriba guruhida 34,2 kg, nazorat guruhida 29,7 kg bo'lgan. O'rtacha farq 4.5 kg bilan ifodalandi.

Gavda dinometriyasida birinchi guruh 93.8 kg ni, ikkinchi guruh 80.5 kg ko'rsatkichga ega bo'lgan. Ko'rsatkich farqi 13.3 kg ni tashkil etdi.

Egiluvchanlik ko'rsatkicqlari bo'yicha tajriba guruhida 12,5 sm, nazorat guruhida esa 5,8 sm qayd qilingan, o'rtacha o'sish farqi 6,7 sm ga teng.

Shunday qilib, taqlil natijalari tajriba guruhidagi o'quvchilar o'zlarining nazorat guruhidagi tengdosqlaridan harakat sifatlari, ya'ni chaqqonlik, tezlik-kuch, egiluvchanlik va chidamlilik ko'rsatkicqlari bo'yicha ustun ekanligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Hamma ko'rsatkicqlar farqlar $r < 0,05$ darajasida statistik ishoncqli.

Nazorat testlari taqlili shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhi o'quvchilari hamma ko'rsatkicqlar harakat tayyorgarligi bo'yicha nazorat guruhidan ustunroq va barqaror ko'rsatkicqlarga ega.

O'tkazilgan barcha pedagogik nazorat testlarida tajriba guruhida o'quvchilarning jismoniy harakat faoliyatining samaradorligini yaxshilanganligini ko'rishimiz mumkin.

3-jadval

Pedagogik eksperiment jarayonida tajriba va nazorat guruqlarida o'quvchilarning davomad va tartib- intizom ko'rsatkicqlari dinamikasi (ballarda)

№	Tajriba boshida	Tajriba guruhi			Nazorat guruhi		
		Tajriba boshida	Tajriba oxirida	Ko'rsatkichning o'zgarishi	Tajriba boshida	Tajriba oxirida	Ko'rsatkichning o'zgarishi
1	O'zlashtirishi	3,85	4,35	0,5	3,9	4,2	0,3
2	Intizom	4,75	5,0	0,25	4,75	4,85	0,1

Jadval ko'rsatkicqlari tajribaning boshida, ikkala guruhdagi o'quvchilarning o'zlashtirish va tartib intizomi ko'rsatkicqlari bir xil bo'lgan. Pedagogik tajriba jarayonida tajriba va nazorat guruqlarida o'zlashtirish va tartib-intizom ko'rsatkicqlari yaxshilangan, ammo biz isqlab chiqqan dasturga amal qilgan o'quvchilar yuqoqriroq natijalarga erishgan.

Shunday qilib, jismoniy tayyorgarlikni oshirish uchun maxsus tanlangan mashqlar tajriba guruhi o'quvchilarining o'zlashtirishi va tartib- intizomiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Xulosa. Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya jarayoni doirasida o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini pedagogik nazorat qilish muammosi o'zining to'liq yechimini haligacha topgani yo'q. 7-sinf o'smirlarning jismoniy tayyorgarligida nazorat mashqlari va testlarni qo'llashning yagona konsepsiyasi isqlab chiqilmagan. Jismoniy tarbiya darslarida tezkor nazoratning yangi shakllarini tadbiq etish zarurligi aniqlashtirildi. Olingan tajriba materiallari o'quv jarayoniga o'smirlarning jismoniy tayyorgarligini tabaqali baholashning yangi uslubiyatini joriy etish zarurligini e'tirof uchun asos beradi. Ushbu tadqiqotda olingan ma'lumotlar o'quv jarayonini tuzishda yangicha yondashuvlarni qo'llash uchun asos hamda jismoniy tayyorgarlikning dasturiy-me'yoriy talablarini isqlab chiqishda istiqbolli yo'nalisqlardan biri uchun asos bo'lishi mumkin.

Pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, o'smirlar jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha isqlab chiqilgan uslubiyot jismoniy tarbiya o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishning an'anaviy tizimidan ancha ustunlik qiladi ($r < 0,05$). U 13-14 yoshdagi o'smirlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini 12,6 % oshirishiga yordam berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi PQ- 3031-son "Jismoniy

tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

2. 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son "Yosqlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

3. 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son "Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni

4. Абдуллаев, А.Ш.Х. Ханкельдиев. Жисмоний тарбия назарияси ва услубияти.—Т. Илмий-техника ахбороти-пресс нашриёти, 2018. — 232 б.

5. Абзалов Р.А., Павлова О.И., Сальникова В.О, Оценка уровня физической подготовленности школьников 6-11 классов // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. - 1999. - №3. - С. 50-55.

6. Бальсевич В.К., Лубышева Л.И. Новые технологии формирования физической культуры школьников // Проблемы совершенствования физического воспитания учащихся общеобразовательных школ: Сб. работ участников междуна. семинара / Под общ. ред. В.И. Ляха, Л.Б. Кофмана. - М., 1993. - С. 42-50.

ETNOMADANIY ALOQALAR SHAROITIDA MILLIY MUSIQA ASOSIDA TALABALARNI MILLATLARARO TOTUVLIK RUXIDA TARBİYALASH

Uspanova Rano Anuarovna,

*O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali San'atshunoslik fakul'teti
«Xalq ijodiyoti» kafedrasini o'qituvchisi
millatlararo munosabatlar, bag'rikenglik,*

Ushbu maqolada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik islohotlari xaqida, yosqlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda milliy musiqa san'atini roli to'g'risidagi ilmiy nazariy mulohazalar o'z aksini topgan. Shuningdek maqolada milliy musiqa san'ati namoyondalarining yosqlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash xaqidagi pedagogik qarashlarini o'rganish, xalq qo'shiqlari, Qoraqalpoq jirov baxshichilik qo'shiqlarining tarbiyaviy ta'sirini talabalar ongiga singdirish orqali, eng yaxshi an'analarimiz va urf-odatlarimiz asosida yosqlarimizni Vatanga va xalqqa muxabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash muhim ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi yuzasidan atroflicha fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: etnomadaniy aloqalar, milliy musiqa, millatlararo totuvlik, talaba yosqlar, konfessiyalar, millat, irq, elat, vijdon erkinligi, Konstitutsiya, qonunlar, deklaratsiya, milliy – madaniy markazlar, milliy an'analar, madaniyat.

ВОСПИТАНИЕ СТУДЕНТОВ В ДУХЕ МЕЖДУНАРОДНОЙ ГАРМОНИИ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ МУЗЫКИ В УСЛОВИЯХ ЭТНОКУЛЬТУРНЫХ СВЯЗЕЙ

Успанова Рано Ануаровна

Преподаватель кафедры «Народное искусство» факультета искусств Нукусского филиала Государственного института искусств и культуры Узбекистана

В данной статье отражены научно-теоретические соображения о реформах межнационального согласия и религиозной толерантности, реализуемых в Узбекистане, роли национального музыкального искусства в воспитании молодежи в духе межэтнического согласия. Также в статье мы изучим педагогические взгляды представителей национального музыкального искусства на воспитание молодежи в духе межнационального согласия, путем привития в сознании учащихся воспитательного воздействия народных песен, каракалпакских песен жиров бахшилик, основанный на наших лучших традициях и обычаях. Считается, что большое социальное значение имеет воспитание нашей молодежи в духе любви и верности Родине и народу, уважения к национальным и общечеловеческим ценностям.

Ключевые слова: межнациональные отношения, толерантность, этнокультурные связи, национальная музыка, межэтническое согласие, студенческая молодежь, конфессии, нация, раса, население, свобода совести, Конституция, законы, декларация, национально-культурные центры, национальные традиции, культура.

EDUCATION OF STUDENTS IN THE SPIRIT OF INTERNATIONAL HARMONY ON THE BASIS OF NATIONAL MUSIC IN THE CONDITIONS OF ETHNO-CULTURAL RELATIONS

Usanova Rano Anuarovna

Teacher of the Department of «Folk Art», Faculty of Arts, Nukus Branch of the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan

This article reflects scientific theoretical considerations about the reforms of inter-ethnic harmony and religious tolerance implemented in Uzbekistan, the role of national music art in educating young people in the spirit of inter-ethnic harmony. Also, in the article, we will study the pedagogical views of representatives of the national music art on educating young people in the spirit of inter-ethnic harmony, by instilling the educational effect of folk songs, Karakalpak jiro bakhshilik songs into the minds of students, based on our best traditions and customs. It is considered that it is of great social importance to educate our youth in the spirit of love and loyalty to the Motherland and people, respect for national and universal values.

Key words: inter-ethnic relations, tolerance, ethno-cultural relations, national music, inter-ethnic harmony, student youth, confessions, nation, race, population, freedom of conscience, Constitution, laws, declaration, national-cultural centers, national traditions, culture

Mamlakatimizda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, do'stlik muhitini yanada yaxshilash, yosqlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi globallashuv jarayonida jahonda elatlar, millatlar, xalqlar, davlatlar, turli konfessiyalar, madaniyatlar va etnik o'ziga xoslikning har xil ko'rinishlarini kuzatishimiz mumkin. Biroq, xalqaro vaziyat, dunyoni vayron qiluvchi siyosiy mojarolar turli xalqlar o'rtasida qarama-qarshiliklarni ham keltirib chiqarmoqda. Shu boisdan, etnomadaniy aloqalar sharoitida milliy musiqa asosida talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash, ular o'rtasida tolerantlikni rivojlantirish va mustahkamlashga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Chunki, millatlararo totuvlik davlatlar, konfessiyalar, shaxslar, millatlar, xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni va ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Jumladan, 1995-yil 16-noyabrda YUNESKO tomonidan Parijda imzolangan "Tolerantlik prinsplari deklaratsiyasi"da "Tolerantlik boshqa dinlar, urf-odatlar, madaniyatlarga bag'rikenglik, o'ziga xosligi va individualligi bilan ajralib turuvchi insonlarga nisbatan bag'rikeng munosabatda bo'lish ekanligi" [1] - alohida takidlangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida O'zbekiston Respublikasining fuqarolari millatidan kat'i nazar O'zbekiston xalqini tashkil etishini, shuningdek, mamlakat hududida yashovchi millat va elatlarning tili, urf-odati va an'alariga hurmat bilan munosabatda bo'lishi belgilab qo'yilgan. [2] "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"da ham aynan jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. [5]

Millatlararo totuvlik, o'zaro do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlash xaqida 2020 yil 29 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning Oliy Majlisga navbatdagi murojaatida ham ta'kidlandi. Murojaatnomada 30 iyul – Xalqaro do'stlik kuni munosabati bilan «Do'stlik haftaligi»ni tashkil etish hamda ushbu haftalik doirasida «Do'stlik» xalqaro forum-festivalini o'tkazish taklifi ilgari surildi. Shuningdek, «Xalqlar do'stligi» ko'krak nishonini ta'sis etish xaqidagi tashabbus ham qo'llab-quvvatlandi. «Xalqlar do'stligi kuni»ni nishonlashdan asosiy maqsad insonlar, xalqlar, davlatlar – umuman olganda jamiyatning turli qatlamlari hamda tuzilmalari o'rtasida hamjihatlik, bag'rikenglik, millatlararo totuvlikni mustahkamlash va do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirishdan iborat [9]

Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi"ning preambulasida ta'kidlanishicha, "Biz,

Birlashgan Millatlar tashkiloti xalqlari, yosh avlodni urush talofotlaridan muhofaza qilish maqsadida yana bir bor inson huquqlari, inson xayotining qadr-qimmatiga bo'lgan e'tiborini tiklash uchun tolerantlik g'oyalari tayanib, insonlarning birgalikda, yaxshi qo'shnichilik an'analari asosida yashashlarini istaymiz" [7], deyiladi.

“Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi”da “dunyo insoniyatning intellektual va ma'naviy hamjihatligiga tayanishi lozim” deb uqtiriladi. “Inson huquqlari Umumjaxon deklaratsiyasi”da kayd etilganidek, xar bir insonning “fikr, e'tiqod, din” (18-modda) erkinligini ta'minlash zarurligi talab etiladi. Mazkur hujjatning 26-moddasida mamlakatlardagi ta'lim tizimi “barcha odamlar, irq va diniy guruqlar orasida o'zaro hamjihatlik, sabr-bardosqli munosabat va do'stlikni” tarbiyalashi muhimligi belgilab qo'yilgan.

Bilamizki, O'zbekiston axolisi milliy tarkibiga ko'ra ko'p millatli davlatlar qatoriga kiradi. Hozir O'zbekistonda 130 dan ziyod millat va elatlarning vakillari yashaydi.[10]

Tolerantlik, millatlararo totuvlik qon-qoniga singib ketgan xalqimiz azal-azaldan turli millat vakillari bilan og'a-inidek, do'st-birodar bo'lib yashagan. Tabiatan mehr-oqibatli, saxovatpesha xalqimiz sho'rolar zamonida katag'onu quvg'inga uchragan ko'plab millat vakillariga o'z uyidan boshpana berdi, og'ir damlarda bir burda nonini ular bilan baham ko'rdi. Bu o'zbekona fazilatlaridan baxramand bo'lgan koreys, nemis, turk, polyak, yunon, qrim-tatar va boshqa millatlarga mansub kishilarning ko'pchiligi shu elda doimiy qo'nim topdi, xalqimizga xos do'stona munosabatlar bois qaddini tikladi. Ularning zurriyotlari esa shu zaminda tug'ildi, shu erda ta'lim-tarbiya olib voyaga etdi, shu maskanda oilali bo'ldi, obro'-e'tibor qozondi. Ular uchun O'zbekiston xaqiqiy Vatan bo'lib qoldi. [10]

Xaqiqatdan ham biz turli millat vakillarining (rus, tatar-boshqird, turkman, tojik, arab, koreys, nemis, turk, polyak, yunon, qrim-tatar) madaniyat, urf-odat, an'analari mamlakatimizda keng nishonlanadigan “Navro'z”, “Mustaqillik”, muhim sanalarga bag'isqlangan ommaviy bayram tadbirlarida “Sudarushka”, “Al-Arabiya”, “Quyosh” kabi milliy madaniyat markazlari koshida tashkil etilgan milliy-etnografik guruqlar chiqislarida ko'ramiz.

Respublikamizda “O'zbekiston – umumiy uyimiz”, “Vatan yagonadir, Vatan bittadir”, “Qudratimiz – birlik va hamjihatlikda” kabi shiorlar ostida o'tayotgan festivallar ham talaba yosqlarni millatlararo totuvlik, hamjihatlik ruhida tarbiyalashda bevosita xizmat qiladi.

Alohida e'tirof etish lozimki, ta'lim-tarbiya tizimining barcha bosqicqlarida millatlararo totuvlik nima, uning asoslari va g'oyalari nimalardan iborat, milliy musiqa, san'at va madaniy aloqalar, din va davlat munosabatlari qanday bo'lishi kerak, inson va e'tiqod, sog'lom e'tiqod asoslari bo'yicha yosqlar, xususan, talabalarda zamonaviy, ilmiy asoslangan, milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayangan bilim va ko'nikmalar majmuini shakllantirish bugungi kunning muhim ijtimoiy vazifalaridan hisoblanadi.

Bilamizki, dunyoviy davlatchilik millatlararo totuvlik tolerantlik g'oyalari tayanadi. Zamonaviy XXI asr takomilini tolerantlik tafakkurisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki, tolerantlik tafakkuri millatlar, elatlar, xalqlar, madaniyatlar, qarasqlar, mafkuralar xilma-xilligi sharoitida ularning o'zaro hamkorlik va bir-birini qabul qilish, tenglik va hurmat asosida yashash tartibi va jarayonlarini bildiradi.

Hozirgi davrga xos bo'lgan turli mafkuraviy ziddiyatlarning kuchayishi inson sog'lom tafakkuriga, uning mafkuraviy jihatdan ogoqligiga, milliy manfaatlar asosida qurilgan g'oyalarni shakllantirishga bo'lgan ehtiyojini kuchaytiradi. Demak, demokratik jamiyat qurish sharoitida yosqlarning tolerantlik tafakkurini shakllantirish masalasini milliy g'oya va mafkura, milliy manfaatlar, davlat ahamiyatiga molik vazifalar qatoriga kiritish to'g'ri bo'ladi.[7]

Shu nuqtai nazardan etnomadaniy aloqalar sharoitida milliy musiqa asosida talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash, dunyo xalqlari o'rtasida do'stlik, birodarlik aloqalarini mustahkamlash muhim ijtimoiy pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Musiqa inson ruhiyatini tetiklashtiradi. Yaxshi musiqa tinglar ekansiz kalb tug'yonini sezasiz. Ma'naviy meros, milliy va umuminsoniy kadriyatlar, xalqimizning boy musiqiy

merosiga qaratilgan yuksak e'tibor natijasida yosqlarga musiqa san'ati orqali xar bir millatning milliy merosi va uning etuk namoyondalari xayoti va ijodiy faoliyatini o'rgatish, musiqiy ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Albatta milliy san'atimiz o'zining tarixiy rivojlanishi jarayonlarida sinovli davrlarni, tarixning barcha bosqicqlarini bosib o'tganligi hech kimga sir emas.

Ma'lumki, xar bir hududining o'ziga xos musiqiy fol'klori serqirra ko'rinishlari bilan mavjud bo'lib, u asosan xalq orasida keng tarqalgan "Buxorcha", "Xorazmcha", "Qorakolpoqcha milliy qo'shiqlar" Farg'ona vodiysining musiqa ijrochiligi va hofizlik san'ati, ashula va raqs turkumi bilan mashhurdir.

Sultonali Mannopovning "Farg'ona vodiysi milliy san'atimizga beshik bo'lgan yurt" nomli internet maqolasida xalqning etnik joylashishi, yashash sharoitlari, turmush tarziga qarab ularning turlicha madaniy rivojlanish davriga asoslanib maqom yo'llari va bastakorlik san'ati ijrochilik uslublari o'z o'rnini topganligi to'g'risida fikr yuritilgan. Xalq san'atining bilimdoni ustoz Yusufjon qiziq Shakarjonov: "Milliy musiqa san'atimiz bamisoli bir daraxt bo'lib, uning tomiri Xorazm, tanasi Buxoro, mevalari Farg'onadir", - deb ta'riflagan ekanlar. [9]

Mamlakatimiz tom ma'noda millatlararo bag'rikenglikning tarixiy merosxo'ri sifatida jaxon hamjamiyatida e'tirof etilmoqda. Insoniyat tarixiga nazar tasqlasak, qaysi jamiyatlarda axillik, birodarlik, o'zaro hamjihatlik joriy bo'lsa, taraqqiyot, ravnak va el osoyishtaligi-yu xalq farovonligi hukm surgan. Aksincha, qay bir jamiyatda murosasizlik, o'zaro xusumat kuchaysa, bunday jamiyatlarda urush va mojarolar avj olgan, yurt vayron, el parokanda bo'lgan.

Tarixiylik tamoyiliga asoslanib aytishimiz mumkinki, XVIII asrga Buxoroning "Shashmaqom"i (olti maqom) "Buzruk", "Rost", "Navo", "Dugoh", "Segoh", "Iroq" maqomlari o'zining nasr va mushkilot qismlari bilan rivojlangan bo'lsa, Xorazmning 6,5 maqomi aytim va chertim yo'llari bilan ijro etib kelingan. Farg'onaning "Chormaqom"i, (To'rt maqom), Dugoh Husayniy "Chorgoh" "Shaxnozi Gulyor", "Bayot" kabi xalqning avlodan-avlodga o'tib kon-koniga singib ketgan san'at asarlari yosqlarni tolerantlik ruhida tarbiyalashda asos bo'lib xizmat qiladi. Bu san'at asarlarining xar biri betakror hamda bir qancha asarlarni o'zida mujassamlashtirish xususiyatiga ega bo'lgan turkumlardir.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, milliy musiqa san'ati namoyondalarining yosqlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash xaqidagi pedagogik qarashlarini o'rganish, xalq qo'shiqlari, Qorakolpoq jirov baxshichilik qo'shiqlarining tarbiyaviy ta'sirini talabalar ongiga singdirish orqali, eng yaxshi an'analimiz va urf-odatlarimiz asosida yosqlarimizni Vatanga va xalqqa muxabbat va sadokat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashga erishamiz.

Bilamizki, musiqiy qadriyatlarda xalqlarning turmush tarzi, til madaniyati, turli an'analari, urf-odatlari, mahalliy xalqqa tegisqli milliy an'analari aks etgan bo'lib, unda turli millat vakillarining o'z hududiga xos bo'lgan musiqiy bezaklari, ko'chirimlari, cholg'u ijrosi, hofizlik an'analari, kuylash uslublari bilan ijro maktabini o'zida mujassam etgan sirli oxanglar yordamida talaba yosqlarda dunyoviy va diniy bag'rikenglik, o'zga din va millat vakillariga ehtirom, o'zga madaniyatlarga, milliy boylklarga hurmat bilan qarash, sabr-toqatli bo'lish, do'stlik munosabatlarini o'rnatish, oila va jamiyatda bardosqlilik sifatlarini ko'rsatish, birodarlik, hamdardlik, hurfikrlilik, sadokat, boshqalarni kamsitmaslik, xatolari ustidan kulmaslik, xo'rlamaslik, o'z kuchiga ishonch, tincqlik va totuvlikni qadrlash, insonlarni barqarorlikka safarbar eta olish kabi ko'nikmalarni tarbiyalashga qaratilishi bilan xarakterlanadi.

Birgina misol qilib o'zbek millatiga mansub xalqlarning milliy qadriyatlari tarkibida eng qadimgi davrlardan bosqlab xar doim tolerantlik, xususan, madaniy va diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik tushunchalari mavjud bo'lib, ular quyidagi masalalarni o'z ichiga qamrab olgan:

– insonlarga ularning yoshi, millati, irqi, jinsi, moliyaviy axvoli, nasl-nasabidan kat'i nazar bir xil munosabatda bo'lish;

– atrofida nisbatan hurmatda bo'lishni inson madaniyati va tarbiyalanganligining muhim belgisi sifatida baxolash;

– “komil inson” tushunchasi doirasiga uning keng fe'lliligi, o'zgalarga yaxshi munosabat ko'rsata olishi, boshqa dinlar va urf-odatlarini hurmat qilishga tayyorligini kiritish;

– tarixiy jarayonlarda xar vaqt o'zga madaniyatlar, milliy urf-odatlarining eng yaxshi tomonlarini milliy madaniyat zamiriga singdirish.[7]

Mazkur kadriyatlar umuminsoniy kadriyatlar bo'lib, musiqiy-nazariy bilimlar, og'zaki ijro an'analari, milliy mumtoz oxanglardagi ustoz-shogirdlik an'analari, cholg'u turlari, ijrochilik maxoratlarini, bastakorlik maktablari, jaxon andozasidagi turli janrlardan tarkib topgan asarlarni bastalay olishi va ularni maxorat bilan ijro etib dunyo tsivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shib borayotganligi bilan milliy madaniyatimizni yanada boyitib boradi.

Shuningdek milliy qo'shiqlari talaba yosqlarda eng yaxshi insoniy fazilatlar: vatanparvarlik, mehnatga muxabbat, odamlarga ishonch, do'stlarga sadokat tuyg'ulari va uning o'z-o'ziga nisbatan talabchanligini shakllantiradi. Aslini olganda milliy qo'shiqlar yosqlar uchun ilk tarbiya darsligi, ma'naviy-axloqiy boyliklarning bitmas-tuganmas xazinasidir

Xulosa qilib aytganda millatlararo totuvlik tincqlik va barqarorlikning, taraqqiyotning asosiy kategoriyalaridan biri sanaladi. O'zbekiston er yuzidagi turfa xil madaniyatlar gullab-yashnayotgan mamlakatlardan biri ekanligi yosh avlodsha faxr-iftixor, g'urur tuyg'usini bag'isqlaydi. Aslini olganda ko'p millatlilik va ko'p madaniyatlilik – bu bizning milliy boyligimiz O'zbekistonni o'z Vatani deb bilib, uning taraqqiyoti yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan turli millatga mansub yurtdosqlarimizning xar biri, shubxasiz, buni teran his qiladi, anglaydi. Yurtimizda millatlararo va davlatlararo totuvlikni yanada mustaxkamlashga qaratilgan yangi g'oya va tashabbuslarning paydo bo'layotganligi talaba yosqlarimizda do'stlik va hamjihatlik qo'rg'onining yanada mustaxkamga xizmat qilishi shubxasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T: O'zbekiston, 2023. –<https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

2.O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. –

QHMMB, 24.09.2020. 03/20/637/1313-son. <https://lex.uz/uz/>

3.O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi “Yosqlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi” O'RQ – 406-son Qonuni. <https://lex.uz/uz/>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ – 3391 Qarori. <https://lex.uz/uz/>

5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi PF-165-son «2022–2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni, 06/22/165/0615. <https://lex.uz/uz/>

6.1995-yil 16-noyabrda YUNESKO tomonidan Parijda imzolangan “Tolerantlik prinsplari deklaratsiyasi”

7.Kushakova G.E Yosqlarda tolerantlik tafakkurini shakllantirish texnologiyasi. (Oliy ta'lim muassasalari misolida) P.f.b.f.d (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent 2020

8.Mannopov, S. (2004). Uzbek folk music culture.(Study guide) Tashkent. New Age Generation

9.<https://uza.uz/uz/posts/>

10.<https://www.google.com/>

YOSQLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH

Xolboyev Asqarali Mirxoldorovich

O'zbekiston davlat jaxon tillari universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

Mazkur maqolada yosqlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash isqlari samaradorligini oshirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish pedagogik zaruriyat ekanligi yuzasidan fikr yuritilgan. Shuningdek maqolada, tarixiylik tamoyiliga ko'ra ajdodlar tomonidan to'plangan tarixiy va madaniy tajriba yosqlarning ma'naviy, individual va umumiy rivojlanishi uchun zaruriy shart ekanligiga alohida urg'u berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim muassasasi, talaba, yosqlar, ta'lim-tarbiya, ma'naviyat, madaniyat, vatanparvarlik, milliy g'urur, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, tarixiylik tamoyili, millat, tarixiy va madaniy meros, xalq og'zaki ijodi.

ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ПАТРИОТИЗМА НА ОСНОВЕ ФОЛЬКЛОРА

Холбоев Аскарали Мирхолдоревич

Преподаватель кафедры «Педагогика и психологии» Узбекского государственного университета мировых языков

В данной статье рассматривается тот факт, что использование фольклора является педагогической необходимостью для повышения эффективности воспитания молодежи в духе патриотизма. Также в статье согласно принципу историчности историко-культурный опыт, накопленный предками, является необходимым условием духовного, индивидуального и общего развития молодежи.

Ключевые слова: Высшее учебное заведение, студент, молодежь, образование, духовность, культура, патриотизм, национальная гордость, гражданское чувство, толерантность, принцип историчности, нация, историко-культурное наследие, фольклор.

EDUCATION OF YOUTH IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM BASED ON FOLKLORE

Kholboev Askarali Mirkholderovich

Lecturer at the Department of Pedagogy and Psychology, Uzbek State University of World Languages

This article discusses the fact that the use of folklore is a pedagogical necessity to increase the effectiveness of educating young people in the spirit of patriotism. Also in the article, according to the principle of historicity, the historical and cultural experience accumulated by ancestors is a necessary condition for the spiritual, individual and general development of youth

Key words: Higher educational institution, student, youth, education, spirituality, culture, patriotism, national pride, civic sense, tolerance, the principle of historicity, nation, historical and cultural heritage, folklore

Kirish: Har qanday millat, har qanday xalq bor ekan, uning o'z manfaatlari, o'z maqsad va orzu-idealiga ega bo'lishi tabiiy. Ana shu orzu-umidlar va maqsadlarni ifoda etadigan, ularni

ruyobga chiqarish uchun xalqni safarbar qiladigan g'oyalar esa muayyan mafkuraga asos bo'ladi. Vatanparvarlik tuyg'usi O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillarining tub manfaatlarini, xalqimizning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu-ideallarini, olijanob maqsad-muddaolarini o'zida mujassam etadi.[16]

Sh.M.Mirziyoev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" nomli kitobida biz yaratayotgan Yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi-degan aqidaga tayanib, vatanparvarlik tuyg'usini go'daklik davridan bosqlash muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. [8]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 noyabr 2018 yildagi «O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida» PQ-4038-sonli Qarorida "...milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yosqlarimiz ongiga singdirish, etnik madaniy an'analarni asrab-avaylash va shu asosda xalq ijodiyotini qo'llab-quvvatlash" masalalariga alohida urg'u berib o'tilgan bo'lib, mazkur Kontseptsiyada:

-mamlakatning tarixiy rivojlanish jarayonida madaniyat va san'at xalqimizning ma'naviy boyligini saqlab, to'plab avlodlarga etkazib kelgani, xalqimizda birdamlik, vatanparvarlik va milliy g'urur hissini tarbiyalaganini e'tirof etgan holda, madaniyatning ustuvorligiga urg'u berish, jamiyat hayoti sifatining yanada yuqori darajasini ta'minlash, unda fuqarolarning hamjihat bo'lishiga erishish, ma'naviyatli, mas'uliyatli, mustaqil fikrlovchi ijodkor shaxsni shakllantirish;

-ajdodlar tomonidan to'plangan tarixiy va madaniy tajriba jamiyat a'zolarining individual va umumiy rivojlanishi uchun zaruriy shart ekanligini jamoatchilik ongiga singdirish, bu borada jamoatchilik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;

-insoniyat taraqqiyoti va jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shgan yurtimizning madaniy merosini YUNESKOning tegisqli ro'yxatlariga kiritish choralarini kuchaytirish;

-xalqimiz, ayniqsa, yosqlar qalbida milliy istiqloq g'oyalariga sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, ona Vatanga muhabbat, buzg'unchi g'oyalarga qarshi immunitetni yanada kuchaytirishda teatr va kino san'atining rolini oshirish asosiy vazifalar jumlasiga kiritilgan.

-tarixiy va madaniy merosimizni saqlash hamda uni yosh avlod tarbiyasida keng qo'llash;

-milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yosqlarimiz ongiga singdirish, etnik madaniy an'analarni asrab-avaylash va shu asosda xalq ijodiyotini qo'llab-quvvatlash;

-xalq ijodiyoti va badiiy havaskorlik san'atini saqlab qolish va rivojlantirish, badiiy va amaliy ijodiy jamoalar, havaskorlik guruqlarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoit yaratish hamda ijodiy jarayonni tizimli ravishda boyitib borish asosiy vazifalar sifatida qayd etib o'tilgan. [3]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmonining 70-maqsadi: Yosqlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish masalalariga qaratilgan bo'lib, unda "Yosqlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, konunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qaraslarga ega shaxs sifatida tarbiyalash;

71-maqsadi: o'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash vazifalariga alohida ahamiyat qaratilgan.

Haqiqatdan ham «Milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob isqlarimizda madadkor bo'lishi zarur [11] Buning uchun, yosqlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish jarayonini davr talablariga hamohang tashkil etish, ularni o'z xalqi tarixini chuqur biladigan, o'tmish va bugungi davr yangiliklarini tez idrok etib, xalq og'zaki ijodi namunalaridan o'z faoliyatida qo'llay oladigan qilib tarbiyalash oliy

maktab va pedagogika fani oldida turgan muhim vazifalaridan bo'lib hisoblanadi.

Keng qamrovli ta'lim dasturlarini ishlab chiqish: madaniy meros mavzularining keng doirasini o'z ichiga olgan va barcha talabalar uchun ochiq bo'lgan dasturlarni ishlab chiqish.

Texnologik integratsiyani kuchaytirish: Madaniy ta'limni yanada qiziqarli va interaktiv qilish uchun raqamli vositalar va resurslardan foydalanish.

Tarmoqlararo yondashuvlarni targ'ib qilish: madaniy merosni o'rganishni tarix, san'at va adabiyot kabi boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvini rag'batlantirish, yaxlit ta'lim tajribasini ta'minlash.

Global aloqalarni rivojlantirish: talabalarga o'zlarining mahalliy merosini global madaniy amaliyotlar bilan taqqoslash va solishtirish imkoniyatlarini yaratish, shu bilan ularning turli madaniyatlar haqidagi tushunchasi va qadrini kengaytirish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Namanganda madaniy merosni ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida o'rganish jarayoni pedagoglar, jamoatchilik vakillari va siyosatchilarning birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladi. Muammolarni hal qilish va mintaqaning madaniy merosining kuchli tomonlarini ishga solish orqali Namangan kelajak avlodlarda o'zlikni anglash va davomiylik tuyg'usini tarbiyalagan holda o'zining boy merosining saqlanishini ta'minlashi mumkin. Madaniy merosning ta'limga integratsiyalashuvi nafaqat o'quvchilarning bilim tajribasini boyitadi, balki jamiyatning umumiy madaniy hayotiyliigi va mustahkamligiga ham hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirhakimova, Feruza Kholdorjonqizi. «The state museum of history and culture of Namangan region past and today.» Asian Journal of Multidimensional Research 10.8 (2021): 84-89.

2. Abdullayev Ilxom Ikramovich NAMANGAN VILOYATI QADAMJOLARI: TARIXIY ILDIZLARI // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. 2022. №4.

3. <https://kun.uz/25383875?q=%2Fuz%2F25383875>

4. <https://uzbekistan.travel/uz/o/namangan-ziyoratgohlari-bibi-ona-yodgorligi-va-bibi-naima-ona-maqbarasi/>

SPORTCHI-KURASHCHILARNING PEDAGOGIK TAJRIBA DAVOMIDA O'RGANILGAN TEXNIK USULLARNI BAJARISH KO'RSATKICHLARI O'RTACHA ARIFMETIK QIYMATLARI

Kubitdinov Jamshed Abduraxmonovich

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti katta o'qituvchisi
O'zbekiston, Chirchiq shahri*

Annotatsiya: Ushbu maqola Sportchi-kurashchilarning pedagogik tajriba davomida o'rganilgan yettita texnik usullarni bajarish ko'rsatkichlari o'rtacha arifmetik qiymatlarini nisbiy o'sishlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: tadqiqot, mashg'ulotlar, nazorat, usullar, maxsus kuch.

СРЕДНИЕ АРИФМЕТИЧЕСКИЕ ЗНАЧЕНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ВЫПОЛНЕНИЯ СПОРТСМЕНАМИ-БОРЦАМИ ТЕХНИЧЕСКИХ ПРИЕМОВ, ИЗУЧЕННЫХ В ХОДЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ЭКСПЕРИМЕНТА

Кубитдинов Джамшед Абдурахмонович

*Узбекского государственного университета физической культуры и спорта
Г. Чирчик, Узбекистан*

Аннотация. Относительные приращения средних арифметических значений показателей выполнения спортсменами-борцами семи изученных в ходе педагогического эксперимента технических приемов.

Ключевые слова: исследования, обучение, контроль, методы, особая сила.

ARITHMETIC MEAN VALUES OF PERFORMANCE INDICATORS BY ATHLETES-WRESTLERS OF TECHNICAL TECHNIQUES STUDIED DURING THE PEDAGOGICAL EXPERIMENT

Kubitdinov Jamshed Abduraxmonovich

*Uzbekistan State University of physical education and sports
Chirchik, Uzbekistan*

Annotation. The relative increments of the arithmetic mean values of the performance indicators of athletes-wrestlers of the seven techniques studied during the pedagogical experiment.

Key words: research, training, control, methods, special power.

Dolzarblici. Dunyo miqyosida sport kurashlari bo'yicha olib borilayotgan mashg'ulot jarayonlarida maxsus kuch, jismoniy sifat ko'rsatkichlarining rivojlanganlik darajalariga asosiy e'tibor qaratib borilayotganligi kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martda PF-5368-sonli "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2022-yil 20-iyunda PQ-286-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Dzyudo sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 29-iyul 2022 yildagi PQ-336-son hamda 2021-yil 5-noyabrda PQ-5281-sonli "2024 yil Parij shaharida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi olimpiya va XVII paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida"gi qarorlarini amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot maqsadi. yunon-rum kurashchilarida maxsus kuch tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi samaradorligini haftalik dastur asosida aniqlash.

Tadqiqotning vazifalari:

yunon-rum kurashida sportchilarning maxsus kuch samaradorligini oshirish asosida kurashchilarning maxsus kuch tayyorgarligini takomillashtirish uslubi-yatini ishlab chiqish;

yunon-rum kurashchilarning maxsus kuch tayyorgarligini takomillashtirishga oid maxsus sport uskunasi ishlab chiqish va joriy etish;

yunon-rum kurashchilarning maxsus kuch tayyorgarligi darajasini maxsus o'lchov uskunasi yordamida aniqlash va model ko'rsatkichlarini belgilab olish;

yunon-rum kurashida yillik mashg'ulotlarni blokchein tizimiga moslashtirish va nazorat qilish orqali kurashchilarning maxsus kuch tayyorgarligini takomillashtirish metodikasining samaradorligini aniqlash;

Sportchi-kurashchilarning pedagogik tajriba davomida o'rganilgan yettita texnik usullarni bajarish ko'rsatkichlari o'rtacha arifmetik qiymatlarini nisbiy o'sishlarining NGdagi eng kichik nisbiy o'sishi 8,99 foizni, eng kattasi esa 12,30 foizni tashkil etgan bo'lsa, TGda ushbu ko'rsatkichlar, mos ravishda, 19,17 foizni (NGdagi mos ko'rsatkichdan 10,18 foizga ortiq miqdorda o'sgan) va 29,14 foizni (NGdagi mos ko'rsatkichdan 16,84 foizga ortiq miqdorda o'sgan) tashkil etganligi kuzatildi. NGdagi o'rtacha nisbiy o'sish 10,76 foizni, TGda esa 24,69 foizni tashkil etdi (NGdagi mos ko'rsatkichdan 13,93 foizga yoki 2,295 martaga ortiq miqdorda o'sgan). Shuning bilan birga ushbu nisbiy osishlar TGdagi qiymatlari NGdagiga nisbatan 2,180 marta bilan 2,383 marta oralig'idagi miqdorda katta ekanligi aniqlandi.

Bundan tashqari, NGda o'rganilgan yettita texnik usullarni bajarish ko'rsatkichlari o'rtacha arifmetik qiymatlarining absolyut farqlarini Студент тақсимооти критик қийматаларини ҳисоблаш, эркинлик даражаси сони ва белгиланган аҳамиятлилик даражасини инобатга олиш асосида амалга оширилган статистик ишончлилик баҳоларидан to'rttasi qoniqarli ahamiyatlilik darajasida ($t=2,06$ bilan $t=2,77$ oralig'ida joylashgan hamda $P<0,05$) statistik ishonchli va qolgan uchtasi qoniqarli ahamiyatlilik darajasida ($t=1,71$ bilan $t=1,76$ oralig'ida joylashgan hamda $P>0,05$) statistik ishonchsiz ijobiy o'zgarganligi kuzatildi.

TGda yettita texnik usullarni bajarish ko'rsatkichlari o'rtacha arifmetik qiymatlarining absolyut farqlarini статистик ишончлилик баҳоларидан to'rttasi yuqori ahamiyatlilik darajasida ($t=4,46$ bilan $t=4,48$ oralig'ida joylashgan hamda $P<0,001$) statistik ishonchli va qolgan uchtasi yaxshi ahamiyatlilik darajasida ($t=3,53$ bilan $t=3,54$ oralig'ida joylashgan hamda $P<0,01$) statistik ishonchli ijobiy o'zgarganligi aniqlandi.

Shuningdek, pedagogik tajriba davomida o'rganilgan sportchilarning yettita texnik usullarni bajarish ko'rsatkichlari o'rtacha arifmetik qiymatlarini nisbiy o'sishlarining o'rtachasi NGda 10,76 foizni, TGda esa 24,69 foizni, ya'ni NGdagi mos ko'rsatkichdan 13,93 foizga yoki 2,295 martaga ko'proq va statistik ishonchliroq ijobiy tomonga o'zgarganligi aniqlandi. Bu zikr etilgan faktlar, NG mashg'ulotlarida qo'llangan vosita va usullarga nisbatan TG mashg'ulotlarida qo'llangan vosita va usullarning samaradorligini yana bir marta tasdiqlab turibdi.

7-jadval.


Nazorat va tajriba guruhlardagi kurashchilarni musobaqalarda ko'rsatgan natijalarini tajriba davomida o'zgarishi

Kurashchilar ishtrok etgan musobaqalar	guruh	Shahar birinchiligi va ochiq turnir musobaqalari		Tuman birinchiligi va ochiq turnir musobaqalari		Viloyat birinchiligi va ochiq turnir musobaqalari		O'zbekiston kubogi musobaqalari	
		g'olib	sovr-r	g'olib	sovr-r	g'olib	sovr-r	g'olib	sovr-r
TB	NG	2	1	1	1	1	1	1	2
	TG	2	2	0	1	-	3	1	2
TO	NG	4	4	2	2	2	3	1	3
	TG	7	9	3	4	7	7	4	4
O'sish	NG	2	3	1	1	1	2	0	1
	TG	5	7	3	3	7	4	3	2

TB - tadqiqot boshida olingan natijalar;


TO - tadqiqot oxirida olingan natijalar;

g'olib - musobaqada g'oliblikni qo'lga kiritgan kurashchilar soni;
 sovr-r - musobaqada sovrindor bo'lgan kurashchilar soni;
 NG- nazorat guruhi; TG - tajriba guruhi.



6- rasm. NG va TGda shug'ullanuvchi yunon-rim kurashchilarni tadqiqot boshida va oxirida (Sh-shahar, T-tuman, V-viloyat va R-respublika kubogi) musobaqalarida ko'rsatgan natijalarining solishtirish.

Yuqorida keltirilgan 6-rasmda NG va TGda boshlang'ich tayyorgarlik davrida shug'ullanuvchi yunon-rim kurashchilarning tadqiqot boshida va oxirida musobaqalarda ko'rsatgan natijalari tahlili keltirilgan. Unga ko'ra nazorat va tajriba guruhlari sportchilari tadqiqot boshida o'xshash natijalarni qayd yetganliklari va tadqiqot oxirida esa nazorat guruhidagi kurashchilarni natijalari deyarli o'zgarmagan holda takrorlangan bo'lsa, tajriba guruhi kurashchilarining sezilarli darajada ortib borganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, kurashchilar ishtirok etgan musobaqalardan Shahar birinchiligi va ochiq turnir musobaqalarida ishtirok etish va erishilgan natijalar bo'yicha NGdagi g'oliblar soni tajriba boshidagiga nisbatan tajriba oxirida 2 taga ortgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich TGda 5 tani, sovrindorlar soni bo'yicha esa, mos ravishda, NGda 3 taga, TGda esa 7 taga oshgan. TGdagi bunday ustunlik boshqa musobaqalarda ham kuzatilgan. Chunonchi, Tuman birinchiligi va ochiq turnir musobaqalaridagi natijalar bo'yicha NGdagi g'oliblar va sovrindorlar soni tajriba boshidagiga nisbatan tajriba oxirida 1 taga ortgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich TGda 3 tani, Viloyat birinchiligi va ochiq turnir musobaqalari natijalari bo'yicha NGdagi g'oliblar soni tajriba boshidagiga nisbatan tajriba oxirida 1 taga ortgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich TGda 7 tani, sovrindorlar soni bo'yicha esa, mos ravishda, NGda 2 taga, TGda esa 4 taga oshgan hamda O'zbekiston kubogi musobaqalarida NGdagi g'oliblar soni tajriba boshidagiga nisbatan tajriba oxirida o'zgarmagan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich TGda 3 tani, sovrindorlar soni bo'yicha esa, mos ravishda, NGda 1 taga, TGda esa 2 taga oshgan (7-rasm).



7- rasm. NG va TGda shug‘ullanuvchi yunon-rim kurashchilarni tadqiqot boshida (Sh-shahar, T-tuman, V-viloyat va R-respublika kubogi) musobaqalarida ko‘rsatgan natijalarini tajriba oxiriga kelib o‘shish farqlarini solishtirish.

Nufuzlik darajasi turlicha bo‘lgan musobaqalardagi erishilgan natijalar bo‘yicha ham nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhi kurashchilarining yuuqlari sezilarli ekanligi ham tajriba guruhi mashg‘ulotlarida qo‘llangan vosita va usullarning samarador ekanligini dalolatidir.

Xulosa

Sportchi-kurashchilarning pedagogik tajriba davomida o‘rganilgan yettita texnik usullarni bajarish ko‘rsatkichlari o‘rtacha arifmetik qiymatlarini nisbiy o‘shishlarining. NGdagi o‘rtacha qiymati 10,76 foizni, TGda esa 24,69 foizni tashkil etganligi (NGdagi mos ko‘rsatkichdan 13,93 foizga yoki 2,295 marta ortiq miqdorda o‘sgan), bundan tashqari, NGda o‘rganilgan yettita texnik usullarni bajarish ko‘rsatkichlari o‘rtacha arifmetik qiymatlarining absolyut farqlarini statistik ishonchlilik baholaridan to‘rttasi qoniqarli ahamiyatlilik darajasida ($P < 0,05$) statistik ishonchli va qolgan uchta qoniqarli ahamiyatlilik darajasida ($P > 0,05$) statistik ishonchsiz ijobiy o‘zgarganligi hamda TGda yettita texnik usullarni bajarish ko‘rsatkichlari absolyut farqlarini statistik ishonchlilik baholaridan to‘rttasi yuqori ahamiyatlilik darajasida ($P < 0,001$) statistik ishonchli va qolgan uchta yaxshi ahamiyatlilik darajasida ($P < 0,01$) statistik ishonchli ijobiy o‘zgarganligi faktlari NG mashg‘ulotlarida qo‘llangan vosita va usullarga nisbatan TG mashg‘ulotlarida qo‘llangan vosita va usullarning samaradorligini yana bir marta tasdiqlab turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Абдиев А.Н. - Яккакураш спорт турларида ихтисослашувчи талабаларда мураббийнинг касбий кўникмаларини шакллантиришнинг илмий-педагогик асослари //Педагогика фанлари доктори: дисс.автореф., ОАК ЎзР 13.00.04., Тошкент. ЎзДЖТИ. 2004. – 196 б.
2. Abdullaev Sh.A., Xolmatov A.I. – Malakali kurashchilarni tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslari “O‘qituvchi” Toshkent. 2015. – B. 56.
3. Abdullayev SH.A., Xolmurodov L.Z. – Erkin kurash. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent. “ILMIY-TEXNIKA AXBOROTI-PRESS NASHRIYOTI” 2017. – 132 b.
4. Adilov S.Q. - Sport pedagogik mahoratini oshirish (Erkin kurash). O‘quv qo‘llanma. Toshkent: “Fanlar akademiyasi bosmaxonasida” nashr etilgan 2019. – B.221.

5. Азизов Н.Н. - Малакали дзюдочиларнинг махсус ва мусобақа олди тайёргарлигини шакллантириш //Пед.фан.номзодлик: дисс.автореф., ОАК ЎзР 13.00.04., Тошкент. ЎзДЖТИ. 2007. – 128 б.

6. Андрушишин И.Ф., Шепетюк М.Н., Райфова Я.В., Житпив А.Р., Шепетюк Н.М. - Развитие скоростно-силовых качеств дзюдоисток высокой квалификации на этапе специальной подготовки. Ж.: “Наука и спорт”, Казань, №2, т.7, 2015. – С.105-109.

7. Abdurakhmonovich, Kubitdinov Jamshed. «Efficiency of Modeling Methods in Sports Training of Greco-Roman Wrestlers.» Texas Journal of Multidisciplinary Studies 8 (2022): 106-108.

8. Кубитдинов, Жамшед Абдурахмонович. «ЮҚОРИ МАЛАКАЛИ ЮНОН-РУМ КУРАШЧИЛАРИНИ МАХСУС-КУЧ ТАЙЁРГАРЛИГИ АҲАМИЯТИНИ ПЕДАГОГИК ТАЖРИБА АСОСИДА ЎРГАНИШ.» (2022): 345-354.

O‘ZBEKISTONDA KLASTERLARNI BARQARAR RIVOJLANISHDA AGRITURIZMNING O‘RNI: ITALIYA TAJRIBASI MISOLIDA

Mirzokulova Kumush Mirshakarovna,

*Buxoro davlat universiteti, Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish yo‘nalishi
3-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Italiya Yevropada to‘rtinchi va dunyoda yettinchi yirik iqtisodiyot bo‘lib, Jahon bankining rasmiy ma‘lumotlari va Savdo iqtisodiyoti prognozlariga ko‘ra, 2022 yilda Italiyada YaIM taxminan 2,01 trillion AQSh dollarini tashkil etdi. Italiya yalpi ichki mahsulotining qiymati dunyo iqtisodiyotining 1,68 foizini tashkil qiladi. Italiya iqtisodiyoti uchun muhim sektor turizmdir; u butun mamlakat hududini qamrab olganiga qaramay, ba‘zi mintaqalarda boshqalarga qaraganda muhimroq rol o‘ynaydi; bu qisman yirik san‘at shaharlari va taniqli dengiz bo‘yidagi kurortlarning jozibadorligi bilan izohlanadi. Agroturizm tashrif buyuruvchilarni asosan qishloq xo‘jaligi maqsadlarida foydalaniladigan joyga olib kelishni o‘z ichiga oladi. Italiyada agroturizm tarixi 1965 yildan boshlangan. 1973 yilda sayyohlar fermalarda qolib, fermerlardan qishloq hayoti haqida bilib olishlari uchun rasmiy agroturizm ferma nomi yaratilgan.

Kalit so‘zlar: klaster, agroturizm, vino turizmi, gastronomik turizm, DOC.

Italiyaning turizm industriyasi xilma-xil hisoblanib, ko‘plab tarmoqlar agroturizm klasterini qo‘llab-quvvatlaydi va Italiyaga tashrif buyurish uchun qo‘shimcha rag‘batlantiradi. Ushbu yordamchi tarmoqlar orasida asosiy klaster oziq-ovqat va vino klasteridir. Italiya taomlari dunyo miqyosida tan olingan va xalqaro miqyosda eng yaxshi taomlardan biri hisoblanadi. Oziq-ovqat sanoatida vino yana bir klaster hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi hududida italyan vinosida 322 DOC (yoki boshqariladigan joy nomi) vinolari mavjud (Ciaschini and Socci, 2005). Oziq-ovqat va vino klasteri Italiyaning ijobiy tasavvurini oshiradi va sayyohlarni jalb qiladi.

Vino va gastronomik turistlar uchun Italiyaning qiziqarli jihatlari:

- 825 ta geografik ma‘lumotlarga ega mahsulotlar;
- 5 mingga yaqin gastronomik an‘analari;
- YuNESKO tomonidan ro‘yxatga olingan 4 ta gastronomik afzalliklari;
- Enogastronomiya bilan bog‘liq va YuNESKO ro‘yxatiga kiritilgan 2 shahar;
- 875 ta oshxona va restoranlari;
- 23 mingdan ortiq agriturizm manzillari;
- Gastronomiyaga bag‘ishlangan 114 muzey;
- 173 xil vino tayyorlash usullari.

Italiyada vino turizmni rivojlantirish maqsadida Vino Turizm Harakati (Movimento Turismo del Vino) notijorat uyushmasi bo‘lib, 1993-yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda hamda italiyadagi o‘ziga xos talablar asosida tanlangan 1000 ga yaqin nufuzli vino zavodlarini o‘z ichiga oladi. Vino Turizm Harakati o‘zining doimiy majburiyatiga binoan hududlarni rivojlantirishning asosiy iqtisodiy manbai va atrof-muhitni muhofaza qilishning samarali vositasi bo‘lgan milliy vino turizmni rivojlantirishni maqsad qilgan. Aslida, Harakat bir tomondan vino sayyohlarini, qatnashayotgan vinolar faoliyati va mahsulotlarini yanada yaqindan tanishtirishni, ikkinchi tomondan, qanday qilib urf-odatlariga, atrof-muhitni muhofaza qilish va savdo-sotiqqa muvofiq ravishda biznes yuritishingiz mumkinligini ko‘rsatishni istaydi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun Vino Turizm Harakati bir necha darajalarda faoliyat yuritadi: savdo yarmarkalarida - birinchi navbatda Vinitaliy - va xalqaro konferentsiyalarda qatnashishdan tortib, tadqiqot o‘tkazish uchun universitetlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlikgacha; vino sohasidagi muhim o‘yinchi bilan hamkorlikdan (Enoteca Italiana, Città del Vino) aloqa (broshyuralar, varaqalar, plakatlar va qo‘llanmalar) va milliy OAVda o‘z tashabbuslari va tadbirlarini targ‘ib qilish. Uyushmaning maqsadlari orasida:

- vino madaniyatini ishlab chiqarish maydonlariga tashrif buyurish orqali targ‘ib qilish;
- kuchli sharobga ega Italiyaning barcha hududlarida sayyohlik oqimining ko‘payishini qo‘llab-quvvatlash;
- vino hududlarining obro‘sini va iqtisodiy va bandlik istiqbollarini oshirish.







Geografiya nuqtai nazaridan, Italiya taxminan Arizona shtatining kattaligiga ega va Italiyadagi

barcha yerlarning atigi 1/3 qismi dehqonchilik uchun yaroqlidir. Bugungi kunda yigirmata vino ishlab chiqaradigan mintaqa bo'lib, Yevropa mamlakatlarining o'ziga xos geografik hududlari, uzum navlari va vinochilik sifatini boshqarishning boshqa qoidalariga asoslangan. Sharob hajmi jihatidan yetakchi mintaqalar - Veneto, Apuliya, Sitsiliya va Emiliya-Romanya.

Venetoda vino turizm klasterlari keng rivojlangan bo'lib, kichik biznes vakillari tomonidan sayohatchilar uchun nafaqat vino ta'tib ko'rish va balki uzum maydonlari, vinoning turli xillaridan ta'tib ko'rish, vino ishlab chiqarish jarayonini tomosha qilish, gastronomik turizm imkoniyatlaridan foydalanish, turli ko'ngilochar tadbirlarni tashkil qilish xizmatlarini taklif etishadi.

Venetoda vino turizmi bo'yicha faoliyat yuritadigan kichik biznes vakillari – turistik firmalar xizmat ko'rsatishadi. Vino turistik firmalari asosan o'z uzumzorga ega, vino ishlab chiqaradigan va mehmonlarga va sayyohlarga turli xil xizmat va mahsulotlarni tashkillashtirish va boshqarish uchun chinakam tajribani taklif etadigan firma hisoblanadi. Bu firmalar mehmondo'stlik, ovqatlanish, sayohatlar va ma'lumotlar, pishirish kurslari va vino ishlab chiqarish kiradi kabi xizmatlar ko'rsatadi. Shuningdek, ular maxsus tadbirlar uyushtirishlari va o'yin maydonchalari, sayr qilish joylari, yig'ilish xonalari, shuningdek, mahalliy va mintaqaviy ovqatlanish joylari, san'at va hunarmandchilik buyumlari uchun dam olish maskanlari bilan ta'minlashlari mumkin(1-jadval).

1-jadval

Vino klasterlari	Tarixi va uzumsochlar maydoni	Vino turlari	Turistik imkoniyatlari
 <p>La Mincana - Dal Martello Via Mincana, 52 - 35020 Due Carrare (PD), Veneto, Italy P.iva IT 02692580281 Tel: +39 049 525559 - Fax : +39 049 525499 E-mail: info@lamincana.it http://www.lamincana.it</p>	<p>"Mincana" zamin Dal Martello oilasi tomonidan 1914-yildan buyon vinochilik bilan shug'ullanib keladi. Bugungi kunda mull 60 gektar maydonidan iborat bo'lib, shundan 19 tasi uzumsochdan iborat.</p>	 <p>Merlot, abemet,01/01 ZeroUnoZeroUno Algio, Fior d'arancio, Prosecco, Raboso Frigus zero vsq metodo classico, Grappa serprino</p>	<ul style="list-style-type: none"> - Infotur; - Agroturizm; - Gastronomik turizm; - 50 o'rinli restorant; - hostel; - wine tasting; - kichik konsert "open air"
 <p>Azienda Agricola La Roccola Via Diestronate 10, Cinto Euganeo Padova email: lacrocola@libero.it Tel: +39 0429 94298</p>	<p>"La Roccola" fermer xo'jaligi Euganean Hills parkida, Cinto Euganeo hududida, Cinto tog'ining etagida joylashgan. Sharobni birinchi ishlab chiqarishni 1982 yilda boshlagan. 17x maydoni 25 gektarni tashkil etadi, shundan 20 tasi vulqan tuproqlarida uzumsochlar va 2 tasi zaytun daraxtlari uchun ishlatiladi.</p>	 <p>Quintre, Rosamunda, Serprino, Caovilla, Epilogo, Maroneria, Il Brigante</p>	<ul style="list-style-type: none"> - Infotur; - Agroturizm; - Gastronomik turizm; - Noholat va tushlik uchun kichik o'rinli restorant; - 40 kishilik mehmonxona; - wine tasting; - meva "meva"
 <p>Il pianzio di selmin snc. Agr. Via Pianzio, 66 - 35030 Gabzignano Terme (PD) Tel/Fax +39 049 9130422 Cell. 393 699836</p>	<p>Kimyoniya 15 gektar yeritashkil etadi, ulardan 12 tasi uzumsochlar ekilgan. Uzunlarning ko'p qismi Valle del Pianzio (Jozepaniyaning shahar-kvartirasi) ga ekilgan, bu asosan qizil nahkto'sha buy, mayin tuproq tufayli oq sharob uchun juda mosdir.</p>	 <p>Serprino Frizzante, Merlot, Pianzio Aromatico Moscato KGT Veneto, Cabernet Sauvignon "Jemio", Corbinello Vino Spumante Rosso, Eremo va boshqalar.</p>	<ul style="list-style-type: none"> - Infotur; - Agroturizm; - Gastronomik turizm; - uzum terish; - barbekyu; - wine tasting

<p>info@ilpianzo.it http://www.ilpianzo.it</p>  <p>Borin vini e vigne S.R.L. di Gianni datt. Borin e C. Via dei Colli, 5 - 35043 Monselice (PD) Tel. +39 0429 74384 Fax +39 0429 75282 mail: info@ilpianzo.it www.ilpianzo.it</p>	<p>Anka Petrakalagi baland tepaliklarda va tepalik etagida joylashgan zonada joylashgan. Borinlar miksi 1963 yildan beri o'zlarini 30 gektar (75 ak) uzumzorlar maydonida tek uzumlarini yetishtirib, vino ishlab chiqarishadi. Uzun taqdiri ostidagi tuproqlarning tuzilishi va havo hodisalarining ta'siri asosiyatlaridan kelib chiqqan holda juda xilma-xil.</p>	 <p>Bianco Dei Manderli, Archino, Vigna Bianca, Vigna Costa, Focento, Serprino, Fior d'Arancio, Rocca Chiara, Coldivalle, Sette Chiesette, Chardonnay va boshqalar.</p>	<ul style="list-style-type: none"> - Infotur; - Agroturizm; - Gastronomik turizm; - wine tasting
 <p>TURETTA CA' BIANCA Azienda Vitivinicola e Agrimistica Via Cinto S - 35030 Cinto Euganeo (PD) Tel. +39 0429 94288 - Fax 0429 647507 info@turettacabianca.it www.turettacabianca.it</p>	<p>Turetta - Ca' Bianca vino zavodi Cinto Euganeo shahridagi Euganeo Hills Regional Park markazida joylashgan. Bog'ning yon bag'rida, milga tegishli bo'lgan 25 gektar uzumzorlar, vulqan tuproqlarining minerali, quyoshga ta'siri ta'sir qilish va tabiatga muallimlar bilan o'stiriladigan ekish usullari yashil aks etirilgan. Vinodan tashqari qo'shimcha bog'doy, zaytun moyi, kashnara, mekaron mahsulotlari ishlab chiqariladi.</p>	 <p>Serprino, Fior d'Arancio Secco, Passo Santa Lucia, Fior d'Arancio Passito, Fior d'Arancio Spumante, Serprino Millesimato, Rosato, Rocca dei Briganti, Rittschino 42, Barozzo va boshqalar.</p>	<ul style="list-style-type: none"> - Infotur; - Agroturizm; - Gastronomik turizm; - wine tasting; - ta'limlar tashkil etish; - ta'lim va kasbiy ta'limni tashkil qilish; - restoran; - kam o'rinni mehmonxona
 <p>Azienda Agricola Salvan - Vigne del Pignone Via Mincaza, 143 35020 Dme Carrare (PD) info@salvan.it +39 049 525841</p>	<p>Po Vodiyidagi mollar singari ajralib turadigan "Muviy tog'larda" joylashgan. Salvan viloyati 1914-yildan buyon 70.000ga yaqin vino turlarini ishlab chiqaradi. Hozirgi kunga kelib uzum maydonlari 2.500 gektarni tashkil qiladi.</p>		<ul style="list-style-type: none"> - Infotur; - Agroturizm; - Gastronomik turizm; - wine tasting; - ta'limlar tashkil etish;

1-jadval. Venetoda tashkil etilgan vino klasterlari ta'g'irida mu'ammot

Manba: Tadqiqot natijasida muallif tomonidan tayyorlandi.

Italiya agroturizm faoliyatining ortib borayotgan muvaffaqiyati bir necha omillarga bog'liq. Ko'pgina qishloq joylarini tavsiflovchi ko'p qirrali va o'ziga xos tarixiy, madaniy landshaft va ekologik elementlarni alohida ta'kidlash kerak. Biroq, bu elementlar muvaffaqiyat omillari emas, shu bilan birga, uy xo'jaligining shaxsiy agroturizm loyihasini ishlab chiqishda muayyan strategik qarash talab qilinadi: turizm xizmatlarining o'ziga xos savati va marketing strategiyasi ham fermer xo'jaliklarida, ham fermer xo'jaliklarida moslashtirilgan bo'lishi kerak. oilaviy xo'jalik tuzilishi va turistik oqimlarni jalb qila oladigan hududiy elementlari. Muvaffaqiyatli strategik qarashlar ko'p hollarda fermer xo'jaligining individual strategiyasidan tashqariga chiqadi, lekin bir xil hududda faoliyat yurituvchi turli agentlar o'rtasidagi tarmoq tashabbuslariga asoslanadi (masalan, «sharob yo'li» holatlari). Agroturizm faoliyati birlamchi dehqonchilik faoliyatidan butunlay boshqacha malaka va boshqa boshqaruv yondashuvini talab qiladi.

Italiya misoli bilan dala va qiyosiy tadqiqotlarni shakllantirish, quyidagi agroturizm tadbirlari hududiy maqsadli agroturizm dasturlariga kiritilishi mumkin:

1. Qishloqlarda faol dam olish zonalarini tashkil etish. Xususan, qishloqlardagi so'lim, so'lim maskanlarda dam olish maskanlarini tashkil etish zarur. Bundan tashqari, otlar, tuyalar, piyoda yurish, baliq ovlash, turli sport turlari (tennis, suzish) va ekskursiyalar (uzumzorlar, mevali bog'lar), toqqa chiqish va velosiped o'yinlari tashkil etilishi mumkin;

2. Qishloq joylarda turli qishloq xo'jaligi mahsulotlari yarmarkalarini, mahalliy va xalqaro anjumanlar, festivallar (bayramlar, xalq og'zaki ijodi), hunarmandchilik buyumlarini tashkil etish mumkin;

3. Qishloq joylarda gastronomik turizmni yo'lga qo'yish. O'zbek milliy taomlarini tayyorlashda faol ishtirok etib, uni joyida tatib ko'rish sayohatchilarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Qishloqlarda qovun, qovoq, non bayramlari qishloqqa sayyohlar oqimini oshiradi. Qishloqlarda enoturizm (vino

degustatsiyasi)ni yo'lga qo'yish orqali agroturizmni yanada rivojlantirish imkoniyati ham mavjud.

Toshkent va Samarqand. Dunyo bo'ylab tarqalgan "vino yo'llari", "pishloq yo'llari" va hokazolarni ma'lum bir hududning qishloq xo'jaligi mahsulotiga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari va agroturizmlari o'rtasida tarmoq yaratish va turizmni amalga oshirish uchun misol qilib olish mumkin. qishloq joylariga sayohat paketlari.

4. Fermer xo'jaliklarida o'quv kurslari va seminarlar tashkil etish. Ushbu kurslarni tashkil etish fermerning faoliyati bilan bog'liq. Masalan, bog'dorchilik, asalarichilik, pazandachilik, vinochilik bo'yicha degustatsiya kurslarini tashkil qilish mumkin. Bundan tashqari, sayyohlar qishloq xo'jaligi ekinlarini yig'ishtirib olishda bevosita ishtirok etishlari mumkin.

5. Mamlakatning qishloq joylarda agroturizm faoliyatining yana bir muhim yo'nalishi qishloq xo'jaligi muzeylari va tabiat bog'larini tashkil etishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Tourist Clusters, Destinations and Competitiveness, Theoretical issues and empirical evidence, edited by Francesco Capone, Routledge Taylor and Francis Group, London, New York, 2016

2. Székely V., Tourism clusters as a tool for the improvement of rural competitiveness: first experiences from Slovakia, European Rural Development Network Studies, Rural Areas and Development, 2010, Volume 7pp.109- 120.

3. Александрова А.Ю. Туристские кластеры: содержание, границы, механизм функционирования // Современные проблемы сервиса и туризма. 2007. № 1. С. 51–61. DOI: 10.12737/ issn. 1995-0411.

4. <https://www.statista.com/statistics/801047/europe-share-of-population-skiing-by-country/>

5. <https://www.worldwidewinetours.com/italy/>

6. <https://italianwinecentral.com/resources/facts-figures/>

7. <https://italianwinecentral.com/top-fifteen-wine-producing-countries/>

8. <https://www.winemonthclub.com/the-wine-making-process> 31.05.2020

AUTIZM SPEKTORLI BOLALARNI TARBİYALANAYOTGAN OILADAGI MUAMMO VA YECHIM

*Abidova Nazokat Qutbiddinovna,
Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrası dotsenti, PhD*

Annotatsiya: Mazkur maqolada oilada autizm spektorli o'quvchilarning tarbiyalash mazmuni yoritiladi. Maqolada autizm spektori buzilgan bolalar tarbiyalanayotgan oiladagi muammolar yechimi tahlili amalga oshirilgan. Autizm spektorli bola bor oila avayaqinlarning munosabatlari, ota-onaning bola tarbiyalashda e'tibor berishi lozim bo'lgan masalalar yuzasidan mulohazalar berilgan. Bolaning atrof-muhitga moslashishida oilaning o'rni masalasi tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: Autizm, oila, ota-onalar, pedagog, autizm spektorli bolalar, samarali usullari, korreksion-pedagogik reabilitatsiya, psixologik-pedagogik ish, muammo, yechim

ПРОБЛЕМА И РЕШЕНИЕ В СЕМЬЕ, ВОСПИТЫВАЮЩЕЙ ДЕТЕЙ С АУТИЗМОМ СПЕКТРОМ

*Абидова Назокат Кутбиддиновна,
Доцент кафедры образования Университета Кокан, доктор философии*

Аннотация: В данной статье описано содержание воспитания детей с аутистическим спектром в семье. В статье анализируется решение проблем в семье, где воспитываются дети с расстройствами аутистического спектра. Даны комментарии о взаимоотношениях семьи и родственников ребенка с расстройством аутистического спектра, вопросы, на которые родителям следует обращать внимание при воспитании ребенка. Изучен вопрос о роли семьи в адаптации ребенка к окружающей среде.

Ключевые слова: аутизм, семья, родители, педагоги, дети с аутизмом, эффективные методы, коррекционно-педагогическая реабилитация, психолого-педагогическая работа, проблема, решение.

PROBLEM AND SOLUTION IN A FAMILY RAISING CHILDREN WITH AUTISM SPECTRUM

*Abidova Nazokat Kutbiddinovna,
Associate Professor, Department of Education, Kokan University, Ph.D*

Abstract: This article describes the content of raising children with autism spectrum in the family. The article analyzes the solution of problems in the family where children with autism spectrum disorders are raised. Comments are given on the relationship between a family and relatives of a child with autism spectrum disorder, issues that parents should pay attention to when raising a child. The question of the role of the family in the adaptation of the child to the environment has been studied.

Key words: autism, family, parents, teachers, children with autism, effective methods, correctional and pedagogical rehabilitation, psychological and pedagogical work, problem, solution.

Jismoniy yoki psixologik jihatdan har qanday anomaliyaga ega bo'lgan bolaning paydo bo'lishi oila a'zolarining jiddiy psixologik va ijtimoiy qiyinchiliklarga duch kelishiga olib kelishi mumkin. O'z navbatida, bu nafaqat ota-onalarning o'zlari, balki yaqin qarindoshlar uchun ham eng og'ir tajribalarga olib keladi - oilaviy munosabatlar va aloqalar tuzilishi buziladi, bu esa oilaning buzilishiga olib kelishi mumkin. Oiladagi qayg'u tajribasi bolaning tashxisi bilan tugamaydi, balki butun hayoti davomida unga hamroh bo'ladi. Har qanday voqea - bu bayram yoki tadbirgaga sayohat - hamma narsa bolaning holatini eslatadi. Bolaning ota-onasi «hamma kabi emas» doimiy umidsizlik va halokat holatida yashaydi. Bunday maxsus bolaning rivojlanishi bilan uning sog'lom bo'lishi mumkinligiga umid yo'qoladi - axir, tashxis xato bo'lishi mumkin.

Autizm spektori buzilgan bolalar tarbiyasida oila muhiti muhim rol o'ynaydi: ba'zi qarindoshlar oilani qo'llab-quvvatlashga va rag'batlantirishga harakat qilishadi, boshqalari esa o'zini qanday tutishni bilmasligi sababli aloqa qilishdan qochishadi. Bu ko'pincha qarindoshlar va do'stlar bilan munosabatlarga,

shuningdek, turmush o'rtog'lar o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir qiladi[3.-98.b.].

Natijada, ota-onalar doimo umidsizlik va noaniqlik hissini boshdan kechirishadi. Bu his-tuyg'ular o'z hayotidan surunkali norozilikka aylanadi, bu esa ota-onalarning farovonligiga salbiy ta'sir qiladi.

Autizm spektori buzilgan oilani tavsiflashda, ta'limotlar bunday bolaning moslashishi va ijtimoiylashuvida ko'p narsa oiladagi munosabatlarning to'g'ri turiga bog'liqligini aytadi. Bundan tashqari, oila a'zolari o'zlarining autizm spektori buzilgan farzandlarini tushunishni o'rganishlari kerakligi va ular qanchalik tez tushunishni o'rganishlari va shuning uchun unga yordam berishlari bolaning o'ziga emas, balki ota-onalarning o'ziga bog'liq[1.-34.b.]. Ota-onalar o'z ustida ishlash va psixologik qobiliyat darajasini oshirish, albatta, bolaning ahvolini engillashtiradi. Shuningdek, autizmi bolani tarbiyalayotgan oilalarning uch turi mavjud:

- Birinchi turdagi - o'zlarining autistik tendentsiyalarini moslashtirgan yoki sezmagani va (yoki) autizmni hodisa sifatida belgilamaydigan - bunday oilada ota-onalar «autizm» so'zini bilishmaydi, ular hech qachon tibbiy yordamga murojaat qilmaganlar va davom etishgan. ularning mutlaqo normal farzandi borligidan kelib chiqib, biroz g'alati;

- Ikkinchi tur - oiladagi autizmni hodisa sifatida belgilash, lekin eng autistik oila a'zosining psixiatrik nogironligiga qarshilik ko'rsatish;

- Uchinchi tur - oila a'zolaridan birini bemor sifatida katta psixiatriyaga topshirish - bunday oilada eng autistik oila a'zosi butunlay nogiron bo'lib qoladi.

Autizm spektrining buzilishi bo'lgan bolani tarbiyalayotgan oilaning muammolari haqida gapiradigan bo'lsak, psixologik, ijtimoiy, iqtisodiy muammolarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Bu muammolar yig'indisi sifatida ko'rib chiqiladi, har bir tarkibiy qism sifatida boshqasiga o'tib, «maxsus» oila hayotining umumiy jihatini tashkil qiladi. Psixologlar va o'qituvchilarning fikriga ko'ra, eng qiyin oilaviy muammolardan biri bu qarindoshlarning salbiy munosabati sanaladi. Taxmin qilish mumkinki, bunday munosabat autizm tushunchasi va kelib chiqishida, shuningdek, bunday bolaning keyingi yordami, tarbiyasi va hayotida nodonlik davrida paydo bo'ladi. Shuningdek, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, favqulodda muammolarga duch kelgan har bir bunday oila surunkali stressni boshdan kechiradi, uning og'irligi ahvolning og'irligi va bolaning yoshiga bog'liq bo'ladi[4.-45.b.].

Stress onalarda ko'proq namoyon bo'ladi, ular o'zini juda past baholaydilar, shaxsiy erkinlik va vaqtni qattiq cheklaydilar. Ular tabiatan onalikdan norozi bo'ladi. Bunday bolalarning onalari ko'pincha o'z vazifalarini yaxshi bajarmayotganini his qilishadi. Surunkali stressning onaga ta'siri depressiya, asabiylashish va hissiy taranglikni keltirib chiqaradi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ona va autizmi bola o'rtasidagi munosabatlar uning ruhiy holatiga bevosita kuchli ta'sir qiladi. Bu simbioz bola tug'ilishidan ancha oldin tug'iladi: ona o'z farzandining kelajagiga katta umid bog'laydi, uning atrofida yangi dunyo quradi.

Bola tug'ilgandan so'ng, onasi uni rag'batlantirmasligini seza boshlaydi: u unga tabassum qilmaydi, ko'zlariga qaramaydi, u bilan yaqin aloqada bo'lishni yoqtirmaydi, ba'zida uni boshqa odamlardan farq qilmaydi. Shunday qilib, bola unga boshqa har qanday ona uchun odatiy bo'lgan zarur hissiy munosabatni, muloqot quvonchini bermaydi, uning dam olishiga ham, ham ma'naviy, ham jismoniy hissa qo'shadi. Bola bilan bunday yaqin aloqada bo'lgan har bir oddiy ona kundalik yuk va tashvishlarni engadi.

Shu sababli, autizmi bolaning onasida ruhiy tushkunlik, asabiylashish va hissiy charchoqning namoyon bo'lishi juda bilan ifodalanadi: bolaning ijtimoiyligi tufayli ona o'z hayotidan norozilikni to'playdi, bu ijtimoiy va kasbiy vazifalarni bajarmaslikda namoyon bo'ladi.

Xuddi shu turdagi zo'riqishni autistik bolaning otasi ham boshdan kechiradi. U psixologik tajribalarga duchor bo'ladi, masalan: aybdorlik, halokat, ota rolidagi muvaffaqiyatsizlik, bu otaning bolasi bilan vaqt o'tkaza olmasligi, uning qobiliyatlari va qobiliyatlarini o'tkaza olmasligi, norozili, otasi bilan aloqada bo'lgani kabi qiziqish belgilarini ko'rsatmaslik va u bilan mashg'ulotlarda.

Yuqorida aytib o'tilganidek, bolaga eng yaqin bo'lgan oila a'zosining, aksariyat hollarda bu onaning kasbiy mavqei pasayadi va oilaviy tashvish va mas'uliyatdan uzoqlashish va ba'zi hollarda bolalarning ichkilikbozligi tufayli kasbiy faollik kuchayadi, ota va oilani tark etish yuzaga keladi.

O'z navbatida, ota-onalarning hissiy holati, odatda, autizmi bolaning hayoti va sog'lig'iga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Balanssizlik, nevroz, tajribalar bola bilan yaqin aloqani o'rnatishga to'sqinlik qiladi. Ota-onalar autizmi bolaning ehtiyojlariga etarlicha e'tibor bermaydilar, ko'pincha ular na uning

salohiyatini, na muhim ehtiyojlarini, na so'rov va istaklarini ob'ektiv baholay olmaydilar. Albatta, bu bolaga ham, ota-onaga ham juda salbiy ta'sir qiladi[1.-23.b.].

Qaytarib bo'lmaydigan oqibatlariga yo'l qo'ymaslik uchun bunday oilada yuzaga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun o'z vaqtida mutaxassislariga (psixolog, nevrolog) murojaat qilish kerak. Oiladagi iliq va qulay muhit autizimli bolalarning ijtimoiy moslashish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi, bu esa, o'z navbatida, ota-onalarda depressiya, asabiylashish va hokazolarning namoyon bo'lishini istisno qiladi.

Biz autizm spektrli farzandlarni tarbiyalanayotgan ota-onalarning barcha muammolarini umumlashtirishimiz mumkin:

stress, ruhiy tushkunlik, hayotning ma'nosini yo'qotish, kelajak qo'rquvi (bola bog'chadan, maktabdan keyin qayerga boradi, ota-onasi vafotidan keyin bola bilan nima bo'ladi), yolg'izlik hissi;

oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlardagi kelishmovchilik;

nafaqat bolaning, balki barcha oila a'zolarining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi qat'iy rol pozitsiyalari;

haddan tashqari himoyalash; bolaga nisbatan xatti-harakatlarning nomuvofiqligi, nomuvofiqligi;

oila a'zolari o'rtasida tarbiya masalalari bo'yicha kelishmovchilik va nizolar;

turmush qurgan juftlikdagi munosabatlardagi muammolar, erkakning boladan voz kechishi;

Oilaning ijtimoiy o'zini-o'zi izolyatsiyasi, ijtimoiy doiraning keskin o'zgarishi, boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlardagi muammolar, do'stlarni yo'qotish. Shuning uchun bunday oilalar bir-biri bilan muloqotga muhtoj. Ota-onalarning o'zaro ijobiy muloqoti, psixolog bilan birgalikdagi suhbatlar kelishmovchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi, ota-onalarga yolg'iz emasligini his qilish imkonini beradi, hamma uchun umumiy muammolarni hal qilish yo'llarini yordam beradi;

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitishga oid adabiyotlarning yo'qligi yoki yetarli emasligi sababli ota-onalarning bexabarligi, shundan kelib chiqadiki, ota-onalar autizimli bola bilan muloqot qilish ko'nikmalariga ega emaslar;

Charchoq, hayotga qiziqishning yo'qligi. Ota-onalarning «muhlat»ga muhtojligi, o'z vazifalaridan qisqa dam olish, bolani ishonchli muhitga o'tkazish uchun kuniga soatlab azob chekish;

Kasbiy qoniqmaslik;

Bolaning manfaatlariga qaramlik;

Har bir oila a'zosi psixologik muammolarni boshdan kechirishi bilan bir qatorda, ma'lum bir oilaviy muammo mavjudligini ham ta'kidlash kerak. Uning mohiyati oilaning bolaning ahvoriga, uning o'ziga xos ehtiyojlari va kelajak istiqbollari qanday munosabatda bo'lishidadir. Ba'zi oilalar farzandining ahvolini falokat, yengib bo'lmaydigan to'siq sifatida qabul qiladilar va buning uchun keyinchalik o'zlarini ayblashadi. Shu sababli, ko'plab psixologlar ota-onalarning autistik bolasini idrok etadigan g'oyasini o'zgartirish kerakligini ta'kidlaydilar.

Bugungi kunda bolalar autizmi sohasida ko'plab tibbiy, psixologik va maxsus pedagogik tadqiqotlar olib borilayotganligiga qaramasdan, tan olish joizki, tashqi belgilarga ko'ra, birdaniga tashxis qo'yish murakkabdir. Shu boisdan ham autizm belgilari ilk namoyon bo'lgan davrdanoq ota-onalarning mutaxassislar bilan faol hamkorlik qilishlari zarur bo'ladi. Autizm spektrida buzilishi bo'lgan bolalar, boshqa imkoniyati cheklangan bolalar kabi oila uchun kutilmagan muammolarni, jumladan, ota-onalar uchun bir qator stressli holatlarni keltirib chiqaradi. Bunday holatlarga asosan, bolaning dastlabki rivojlanish davridagi parvarishi va tarbiyasi uchun mas'ul deb qaraladigan onalar duch keladilar. Onadagi bola rivojlanish xususiyatlari haqida yetarli bo'lmagan tasavvur, bilim va ko'nikmalar, unga va o'ziga nisbatan ishonchsizlik, shuningdek, oiladagi boshqa a'zolarining, yaqinlar va atrofdagilarning bolaga bo'lgan noodatiy munosabatlari, uni to'g'ri qabul qilolmasliklari asosiy sabablarni tashkil etadi. O'z navbatida otalarning stress holati ona kabi bevosita emas, balki, oiladagi psixologik muhitning salbiy tomonga o'zgarishi, onadagi ruhiy zo'riqishlar natijasida bevosita tarzda yuzaga keladi. Oila barqarorligi va bolaning keyingi rivojlanishi uchun salbiy ta'sir ko'rsatadigan jihati, bu stressning surunkali holatga

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytganda, ota-onalardan autizimli bolalarning oiladagi to'g'ri tarbiyasi uchun quyidagilar talab etiladi:

- Bolani fojea sifatida qabul qilmaslik, uning o'ziga xos xususiyatlari bilan birga betakror ekanligini tushunib yetish, unga mehr berish va qadrlash, bola tashxisini uning bir qismi sifatida, aslida uning xali ochilmagan va kelajakda namoyon etishi mumkin bo'lgan ijobiy jihatlari va qobiliyatlari borligiga

ishonish;

- Bolani mutaxassislariga olib borish, ular bilan rivojlanishining barcha jarayonlarini erinmay maslahatlashish, ularning tavsiyalariga va ko'rsatmalariga doimiy amal qilish;
- Bola haqidagi qarashlarini hamma bilan ham o'rtoqlashmaslik, asoslanmagan maslahatlarni, tavsiyalarni bolaga qo'llamaslik, shu bilan birgalikda, boladagi nuqsonlar sabab ijtimoiy va boshqa munosabatlardan uzilib qolmaslik;
- Bolaning ijobiy xatti-harakatlarini qo'llab-quvvatlash, unga ma'lum ko'nikmalarni egallashida erinmay yordam berish, yutuqlarini rag'batlantirish va bu jarayonda oilaning barcha vakillarining faol qatnashishlariga erishish;
- Autizmli bolalar tarbiyasi murakkab jarayon bo'lganligi sababli, ko'p kuch va harakat talab etishini anglagan holda mavjud imkoniyatlarni, jumladan, vaqt, oila moddiy va ma'naviy imkoniyatlarini to'g'ri rejalashtirish va taqsimlash;
- Bolani unga qulay bo'lgan vaziyatlarda ijtimoiylashuvi uchun zarur qadamlarni qo'yish (sayrga olib chiqish, mehmonga olib borish, o'zi kabi bolalar yoki unga xayrixoh bo'lgan yaqin qarindoshlarning farzandlari ishtikida tug'ilgan kunini nishonlash va sh.k.), muloqot muhitini asta-sekin kengaytirib borish;
- Muhim jihatlaridan biri esa, bolaning ta'lim olishi bo'lib, bu masalada mutaxassislar bilan imkon qadar barvaqt maslahatlashish foydadan holi bo'lmaydi. O'z navbatida ota-onalar imkoniyati cheklangan bolalar ta'limi va inklyuziv ta'lim borasida ham to'laqonli ma'lumotlarga ega bo'lishlari zarur bo'ladi.

Adabiyotlar

- Xamidova.M.U. Maxsus pedagogika (Mutaxassislikka kirish) - T.: Fan va texnologiyalar, 2018.
- Raxmanova V.S. Maxsus pedagogika - T.: G'afur G'ulom, 2004.
- Maxsus pedagogika (darslik). R.M.Ro'latova, L.Sh.Nurmuxammedova, D.B.Yakubjanova, Z.N.Mamarajabova, Sh.M.Amirsaidova, A.D.Sultonova. - T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2014. - 520 b
- Po'latova P. Maxsus pedagogika. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa-ijodiy uyi, 2005. – 223 b.
- Maxsus psixologiya L.R.Muminova, Z.N.Mamarajabova, D.B.Yakubjanova, Sh.M.Amirsaidova - T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2014. - 520 b

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARINING BOSHLANG'ICH SINFLARIDA SHAXMATNI O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHLTLARI

*Axunjonov Alisher Toshtemirovich,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti mustaqil
izlanuvchisi*

Аннотация: Мақоллада умумий о'рта та'лим муассасаларининг бoshlang'ich sinflarida shaxmatni o'qitishning o'ziga xos jihatlari haqida fikr yuritilgan. Ushbu maqolada umumiy o'рта ta'lim muassasalarida boshlang'ich sinflarda shaxmatni o'qitishning o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Shaxmatning o'quv dasturiga integratsiyalashuvi kognitiv rivojlanish, xotirani yaxshilash, matematik ko'nikmalarni oshirish va diqqatni jamlashni o'z ichiga olgan muhim ta'lim afzalliklarini taqdim etadi. Shaxmat bo'yicha ta'limni samarali kiritish uchun darslar bosqichma-bosqich tuzilishi va mavjud ta'lim standartlariga mos kelishi kerak, shu bilan birga fanlararo ta'limni rag'batlantirish kerak.

Kalit so'zlar: Shaxmat, didaktik vosita, ta'lim sifati, o'quv-mavzuiy reja, o'quv mashg'ulot, psixologik jarayon, xotira, sezgirlik, idrok, tasavvur, tanqidiy fikrlash

SPECIFIC ASPECTS OF TEACHING CHESS IN PRIMARY CLASSES OF GENERAL SECONDARY EDUCATION INSTITUTIONS

*Akhunjonov Alisher Toshtemirovich,
independent researcher of the Scientific Research Institute of Pedagogical Sciences of Uzbekistan
named after T.N. Kori Niyoz*

Abstract: The article discusses the specific aspects of teaching chess in primary classes of general secondary educational institutions. This article describes the specific aspects of teaching chess in elementary schools in general secondary educational institutions. Integrating chess into the curriculum offers significant educational benefits, including cognitive development, improved memory, increased math skills, and increased focus. In order to effectively integrate chess education, lessons should be structured step-by-step and aligned with existing educational standards, while interdisciplinary learning should be encouraged.

Key words: Chess, didactic tool, quality of education, curriculum, training, psychological process, memory, sensitivity, perception, imagination, critical thinking

ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ ШАХМАТАМ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ СРЕДНИХ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

*Ахунджонов Алишер Тоштемирович,
независимый научный сотрудник Научно-исследовательского института педагогических
наук Узбекистана имени Т.Н. Кори Ниёзи.*

Аннотация: В статье рассматриваются особенности преподавания шахмат в начальных классах общеобразовательных учреждений. В данной статье рассмотрены особенности преподавания шахмат в начальных школах средних общеобразовательных учреждений. Интеграция шахмат в учебную программу дает значительные образовательные преимущества, включая когнитивное развитие, улучшение памяти, улучшение математических навыков и повышенную концентрацию внимания. Чтобы эффективно интегрировать шахматное образование, уроки должны быть структурированы шаг за шагом и приведены в соответствие с существующими образовательными стандартами, при этом следует поощрять междисциплинарное обучение.

Ключевые слова: Шахматы, дидактическое средство, качество образования, учебная программа, обучение, психологический процесс, память, чувствительность, восприятие, воображение, критическое мышление.

Bugungi kunda jamiyat va iqtisodiyotning tadrijiy ravishda rivojlanib borayotganligi ta'lim sohasidagi ishlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqishni kun tartibiga qo'yimoqda. Buning uchun umumiy o'рта ta'lim maktablarida boshlang'ich sinfdan boshlab ta'lim sifatini takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy

pedagogik ishlarni amalga oshirish zarur.

O'rganishlarimiz tasdiqlamoqdaki, dunyo tajribasida shaxmatni ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir etuvchi didaktik vositalardan biri sifatida maktablarning o'quv dasurlariga kiritilmoqda.

Bir qator yetakchi olim va mutaxassislarining shaxmatga bag'ishlangan tadqiqotlarida shaxmat o'quvchi shaxsining muayyan xususiyatlarini maqsadli rivojlantirishi o'z tasdig'ini topgan. Shu o'rinda tadqiqotchilarning quyidagi fikrlarini keltiamiz.

A.X.Maxmudov "Shaxmat-bu birinchi navbatda o'yin ekanligini, ushbu o'yin o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini faol shakllantira olishini" ta'kidlagan[1].

V.V.Knyazova "Shaxmat insonda tasavvurni va tahlil qilishni rivojlantirishini, fikrlash va diqqatni maxsus shakllarini hamda muhimlikni ajratishni, muammoni yechim variantini tanlashni, mustaqil ijod qilishni, faol bo'lishni, vaqtni sezishni, o'zini harakati uchun javobgarlikni his qilishni, qat'iyat bilan tura bilishni, matematik va boshqa maxsus qobiliyatni, estetik didni tarbiyalaydigan maxsus shakllarni o'zida mujassam etgan didaktik vosita ekanligini" e'tirof etgan[2].

Mary Rose Basson o'zining ilmiy manbasida «Shaxmat – bu uzoq an'anaga ega, sof mahoratga asoslangan yuqori ko'rgazmali, raqobatbardosh va murakkab o'yin. Bu odatda muhim kognitiv va intellektual jihatga ega bo'lgan o'yin sifatida qaraladi va shuning uchun ko'plab mamlakatlardagi ta'lim muassasalarida shaxmatni o'quv jarayoniga kiritish targ'ib qilinishini" bayon etgan[3].

V.Ye.Anisheva o'zining dissertatsiyasida quyidagi fikrlarni keltirgan: "Shaxmat mashg'ulotlarida shaxmatni o'rganishni boshlagan o'quvchilarni shaxsiy va yosh xususiyatlarini hisobga olish kerak. Chunki 6-7 yoshdan boshlab o'quvchilarda xotira, diqqat, fikrlash kabi psixologik jarayonlarni rivojlantirish juda muhim hisoblanadi. Murabbiy esa bu sifatlarni rivojlanishiga maqsadli ta'sir ko'rsatish, o'quvchiga o'zini shaxmatchi sifatida to'laqonli anglashiga yordam berish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur. Tadqiqot shaxmatni o'qitishni individuallashtirish bolada rivojlanishi mumkin bo'lgan xotira, fikrlash va diqqat kabi psixologik jarayonlarni aniqlash imkonini beradi"[4].

A.A.Kalinichev, V.A.Kudryavtsevlar natijani muvaffaqiyatli ta'minlash va shaxmat o'ynash mahoratini rivojlantirish uchun dars mashg'ulotlarini 3-sinfdan boshlashni tavsiya etadi[5].

Yuqorida bildirilgan fikrlarga ko'ra, ilmiy tadqiqot olib brogan olim va mutaxassislar umumiy o'rta ta'lim maktablarida shaxmatni o'qitishni boslag'ich sinflardan boshlash maqsadga muvofiq ekanligini tasdiqlamoqda.

Mamlakatimida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi PQ-4954-son qaroriga asosan 2021-2022 o'quv yilidan boshlab tanlab olingan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 2-,3-,4-sinflardan boshlab o'quvchilarga shaxmatni o'qitish yo'lga qo'yildi.

Kasbiy konsultatsiyaning bashorat qilish funksiyasi talabalarning u yoki bu faoliyat turi bo'yicha o'zlashtirish darajasini bashorat qilishga qaratilgan – kasbiy tanlov, kasbiy muvofiqlikni aniqlash.

Kasbiy tanlov deganda o'quvchilar uchun ta'lim va kasbiy faoliyatning maqbul turlarini tanlash uchun qobiliyatlarni, shaxsiy xususiyatlarni, olingan ko'nikmalarni tekshirish tushuniladi.

Umumta'lim maktabiga kelsak, o'quvchilarga oldindan tayyorgarlik kurslari yoki o'quv profilini tanlashda psixologik maslahat yordami ko'rsatish mohiyatan kasbiy tanlash tartibi hisoblanadi.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarining asosiy vazifalaridan biri – o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyatda faol ishtirok etish va faoliyatga tayyorlashdir. Kasb-hunarga yo'naltirish - o'quvchilarning kasb-hunar va mehnat bilan bog'liq rejalarini tuzish, kasb-hunar va mehnat faoliyati sohasini tanlash jarayoniga rahbarlik qilish demak. Bundan kelib chiqadiki, kasb-hunarga yo'naltirish maktab faoliyatining ajralmas qismidir. Bu nafaqat maktabning, balki barcha o'quvchi yoshlar ta'lim-tarbiyasiga ma'sul ijtimoiy insitutlar, shu jumladan, oila, mahalla, davlat tashkilotlari, yoshlar ittifoqi va boshqalarning asosiy vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Sh.M.Mirziyoevning 2023 yil 24 avgustda Samarqand viloyatiga tashrifi davomida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida so'zlagan nutqidan. <https://president.uz/uz/lists/view/6610>

Sh.M.Mirziyoev rahbarligida 2023 yil 20 yanvarda "Maktablarda ikkita xorijiy tilga o'qitish hamda bitta kasbga o'rgatish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi nutqidan. <https://president.uz/uz/lists/view/5830>

"O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida". Vazirlar Mahkamasi qarori. 12.07.2019yil, 577-son.

"O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". Prezident Farmoni. 06.11.2020 yil, PF-6108.

"Ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". Prezident Qarori. 08.07.2021 yil, PQ-5140.

MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI SHAROITIDA BOLALARNING HARAKAT POTENSIALINIRIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Masharipova Miyassar Ichanovna,
Urganch davlat universiteti dotsent

Annotatsiya: Sog'lom bolani tarbiyalashda eng muhim vositalardan biri jismoniy mashqlar, harakatli o'yinlar va sport ko'ngilochar o'yinlari sanaladi. Boladagi jismoniy sifatlar, harakat ko'nikma va malakalari rivojining zarur hamda etarli darajasini ta'minlovchi jismoniy imkoniyatlarning tabiiylikka muvofiq va individual - mos tarzda rivojlantirilishi, maktabgacha yoshdagi bolalarga jismoniy umumiy tarbiyaga oid ma'lumotlarni berish, bunda ularning jismoniy tarbiyasiga oid aqliy, texnologik, axloqiy, etik va estetik qadriyatlarni o'zlashtirishiga erishish, bilimlarning mustaqil mashg'ulotlar o'tkazishning boshlang'ich ko'nikmalari darajasida dolzarblashuvi.

Kalit so'zlar: Jismoniy mashqlar, harakat ko'nikma, malaka, harakatli o'yinlar, jismoniy sifatlar, kuch, tezkorlik, chaqonlik, egiluvchanlik, chidamlilik, texnologik, aqliy, axloqiy, etik, estetik

ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ДВИГАТЕЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Машарипова Мияссар Ичановна,
Ургенчский государственный университет, факультет спорта и искусств, доцент

Аннотация: Одним из важнейших энергий в воспитании здорового ребенка являются физические упражнения, активные игры и спортивные развлечения. Физическая культура необходима для развития у ребенка физических качеств, умений и навыков, а также естественности и индивидуально-соответствующего развития физической культуры, обеспечивающей питание продуктами питания, предоставление информации по физическому воспитанию дошкольному физическому воспитанию, в том числе овладение физической культурой интеллектуального воспитания технологические, морально-эстетические и эстетические материалы, управление самостоятельным обучением знаний.

Ключевые слова: Физические упражнения, двигательные навыки, умения, двигательные игры, физические качества, сила, скорость, ловкость, гибкость, выносливость, технологические, умственные, моральные, этические, эстетические.

TECHNOLOGY FOR DEVELOPMENT OF THE MOVEMENT POTENTIAL OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Miyassar Ichanovna Masharipova,
Urganch State University, Faculty of Sports and Arts, associate professor

Abstract: One of the most important things in raising a healthy child is exercise, movement games, and sports entertainment. When exercising with children, it is important to monitor their health, appearance, mood, fatigue, appetite, and sleep. Every healthy child should have a medical examination 2-3 times a year. Natural and individual development of physical abilities that provide the necessary and sufficient level of development of physical qualities, monitor skills and abilities in the child, providing information on general physical education to preschool children, including mental, technological, achieving the acquisition of moral, ethical and aesthetic values, the actualization of knowledge at the level of basic skills of independent study.

Key words: Physical exercise, movement skills, skill, movement games, physical qualities, strength, speed, agility, flexibility, endurance, technological, mental, ethical, ethical, aesthetic.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan

yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishdan iborat.

Maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yorlarni shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon hisoblanadi.

Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Maktabgacha tarbiyani insonparvarlashtirish uni yangilash jarayonining asosi hisoblanadi. Olimlar, amaliyotchi mutaxassislarining tobora ko'proq qismi maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash tizimi shaxsga majmual, insoniy ta'sir o'tkazishi, har bir bolaning muntazam va imkon qadar to'la jismoniy rivojlanish huquqi amalga oshirilishini ta'minlashi kerak, degan xulosaga kelmoqdalar.

Bolalarni o'rab turgan muhit o'zgarib bormoqda. Oddiy, sodda o'yinlar o'rniga kompyuter o'yinlari kirib keldi. Bolani aqliy, estetik rivojlantirish ustuvorlik kasb etmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlantirish muammolarini hal etishning yangi yo'llarini izlash, birinchidan, ko'rsatilgan ziddiyatlarni hal etish zarurati bilan, ikkinchidan, o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy tayyorgarligi hamda psixik rivoji jarayonini takomillashtirish qonuniyatlarini, metodologik va usuliy sharoitlarini o'rganish zarurati bilan bog'liq. Ilk go'daklikning jiddiy xususiyati bolaning salomatligi, jismoniy va asabiy-psixik rivojlanish holatining o'zaro aloqasi va bir-biriga bog'liqligidir. Sog'lom, jismonan baquvvat bola kasalliklarga kamroq chalinish bilan birga psixik jihatdan ham yaxshiroq rivojlanadi.

Shunga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalarni jismonan va ruhan sog'lomlashtirish, bolaning harakat sohasini rivojlantirish, chaqqon, kuchli, jasur bo'lishdek hayotiy ehtiyojlar asosida harakatga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishning samarali vositalarini izlab topish dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur muammoning yechimi, bizningcha, yaxlit tarbiya jarayonini, bolaning har bir tomonlama mutanosib, jumladan, jismoniy va shaxsiy rivojini ta'minlovchi ijtimoiy-pedagogik sharoitlar birligini yaratishda. Bunda bolalarning harakat faoliyatini tashkil etishning o'yin shakllari eng qimmatli sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Taniqli psixologlar A.S. Vigotskiy, A.V. Zaporozes, A.N. Leontev, D.B. Elkonin ta'rificha, maktabgacha yoshda o'yin yetakchi faoliyat bo'lib, u tufayli bola psixikasida katta o'zgarishlar yuz beradi. Harakatli o'yin maktabgacha yoshdagi bola uchun eng qulay faoliyat shakli bo'lib, harakatlar ko'nikmasini ongli ravishda takrorlashni ko'zda tutadi (A.V. Zaporozes). Ko'pgina tadqiqotchilar: V.G. Barabash (1999), O.I. Kokoreva, T.I. Osokina, N.V. Poltavseva, Ye.A. Sagadachnaya, E.Ya. Stepanenkova harakatli o'yin tufayli bolalar tabiiy harakat faolligi sharoitida o'z jismoniy va psixik imkoniyatlarini namoyish etib, tengdoshlari bilan murakkab munosabatlarga kirishishlarini qayd etadilar.

Biroq harakatli o'yinlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy sifatlari va psixik jarayonlarini maqsadli rivojlantirish masalasi xususida ayrim ishlarda to'xtalib o'tilgan bo'lsa ham, batafsil so'z yuritilmagan.

Yuqorida bayon etilganlardan ko'rinib turibdiki, maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasida ularni jismoniy sifatlari va psixik jarayonlarini ko'proq rivojlantirishga ko'ra tabaqalashtirish (differensiallash) asosida harakatli o'yinlardan foydalanishga yangi usuliy yondashuvlarni izlash hamda ishlab chiqishga bag'ishlangan ilmiy ishimiz mavzusi juda dolzarb.

Tadqiqot metodologiyasipedagogik loyihalash jarayoni asoslari sifatida insonparvarlik mafkurasidan foydalanish;

mamlakatdagi va chet el olimlarining fiziologiya, psixologiya, tibbiyot, falsafa, pedagogika sohasida bolalarning harakat faoliyatlari hamda psixik rivojlanishi orasidagi o'zaro aloqasi hamda o'zaro munosabati to'g'risidagi qoidalar;

maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi to'g'risidagi nazariy qoidalarning bola tarbiyalash boshqaruvining yaxlit, ko'p tarkibiy qisimli jarayon sifatidagi yig'indisi (Ye.I. Arkin, I.A. Arshavskiy, A.N. Keneman, D.V. Xuxlaeva, T.I. Osokina);

turli nazariy va amaliy soxalarda empirik tadqiqotlar umumiy-ilmiy usulini namoyish etuvchi

tizimli yondashuv;

harakat sifatlarini rivojlantirish nazariyasi (N.A. Bernshteyn, V.M. Zatsiorskiy, R.Ye. Motelyanskaya, V.I. Lyax, N. Panfilova va b.).

harakatli o'yinlarni bola shaxsiga har tomonlama ta'sir ko'rsatuvchi vosita sifatida belgilash (O.N.Kokoreva, L.M. Korovina, N.V. Poltavseva, E.Ya. Stepanenkova, Ye.A. Sagadachnaya).

Tahlil va natijalar Hozirgi vaqtda ko'pgina olimlar va mutaxassislar maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash tizimini jiddiy o'zgartirish zarurati to'g'risidagi masalani kun tartibiga qo'ymoqdalar. Jamiyat hayotining to'xtovsiz o'zgarib turgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, mazkur muammoning yechimiga har bir muayyan maktabgacha ta'lim muassasasidagi turli uslubiy yondashuvlar, bunday bolalarning salomatligi va boshqa sabablar jismoniy sifatlarning ham, psixik jarayonlarning ham rivojlanishiga xos yosh dinamikasiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun tadqiqotimizning birinchi bosqichida quyidagi vazifalar hal etildi:

maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy sifatlari va psixik jarayonlarining dinamikasi hamda yosh xususiyatlarini aniqlash;

maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy jismoniy sifatlari hamda psixik jarayonlari orasidagi o'zaro bog'liqlik qonuniyatlarini aniqlash.

Tadqiqotlar o'quv yilining boshi va oxirida o'tkazildi. Turli jismoniy sifat ko'rsatkichlarining mutlaq qiymatlarini tavsiflash uchun har bir yosh-jins guruhida 14 tagacha testdan foydalanildi. Bunda bolalarning har bir yosh-jins guruhida har xil testlar qo'llangan bo'lib, ularni ob'ektiv ravishda taqqoslash mumkin emas edi. Shuning uchun jismoniy tayyorgarlikning mutlaq ko'rsatkichlari nisbiy birliklarda ko'rsatildi. Ular integral ko'rsatkichlar mutlaq kattaliklarini qo'llanilgan testlar miqdoriga bo'lish natijasida olindi.

Kuch sifatlari va psixik jarayonlar ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligi.

Kuch sifatlari va psixik jarayonlarning bir-biriga bog'liq holda rivojlanishi samaradorligi to'g'risida yanada batafsilroq fikr yuritish uchun birinchi tadqiqotlarning ham, ikkinchisining ham ma'lumotlari bo'yicha biz tekshirgan barcha ko'rsatkichlar o'zaro bog'liqlikda tahlil etildi. O'tkazilgan tahlil 3-6 yoshli bolalarda aniqlangan ijobiy o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar xususida mulohaza qilish imkonini berdi.

Ayni paytda, tadqiqotlar shuni isbotladiki, kuch sifatlari va psixik jarayonlarga oid turli ko'rsatkichlar darajasi hamda o'zaro bog'liqligining mustahkamligi, shuningdek, uning ishonchliligi o'g'il bolalar va qizlarda turlicha namoyon bo'lar ekan. Bu 4.5-jadvaldan yakqol ko'rinib turibdi. Masalan, pedagogik tajribadan so'ng uch yoshli o'g'il bolalarning nazorat guruhida bog'liqlik darajasining ishonchli ijobiy ko'rsatkichi 48 tadan faqat 6 ta, to'rt yoshda muvofiq ravishda – 2 va 5, besh yoshda – 2 va 2, olti yoshda – 2 va 4. Qizlar guruhida birmuncha farqli manzarani kuzatish mumkin (4.5-jadval). Ularda pedagogik tajribadan keyin barcha holatlarda kuch sifatlari va psixik jarayonlar orasidagi ishonchli ijobiy bog'likliklar ancha yuqori bo'lib chiqdi. Jismoniy tayyorgarlik va diqqatning integral ko'rsatkichlari orasidagi o'zaro bog'liqlik tahlili biron-bir jiddiy tafovutlarni yuzaga chiqarmadi. Bu 3.1-jadvalda aniq ko'rinib turibdi. Diqqat hamda chidamlilik qiymatlari orasidagi ishonchli bog'liqlik o'g'il bolalarda faqat besh yoshda, qizlarda esa olti yoshda chaqqonlik bilan kuzatildi.

O'g'il bolalarda uch yoshda bog'liqlikning nisbatan yuqori darajasi diqqat va chidamlilik ko'rsatkichlari orasida aniqlanadi, to'rt, besh va olti yoshda egiluvchanlik bilan, muvofiq ravishda qizlarda uch yoshda chidamlilik, to'rt yoshda – tezkorlik va egiluvchanlik, besh va olti yoshda – faqat egiluvchanlik ko'rsatkichlari bilan yuzaga chiqadi. Tahlil etilayotgan ko'rsatkichlar orasidagi variantlarning eng past koeffitsientlari o'g'il bolalarda uch yoshda (egiluvchanlik ko'rsatkichlari bilan), qizlarda esa besh yoshda (chidamlilik ko'rsatkichlari bilan) aniqlandi.

Uch yoshli o'g'il bolalarda tafakkur hamda egiluvchanlik qiymatlari orasida nisbatan mustahkam bog'liqlik qayd etildi, to'rt yoshda – chidamlilik, besh yoshda – barcha besh xil jismoniy sifatlari, olti yoshda – kuch va chaqqonlik orasida. Mos ravishda bunday yo'nalish qizlarda uch yoshda chaqqonlik, to'rt yoshda egiluvchanlik, besh yoshda chaqqonlik va olti yoshda kuch hamda chaqqonlik ko'rsatkichlari bilan namoyon bo'ldi. Bog'liqlikning (korrelyatsiya)ning eng past koeffitsienti o'g'il bolalarda (tezkorlik) va qizlarda (kuch) to'rt yoshda aniqlandi.

Jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari bilan bog'liqlikka ko'ra tahlil etilgan so'nggi psixik jarayon tasavvur edi.

Mazkur holatda faqat qizlarda chaqqonlik (uch yosh), chidamlilik (to'rt yosh) va tasavvurning integral ko'rsatkichlari orasida variantlarning ikkita ishonchli koeffitsienti ma'lum bo'ldi.

qizlarda uch yoshda chidamlilik, to'rt yoshda – tezkorlik va egiluvchanlik, besh va olti yoshda – faqat egiluvchanlik ko'rsatkichlari bilan yuzaga chiqadi. Tahlil etilayotgan ko'rsatkichlar orasidagi variantlarning eng past koeffitsientlari o'g'il bolalarda uch yoshda (egiluvchanlik ko'rsatkichlari bilan), qizlarda esa besh yoshda (chidamlilik ko'rsatkichlari bilan) aniqlandi.

Uch yoshli o'g'il bolalarda tafakkur hamda egiluvchanlik qiymatlari orasida nisbatan mustahkam bog'liqlik qayd etildi, to'rt yoshda – chidamlilik, besh yoshda – barcha besh xil jismoniy sifatlar, olti yoshda – kuch va chaqqonlik orasida. Mos ravishda bunday yo'nalish qizlarda uch yoshda chaqqonlik, to'rt yoshda egiluvchanlik, besh yoshda chaqqonlik va olti yoshda kuch hamda chaqqonlik ko'rsatkichlari bilan namoyon bo'ldi. Bog'liqlikning (korrelyatsiya)ning eng past koeffitsienti o'g'il bolalarda (tezkorlik) va qizlarda (kuch) to'rt yoshda aniqlandi.

Jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari bilan bog'liqlikka ko'ra tahlil etilgan so'nggi psixik jarayon tasavvur edi .

Mazkur holatda faqat qizlarda chaqqonlik (uch yosh), chidamlilik (to'rt yosh) va tasavvurning integral ko'rsatkichlari orasida variantlarning ikkita ishonchli koeffitsienti ma'lum bo'ldi.

Boshqa hollarda jismoniy sifatlar va psixik jarayonlar orasidagi o'zaro aloqa kattaligi ishonchli bo'lmadi. Lekin, agar jadal rivojlanish davrini boshidan kechirayotgan 3-6 yoshli biz tekshirayotgan bolalarning ko'rsatkichlari statistik ishlovdan o'tganligini hisobga oladigan bo'lsak, hatto ijobiy bog'liqlik ham hech bo'lmaganda jismoniy hamda psixik jarayonlarning o'zaro ta'siri yo'nalishi xususida ma'lumot berishi mumkin.

Uch yoshli o'g'il va qiz bolalarda tasavvur, kuch va chaqqonlik ko'rsatkichlari orasida, to'rt yoshda o'g'il bolalarda faqat kuch ko'rsatkichlari, qizlarda esa tezkorlik bilan, besh yoshda o'g'il bolalarda – kuch, qizlarda tezkorlik va egiluvchanlik, olti yoshda o'g'il bolalarda tezkorlik, chaqqonlik va egiluvchanlik, qizlarda esa kuch va chidamlilik ko'rsatkichlari bilan nisbatan mustahkam ijobiy bog'liqliklar kuzatildi. Variantlarning eng past koeffitsientlari o'g'il bolalarda to'rt yoshda (chidamlilik), qizlarda esa uch yoshda (tezkorlik) qayd etildi.

Shunday qilib, tadqiqotlarning statistik materiallarini o'zaro bog'liqlikka ko'ra tahlil qilish maktabgacha ta'lim muassasasidagi tabiiy sharoitda rivojlanayotgan bolalarda jismoniy sifatlar hamda psixik jarayonlar orasidagi o'zaro bog'liqlikning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. Bu xususiyatlar shundan iboratki, psixik jarayonlarning rivojlanish darajasiga 3-6 yoshli bolalarda jismoniy tayyorgarlikning har xil ko'rsatkichlari albatta ta'sir o'tkazadi. Lekin bu ta'sirlarning kattaligi hali yakqol ifodalangan (ishonchli) shaklda namoyon bo'lmaydi. Biz turli yosh va jinsli bolalarning jismoniy sifatleri hamda psixik jarayonlari orasidagi o'zaro bog'liqligida qandaydir qonuniyat borligini payqamadik. Mazkur ko'rsatkichlar va jinsiy dimorfizm orasidagi o'zaro ta'sirning namoyon bo'lishida yosh omilining mavjudligi to'g'risida to'la ishonch bilan gapirish mumkin.

Bizning ishimizda 3-6 yoshli bolalarning jismoniy sifatleri va psixikasini takomillashtirish jarayoniga aniq maqsad bilan ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omil sifatida harakatli o'yinlar tanlab olindi. Mazkur ilmiy ishning natijalari navbatdagi bobda bayon etilgan.

Xulosa Pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, barcha jismoniy sifatlar o'zgarishlarining tabiiy yosh xususiyatlarini saqlab qolishgina emas, ayrim hollarda hatto bu jarayonni tezlashtirishga ham erishildi. Bu ko'proq darajada chaqqonlik va egiluvchanlikning rivojlanishiga, kamroq chidamlilik, kuch va tezkorlikning rivojlanishiga taalluqlidir.

Pedagogik tajribadan so'ng psixik jarayonlar ko'rsatkichlarining eng yaqqol ifodalangan o'sishi: o'g'il bolalarda 3 yoshdan 4 yoshgacha – diqqatlar tasavvur va ko'rish xotirasini, 5 yoshdan 6 yoshgacha – ko'rish xotirasi, tafakkur va tasavvurni; qizlarda: 3 yoshdan 4 yoshgacha – ko'rish xotirasi, tafakkur va tasavvurni, 5 yoshdan 6 yoshgacha – ko'rish xotirasi, idrok va tasavvurni tadqiq etganda qayd qilindi.

Qizlarda ham, o'g'il bolalarda ham yetakchi psixik jarayon ko'rish xotirasidir.

Jismoniy sifatlar va psixik jarayonlarning bir-biriga ta'sirini o'zaro bog'liqlikda tahli etish pedagogik tajriba natijasida anchagina ishonchli bog'liq jihatlarni yuzaga chiqardi. Masalan, tajriba guruhining 3-yoshli o'g'il bolalarida bunday bog'liq jihatlari nazorat guruhlariga nisbatan 2,8 marta, qizlarda – 2,1 marta, maktabgacha yoshdagi bolalarning butun kontingenti bo'yicha esa 2,4 marta ortiq bo'ldi.

Maktabgacha tarbiya muassasalaridagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida tabaqalashtirilgan harakatli o'yinlarni qo'llash texnologiyasi 3-6 yoshli bolalarning harakat imkoniyatlarini, jismoniy tayyorgarligini va psixik imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, ularning kichik maktab yoshi

davriga o'tish uchun tayyorgarligi sifatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori
2. Masharipova M.I., Maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat potensialini maqsadli rivojlantirish texnologiyasi. dis....pedagogika fanlari nomzodi. - T, 2007. – 24b.
3. Вопросы психологии ребенка дошкольного возраста: Сборник статей / Под редакцией А.Н Леонтева, А.В Запарожеса – М.,1995. – 144 с.
4. Yusupova.P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Toshkent. O'qituvchi. 1993.Ф

BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O‘QITISHDA UZVIYLIKNI TA‘MINLASH METODIKASI

*Nabixonova Masturaxon Ibrohimxon qizi,
student of the Namangan State Pedagogical Institute*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda uzviylikni ta‘minlash metodikasi asoslari, ma‘nosi va kelib chiqishi, ushbu metodikaning o‘zlashtirishdagi yutuqlari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogika, tadqiqot, integratsiya, mavzulashtirish, metodika, intensiv, STEM fanlari, axborot tahlili, asosiy o‘qitish yo‘nalishi, ta‘sir etuvchi omillar.

МЕТОДОЛОГИЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ДОБРОВОЛЬНОСТИ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*Набихонова Мастурахон Иброҳимхон қизи,
студентка Наманганского государственного педагогического института*

Аннотация: В данной статье приведены основы, значение и истоки методики обеспечения преемственности в обучении английскому языку в начальных классах, достижения в освоении данной методики.

Ключевые слова: педагогика, исследования, интеграция, тематизация, методология, интенсивность, дисциплина STEM, анализ информации, основное направление перехода, влияющие факторы.

METHODOLOGY OF PROVIDING INTEGRITY IN TEACHING ENGLISH LANGUAGE TO PRIMARY CLASS STUDENTS

*Nabixonova Masturaxon Ibrohimxon qizi,
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi*

Annotation: This article cites the basics, meaning and origin of the methodology for ensuring continuity in teaching English in elementary grades, and the achievements in mastering this methodology.

Keywords: pedagogy, research, integration, thematic, methodology, intensive, STEM Sciences, Information Analysis, basic transition direction, influencing factors.

Hozirgi kunda maktablar va maktabgacha ta‘lim muassasalarida turli metodikalarni integratsiyalashgan holda qo‘llash, tajribadan o‘tgan, o‘zini oqlagan, pedagog mutaxassislar tomonidan e‘tirof etilgan metodlardan bir-biriga integratsiya qilingan, yoki yaxlit holda foydalanish sifatli ta‘lim garovi bo‘lib qolmoqda. Ana shunday davrning ya‘na bir rad etib bo‘lmas faktorlaridan biri, yoshlarni ayni davrdan boshlab chet tillariga qiziqish bilan ulg‘aytirish, bu kabi zamonaviy bilimlarga to‘g‘ri yo‘naltirishdir. Chunonchi, aynan shu maqsadlarni ko‘zda tutgan holda, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-yanvardagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 34-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-maydagi PQ-1875 sonli “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori e‘lon qilindi. Ushbu ikki muhim hujjatning asosiy ma‘nosi, ta‘lim tizimida xorijiy tillarni o‘qitish tizimini rivojlantirish, yangicha va jahon pedagogikasida sinalgan, intensiv metodlarni qo‘llashdan iboratdir. Xorijiy tillarni o‘qitishda o‘quv dasturlarini uzviylikni ta‘minlash va izchillik-samarali ta‘lim yetakchiligi va sifatli o‘qitish uchun juda muhimdir. Ular turli darajalar va mavzular bo‘yicha o‘quv maqsadlari, standartlari, baholashlari va ta‘lim strategiyalarini moslashtirishga ishora qiladi.

Muvofiqlik va uzviylik o‘quv dasturining mantiqiy va o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun mazmunli bo‘lishini anglatadi. Xorijiy tillarni o‘qitishda uzviylikni ta‘minlash bu pedagogik jarayonlarda va metodologiyada berilayotgan axborotlar ketma-ketligining, dastlabkisi keyingisiga nisbatan chambarchas bog‘liqligi va o‘zaro integratsiyalanganligi asosida o‘qitish usuli (metodi) ga aytiladi[1].

Hozirgi zamonaviy dunyoning eng e‘tiborli va nufuzli oliy o‘quv yurtlaridan biri Garvard universiteti professori F.Viegas o‘z asarlarida sun‘iy intellektni tahlil qilgan ekan, insonlar va sun‘iy intellekt orasidagi


axborot almashinuvi ko'proq uzviy bo'lmagan holda ikki tomonga ham pand berishini yozadi. Xususan, sun'iy intellektdan ko'ra insonning o'zi tasodifiy va bir biriga bog'liq bo'lmagan turli axbrotlar sintezlarini xotirada jamlash va javob qaytarishga ko'proq vaqt sarflashini yozgan.

Pedagogik innovatsiya ta'limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda fan va ta'lim bo'g'inlari o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlash uzluksiz pedagogik ta'limni klaster rivojlanish tizimiga o'tkazish zaruratini taqozo etmoqda.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha ta'lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butunligi bo'lib, ularning birgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish imkonini beradi. Binobarin, klasterning asosiy maqsadi o'z tarkibiga kiruvchi ta'limiy-ilmiy-innovatsion salohiyatni nafaqat yuqori fuqarolik va kasbiy layoqatlilik darajasi bilan, balki raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olish qobiliyati, yangi ta'lim dastur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega zamonaviy ta'lim mutaxassislarini tayyorlash uchun birlashtirishdir.[2]

Axborot texnologiyalari sohasida ya'na bir yetuk kadrlardan biri Jon Mak-Karziy har qanday xotiraga monand axborot uzatilishida va qabul qilinish jarayonlarida uzviy va axborot qismlari orasidagi to'xtalishlar kichik vaqt talab qilishi haqida fikr yuritgan.

Ta'lim jarayonlarini tashkil etish va zamonaviy pedagogika bo'yicha mutaxassis, Oksford universiteti professori Sibel Erduran, London maktablarida STEM fanlar va boshlang'ich sinflarda o'tiladigan fransuz tili darslarida qatnashib, kichik o'quvchilar bilan ilmiy tadqiqot olib bordi. Unga ko'ra STEM fanlarni va chet tilini o'rgatishda, mavzulashtirilgan rejalarni tuzish uzviylik va o'ta bog'liqlikni talab qilishi lozim. Miyya faoliyati hordiq talab qila boshlaganida bu talabni yosh kishilar uchun umuman rad etib bo'lmaydi, biroq ma'lum ixtisos axborot qabul qilish jarayoni intervalidan so'ng, o'tilgan mavzuga aloqadorligi past bo'lgan boshqa mavzuni o'tish bola qabul qilish jarayonini sustlashishiga olib keladi. Ayniqsa hordiq tabiat yoki qiziqarli video-materiallar, o'yinlar bilan bo'lsa, ta'lim e'tiboridan ko'ra hordiq olish, o'yin-kulguga qiziqish ortib ketadi. Erduran ushbu xodisani tahlili oxirida zanjirli xulosaga to'xtalgan.




1-rasm. S.Erduranning bola xotirasi va aqliy faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi 3 yirik omili xulosasi[3].

Xorijiy tillarni o'rgatishda inglizlardan ko'ra ko'proq tajribaga ega bo'lgan Tokio universiteti olimlari, Koichi Hashimoto va Kenji Satolar boshlang'ich sinf yoshidagi bir necha yoshlar o'rtasida, "Zerikarli sinf" nomli mashxur tadqiqot olib borishdi. Tadqiqotning asosiy ishi bu yoshlarni ma'lum

davr orasida beriladigan chet tili axborotini uzviylikni ta'minlashga e'tibor berilmay, o'qituvchi mavzulashtirilmagan holda dars o'tdi. Olimlar yoshlar xotirasida va ongidagi o'zgarishlarni tekshirish ekan, fanlarni o'zlashtirish va chet tilini o'rganishni takomillashtirish hususida darslarni mavzulashtirish va ular orasidagi uzviylikni ta'minlashga e'tibor qaratish lozimligini tushunishdi.

Uzluksiz ta'lim tizimida fan dasturlarining uzviylikni ta'minlanmagan ta'lim sifati va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, ta'lim turlariaro mavzularning takrorlanishi, ayrim mavzularga haddan ziyod ko'p soatning ajratilgani, fan mazmuni deyarli nazariy ma'lumotlarga asoslanganligi hamda xalqaro tadqiqotlar singdirilmaganligi kabi muammolar mavjud. Ta'lim bosqichlari mazmuni tahlilida 10–15 foiz mavzularning takror berilayotganligi, 50–60 foiz mavzularda uzviylik ta'minlanmaganligi tahlillarda ko'rindi. Oldimizda ta'lim mazmunini belgilashga xizmat qiluvchi, uzluksiz ta'lim tizimining me'yoriy hujjatlari, o'quv dasturlarining uzviylikni tahlil qilish, ularning har bir fan bo'yicha bosqichlar orasida takroriylikning oldini olish bo'yicha ishlar hamda uzviylikni ta'minlangan fan dasturlari asosida darsliklar mazmunini ham muvofiqlashtirish kabi dolzarb vazifalar turibdi.[4]

2-rasm.



Tokio olimlarining chet tillarini boshlang'ich sinflarda o'rgatishda, berilgan axborotning uzviylikiga ta'sir qiluvchi omillari[5].

Jahon pedagoglarining eng taniqli tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, darslarni boshlang'ich sinf o'quvchisi, qanchalar tez tahlil qilishi va o'zlashtirishida uzviylikni ta'minlash darajalariga bog'liq. 2-rasmda, aynan chet tili darsidagi beriladigan 2 axborot va ularni uzviylikni tasviri, asosiy o'tish yo'nalishi bilan tasvirlangan.

1-daraja uzviylikda, ana shu asosiy yo'nalishga suqulib kiruvchi boshqa axborotlarning darajasi ortib ketadi va bola o'zlashtirish ko'rsatkichi tushib ketadi.

daraja uzviylikda esa, asosiy yo'nalishga ta'sir qiluvchi omillar va axborotga berilgan e'tibor tenglashadi, ammo bolani mavzuni o'zlashtirish tezligi pasayadi va samaradorlik tushib ketadi. 3-daraja bu yuqori bo'lib, faqat tabiiy holdagina asosiy yo'nalishga ta'sir etuvchi omillar qo'shiladi. Natijada bolaning o'zlashtirish ko'rsatkichlari oshadi.

Xulosa qilib aytganda, chet tillarini boshlang'ich sinflar uchun o'qitishda jahon bo'yicha millionlab

metodlar aniqlangan va sinovdan o'tkazilmoqda. Biroq har qanday metod bo'lmasin agar yetarli darajada axborot uzviyligini ta'minlamasa bu besamarlikni anglatadi. Axborot uzviyligi darajasini ortishi esa, yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, o'zlashtirish jarayonlarini tezlashishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1875-sonli, "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori

Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlari/ "Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik innovatsiyalar va integratsiyaviy yondashuv" /B.Sobirov 1512-b

Academic research in educational sciences/ issue 3- 2021/ 898-899 b

Vazirlar Mahkamasining 34-sonli, "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori.

"Методика обучения иностранным языкам". Л.П. Сакаева, А.П. Баранова. К а з а н-2016

"Educational and scientific journal of Oxford University". 3th issue of spring, 2021.

"Educational journal for researches and science of University of Tokio". 14-Issue of 2018.

Reconceptualizing the nature of science for science education: Scientific knowledge, practices and other family categories (contemporary trends and issues in science education book 43) 2014th edition, kindle edition. sibel erduran. zubeida dagher.

MA'NAVYIY-AXLOQIY PRINSIPLAR TUSHUNCHASI MAZMUN MOHIYATI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI

*Temirova Odina Muxiddin qizi,
NamDU mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola ma'naviy-axloqiy tamoyillarning ko'p qirrali mohiyatini ochib beradi, ularning asosiy tushunchalarini, mazmunining mohiyatini va jamiyat hayotidagi ajralmas rolini yoritadi. U ushbu tamoyillarning ijtimoiy hamjihatlikni rivojlantirish, axloqiy etakchilikni yo'lga qo'yish va shaxsiy hayotni qondirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, munozarada ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning zamonaviy global muammolarni hal qilishda, texnologik taraqqiyotni muvozanatlashda va madaniy merosni asrab-avaylashda dolzarbligi ta'kidlanadi. Ushbu tamoyillarni hayotning turli jabhalariga, ya'ni ta'limdan tortib siyosatni ishlab chiqishgacha integratsiyalashgan holda, jamiyatlar zamonaviy dunyoning murakkabliklarida halollik va rahm-shafqat bilan harakat qilishlari mumkin. Maqolada ma'naviy-axloqiy tamoyillar adolatli, barkamol va taraqqiyparvar jamiyatni shakllantirishning axloqiy asosi bo'lib xizmat qilishini har tomonlama tushunishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: axloq, ma'naviyat, tamoyil, madaniy meros, barkamol avlod, taraqqiyot, globallashuv, ma'rifat.

СУТЬ ПОНЯТИЯ СОДЕРЖАНИЕ ДУХОВНО-ЭТИЧЕСКИХ ПРИНЦИПОВ И ЕГО МЕСТО В ЖИЗНИ ОБЩЕСТВА

*Темирова Одина дочь Мухиддина.
Независимый исследователь НамГУ*

Аннотация: В данной статье рассматривается многогранность духовно-нравственных принципов, раскрываются их фундаментальные понятия, сущность их содержания и незаменимая роль в ткани общественной жизни. В нем подчеркивается значение этих принципов для содействия социальной сплоченности, этического лидерства и повышения личной самореализации. Более того, дискуссия подчеркивает актуальность духовных и моральных ценностей в решении современных глобальных проблем, балансировании технологических достижений и сохранении культурного наследия. Интегрируя эти принципы в различные аспекты жизни, от образования до разработки политики, общества могут честно и сострадательно преодолевать сложности современного мира. Цель статьи - дать всестороннее понимание того, как духовные и моральные принципы служат этической основой построения справедливого, гармоничного и прогрессивного общества.

Ключевые слова: мораль, духовность, принцип, культурное наследие, совершенное поколение, развитие, глобализация, просвещение.

THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF SPIRITUAL AND ETHICAL PRINCIPLES CONTENT AND ITS PLACE IN THE LIFE OF THE SOCIETY

*Temirova Odina Muhiddin qizi
Independent researcher of NamSU*

Abstract: This article delves into the multifaceted nature of spiritual and moral principles, elucidating their fundamental concepts, the essence of their content, and their indispensable role in the fabric of societal life. It highlights the significance of these principles in fostering social cohesion, guiding ethical leadership, and enhancing personal fulfillment. Moreover, the discussion underscores the relevance of spiritual and moral values in addressing contemporary global challenges, balancing technological advancements, and preserving cultural heritage. By

integrating these principles into various aspects of life, from education to policy-making, societies can navigate the complexities of the modern world with integrity and compassion. The article aims to provide a comprehensive understanding of how spiritual and moral principles serve as the ethical bedrock for fostering a just, harmonious, and progressive society.

Key words: morality, spirituality, principle, cultural heritage, perfect generation, development, globalization, enlightenment.

Kirish. Borgan sari murakkab va jo'shqin dunyoda ma'naviy-axloqiy tamoyillarning ahamiyatini ortiqcha baholab bo'lmaydi. Bu tamoyillar kompas bo'lib, shaxslar va jamiyatlarni axloqiy xulq-atvor, ijtimoiy uyg'unlik va shaxsiy amalga oshirishga yo'naltiradi. Ularning mohiyati va mazmunini anglash insonparvar va adolatli jamiyatni shakllantirish uchun, ayniqsa, texnologik taraqqiyot, madaniy siljishlar va axloqiy noaniqliklar hukm surayotgan davrda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Texnologiya taraqqiyoti va moddiy manfaatlar tobora kuchayib borayotgan dunyoda ma'naviy va axloqiy tamoyillarning roli insoniyat jamiyatining asosi bo'lib qolmoqda. Ushbu tamoyillar odamlar va jamoalar faoliyat yuritadigan, xulq-atvorga rahbarlik qiladigan, ijtimoiy hamjihatlikni qo'llab-quvvatlaydigan va umumiy farovonlikni rag'batlantiradigan axloqiy asosni tashkil qiladi. Ularning mavjudligi zamonaviy muammolarni hal qilish va muvozanatli va uyg'un hayotni ta'minlashda juda muhimdir.[1]

Ma'naviyat – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Ma'naviyat atamasining asosida „ma'no“ so'zi yotadi. Ma'lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo'y-basti, ko'rinishi, kiyinishi, xatti-harakati va boshqa kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg'ularini o'z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma'naviyatdir. Oziq-ovqat odamga jismoniy quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag'ishlaydi. Ma'naviyat ma'rifat va madaniyat bilan bog'liq. Ma'naviyat odamlarda tap-tayyor holda vujudga kelmaydi. Unga muttasil o'qish, o'rganish, tajriba orttirish orqaligina erishiladi. Ma'naviyat qanchalik boyib borsa, jamiyat va millat shunchalik ravnaq topadi. Ma'naviyatli odam yashashdan maqsad nimaligini aniq biladi, umrini mazmunli o'tkazish yo'lini izlab topadi, muomala qilish madaniyatini egallaydi, har bir masalaga insof va adolat nuqtayi nazaridan yondashadi. Vijdon nima, yolg'on va rost nima, or-nomus nima, halol va harom nima – bularning hammasini bir-biridan ajrata oladi, hayotda yomonlikka boshlovchi xatti-harakatlardan voz kechadi, yaxshilikka boshlovchi amallarni bajaradi. Qisqasi, ma'naviyatda inson hayotining mazmuni aks etadi. Vatanni sevish, vatanparvarlik inson ma'naviyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ma'naviyat kamol topgan jamiyatlarda qobiliyat, iste'dod egalari shu jamiyatning, millatning yuzi, g'ururi, obro'-e'tibori hisoblanadi. Ma'naviyatli jamiyatda aql, sog'lom fikr, adolat va yaxshi xulq ustuvordir. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi kuchli bo'ladi, odamga nomunosib turli illatlar barham topadi.[2]

Axloq ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik deb baholaydigan, binobarin ma'lum xulq-atvorga undab, ruxsat beradigan yoki ta'qiqlaydigan narsalarni din savob, uvol (gunoh), halol va harom tushunchalari yordamida mustahkamlagan. Agar din odamlarni faqat sig'inishga, ibodat va duoga chorlash bilan cheklanib, ijtimoiy-maishiy hayoti bilan qiziqmasa, odamlar o'rtasida keng tarqalmas edi. Xuddi shunday, axloq va butun ma'naviyat tizimi din yordamida odamlar ongiga ta'sir ko'rsatmasa u ham katta muvaffaqiyatga erishmas edi.[3]

Ma'naviy tamoyillar moddiy borliqdan ustun bo'lgan, ko'pincha diniy yoki falsafiy an'analarga asoslangan e'tiqod va qadriyatlarga tegishli. Ular rahm-shafqat, kamtarlik, halollik va hayotdagi yuksak maqsadlar yoki ma'nolarga intilish kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Ruhiy tamoyillar ilohiy mavjudot, tabiat yoki insoniyatning umumiy farovonligi bo'ladimi, o'zidan buyukroq narsaga bog'liqlik hissini ta'minlaydi.[4]

Axloqiy tamoyillar: esa, ma'lum bir jamiyatda nima to'g'ri yoki noto'g'ri deb hisoblanishini belgilaydigan axloqiy xulq-atvor uchun ko'rsatmalardir. Bu tamoyillar ko'pincha madaniy

me'yorlar, diniy ta'limotlar va falsafiy axloqdan kelib chiqadi. Asosiy axloqiy tamoyillar halollik, adolat, hurmat va mas'uliyatni o'z ichiga oladi. Ular qonunlar, ijtimoiy siyosat va shaxslararo munosabatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi, bu esa shaxslarning boshqalar va butun jamiyat uchun foydali bo'lgan yo'llar bilan harakat qilishini ta'minlaydi.[5]

Ma'naviy-axloqiy tamoyillarning mazmuni rang-barang va serqirra bo'lib, ular ildiz otgan turli madaniy, diniy va falsafiy sharoitlarni o'zida aks ettiradi. Asosiy elementlarga quyidagilar kiradi:

1. Axloqiy xulq: Bu halollik, halollik va adolat kabi axloqiy me'yorlarga mos keladigan xatti-harakatlar va harakatlarni o'z ichiga oladi. Axloqiy xulq-atvor jamiyatda ishonch va hamkorlikni saqlash uchun zarurdir.

2. Mehr-shafqat va hamdardlik: Bu qadriyatlar boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va bo'lishish, birdamlik va o'zaro yordam tuyg'usini rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydi.

3. Ma'suliyat: Bu tamoyil butun hayotning o'zaro bog'liqligini tan olgan holda, boshqalar va atrof-muhit farovonligiga yordam beradigan tarzda harakat qilish burchini ta'kidlaydi.

4. Qadr-qimmatni hurmat qilish: Bu har bir shaxsning o'ziga xos qadriyatini tan olish va qadrlashni, inson huquqlari va tengligini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

5. Donolikka intilish: Ma'naviy va axloqiy tamoyillar ko'pincha bilim va tushunishni izlashga undaydi, odamlarni ongli va o'ylangan qarorlar qabul qilishga yo'naltiradi.

6. Adolatga sodiqlik: Bu adolat va tenglikni targ'ib qilish, adolatsizliklarni bartaraf etish va marginal va zaif aholi huquqlarini qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi.[6]

Zamonaviy dunyoda ma'naviy-axloqiy tamoyillarning dolzarbligi chuqur va keng qamrovli:

1. Ijtimoiy hamjihatlik: Turli va ko'p madaniyatli jamiyatlarda bu tamoyillar ijtimoiy totuvlik va o'zaro tushunishni mustahkamlash, nizolarni kamaytirish va birlikni targ'ib qilish uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi.

2. Axloqiy yetakchilik: Ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan yetakchilar o'z jamoalari va tashkilotlarini axloqiy va barqaror amaliyotlarga yo'naltirib, ishonch va ishonchni uyg'otishi mumkin.

3. Shaxsiy bajarilish: Ma'naviy va axloqiy tamoyillarga amal qilgan shaxslar ko'pincha o'zlarining umumiy farovonligi va baxtiga hissa qo'shib, ko'proq maqsad va qoniqish hissini boshdan kechiradilar.

4. Global muammolar: Iqlim o'zgarishi, tengsizlik va adolatsizlik kabi global muammolarni hal qilishda ma'naviy va axloqiy tamoyillar jamoaviy harakatlar va umumiy mas'uliyat uchun asos yaratadi.

5. Texnologik yutuqlar: Texnologiyalar rivojlanishda davom etar ekan, bu tamoyillar innovatsiyalarni ishlab chiqish va ulardan axloqiy jihatdan foydalanishni ta'minlash, inson qadr-qimmatini hurmat qilish va umumiy manfaatni ilgari surish uchun juda muhimdir.

6. Madaniyatni asrab-avaylash: Ma'naviy-axloqiy tamoyillar madaniy meros va o'zlikni saqlashning ajralmas qismi bo'lib, doimiy o'zgaruvchan dunyoda davomiylik va tegishlilik tuyg'usini ta'minlaydi.[7]

Modernizatsiyaning jadal sur'atlariga qaramay, ma'naviy-axloqiy tamoyillar chuqur dolzarbligicha qolmoqda. Ular axloqiy noaniqliklar va axloqiy dilemmalar bilan ajralib turadigan davrda yo'l-yo'riq va barqarorlikni taklif qiladi. Ushbu tamoyillarga amal qilgan holda, jamiyatlar muvozanatli va adolatli hayotni ta'minlab, zamonaviy hayotning murakkabliklarida halollik va rahm-shafqat bilan harakat qilishlari mumkin.[8]

Ta'limda ma'naviy-axloqiy tamoyillar kelajak avlodlar xulq-atvori va qadriyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tamoyillarni ta'lim dasturlariga kiritish tanqidiy fikrlash, empatiya va axloqiy fikrlashni rivojlantiradi, yoshlarni mas'uliyatli va rahmdil fuqarolar bo'lib yetishish vositalari bilan jihozlaydi.

Xulosa. Ma'naviy-axloqiy tamoyillar tushunchasi o'zining boy va rang-barang mazmuni

bilan insoniyat jamiyatining tamal toshi bo'lib qolaveradi. Uning ahamiyati bugungi kunda har qachongidan ham yaqqol namoyon bo'lib, zamonaviy qiyinchiliklarga qarshi yo'l-yo'riq va ilhom beradi. Ushbu tamoyillarni qabul qilish va tarbiyalash orqali shaxslar va jamoalar zamonaviy hayotning murakkabliklarida halollik, rahm-shafqat va umumiy manfaatlarga sodiqlik bilan harakat qilishlari va kelajak avlodlar uchun yanada adolatli va uyg'un dunyoni ta'minlashlari mumkin.

Ma'naviy-axloqiy tamoyillarning jamiyat hayotidagi o'rni ajralmasdir. Ular jamiyatlar barpo etiladigan axloqiy asosni tashkil qiladi, xulq-atvorni boshqaradi, ijtimoiy hamjihatlikni rivojlantiradi va umumiy farovonlikni rag'batlantiradi. Ularning dolzarbligi chuqur bo'lib, zamonaviy muammolarga yechim taklif qiladi va muvozanatli va uyg'un hayotni ta'minlaydi. Ushbu tamoyillarni qabul qilish va tarbiyalash orqali shaxslar va jamoalar yanada adolatli va rahm-shafqatli dunyoni yaratib, hamma uchun yorqin kelajakni ta'minlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Dinara A., Gaynazarova S. T. SUIDSIDAL AXLOQ PSIXOLOGIYASI VA UNING MAZMUN MOHIYATI //International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING. – 2024. – T. 4. – №. 2. – C. 195-198.

<https://uz.wikipedia.org/wiki/Ma%CA%BCnaviyat>

AXLOQ, HUQUQ VA DIN. Raxmonova Gulzoda G'aniyevna. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SOCIAL SCIENCES. Volume: 02 Issue: 08| August-2022ISSN: 2181-2594

Nusratilloevna M. S. Ma'naviy makonning falsafiy muammolari //So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – T. 6. – №. 7. – C. 128-130.

Xidirov X. I. “MA'NAVIYAT” VA “QADRIYAT”–MA'NAVIY-AHLOQIY TUSHUNCHA SIFATIDA //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – T. 3. – №. 4 SPECIAL. – C. 197-200.

Tashpulatovich M. S. MA'NAVIYAT VA MA'RIFATNING YANGI JAMIYATNI QURISHDAGI QUDRATLIKUCH VA BEBAHOMANBA EKANLIGI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – T. 1. – №. 6. – C. 285-288.

Tayirovna I. B. AVESTODA MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARNING AHAMIYATI //Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari. – 2023. – T. 1. – №. 6. – C. 61-62.

Akbarali O'g'li S. F. Organization of experimental work and analysis of results on the improvement of technologies for improving the effectiveness of legal education and training of schoolchildren //Frontline Social Sciences and History Journal. – 2023. – T. 3. – №. 04. – C. 54-61.

BUYUK ALLOMALARIMIZ VA ZAMONAVIY PSIXOLOGIYADA BOLANING KOMILLIKKA ERISHISHDA DUNYONI ANGLASHNING MOHIYATI

Saparov Murod Yuldashovich,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqola bola shaxsini shakllantirishga va komillikka intilishiga, yo 'naltirishga asoslangan. Maqola matnida bola zehni, aqli, qiziqishi va tafakkuri tushunchasi, olimlarning qarashlari kabilar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: intellekt, Qur'on, Hadis, qobiliyat, zehn, layoqat, iste'dod, iqtidor, shaxsni shakllantirish, tarbiya, omil, komil inson, shaxs, qadriyat.

СУТЬ ПОНИМАНИЯ МИРА В ДОСТИЖЕНИИ РЕБЕНКОМ СОВЕРШЕНСТВА В НАШИХ ВЕЛИКИХ УЧЕНЫХ И СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ

Сапаров Мурад Юлдашович,

старший преподаватель (PhD) Узбекского государственного университета мировых языков

Аннотация. Данная статья посвящается вопросам развития личности ребенка, основывается в стремлении к гармоничной развитости. В статье также приведены толкование понятий интеллекта, ума и мышления во взглядах ученых.

Ключевые слова: интеллект, Коран, Хадис, способность, эрудиция, приспособленность, талант, одарённость, формирование личности, воспитание, фактор, гармонично развитая личность, личность, ценность.

THE ESSENCE OF UNDERSTANDING THE WORLD IN THE CHILD'S ACHIEVEMENT OF PERFECTION IN OUR GREAT SCIENTISTS AND MODERN PSYCHOLOGY

Saparov Murad Yuldashovich,

is a senior lecturer (PhD) of the Uzbekistan State University of World Languages.

Abstract. This article is based on forming humanity of a child and striving to perfection. Theories and thoughts of scientists about child's consciousness, intellect, mind, understandings and interests are given in the text of article.

Keywords: intellect, Koran, Hedis, ability, mind, talent, forming humanity, factor, perfection, capability, education, person, tradition.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tashabbuslari bilan quyidagi masalaga alohida urg'u berib o'tilgan "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"[1].

Qadimdan xalqimizdan buyuk siymolarning yetishib chiqqanligiga e'tibor berib qaraydigan bo'lsak, ota-bobolarimiz alohida zehnli, iste'dodli, qobiliyatli bolalarni umumbilim olayotgan bolalardan alohida ajratib olayotganligi diqqatga sazovor. Sharq pedagogikasi tarixiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, quyidagilarni ko'rishimiz mumkin. Bolani 6-7 yoshi orasida mahalla mudarrisi oldiga olib chiqib topshirishgan. Mahalla mudarrisining (bizni tilimizda eski maktab) asosiy vazifasi bolani "xat sa'vodini chiqarish" (alifbo bilan tanishtirish), "qo'shish ayrish"ni o'rgatish hamda "haftiyak"ni yodlatishdan iborat bo'lgan. Qaysi bir o'quvchining zehni namoyon bo'lib ilmga chanqoqligi sezilsa, uni o'sha tumanda joylashgan madrasaga bilimini boyitishga jo'natilgan. Ana shu yerda kichik madrasa tolibi sifatida Qur'on, hadis va dunyoviy bilimlardan tahsil olgan tolibi ilm o'zining qobiliyatini namoyon eta olsa, katta madrasa sari yo'naltirishgan. Undan so'ng, madrasada bilimlarni o'zlashtirishda iste'dodini namoyon eta olgan ilmi toliblarni davlat miqiyosidagi madrasalarga bilimini takomillashtirish maqsadida yo'naltirilgan.

Taniqli ma'rifatparvar Abdurauf Fitrat aytgandek, "Agar bir mamlakat aholisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi"[2]. Har bir jarayon tarbiyaga bog'liq holda olib boriladi. Chunki

azal azaldan tarbiya masalasiga Sharq allomalari tomonidan alohida e'tibor qaratilib kelgan.

Davlatimiz rahbariyati asosiy e'tiborini yosh avlodning tarbiyasiga qaratib kelayotganiga sababi buyuk davlatimizni va xalqimizni kelajagi ishonchli qo'llarda bo'lishi lozim.

Xalqimizni buyukligi shubxasiz uni irsiy zahirasini boyligida ekanligi XXI-asrga kelib ham yoshlarimiz orasidan Ibn Sino, Al Beruniy, Al Xorazimiy, Imom Buxoriy kabi benazir vatandoshlarimizga munosib izdoshlar yetishib chiqib dunyoni lol qoldirib kelayotganida aks etadi.

Qadimda xalqimiz qobiliyatli, zehinli, layoqatli va istedodli yoshlarga alohida e'tibor bilan qarab ularni har tomonlama kamol topishlariga imkon qadar imkoniyatlar yaratib kelishganligiga tariximiz guvoh desak xato bo'lmaydi. Ana shu e'tibor asnosida xadishunoslik, tibbiyot, matematika, astronomiya, arxitektura, muxandislik kabi yuzlab sohalarda erishilga yutuqlar oldida dunyo axlini xali xamon lol qolib kelmoqda.

Yoshlarni ma'lum sohada katta yutuqlarga erishish uchun e'tibor bilan bir qatorda kattalarni munosabatida latiflik bo'lishi lozimligi milliy pedagogikamizda bu masalaga alohida urg'u berilgan. Katta avlodni munosabatidagi latiflik yoshlarni yashirin imkoniyatlarini layoqatga, layoqatni esa o'z navbatida qobiliyatli faoliyatga undash orqali iqtidorni namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi.

Kundan – kunga rivojlanib borayotgan mamlakatimizda yetuk iste'dodli kadrlar tayyorlashning istiqbolli yo'nalishlaridan biri - o'sib kelayotgan yosh avlod orasidan iste'dodli, qobiliyatli bolalarni saralash, ularni zamonaviy maktablarda boyitilgan, mazmunli dasturlar asosida o'qitish, ularga keng imkoniyatlar yaratish va qisqa muddatda turli sohalari uchun malakali mutaxassislarini yetishtirishdir.

Zamonamizning olimi professor E.G'.G'oziev "Shaxs kamolot va komillik darajasiga erishishda aql, zexn va qobiliyatlarni hamohang tarzda muvofiqlashtirish lozim va muhim" deb ta'kidlab o'tadi[3].

Ma'lumki insoniyat o'zining ijtimoiy taraqqiyot jarayoni davomida iqtidori, qobiliyati yoki ijodiy izlanishi mahsuli bo'lgan g'oya ham mulk ekanligini aniq va ravshan anglab yetdi. Intellektual mulk deb ataladigan bu boylik, turli sohalarning turlicha ko'rinishlarida o'z ifodasini topmasin, lekin u jamiyat taraqqiyotining rivojiga shaxs tomonidan qo'shilayotgan asosiy omili, ma'naviy va moddiy boyligidir. Shaxs va jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishga qodir asosiy boylik egasi, intellekt mulk sohibi, qobiliyatli iqtidor sohibi, rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lgan har tomonlama mukammal yetuk shaxs o'zining idrok va tafakkuri bilan zamondan ilgarilab turli kashfiyotlarni yaratadi.

Shu sababli bugungi kunda axloqan sof, mantiqiy tafakkuri kuchli, aqliy madaniyati yuqori bo'lgan o'quvchilarga e'tiborni kuchaytirish, ularni maxsus o'qitish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir. Kelajak avlod, jamiyat taqdirini aynan shunday iste'dodli, zukko farzandlar belgilaydi. Shunday ekan, ta'lim muassasalari o'quvchilari orasidan asosli ravishda iqtidorlilarini tanlab, ularni layoqati, qobiliyati va qiziqish yo'nalishlariga qarab u yoki bu sohaga, kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirish umumta'lim tizimi psixolog mutaxassislarining oldida turgan eng asosiy vazifalardan biridir.

Bu ayniqsa, umumta'lim maktablarida o'qish jarayonida boshqa bolalardan o'zining u yoki bu shaxsiy sifatleri bilan ajralib turadigan bolalarda yaqqol ko'rinadi. Maktab psixologni asosiy vazifalaridan biri iqtidorli bolalarni saralash, ular bilan ishlash, qiziqishlari, qobiliyatlarini o'rganish, iqtidorlikni rivojlantirishdir.

O'rta ta'lim tizimida iqtidorli bolalarni saralash va ularning bilim olishlarini to'g'ri tashkil etishda yechimini topishi kerak bo'lgan muammolar hali talayginani tashkil etadi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun eng avvalo har bir pedagog, ota-ona va tarbiyachi boladagi iste'dodni ko'ra bilishi va uni his eta olishi lozim. Buning uchun esa ular «iste'dodli» yoki «iqtidorli» bolaning individual psixologik va fiziologik xususiyatlari haqida umumiy ma'lumotga yoki tasavvurga ega bo'lishlari shart.

Shu o'rinda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida bilim olayotgan iqtidorli bolalar bilan olib borilishi lozim bo'lgan ishlar haqida qisqacha to'xtalib, ularga xos bo'lgan xususiyatlarni qisman bo'lsada ko'rsatib o'tishni lozim deb topdik.

Zamonamizni zabardas psixologlaridan biri, psixologiya fanlari doktori professor B. R. Qodirovni takidlashicha; "Iqdi – yer, dor – bor ya'ni iqtidor so'zini tarjimasida "Yeri bor", "Yerdor" bo'ladi. O'tgan asrni o'n yettinchi yilida amalga oshirilgan inqilob natijasida "tadbirkor", "mulkdor" kabi atamalar bilan bir qatorda "iqtidor" atamasi ham laxjamizdan o'chirib tashlandi[4].

Mustaqillikni sharofati bilan tilimizga davlat tili maqomi berilgandan so'ng ko'pgina umum bashariyat tomonida qabul qilingan atamalarga o'zbekona to'ng kiydirila boshlandi. Misol uchun "tayyoragoh", "ovoznigor", "nohiya" va hokazolar qatorida "iqtidor" atamasi ham kirib keldi.

Iqdidorli deb – yashirin va namoyon o‘ziga xos imkoniyati bor, ilg‘or fikrini Annotatsiyalay oladigan odamga aytiladi. Iqdidor ilmiy kategoriya sifatida talqin etila boshlandi. Iqtidor qobiliyatdan darak beruvchi shaxsni o‘ziga xos xususiyati xisoblanadi.

Qobiliyat – zahiraviy imkoniyatlari asosida xosil bo‘lgan imkoniyat majmuasi. Qobiliyat shaxsni zahiraviy imkoniyatlari sifatida bosh miyada saqlanib turaveradi ma‘lum bir zarurat yoki vaziyat ta‘sirida kutilmaganda yuzaga chiqishi mumkin shuni ham ta‘kidlash lozimki u tug‘ma bo‘lmaydi. Turli vaziyatlarga nisbatan to‘g‘ri qarorlarni qabul qilish va muvofaqiyatga erishishda shaxsni qobiliyati namoyon bo‘ladi.

Layoqat deb – shaxsni faoliyatga bo‘lgan moyillik (qiziqish) faoliyati (intilish) ga aytiladi. Misol tariqasida; o‘g‘il bola mashinaga qiziqani uchun uni buzishi va yana qayta tamirlashi jarayoni faoliyatga yo‘nalganlik moyillik deb sharxlash mumkin. Demak layoqatni undovchi motiv vazifasini o‘taydi. Aynan qobiliyat layoqat yuzaga keltirishini psixologlar ta‘kidlab kelishgan. Hunarmand usta shogirdlarini faoliyatini kuzatishi asnosida layoqatligini tanlab oladi. Usta tanlov jarayonida shogirdlikka da‘vogarlarni faoliyati orqali kasb-hunarga bo‘lgan layoqati, qiziqishi, iqtidori va qobiliyatiga baho beradi.

Maktab psixologi iqtidorli bolalarni imkoniyatini aniqlash uchun asosan psixologiyada keng qo‘llanib kelinayotgan kuzatish va suhbat usularidan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Har ikkala usulni amalda qo‘llash jarayonida aniq maqsadni belgilab olib, bolaning ruhiy xolatiga ta‘sir etmagan xolda kasb etikasiga amal qilishi lozim bo‘ladi. Buning uchun yashirin kuzatish usulidan shunday foydalanish lozimki bola kuzatilayotganini sezmasligi lozim. Suhbat usuli dialogni yo‘nalishini qo‘llash jarayonida psixolog imkon darajasida biror bolaga urg‘u berayotganini namoyon etmasligi shart. Kuzatish va suhbat usulidan olingan natija va xulosalarni o‘quvchiga ko‘pchilik oldida bayon qilishi bu psixologni kasbiy etikasiga zid xisoblanadi.

Maktab psixologi iqtidorli o‘quvchilar bilan alohida suhbatlashish jarayonida avvalom bor bolani qiziqishi qaydarajada ekanligini aniqlab so‘ng iqtidori darajasida kasbni moxiyati asosida, suhbatni tashkil etishida, kasbiy etika va etketini unitmaslik lozim.

Iqtidorli o‘quvchilarni ota-onalari bilan ishlash jarayonida psixolog, eng avvalo ota-ona haqida to‘liq ma‘lumot to‘plab olgan bo‘lishi kerak. Iqtidorli o‘quvchi xaqida ma‘lumot berish va u haqida suhbatlashishdan oldin olib borgan kuzatishi va suhbat natijasi bilan tanishtirishi hamda to‘plagan ma‘lumotini ilmiy asosda bayon qilishi asnosida o‘quvchini layoqati, qiziqishi hamda kelajakda namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan iqtidori va qobiliyati haqida batafsil to‘xtalishi mumkin.

Maktab psixologi o‘quvchining aqliy darajasini shakllanganligini baholashda turli aniq testlardan yoki muammoli keyslardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Psixologni kasbiy etikasining asosini tinglay bilish san‘ati tashkil etishi hech kimga sir emas. Shuning uchun ham iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlayotgan psixologni tinglash sa‘atini mukammal egallagan bo‘lishi kerak. Komil insonni tadqiq qilish borasida turli ishlar amalga oshirilgan. Bu boradagi tadqiqotlarni amalga oshirishda psixologlar foydalanadigan metodika yoki testlar yetarli darajada ko‘p emas. Professor E.G‘oziev tomonida ishlab chiqilgan komillikni baholash testi tadqiqotimiz uchun asosiy metodika sifatida tanlab olindi. Ushbu metodikaning tavsifi quyidagicha: Bu metodika o‘ziga xos murakkab tuzilishlarga ega bo‘lib, shaxsning individual xususiyatlari serqirraligini chuqurroq yechish uchun yordam beradi. Ushbu test 1995 yildan beri amaliyotga tatbiq etib kelinadi, huddi shu boisdan uning ishonchliligi, validligi va reprezentativligiga hech qanday shak-shubha yo‘q. Test mohiyatidan joy olgan har bir vaziyat “Kuchsiz”, “O‘rtacha”, “Kuchli”, “O‘ta kuchli” shkalalarga asoslanib javob berishga mo‘ljallangan. Berilgan tartibdagi vaziyat “1”, “2”, “3”, “4” ballar bilan baholanadi hamda “3”, “4”, “5”, “6” grafalar bilan belgilanadi. Bir davrning o‘zida ikkita vaziyatni belgilash qat‘iyan man etiladi va varaqa buzilgan deb tan olinadi. Empirik izlanishlarda Shayxontohur tumani 132-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabining 11-sinfida tahsil oluvchi 50 nafar o‘quvchilar qamrab olindi. quyida tadqiqot natijalari xususida so‘z boradi.

“Shaxsning umumiy xususiyatlari” tahlil qilinganda bu shkalalarda shaxsning mustaqillikka bo‘lgan intilishi yuqoriligi 92% hamda o‘zini o‘zi boshqarishga bo‘lgan intilishi yuqoriligi 92% natijalar asosida ko‘rinib turibdi. Bundan tashqari muloqotmandlik 84%, tashabbuskorlik 85%, harakatchanlik 83% kabi xususiyatlar keyingi bosqichda namoyon bo‘lganligi diagrammalarda o‘z aksini topgan. Keyingi bosqichlarda qat‘iyatlilik va qulaylikka intiluvchanlik diagrammada o‘rtacha ko‘rsatkichlar 80% bilan o‘z aksini topgan. Bundan tashqari sinchkovlik xususiyati boshqa ko‘rsatkichlarga nisbatan pastroq 75%

natijani qayd etib o'tganligini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan natijalar bir-biriga juda yaqin. Umumiy olganda "shaxsni umumiy xususiyatlar"i bo'yicha barcha ko'rsatkichlar o'rtacha 82% qayd etmoqda.

"Ijtimoiy ta'sir etuvchanlik" xususiyatlari tahlil qilinganda bu shkalalarda milliy g'oya va milliy mafkuraga sadoqatlilik (85%) natijalar asosida ko'rinib turibdi. Bundan tashqari fikr almashishda nutqiy qobiliyatlilik (85%) va ishda, o'qishda muvaffaqiyatga erishuvda o'ziga o'zi ishonch uyg'otuvchanlik holatlarini tez ilg'ashga qobillik (80%) kabi xususiyatlar yaxshi ko'rsatkichni qayd etganligi diagrammalarda o'z aksini topgan. Umumiy olganda "ijtimoiy ta'sir etuvchanlik" bo'yicha o'rtacha 79% ko'rsatkichni qayd etmoqda. Bu ko'rsatkich yuqoridagi shkalalarga qaraganda biroz pastroq ekanligi namoyon bo'ldi.

Ushbu izlanish ishlari orqali hozirgi zamon yoshlarida barkamollik darajasini aniqlash maqsad qilib qo'yilgan. Taqdim etilgan natijalar asosida yoshlarda komillikka intiluvchanlikni belgilab beruvchi xususiyatlarni shakllanganligi o'rta darajda deb baholash mumkin.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, barkamol avlodni tarbiyalashning yangi ilg'or usullarini joriy etish maqsadida, endilikda har bir viloyatda Prezident maktablari ochilishi rejalashtirilmoqda. Bunga ham maxsus tuzilgan komissiya tarkibi tomonidan layoqati, zehni o'tkir, tafakkuri va qiziqishi yuqori bolalar tanlov asosida qabul qilinadi. Zamonning shiddat bilan rivojlanib borishida bugungi kun yoshlarini komillik sari yo'naltirishda va jahon hamjamiyatiga namoyish qilishda har bir yurt farzandi ma'suldir. Shundagina O'zbekiston davlatining istiqboli hamda jahondagi ob'ro' e'tibori kundan kun ortib boraveradi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. "Ўзбекистон".Т. 2016.-59 б.

. Фитрат. Оила.-Т.: "Маънавият", 1998.-168 б.

Э.Ф.Ғозиев "Онтогенез психологияси" Тошкент 2000 й;242 б.

Б.Р.Қодиров "Қобилиятлар силсиласи" илмий мақола 4б.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA ELEMENTAR MATEMATIK TUSHUNCHALARNI O'RGATISHDA GEOMETRIK KO'RGAZMALILIKNING O'RNI

*Tursunov Qo'chqor,
Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi, fizika-matematika fanlari
nomzodi, dotsent*

*Sadinova Zarina Sirojiddin qizi
Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali,
boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Kichik maktab yoshidagi bolalarda matematik tushunchalar haqidagi tasavvurlarini mazmunan kengaytirishda ko'rgazmalikning ahamiyati juda katta. Agar ta'lim oluvchi u xoh kichik yoshdagi o'quvchi bo'lsin, xoh katta yoshdagi talaba bo'lsin ularning bari birdek o'rganilayotgan matematik tushuncha ularning kundalik amalik hayotlaridan olingan bo'lib, ularni o'rganishga bilishga o'rganuvchida zarurat tug'ilsagina uni o'zlashtirib olishga harakat qiladilar. Bu qaralayotgan ilmiy-uslubiy maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarga matematik tushunchalar haqida ma'lumotlar berishda geometrik ko'rgazmalilikning o'rni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: son, natural son, butun son, tartib son, sanoq son, sonlar o'qi, nuqta, kesma, to'plam, sonli to'plam, ko'rgazmalilik, figura, geometrik figura.

РОЛЬ ГЕОМЕТРИЧЕСКОЙ НАЗИМНОСТИ В ПРЕПОДАВАНИИ ЭЛЕМЕНТАРНЫХ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ПОНЯТИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ ШКОЛЬНИКОВ

*Турсунов Кочкор,
Преподаватель Каттакорганского филиала Самаркандского государственного
университета,
кандидат физико-математических наук, доцент.*

*Садинова Зарины Сироджиддин кизи.
Каттакорганский филиал Самаркандского государственного университета, учащийся 1
ступени начального образования*

Аннотация: Демонстрация имеет большое значение для расширения представления математических представлений у детей младшего школьного возраста. Независимо от того, является ли учащийся младшим или старшим учеником, одни и те же математические понятия изучаются в повседневной практической жизни, и учащийся должен знать, как их изучать. Только тогда он попытается освоить их. В данной научно-методической статье рассматривается роль геометрической визуализации в предоставлении информации о математических понятиях детям младшего школьного возраста.

Ключевые слова: число, натуральное число, целое число, порядковое число, счетное число, ось чисел, точка, сечение, множество, множество чисел, доказуемость, фигура, геометрическая фигура.

THE ROLE OF GEOMETRIC VISIBILITY IN TEACHING ELEMENTARY MATHEMATICAL CONCEPTS TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS

*Tursunov Kochkor,
Teacher of the Kattakorgan branch of Samarkand State University, candidate of physics and
mathematics, associate professor.*

*Sadinova Zarina Sirojiddin kizi
Kattakorgan branch of Samarkand State University,
student of the 1-st stage of primary education*

Abstract: Demonstration is very important in expanding the imagination of mathematical concepts

in children of primary school age. Whether the learner is a junior student or a senior student, the same mathematical concepts are learned from their daily practical lives, and the learner needs to know how to learn them. Only then will they try to master it. This scientific-methodical article discusses the role of geometric visualization in providing information about mathematical concepts to children of junior school age.

Key words: number, natural number, integer, ordinal number, countable number, axis of numbers, point, section, set, set of numbers, demonstrability, figure, geometric figure.

Kirish. Ma'lumki, matematika fani ham boshqa barcha (u xoh tabiiy, xoh gumanitar) fanlar kabi o'zining asosiy tushunchalariga egadir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga o'rgatiladigan matematik tushunchalar bu tushunchalarning tarixan paydo bo'lishi, uning tarixan paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari ketma-ketligida o'rgatiladi. Birinchi bo'lib arifmetika fanidan natural son, musbat butun son, toq va juft son, tub va murakkab son, haqiqiy sonlar va ularning xossalari haqida algebra fanidan esa ifoda, harfiy ifoda, o'zgaruvchili ifoda, tenglik, tenglama, tengsizlik, birhad, ko'phadlar haqida, geometriya fanida esa nuqta, chiziq, to'g'ri chiziq, kesma, sonlar o'qi, koordinatalar sistemasi haqida ma'lumotlar berish rejalashtirilgan.

Hozirgi zamonaviy o'qitish metodlaridan biri integratsiyalashgan(fanlar aro aloqadorlikda) o'qitish metodidir.

Integratsiyalashgan ta'lim deb- kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning bilish darajasidan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, matematik materialning mohiyatidan kelib chiqib uni boshqa tabiiy (hatto gumanitar) fan materiallarining matematika faniga aloqadorligidan kelib chiqib, bu materialni bitta darsda o'quvchilarga tushuntirish metodikasiga aytiladi. Masalan, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga miqdorlar haqida ma'lumotlar berish rejalashtirilgan. Shunday miqdorlardan biri vaqt o'lchov birliklaridir.

Adabiyotlar tahlili. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga vaqt o'lchov birliklari, uning xossalari va kishilar hayotidagi o'rni haqida ma'lumotlar berishdan oldin vaqt o'lchov birliklari nima, u qanday asosga asosan olinganligini aniqlab boruvchi tabiiy fanidan olingan "Quyosh sistemasidagi planetalar va ularning harakatlari" mavzusi haqida tushuncha berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Vaqt o'lchov birliklaridan sutka(kun+tun), oy va yil tushunchalari Quyosh sistemasidagi planetalarning harakatlaridan olingan.

Sutka- Yer planetasining o'z o'qi atrofida bir marta to'liq aylanishi uchun ketgan vaqt (24-soat);

Oy- Oy planetasining Yer planetasini to'liq bir marta aylanib chiqishi uchun ketgan vaqt (o'rtacha 30 kun);

Yil- Yer planetasining Quyosh planetasini to'liq bir marta aylanib chiqishi uchun ketgan vaqt(365 yoki 366 kun);

Yil fasllarini ham Yer planetasining Quyosh planetasi atrofini aylanib chiqishidagi Quyoshga yaqinlashish yoki biroz uzoqlashish masofalaridan hosil bo'ladigan vaqt o'lchov birliklari (quyoshga yaqinlashgan issiq (iyun, iyul, avgust oylari), quyoshdan uzoqlashganda sovuq qish fasli (dekabr, yanvar, fevral), uzoqlashish va yaqinlashish davomida bahor va kuz fasllari (mart, aprel, may-bahor, avgust, sentabr, oktabr- kuz) hosil bo'ladi.

Xuddi shuningdek matematik materiallarning mohiyati va mazmunidan kelib chiqib uni boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan boshqa fan materiallari bilan bog'lash zarurati bor va o'qituvchi bu zaruratni bajarish uchun hamisha imkoniyat topadi. Chunki boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan ko'p fanlarni bitta boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'tadi. Masalan: Boshlang'ich ta'lim matematika darslarida o'rgatiladigan geometrik materiallarni texnologiya fani materiallari bilan uzviy bog'liqlikda o'rganish orqali o'qituvchi matematika va texnologiya fanlari materiallari o'quvchilarning kundalik hayotlari bilan bog'lash imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

Agar matematika va texnologiya fanlari o'quv materiallari mavzularini bir vaqtda birgalikda ko'zdan kechirsak bunday mavzularning juda ko'pligiga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

O'zbek tili fani agar gaplarning ma'no va mazmuniga ko'ra (darak, so'roq va undov), tuzilishiga ko'ra (sodda va murakkab) xillarini o'rgansa matematika o'zbek tilidagi sodda gaplarning rost yoki yolg'onligi, murakkab gaplar sodda gaplardan qanday bog'lovchilar orqali hosil bo'lganligini o'rganadi. Bundan ko'rinadiki O'zbek tili va matematika fanlari materiallarini o'rganishda integratsiyalashgan ta'limdan foydalanish zarurati tug'iladi va uni amalga oshirishda o'qituvchida to'liq imkoniyat mavjud

bo'ladi.

Tadqiqotlar metodologiyasi. Davlat ta'lim standartida ko'rsatib o'tilganidek, boshlang'ich matematika dasturi materiallari uchta mustaqil matematika fanlari (arifmetika, algebra va geometriya) materiallarining eng sodda tushunchalardan tarkib topgan. Bu uchta fan materiallarini o'rganishda integratsiyalashgan ta'limdan foydalanish orqali ta'limda birinchidan matematika o'qitishni kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning kundalik amaliy hayotlari bilan bog'lash orqali ularning fanni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari ortsa, ikkinchidan integratsiyalashayotgan fan tushunchalarining tub matematik mohiyatini tushunib olishlari natijasida ularning matematik savodxonligi oshadi va matematik lug'at boyligi ko'payadi.


Hozir biz maqolamizda bu uchta fan materiallarini ayrim tanlab olingan mavzular bo'yicha qanday qilib integratsiyalashgan ta'limni amalga oshirish mumkinligini qarab chiqamiz.

Ma'lumki, boshlang'ich ta'limning birinchi sinf o'quvchilariga natural sonlarni og'zaki va yozma nomerlash mavzusi o'rgatiladi. Bu mavzuni o'rgatishda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning bilim darajalaridan kelib chiqib, ko'rgazmali qurol sifatida to'g'ri chiziqda berilgan koordinatalar sistemasidan foydalanish yaxshi natija beradi. Bu sistemadan foydalanib natural sonlarni og'zaki va yozma nomerlashda, ular ustida arifmetik amallar va ularning xossalari o'rganishda ko'rgazmalilikni amalga oshirish mumkin.

Tahlil va natijalar. Hozir biz sonlar o'qi va uning yasalishi haqida biroz so'z yuritimiz.


Tekislikda gorizantal holatda berilgan biror to'g'ri chiziqni olib, bu to'g'ri chiziqning ixtiyoriy O nuqtasini belgilab olamiz.

1-rasm;



Bu to'g'ri chiziqni har ikkala chap va o'ng tomonlariga cheksiz davom ettirish mumkunligini bildirish uchun bu tomonlarga strelka quyib, cheksizlik (∞) belgisini quyamiz. Keyingi ishimiz birorta birlik AB kesmani olib, uni O (nol) nuqtasidan boshlab o'ng tomonga ketma-ket quyib chiqamiz.

2-rasm;



Hosil bo'lgan kesmalarining uchlariga natural sonlarni o'sib borish tartibida (chapdan o'ngga qarab) yozib chiqamiz. Bu jarayonni cheksiz davom ettirish mumkin, chunki berilgan to'g'ri chiziqdagi bunday kesmalar soni ham ularning uchlariga quyilgan nuqtalar soni ham cheksiz ko'pdir.

Bunday kattaliklar bilan berilgan to'g'ri chiziqqa natural sonlar o'qi deyiladi. Natural sonlar o'qiga misol qilib, biz matematika darslarida doimiy ravishda ishlatadigan oddiy chizg'ich misol bo'loladi.


Boshlang'ich ta'limda arifmetik amallar qat'iy ketma-ketlikda o'rganiladi. Agar amalda qo'shish amali birinchi bo'lib o'rganiladi, uning to'g'ri bajarilganligini tekshirish uchun unga teskari amal bo'lgan ayirish amali ikkinchi bo'lib o'rgatiladi. Uchinchi bo'lib ko'paytirish amali qo'shish amalining xususiy (qo'shiluvchilar o'zaro teng berilganda qo'shish amali o'rniga ko'paytirish amalidan foydalaniladi) holi sifatida o'rganilsa, bo'lish amali esa ko'paytirish amalining najasini tekshirish uchun unga teskari bo'lgan bo'lish amali o'rganiladi.

Ayirish amali o'rganilganda uning ta'rifidan ko'rinadiki, ayirish amali natijasi manfiy son ham bo'lishi

ham mumkin. Bunday holatda natural sonlar o'qini barcha butun sonlar o'qigacha to'ldirish zarurati paydo bo'ladi. Buning uchun 2-rasmda berilgan natural sonlar to'plamidagi har bir soni manfiy ishorasi bilan 0 (nol) – nuqtadan chap tomonga kamayib borish tartibida yozib chiqamiz, najjada quyidagi 3-rasmdagi to'g'ri chiziq hosil bo'ladi.

3-rasm;

A B




-11 -10 -9 -8 -7 -6 -5 -4 -3 -2 -1 0 1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11

Bu hosil bo'lgan to'g'ri chiziq berilgan kattaliklari bilan sonlar o'qi deyiladi. Boshlang'ich ta'limning ikkinchi sinfida ko'paytirish bo'lish amallari o'rganilganda kasr sonlarni o'rganishga ham ehtiyoj seziladi. Bu hosil bo'lgan rasm-3 chizmasida barcha haqiqiy sonlarni tasvirlash imkoniyati mavjuddir.

Biz bilamizki, birinchi sinf o'quvchilari matematika fanini o'rganishni "O'nlik" qonuniyatlarida o'quv materiallarini o'rganishdan boshlanadi.

Birinchi o'nlik (0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9) sonlarini o'rganishda avvalo bu sonlarni og'zaki nomerlash ya'niy uning o'qilishiga so'ngra shu songa mos keluvchi (belgi, son, raqamning qo'llashni o'rganishda, bu sonlarni o'zaro taqqoslashda (teng, katta, kichik) ular ustida arifmetik amallardan qo'shish va ayirish amallari bajarishda, bu amallarning xossalarini o'rganishda yuqorida aytgan sonlar o'qidan foydalanish mumkin. Masalan quyidagi misollarni qarab chiqaylik:

3+6 yig'indini sonlar o'qi yordamida topish talab etilgan bo'lsin: Bu vazifani bajarish uchun sonlar o'qini yasab olamiz:




3 sonini sonlar o'qida tasvirlab olamiz. 3 soniga 6 sonini qo'shish uchun Piano aksiomasidan foydalanib, 3 soniga oltita birni ketma-ket qo'shib chiqamiz.

$$3+1=4 ; 4+1=5; 5+1=6; 6+1=7; 7+1=8; 8+1=9;$$

Natijasida yig'indi 9 soni ekan. Chizmada esa, 3 sonidan keyin keladigan sonlarni ketma-ket olti marta o'qib chiqmiz, natijada 6 soni hosil bo'ladi.

Qo'shish amalining to'g'ri bajarilganligini tekshirish uchun ayirish amalining ta'rifidan foydalanamiz.

9-3=6 yoki 9-6=3 tengliklardan biri bajarilishi kerak. Masalan, $9 - 6 = 3$ bajarilsa qo'shish amali to'g'ri bajarilgan hisoblanadi.




9 sonini sonlar o'qidagi tasvirini topib olamiz. 9-6 ayirmani toppish uchun 9 o'ngdan chapga (Piano aksiomasiga asosan) ketma-ket 1 sonini 6 marta ayirib, oxiri 3 sonini hosil qilamiz. Natijada qo'shish amali to'g'ri bajarilgan ekan.

$$3 + 6 = 9;$$


Arifmetik amallarning xossalarini o'rganishda ham sonlar o'qidan foydalanish mumkin. Masalan, $4+5=5+4$ tenglikning o'rnli ekanligini sonlar o'qida keltirib chiqaramiz.

Bu tenglikning chap va o'ng tomonlarini sonlar o'qida alohida-alohida tasvirlab chiqamiz.

a) Chap tomoni $4+5=9$



b) O'ng tomoni $5 + 4 = 9$



$4+5$ va $5+4$ yig'indilar ham yuqoridagi qo'shish qoidasidan foydalanib qo'shiladi va yakuniy xulosa esa

$$m+n=n+m$$

ko'rinishida yoziladi.

Xuddi shuningdek, qo'shish amalining gruppalash xossasining isbotini ham sonlar o'qi yordamida berishimiz mumkin ya'ni, $a+(b+c) = (a+b)+c = b+(a+c)$.

$$(a+b)-c; 1^\circ a>c (a-c)+b$$

$$2^\circ b>c (a-b)+c$$

$$3^\circ a<c; b<c; a+b>c; (a+b)-c$$

$$c-(a+b); 1^\circ (a+b)>c; a<c$$

$$b<c$$

$$a(b+c) = ab+ac$$

Bizga arifmetik amallarning asosiy xossalaridan biri bo'lgan yig'indidan sonni ayirish $((a+b)-c)$ va sondan yig'indini ayirish $(a-(b+c))$ xossalarini sonlar o'qida tasvirlashni qarab chiqamiz.


Hozir biz kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning bilim darajalaridan kelib chiqib yig'indidan sonni ayirish xossasining geometrik ko'rinishini keltiramiz.

Bu xossaning mazmun-mohiyatini o'quvchilar yaxshi anglab olishlari uchun uni haqiqiy sonlar misolida ko'rib chiqamiz. Masalan:

$(8+6)-7$; berilgan bo'lsin. Bu yerda yuqorida ko'rib chiqqan xossalardan birini hosil qilishimiz mumkin. Ya'ni qo'shiluvchilardan birortasi ayiriluvchilardan katta bo'lsin. Hozir bu ifodaning son qiymati quyidagi tartibda bajariladi:


$$1^\circ (8+6)-7 = (\text{quyidagicha gruppalaymiz}) = (8-7)+6 = 1+6=7$$

Buning geometrik tasvirini ko'rib chiqamiz:



2°(5+6) – 7 bu yerda $5 < 7$ va $6 < 7$ lekin $5+6 > 7$ bo'lganligi uchun (5+ 6) -7 bo'lganligi uchun (5+6) -7 ayirma nomanfiy sonlar to'plamida mavjud, shuning uchun bu ayirma va u quyidagicha hisoblanadi.

$$(5+6) - 7 = 11-7 = 4;$$



Ko'paytirish va bo'lish amallarini o'rganganda ham ularning xossalarini ham sonlar o'qidagi tasvirini berish mumkin.

Boshlang'ich fanlarning barchasida tekislikdagi hamda nuqta, to'g'ri chiziq, to'g'ri chiziqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, geometrik figuralar haqida ham ma'lumotlar berish talab etiladi. Bu aytilgan geometrik tushunchalarning har birini tekislikdagi koordinatalar sistemasida tasvirlash mumkin bo'ladi.

Xulosa. Qisqa qilib aytganda, tushuncha xoh algebraik bo'lsin, xoh arifmetik, bu tushunchalar Dekart koordinatalar sistemasida tasvirlansa bu kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning qiziqishlarini oshiradi. Natijada matematika darslarining sifatli bo'lishini kafolatlaydi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

E.E. Jumayev, Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi (o'quv qo'llanma). "Turon – iqbol" nashriyoti 2010.

M. Jumayev va boshqalar. Matematika o'qitish metodikasi – Toshkent. "O'qituvchi", 1991.

N. U. Bikbasva va boshqalar. Matematika darslari. Toshkent. "O'qituvchi", 2008.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, IV qismi. I.V. Repyova – Toshkent: "Novda Edutainmet". 2023. - 92 b.

BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA TA'LIMIMY VA TARBIYAVIY VAZIFALARNI INTEGRATSIYALASHGAN HOLDA O'RGANISH

*Tursunov Qo'chqor,
Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent.*

*Umirzoqova Mashhura Baxodir qizi,
Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali, boshlang'ich ta'lim yo'nalish 2-bosqich talabasi*

*Bakiyeva Qirmizxon Otabek qizi,
Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali, boshlang'ich ta'lim yo'nalish 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Yangi O'zbekistonning yosh avlodiga zamonaviy o'qitish metodlaridan foydalanib ta'lim-tarbiya berishni zamonning o'zi biz o'qituvchilar oldiga zaruriy vazifa qilib qo'yimoqda. Davlatimiz olib borayotgan bu sohadagi tizimli islohotlarga qaramasdan, yoshlar tarbiyasida ba'zi-bir kamchiliklarning bo'lishi achinarli holatdir. Biz bu maqolamizda boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematika darslarida ta'limning didaktik maqsadlariga bo'ysundirilgan tarbiyaviy vazifalarni ham amalga oshirish imkoniyati borligini ko'rsatish orqali matematika darslarining ham ta'lim va ham tarbiyaviy sifatini masalalar yechish davomida oshirish mumkinligini asoslashga harakat qilamiz.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, metod, dars, integratsiyalashgan ta'lim, maqsad, vazifa, masala.

ОБУЧЕНИЕ С ИНТЕГРАЦИЕЙ УЧЕБНЫХ И УЧЕБНЫХ ЗАДАЧ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ

*Турсунов Кучкор,
Преподаватель Каттакорганского филиала Самаркандского государственного университета, кандидат физико-математических наук, доцент.*

*Умирзакова Маишхура Баходир кизи,
Каттакурганский филиал Самаркандского государственного университета, студентка 2 ступени начального образования*

*Бакиева Кирмизхан Отабек кизи,
Каттакурганский филиал Самаркандского государственного университета, студентка 2 ступени начального образования*

Аннотация.: Само время ставит перед нами, учителями, необходимую задачу – воспитать молодое поколение нового Узбекистана, используя современные методы обучения.

Несмотря на системные реформы в этой сфере, проводимые нашим государством, жаль, что имеются некоторые недостатки в воспитании молодежи.

В данной статье мы попытаемся обосновать возможность повышения учебно-воспитательного качества уроков математики, показав, что учителя начальной школы могут выполнять учебные задачи, подчиненные дидактическим целям обучения на уроках математики.

Ключевые слова: образование, обучение, метод, урок, интегрированное образование, цель, задача, проблема

LEARNING WITH INTEGRATION OF EDUCATIONAL AND EDUCATIONAL TASKS IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS LESSONS

Tursunov Kochkor,

Teacher of the Kattakorgan branch of Samarkand State University, candidate of physics and mathematics, associate professor

Umirzakova Mashkhura Bakhodir qizi,

*Kattakurgan branch of Samarkand State University,
student of the 2nd stage of primary education*

Bakiyeva Kirmizkhan Otabek qizi,

*Kattakurgan branch of Samarkand State University,
student of the 2nd stage of primary education*

Annotation. Time itself sets before us, teachers, the necessary task - to educate the young generation of the new Uzbekistan, using modern teaching methods. Despite the systemic reforms in this area carried out by our state, it is unfortunate that there are some shortcomings in the education of young people. In this article we will try to substantiate the possibility of increasing the educational quality of mathematics lessons by showing that primary school teachers can perform educational tasks that are subordinated to the didactic goals of teaching in mathematics lessons.

Key words: education, training, method, lesson, integrated education, goal, task, issue

Kirish. Yoshlar, ayniqsa kichik maktab yoshidagi o'quvchilar hamma sohada ustozdan o'rnak olishga, har tomonlama unga o'xshashga harakat qiladilar. Bu esa ustoz murabbiydan o'ziga o'ta talabchan bo'lib yoshlar tarbiyasidagi o'lchov birligiga etalon bo'lishiga harakat qilishi kerak bo'ladi. Shuning uchun ham xalqimizda "Avvalo tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak" deb bekorga aytilmaganligini pedagog-o'qituvchilar hech qachon esdan chiqarmasligimiz va bu aytilganda doimo amal qilishimiz lozim.

Jadidchi mutafakkir bobomiz Abdulla Avloniy ta'limning kishilar hayotidagi ahamiyatini kamsitmagan holda "Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" deb aytish bilan birga faqat yoshlarni, balki butun ommani jonajon Vatanimizga va xalqimizga butun umri davomida halol va toza xizmatda bo'lishga chaqirgan.

Adabiyotlar tahlili. Bolalar dastlabki tarbiyani oilada ota-onasidan va oilasi atrofidagi yaqin kishilardan oladi. Keyingi tarbiyani bolalar ta'lim-tarbiyaning birinchi bo'g'ini bo'lgan MTT dan va so'ngra majburiy ta'limning birinchi bosqichi bo'lgan "Boshlang'ich ta'limda" oladilar.

Ta'lim – tarbiyaning bu uch bosqichi bolaning barkamol avlod bo'lib yetishishida katta ahamiyatga ega.

Ba'zi ota-onalar o'z bolalarining ta'lim-tarbiyasiga juda kam e'tiborda bo'lib, hamma javobgarlikni "Oyliyini olmoqda-ku o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasiga ham to'liq o'qituvchi javob bersin" degan safsatada bo'lishadi. Vaholanki, bola ta'lim-tarbiyada erishgan muvaffaqiyatlardan birinchi navbatda ota-ona manfaatdor bo'lishad-ku. Ustozlar esa faqat "Ta'lim-tarbiya bergan ustozingga rahmat" degan rag'batlantiruvchi so'z bilan kifoyalanib qoladilar.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining ta'lim - tarbiyadagi mas'uliyati va vazifalarini pasaytirmagan holda ota-onaning bu boradagi javobgarligini onun bilan mustahkamlab qo'yish kerak deb o'ylaymiz.

Tez suratlar bilan rivojlanayotgan Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi o'zgarishlaridan kelib chiqib, ta'lim-tarbiyadagi ishlarimizni ham yangi zamonaviy ta'lim elementlaridan ko'proq foydalanish orqali yoshlarni barkamol avlod qilib tarbiyalashni zamonning o'zi biz pedagoglarning oldiga asosiy vazifa qilib qo'yimoqda.

Ma'lumki, kichik maktab yoshdagi o'quvchilar hali o'yinqaroq bo'lib, ular aniq fanlar

tushunchalarining tub mazmun-mohiyatini anglab olishga ancha qiynalishadi.

Ulug' matematik-metodik olimlarimiz aytganidek, "matematika shunchalik jiddiy fanki, uni o'rganishni osonlashtiruvchi juda kichik imkoniyati ham qo'ldan chiqarmaslik kerak".

Tadqiqot metodologiyasi. Matematika fanining bunday imkoniyatlaridan biri har bir tushunchani kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning kundalik amaliy hayotlarida uchraydigan ba'zi bir hodisalar va narsalar bilan bog'lash imkoniyati hamisha mavjuddir. Masalan, boshlang'ich sinf matematika darslarida berilgan har bir sonli yoki harfiy ifodalarning har biri biz insonlar oldida turgan biror soda yoki murakkab matematik muammoning yechimini topishga yordam beradigan formulalardir. Ustoz bu formulardan foydalanib bir vaqtda bitta matematika darsida ham ta'limiy ham tarbiyaviy vazifalarni hal qilish imkoniyatiga egadir. Biz ustozlar ba'zida "Ta'lim berib tarbiyalaymiz, tarbiyalab ta'lim beramiz" degan pedagogning oltin qoidasini esdan chiqarib qo'yamiz. Agar biz buni bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilari tilida aytadigan bo'lsak, o'qituvchi matematika darslarining didaktik tomonlariga salbiy ta'sir etmagan holda darsning tarbiyaviy maqsadlarini amalga oshirish mumkin yoki qoidaning ikkinchi yarmidan kelib chiqib har bir o'tkazilgan tarbiyaviy tadbirlarda yoki matematika darslarida rejalashtirilgan ta'limiy vazifalarni ham amalga oshirish imkoniyatini o'zimiz yaratishimiz mumkin.

Biz ushbu ilmiy - uslubiy maqolamizda matematika darsliklarida berilgan ba'zi bir matematik matnli masalalarni yechish davomida masala shartidan kelib chiqib biror tarbiyaviy maqsadni amalga oshirish mumkinligini isbotlashga harakat qilamiz. Shuning bilan birga matematika darslarida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning matematik savodxonligini oshirish maqsadida matematika darsligidagi masala sharti sonli yoki harfiy ifoda, tenglama, jadval, grafik ko'rinishida berilganda uni matematik masala ko'rinishida ifodalashda tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Matematika dars rejasida ko'rsatilgan didaktik vazifasini amalga oshirgandan so'ng, har boshlang'ich sinf o'qituvchisi matematik materialning yukidan, o'quvchilarning shu vaqtdagi holatidan va darsliukda berilgan matnli matematik masala mazmunidan kelib chiqib darsning tarbiyaviy maqsadini amalga oshirish imkoniyatini topishi mumkin.

Darsda tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishda asosiy e'tiborni quyidagi holatlarga qaratish kerak bo'ladi:

- a) darslikda berilgan matnning mazmuniga;
- b) masala qanday usulda (arifmetik yoki algebraik) yechilishiga;
- c) masala sharti matnli yoki matnsiz (formula, rasm, jadval, chizma-grafik va hakozi) ko'rinishida berilganligiga.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi matematika darslarida qo'shimcha tarbiyaviy maqsadlarini amalga oshirganda o'quvchilarda qo'shimcha zo'riqish hosil bo'lmasligi, balki darsda hosil bo'lgan zerikishni bartaraf etishga xizmat qilish kerak deb o'ylaymiz.

Boshlang'ich sinf matematika darsligidagi matnli matematik masalalarning mazmuniga e'tibor bersak, ularda yil fasllari e'tiborga olinmagan. (Ya'ni masala mazmunidagi holatlar dars o'tilgan kun qaysi fasldagiga e'tibor berilmagan). Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'ta qiziquvchanligini e'tiborga olib yilning birinchi choragida o'rganiladigan matnli matematik masalalarning mazmuni kuz faslida, ikkinchi chorgidagi masalalar qish faslida, uchinchi chorgidagi masalalar bahor va nihoyat to'rtinchi chorgidagi masalalar yoz faslida bajariladigan mavsumiy ishlar mazmunidankelib chiqib berilsa, yanada maqsadga muvofiq bo'ladi va bu narsa o'quvchilarning diqqati unga ancha uzoqdagi voqea va hodisalargako'chib qoladi. Bu esa dars sifatiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Boshlang'ich sinf matematika darslarida mazmunli matematik masalalar o'qituvchilarda ham o'qituvchilarda ham ahamiyati juda katta.

Birinchi sinf o'qituvchilari ta'limning birinchi kunlaridanoq masala tushunchasi bilan ish ko'rishlariga to'g'ri keladi. maktabga kelgan birinchi sinf o'quvchisining matematik bilim darajasini aniqlash maqsadida soda bir amalli matematik masaladan foydalanadilar. Masalan, Sen

kecha to'rtta fandan darslik olgan eding, budun esa ikkita fandan darslik olding. senda nechta fandan darslik bo'ldi?

Matematik masalalar o'quvchilarda tushunchalarning mazmun mohiyatini ongli o'zlashtirib olishga va ularning matematik savodxonligini o'stirishda va ularning matematik lug'at boyligini ko'paytirishda katta ahamiyatga egadir. Bundantashqari o'quvchilar matnli matematik masalalar yechish davomida ular o'zlarini o'rab turgan olam bilan ayqindan tanishadilar. Kundalik amaliy hayotlaridagi matematik muammolarni yechish orqali matematika fanining kishilar hayotida tutgan o'rnini chuqurroq anglab oladilar.

Ma'lumki, matematika fanida ham boshqa barcha fanlar kabi har bir darsning asosan uchta asosiy maqsadi mavjuddir. Bular ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlardir. Bu uchala maqsadlarni birday bir vaqtda muvafaqqiyatli amalga oshirishda matnli matematik masalalarning o'rnini kattadir.

Matematika fanining ta'limiy maqsadlarida matematika fan tushunchalarining mazmunini, asta – sekinlik bilan ularning kishilar hayotida o'rnini ko'rsatib beradi.

Tarbiyaviy maqsadiga esa matematika darslarida faqat dunyoviy bilimlarga, balki ular matematik materiallarning (asosan matnli matematik masalalar) mazmunidan kelib chiqib tarbiyaviy vazifalarni ham amalga oshirish imkoniyati ham mavjud bo'ladi.

Kichik maktab o'quvchilarining matematik matnli masalalar yechish davomida tafakkurlari ham bosqichma – bosqich rivojlanib boradi.

O'rnini kelganda matnli matematik masala haqida ham biroz tushuncha berib o'tsak.

Matematik matnli masala shunday savolki - bu savolning mazmunida ba'zi kattaliklarning son qiymatlari kiritilgan bo'lib bu kattaliklar bilan uzviy bog'liq bo'lgan boshqa kattaliklarning son qiymatlarini topish talab etiladi.

Bu ta'rifdan ko'rinadiki, matematik masala ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi bo'limda kattaliklarning qiymatlari berilgan bo'ladi. Masala savoliga javob topish jarayoni masala yechimini topish (axtarish) deyiladi. Masala yechimi topilgandan keyin yechim to'g'ri topilganligi tekshirish ham kerak bo'ladi. Chunki shunday masalalar ham bo'ladiki, ularning yechimini masala mazmuniga zid qilishi ham mumkin. Shuning uchun masala shartini va savol qismini yaxshilab tahlil qilib ular orasidagi mazmuniy bog'liqlikni to'g'ri qo'yilganligini ham tekshirish kerak bo'ladi.

Masala yechimini axtarishdan oldin quyidagi narsalarga e'tibor qaratish kerak bo'ladi:

- 1) Masala mazmuni qisqa, ravon, tushunarli bo'lishi kerak;
- 2) Masala mazmunidagi sonli kattaliklar bilan savoldagi topishi kerak bo'lgan kattaliklar orasida mantiqiy bog'liqlik bo'lishi kerak;
- 3) Masala yechimini topish uchun qaysi usuldan (didaktik yoki algebraik) foydalanishni aniqlab olish;
- 4) Masala yechimini tekshirib ko'rish.

Odatda boshlang'ich ta'limda masalalar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi.

Agar masala yechimini topish uchun tuzilgan sonli ifoda bir arifmetik amalli bo'lsa bunday masalalarga sodda masalalar deyiladi.

Agar masala yechimini topish uchun tuzilgan sonli ifoda ikki yoki undan ko'proq arifmetik amallar qatnashgan bo'lsa, bunday masalalar murakkab masalalar deyiladi.

Matnli matematik masalalarni yechilish usullariga qarab ikkiga bo'lish mumkin:

a) Arifmetik masalalar. Bunday masalalarning yechimini topishda masala mazmunidan kelib chiqib sonli ifoda tuziladi va bu sonli ifoda masalada berilgan savolga javob bo'ladi.

Bunday matematik masalalar- asosan o'quvchilarning matematik bilim darjasidan kelib chiqib birinchi sinfda o'rganiladi.

b) Algebraik masalalar. Bunday masalalarning yechimini topishda masalada so'ralayotgan topshiriqlarning sonini aniqlash uchun tenglama tuzib yechiladi.

Boshlang'ich sinf matematikda darslarida berilgan har qanday masalalarni har ikki usulda

yechish imkoniyati mavjud.

O'qituvchi berilgan matematik matnli masalalarni qaysi usulda yechish kerakligini matematika darsining didaktik talabidan va o'quvchilarning matematik bilim darajasidan tanlamoqda.

Xulosa. Qisqacha qilib aytganda, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga matematika darslarida ta'limning uchta ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini birgalikda bir vaqtda o'rgatishda har bir o'qituvchi o'zining pedagogik salohiyati va mahoratidan kelib chiqib har bir matematika darsi uchun tarbiyaviy ishlarni o'zi mustaqil tanlaydi.

Har bir ish o'zining natijadorligi bilan baholanadi. Shuning uchun o'qituvchi asosiy e'tiborni darsning sifat ko'rsatkichiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlardan hech qachon foydalanmasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

E. E. Jumayev, Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi. (O'quv qo'llanma) "Turon-iqbol nashriyoti" 2010.

M. Jumayev va boshqalar. Matematika o'qitish metodikasi; Toshkent. "Ilm -ziyo" 2003.

D. M. Mirzaqulova. Didaktik, o'yinlar turlari va maqsadlari. "Toshkent talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy-uslubiy jurnali", Toshkent Nom-5, 2023.

Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, I-qism. I. V. Rpyova - Toshkent: "Novda" nashriyoti, 2023. - 128b.

Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2 - sinfi uchun darslik, III-qism. I. V. Rpyova - Toshkent: "Novda" nashriyoti, 2023. - 128b.

Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1 - sinfi uchun darslik, III-qism. I. V. Rpyova - Toshkent: "Novda" nashriyoti, 2023. - 128b.

Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3 - sinfi uchun darslik, III-qism. I. V. Rpyova - Toshkent: "Novda" nashriyoti, 2023. - 128b.

Каравка, А. А. Урок-квест как педагогическая информационная технология и дидактическая игра, направления на овладение определёнными компетенциями [Электронный ресурс] А. А. Каравка, Интернет-журнал "Мир науки"

Nilufar Urinova, Nodirxon Mo'minova. Boshlang'ich ta'limda o'quv-kvest texnologiyasidan foydalanishning nazariy asoslari.

A. Rahmatullayev, D. Yoqubova, O. Ergasheva "Boshlang'ich ta'lim tizimida integratsiyalashgan texnologiya" Termiz "Surxon-nashr" 2017 19-22b

ANATOMIYA FANINI O'QITISHNING ZAMONAVIY TALABLARI VA DOLZARB MUAMMOLAR

Ulug'bekova Gulruxan Jurayevna,
Andijon davlat tibbiyot instituti dotsenti, t.f.n.

Annotatsiya. Maqolada anatomiya ta'limining rivojlanayotgan manzarasi zamonaviy tibbiyot ta'limi kontekstida o'rganiladi. Asosiy e'tibor o'qituvchilar va o'quvchilar oldida turgan asosiy muammolarni aniqlash hamda zamonaviy tibbiyot amaliyoti talablarini qondirish uchun zarur bo'lgan yutuqlarni aniqlashga qaratilgan. Maqolada anatomiyaning o'qitishning an'anaviy usullari, masalan, dissektsiya va ma'ruza asosida o'qitish qanday to'ldirilayotgani va ba'zan innovatsion yondashuvlar bilan almashtirilayotgani muhokama qilinadi. Bularga raqamli vositalar, interaktiv 3D modellar va dinamik va immersiv o'rganish tajribasini taklif qiluvchi virtual haqiqat (VR) kiradi. Ushbu texnologiyalarga o'tish turli xil ta'lim uslublarini qondirish va murakkab anatomik tuzilmalarni tushunishni yaxshilashga qaratilgan.

Kalit so'zlar. Anatomiya, tibbiy ta'lim, innovatsion metod, raqamli manba, axloqiy va inklyuziv amaliyot, logistic masala.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОТРЕБНОСТИ И ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ АНАТОМИИ

Улугбекова Гулрухан Жураевна,
к.м.н., доцент Андиганского государственного медицинского института

Абстракт. В статье рассматривается развитие анатомического образования в контексте современного медицинского образования. Основное внимание уделяется выявлению основных проблем, стоящих перед преподавателями и студентами, и выявлению достижений, необходимых для удовлетворения требований современной медицинской практики. В статье рассматривается, как традиционные методы преподавания анатомии, такие как диссекция и лекционное обучение, дополняются, а иногда и заменяются инновационными подходами. К ним относятся цифровые инструменты, интерактивные 3D-модели и виртуальная реальность (VR), которые предлагают динамичный и захватывающий опыт обучения. Переход к этим технологиям направлен на удовлетворение различных стилей обучения и улучшение понимания сложных анатомических структур.

Ключевые слова. Анатомия, медицинское образование, инновационный метод, цифровой ресурс, этическая и инклюзивная практика, проблема логистики.

MODERN REQUIREMENTS AND PROBLEMS OF ANATOMY TEACHING

Ulugbekova Gulruhan Juraevna,
PhD., Associate Professor, Department of Andijan state medical institute

